



**O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOMSHUNOSLIK
AKADEMIYASI**



**O'ZBEKISTONDA SHHT
XALQ DIPLOMATIYASI
MARKAZI**

XALQARO MUNOSABATLAR KAFEDRASI

**YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING
SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR
JIHATLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari

TO'PLAMI

Toshkent – 2025

UO'K: 327 | 5-15+7

KBK: 66/4 | 5+7

Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami: Toshkent, 2025-yil 27-may / Mas'ul muharrir: PhD, dots. M.Nazirov. – T.: O'zXIA, 2025. – 360 b.

Mas'ul muharrir:

M. Nazirov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay'ati:

F. Karimov – siyosiy fanlar doktori, professor

B. Berdiyev – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh. Akmalov – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

N. Qalqanov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J. Akramov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

M. Xurramov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur to'plamga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug'i, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektorining 2025-yil 24-yanvardagi 01-18-son buyrug'iga binoan binoan O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida 2025-yil 27-may kuni "Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari" mavzusida o'tkazilgan an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari kiritilgan.

To'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy, o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 4-iyundagi 9-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamga kiritilgan materiallar mazmuniga mualliflar mas'uldirlar.

© O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, 2025.

MUQADDIMA

Xalqaro munosabatlarning tobora murakkablashib borishi sharoitida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish orqali umumiy taraqqiyot va farovonlikni ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshiqo'shnichilik muhitini yaratish yo'lida olib borayotgan siyosati, uzoq yillar davomida aka-uka, og'a-ini sifatida yashab kelayotgan qardosh va qondosh xalqlar o'rtasida hamkorlik jarayonlari tobora rivojlanmoqda. To'siqlar olib tashlanib, savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda, chegaraoldi hududlarda o'zaro bordi-keldi munosabatlari jadallashmoqda, mintaqada o'zaro do'stlik ruhidagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda kechayotgan mintaqaviy hamkorlik jarayonlari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 91-maqsadi: "Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish" doirasida belgilangan quyidagi ustuvor masalalarni ilmiy-amaliy muhokama qilish uchun extiyoj mavjud:

- Markaziy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish bo'yicha tashqi ishlar vazirlari doirasida doimiy muloqotlarni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi maslahatlashuv jarayonini jadallashtirish;
- Yetakchi xorijiy davlatlar ishtirokidagi "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi sammitlarda faol ishtirok etish, ularning yakuni bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.

Shu bois 2025-yilning 27-may kuni O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Xalqaro munosabatlar" kafedrası tomonidan O'zbekistonda SHHT Xalq diplomatiyasi markazi bilan hamkorlikda "Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatları" mavzusida an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Anjumanda Markaziy Osiyoga doir muammolar bilan shug'ullanadigan respublika va xorijlik olimlar, ekspertlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar, iqtidorli talabalar ishtirok etdi. Anjumanning yalpi majlisida xalqaro munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bugungi sharoitlarda Markaziy Osiyoda integratsiya va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va etno-lingvistik jihatlariga doir masalalar, shuningdek, xalqaro ilmiy

jamoatchilik diqqat markazida bo'lib qolayotgan masalalarning turli aspektlari va istiqboldagi ehtimoliy tendensiyalari muhokama qilindi.

Kichik guruhlarda davom etgan muhokamalarda konferensiya ishtirokchilari quyidagi sho'balarda fikr va mulohazalar almashdilar:

1. Markaziy Osiyoda mintaqaviylashuvning zamonaviy tendensiyalari: siyosiy-iqtisodiy aspektlar;
2. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar masalalari;
3. Markaziy Osiyoda zamonaviy davlatlarchilik rivojining ijtimoiy-tarixiy omillari;
4. Markaziy Osiyo davlatlarining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi: muammo va istiqbollar;
5. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari.

Mazkur anjumanda ham shaxsan, ham onlayn hozir bo'lgan olimlarning ilmiy ma'ruzalari va xabarlarida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalariga doir ham nazariy konsepsiyalarni chuqurlashtirish, ham amaliyotda kuzatilayotgan yangi tendensiyalarni ilmiy idrok etishga yordam beradigan g'oyalar va tahlillar o'z ifodasini topdi. Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyoda do'stlik, tenglik, hamkorlik, mavjud muammolarni birgalikda hal qilish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni, farovonlik va bunyodkorlikni ta'minlash borasida ilgari surilgan tashabbus va konseptual g'oyalar mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazilishiga xizmat qiladi.

"Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini" mavzusida o'tkazilgan an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamidagi materiallar mazmuni va ma'lumotlar aniqligiga mualliflar mas'uldir.

KIRISH SO‘ZI

Muzaffar Kamilov

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Siz azizlarni bugungi muhim ilmiy anjumanda ko‘rib turganimdan mamnunman. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi nomidan barchangizni samimiy qutlayman.

Bugungi kunda jadal o‘zgarayotgan global siyosiy muhitda har bir mintaqaning ichki birligi, o‘zaro anglashuvi va umumiy qadriyatlarga asoslangan integrasion sa’y-harakatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik tarixiy qo‘shnichilik, madaniy-ma’naviy yaqinlik va mushtarak qadriyatlar tizimi bebaho boylik hisoblanadi.

Birlashtirib turuvchi omillar – yagona diniy e’tiqod, qardosh tillar, mushtarak falsafiy va badiiy tafakkur tarzi, me’moriy va san’at maktablari, sportning turli sohalaridagi yaqinliklar – bularning barchasi mintaqaviy birdamlik uchun mustahkam zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilikni rivojlantirish belgilangan. Bu tanlov chuqur tarixiy ildizlarga va real geosiyosiy zarurlatlarga tayanadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi mumkin emas”.

Konferensiya ishida O‘zbekistonda SHHT Xalq diplomatiyasi markazi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Respublika Ma’rifat-ma’naviyat markazi, Muxtor Auyezov nomidagi Janubiy-Qozog‘iston davlat universiteti (Qozog‘iston), Akademik Bobojon G‘ofurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), Toktamatova nomidagi xalqaro universitet (Qirg‘iziston), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, Markaziy Osiyo xalqaro instituti va boshqa muassasalarning qariyb 30 nafar vakillari ishtirok etmoqda. An’anaviy tarzda tashkil etilayotgan Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya masalalariga bag‘ishlangan mazkur anjumanga akademik doiralarda ilmiy qiziqish barqaror ravishda yuqori. Buni konferensiya to‘plamiga kelib tushgan 100 dan ortiq maqola va tezis tasdiqlab turibdi.

Mintaqamizga xalqaro tizimning yangi birlashgan submintaqasi sifatida qaralayotgani bejiz emas. “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi muloqot ilk bor Yaponiya tashabbusi bilan boshlangan bo’lsa, bugunga kelib AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Hindiston va boshqa yetakchi davlatlarning tashqi siyosatida ham aks etmoqda. Shu qatorda, Ko’rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashining Markaziy Osiyoga bo’lgan siyosiy e’tibori ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Bugungi konferensiya aynan shu ezgu maqsadlarni ilgari surishda muhim maydon vazifasini o’taydi. Unda ishtirok etayotgan taniqli olimlar, tadqiqotchilar, ekspertlar va turli ilmiy markazlar vakillari o’z ilmiy qarashlari, tahlillari va g’oyalari bilan mintaqaviy hamkorlik va taraqqiyotga salmoqli hissa qo’shishiga ishonamiz.

O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o’z faoliyatida ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratadi. Akademiyamiz kafedralarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etishning eng samarali vositalaridan biri aynan mana shunday konferensiyalardir. Bu kabi anjumanlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Ishonchim komilki, bugungi ilmiy anjumanda tinglanadigan ma’ruzalar va fikr almashuvlar nafaqat konferensiya ishtirokchilari, balki keng ilmiy jamoatchilik uchun ham dolzarb va foydali bo’ladi.

Yana bir bor barchangizni ushbu anjuman bilan tabriklab, uning ishiga muvaffaqiyat tilayman!

E’tiboringiz uchun tashakkur!



TABRIK SO‘ZI

Qobiljon Sobirov

*O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti
Xalq diplomatiyasi markazi direktori*

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar, ilmiy va jamoat tashkilotlari vakillari!

Barchangizni “Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimdan behad mamnunman.

Har gal O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasiga tashrif buyurganimda, qalbimda o‘zgacha bir ruhiy yuksalish, ilm va ma‘rifatning betakror muhitini his qilaman. Bu dargoh haqiqiy ma’noda ilm, tafakkur va ma‘naviyat maskanidir.

Akademiya bilan o‘zaro samarali aloqalarimiz Markazimiz tashkil topgan ilk yillardanoq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, shu vaqtgacha qariyb 30dan ortiq loyiha hamkorlikda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bugungi anjuman ham mazkur sermazmun hamkorlikning mantiqiy davomi, uning yangi bosqichdagi ifodasidir. O‘z navbatida, Markaz tashabbuslarini doimiy qo‘llab-quvvatlab kelayotgani uchun rektor Muzaffar Murotovich va Akademiya jamoasiga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

Bugungi konferensiya – nafaqat ilmiy mulohazalar uchun minbar, balki do‘stona aloqalarni yanada mustahkamlash, mushtarak maqsadlar sari qadam tashlash, mintaqamiz kelajagini birgalikda barpo etishga qaratilgan muhim muloqot maydondir.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari o‘rtasida ishonchga asoslangan, ochiq va konstruktiv siyosiy muloqot, o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik, madaniyat va ta’lim sohalarida faol almashinuvlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, Markaziy Osiyo xalqlari o‘zaro yaqin tarixiy ildizlarga, umumiy qadriyat va manfaatlarga ega, va ayni shu mushtarak asos bizning integrasion sa’y-harakatlarimiz poydevoridir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo nafaqat geografik jihatdan, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy nuqtai nazardan ham global jarayonlarda muhim o‘rinni egallamoqda. Mintaqamiz SHHT doirasida strategik yadro sifatida ko‘rilayotgani ham bejiz emas. Mana shunday sharoitda xalq diplomatiyasining rolini kuchaytirish – dolzarb vazifalardan biridir.

Dastur bilan tanishar ekanman, anjumanda nafaqat O'zbekiston, balki mintaqa mamlakatlaridan nufuzli mutaxassislar, olimlar, tahlilchilar, jamoat arboblari ishtirok etayotganini ko'rib, juda mamnun bo'ldim. Bu – davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning nafaqat rasmiy, balki jamiyat va fuqarolar darajasida ham faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. Tom ma'noda, bugungi konferensiya - xalq diplomatiyasining yorqin namunasidir.

O'zbekistonda SHHT xalq diplomatiyasi markazi rahbari sifatida bugungi anjumanda aynan xalqlar o'rtasidagi muloqot, tarixiy, madaniy va ma'naviy yaqinlikni tiklashga doir masalalar ko'tarilayotganini ko'rib, ikki hissa mamnun bo'ldim.

Davlatlararo hamkorlikni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri – odamlar o'rtasida ishonchni shakllantirish, turli millat, din va sivilizatsiyalar vakillari o'rtasida muloqot muhitini yaratishdir. Buning eng samarali vositasi esa xalq diplomatiyasidir.

Shu nuqtai nazardan, markazimiz xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim va jamoatchilik faollari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida izchil faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, biz yoshlar o'rtasida xalq diplomatiyasi g'oyalarini targ'ib qilish, ularni madaniy muloqot va fuqarolik tashabbuslari orqali xalqaro jarayonlarga faol jalb etishga ham katta e'tibor qaratmoqdamiz. Chunki ertangi tinch, barqaror va hamjihat jamiyatni bugungi bilimli, faol va mas'uliyatli avlod barpo etadi.

Hurmatli ishtirokchilar,

Fursatdan foydalanib shuni alohida ta'kidlashni istar edimki, biz xalq diplomatiyasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan har qanday tashabbusni – u qaysi davlat yoki tashkilotdan kelmasin – katta hurmat va qiziqish bilan qabul qilamiz. Xalqlar o'rtasidagi ishonch va do'stlikni mustahkamlash yo'lida harakat qilayotgan har bir faol, har bir tashabbuskor uchun eshiklarimiz hamisha ochiq. Siz xalq diplomatiyasi yo'lida bir qadam tashlasangiz, biz siz tomon ikki qadam tashlashga tayyormiz! Chunki biz ishonamiz, do'stlik aloqalari, tinchlik va totuvlikni mustahkamlashda aynan siz kabi ilm ahlining hissasi beqiyos. Chunonchi, birlikda tashlangan har bir qadamimiz–bahordagi bir dona chigit kabi, uni sug'orsak, yerga mehr qo'ysak, ertaga butun o'rmonga aylanadi. Biz esa shu o'rmondagi har bir daraxt uchun mas'ul ekanligimizni jon-dilimiz bilan his qilamiz. Birga qadam tashlaylik, birga mushtarak kelajak sari intilaylik!

Konferensiya ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!

I QISM

DINIY EKSTREMIZM VA RADIKALIZMGA QARSHI KURASHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

FARXOD KARIMOV

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani,
siyosiy fanlar doktori, professor*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda milliy va global darajada xavfsizlik hamda barqarorlikni ta'minlashdagi eng asosiy muammolardan biri bo'lgan diniy ekstremizm va radikalizm muammosi, unga qarshi kurashning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashning milliy va xalqaro huquqiy normalari kontent tahlili amalga oshirilgan. Bunda, diniy ekstremizm va radikalizmga oid jinoyatlarda qo'llaniladigan normalari mazmuni ochib berilgan hamda nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan holda xususiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: *diniy ekstremizm va radikalizm, terrorizm, xalqaro va milliy huquq, suverenitet, legitimlik.*

Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash davlat va konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash, fuqarolar va millatlararo tinchlikni, hududiy yaxlitlikni ta'minlash, demokratik siyosiy tizimni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Respublikamizda diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash asoslari, usullari tahlil qilinganda, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy, jinoiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy usullar qo'llanilayotganligining guvohi bo'lamiz. Ular bir tarafdin ekstremizmning tarqalishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tarafdin ekstremistik harakatlarni amalga oshirayotgan shaxslar, guruhlar va tashkilotlarga qarshi ma'muriy-huquqiy va sud idoralari tomonidan olib borilmoqda. Ekstremizmga qarshi kurashdan kompleks chora-tadbirlarning muhim asosiy qismi normativ-huquqiy asosni yaratish, rivojlantirish va amalga tatbiq etish hisoblanadi. Respublikamizda diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashning normativ huquqiy asosini tartibga solishga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinib, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash barcha imkoniyatlar safarbar etilgan holda olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga asosan qonunda nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Asosiy qonunning ana shu me'yorlari asosida amaldagi Jinoyat kodeksining qator moddalarida jinoiy javobgarlik belgilangan. Bular vijdon erkinligini buzish (JKning 145- moddasi), milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish (JKning 156-moddasi), O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JK 159-modda), jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (JKning 216-moddasi), g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash (JKning 216-1 moddasi), diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 216-2 moddasi), diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (JK 229-2 moddasi), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish (JK 244-1 moddasi), diniy – ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa ta'qiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK ning 244-2 moddasi), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish jinoyatlari (JK ning 244-3 moddasi) bo'lib hisoblanadi.

Amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ham ekstremistik faoliyat tarqalishining oldini olish maqsadida bir qator ma'muriy javobgarlikni belgilovchi moddalar kiritildi. Bular MJtKning 184-moddasida belgilanganidek, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish maqsadida saqlaganlik uchun, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatganlik uchun (MJtKning 184-2-moddasi), milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatganlik uchun (MJtKning 184-3-moddasi), g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalarning faoliyatida qatnashishga undaganlik uchun (MJtKning 202-1-moddasi), diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun (MJtKning 240-moddasi), diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzganlik uchun (MJtKning 241-moddasi) belgilangan javobgarlik me'yorlardir.

Shuningdek, bu borada respublikamizda qabul qilingan bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari va boshqa huquqiy hujjatlarda ham jamiyatda jinoyatchilikning shu turiga qarshi kurashish maqsadida kiritilgan huquqiy me'yorlar o'z aksini topdi. Bu borada, ayniqsa, 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahrir) qonunni e'tirof

etish lozim. Amaldagi Jinoyat kodeksiga kiritilgan diniy ekstremistik va fundamentalistik faoliyat bilan bog'liq qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarning barchasi aynan shu qonunning me'yorlariga asosan qabul qilindi. Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra, fuqaroni dinga, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka, ibodat qilishga, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. [1] Shuning uchun bir qator qonunlar "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun me'yorlariga muvofiqlashtirilgan holda qabul qilindi. Masalan, 1999-yil 14-aprelida qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlari sifatida ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqishi belgilab qo'yilgan. [2] Fikrimizcha, ushbu qonun takomillashtirilishi lozim, negaki, kengash biror-bir davlat organi ham, mansabdor shaxs ham bo'lmasdan, fuqarolar yig'inining raisi, uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar raislari va yig'inning mas'ul kotibidan iborat tarkibdir. Yuqoridagi vakolat kengash tomonidan bajarilmaganda yoki nazorat qilinmaganida biron-bir mansabdor shaxsning javobgarligi nazarda tutilgan huquqiy me'yorlar mavjud emas. [3]

Ekstremizmga qarshi kurashga jamoatchilikni jalb etmasdan, faqat huquqni muhofaza qilish idoralari yoki boshqa davlat organlarining olib borayotgan harakatlari bilan muayyan natijalarga erishish mushkul. Shuning uchun bu borada jamiyatning asosiy qatlami bo'lgan ayollarga ham mas'uliyatli vazifalar topshirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin - qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va ularning joylardagi bo'linmalari faoliyatining eng muhim vazifalari va yo'nalishlaridan biri sifatida joylarda (oila, mahallalar, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalarida) milliy-diniy an'analarni tushuntirish va ularga rioya qilish, xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, buzg'unchi kuchlarning xotin-qizlar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni ekstremistik va terroristik faoliyatga jalb etish yo'lidagi urinishlariga qarshi qaratilgan ishlarni samarali tashkil qilish belgilab qo'yilgan. [4]

Shu o'rinda qayd etish lozimki, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro darajada mexanizmlar va huquqiy asoslar ishlab chiqib amaliyotga joriy etilgan. Bunda asosiy masala milliy, irqiy, mafkuraviy va diniy ekstremizmga qaratiladi. Va buning tarixiy asoslari ham yetarlicha. Bunda, avvalo diniy ekstremizm islomdan oldin xristianlik dinida namoyon bo'lganligi sababli, diniy ekstremistik harakatlarni oldini olish va unga qarshi kurash mexanizmlari G'arbda ancha oldin ishlab chiqilgan. O'tgan asrning 80-yillaridan beri va undan oldin ekstremizm BMT tomonidan murosasizlik va terrorizmga qarshi kurash doirasida ko'rib chiqilib kelinmoqda. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'siqlar, shuningdek, inson huquqlarining butkul buzilishiga harakat qilayotgan Al-Qoida, ID (IshID), Boko-Haram kabi ekstremistik guruhlar hamda fundamentalizm va ekstremizmdan kelib chiqqan zo'ravonlik siyosatchilarni aniq natijaga ishlaydigan yechim izlash majbur qildi. Xalqaro huquq ekstremizmning bir ko'rinishi sifatida diniy ekstremizmga qarshi ko'riladigan keng qamrovli chora-tadbirlarni belgilab qo'ygan bo'lsa-da, afsuski, ular kerakli natijani bermayapdi.

Ekstremistlar o'zlarining zo'ravonlik harakatlarini qonuniylashtirish uchun dindan foydalanadilar. Bu ayniqsa oxirgi 40-50 yillikda islom dinidan foydalanish orqali siyosiy harakatlarning ekstremistik va radikal kayfiyat kasb etganini qayd etish lozim.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashish maqsadida BMT Bosh Assambleyasi 2625, 36/55, 61/161, Xavfsizlik Kengashi 1624, 1424, 2178 rezolyutsiyalarni terrorizmga qarshi kurash, bag'rikenglik, diniy erkinlik, diniy erkinliklarga qarshi kurash doirasida qabul qilingan. [5] Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti shartnomalar, ekstremizmga qarshi maxsus harakat rejalari, tadqiqot grantlari va zaif guruhlarining imkoniyatlarini kengaytirish kabi maxsus qadamlar qo'ydi.

Xalqaro darajada diniy ekstremizmning asl mohiyatini tushuna olmaslik va unga ko'plab ta'riflarning mavjudligi keskin ziddiyatlar va diniy erkinliklarning cheklanishi tufayli ekstremizmning kuchayishiga olib kelmoqda. Boshqa tomondan, haddan tashqari diniy erkinlik radikal missionerlarga qarshi turishni qiyinlashtirmoqda. Zamonaviy xalqaro huquqni shakllantiruvchi samarali asoslar ekstremizmga moyil bo'lgan dindorlarga ham qoniqarli javob bera olmadi.

Xalqaro darajada diniy radikalizm va ekstremizga qarshi kurashda davlatlar BMT tomonidan tasdiqlangan umuminsoniy tamoyillar va hujjatlarga asoslanishadi. Xususan, 2008-yilda BMT "Zamonaviy rasizmning shakllari, irqiy diskriminatsiya, ksenofobiya va unga bog'liq murosasizlikka sabab bo'luvchi ma'lum amaliyot shakllariga yo'l qo'maslik" bo'yicha rezolyusiya qabul qilgan edi.

Mazkur rezolyusiya irqiy va diniy kamsitish, irqiy nafrat yoki har qandan diskriminatsiyani oqlovchi va qo'llab-quvvatlovchi har qanday mafkura targ'ibot qilishni qoralaydi. Shuningdek, mazkur rezolyusiya orqali barcha davlatlar har qanday turdagi diniy, milliy va irqiy diskriminatsiyani targ'ib qiluvchi tashkilotlar faoliyatini noqonuniy deb hisoblash hamda faoliyatini taqiqlashga chaqiriladi. [6]

Xalqaro hamjamiyat diniy ekstremizm, ayniqsa, uning zo'ravonlik ko'rinishlari xavfini tan oldi. BMT shafeligida BMTning global kontekstida zo'ravonlik ekstremizmining tarqalishiga olib keladigan omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari asosi sifatida Bosh kotibning zo'ravon ekstremizmning oldini olish bo'yicha Harakatlar rejasining qabul qilingani shundan dalolat beradi. Terrorizmga qarshi kurash strategiyasi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti ushbu faoliyatda faol ishtirok etmoqda, uning xalqaro-huquqiy hujjatlar arsenalida bugungi kunda ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar mavjud.

Ikkinchisiga 2001-yil 15-iyundagi terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konventsiyasi va 2017-yil 9-iyundagi Shanxay hamkorlik tashkilotining ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiyalari kiradi.

2001-yil 15-iyundagi Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konventsiyasi mustaqil huquqiy ta'rifni bergan birinchi xalqaro shartnoma bo'lib, unga ko'ra "ekstremizm" hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallab olish yoki hokimiyatni zo'ravonlik bilan ushlab turishga qaratilgan har qanday harakatdir. Shuningdek davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo'ravonlik bilan o'zgartirganlik, shuningdek jamoat xavfsizligiga zo'ravonlik bilan tajovuz qilganlik, shu jumladan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarda noqonuniy qurolli guruhlar tashkil etganlik yoki ularda ishtirok etganlik uchun milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi (kichik band). 3, Konvensiyaning 1-moddasi 1-band). Shu bilan birga, unda a'zo davlatlarning majburiyatlari bo'yicha qoidalar mavjud:

- mazkur xatti-harakatlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish sohasida hamkorlikni amalga oshirish;

- bunday xatti-harakatlar hech qanday sharoitda sof siyosiy, falsafiy, mafkuraviy, irqiy, etnik, diniy yoki boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra oqlanishi va ularning og'irligi darajasiga ko'ra jazolanishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rish;

- bu qilmishlarni ekstraditsiyaga, shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordamga olib keladigan jinoyatlar deb hisoblaydi;

- Konventsia qoidalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha bir-biri bilan bevosita muloqot qilish va o'zaro hamkorlik qilish huquqiga ega bo'lgan markaziy vakolatli organlarni:

- 1) axborot almashinuvi;
- 2) tezkor tergov o'tkazish to'g'risidagi so'rovlarni bajarish;
- 3) ekstremizmning oldini olish, aniqlash va unga chek qo'yish bo'yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish hamda ularni amalga oshirish natijalari to'g'risida o'zaro xabardor qilish;
- 4) o'z davlati hududida boshqa Tomonlarga qarshi qaratilgan ekstremistik jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish choralari ko'rish;
- 5) moliyalashtirish, qurol-yarog' va o'q-dorilar yetkazib berishning oldini olish, aniqlash va to'xtatish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, har qanday shaxslarga va (yoki) tashkilotlarga yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishda boshqa yordam ko'rsatish;
- 6) shaxslarni bunday xatti-harakatlarga tayyorlash bo'yicha faoliyatning oldini olish, aniqlash, bostirish, taqiqlash va tugatish choralari ko'rish;
- 7) normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti bo'yicha materiallar bilan almashish;
- 8) Konventsiyada ko'rsatilgan xatti-harakatlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha tajriba almashish;
- 9) o'z mutaxassislarini turli shakllarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- 10) hamkorlikning boshqa shakllari bo'yicha kelishuvlarga erishish, shu jumladan, zarurat bo'lganda, jinoyatlarga chek qo'yish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatish;
- 11) favqulodda aloqa liniyalarini yaratish va navbatdagi yoki navbatdan tashqari yig'ilishlar o'tkazish;
- 12) bir-biriga texnik va moddiy yordam ko'rsatish (6-modda)

Ma'lumki, O'zbekiston bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan.

Hozirda O'zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni “terrorchilik”, “ayirmachilik” (separatizm) va “ekstremizm”ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o’rin tutadi. 2004-yildan beri Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, diniy-ekstremistik oqimlarning jamiyatimiz barqarorligiga tahdidi respublikamizdagi ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni qurolli to’qnashuvlar ro’y berayotgan hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruhlariga jalb qilish kabi harakatlarda, shuningdek, mamlakatimizda terrorchilik harakatlari sodir etish uchun suqilib kirishga urinishlarda namoyon bo’lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar hushyorlikni qo’ldan boy bermaslik, hamisha ogoh bo’lib yashash zaruratini yana bir marta ko’rsatmoqda. Bu esa o’z navbatida, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro maydonda ko’p va ikki yoqlama hamkorlikni kuchaytirish, BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning faoliyatini samaradorligini oshirish masalasini qat’iy qilib kun tartibiga qo’ymoqda.

Shuningdek, O’zbekiston AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O’z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta’sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo’lga qo’yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga zid ravishda konstitusion tuzumga qarshi guruhlarining faoliyatini aniqlaydi va ularga chek qo’yadi. [6] Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi qo’llaniladigan bunday amaliyot, albatta, yuqorida ko’rsatilgan xalqaro huquqiy normativlar negizida ishlab chiqilgan milliy huquqiy normativlar asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida»gi qonuni.(Yangi tahrirda). – T.: «Adolat», 1998 yil, 5-bet
2. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. https://www.standart.uz/cyrl/document/index?category_id=2

3. С.Сувонқулов. Экстремизмга қарши курашнинг ҳуқуқий асослари. <https://surxondaryo.sud.uz/экстремизмга-қарши-курашнинг-хукук/>
4. Маҳаллада диний-маърифат ва маънавий – ахлоқий тарбия ишларини ташкил этиш (услубий тавсиялар). Ўзбекистон Республикаси хотин-қизлар қўмитаси, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, «Маҳалла» хайрия жамғармаси, «Оила» илмий амалий маркази. – Т.: «Ўзбекистон», 2006. – 160 б. 9-бет.
5. The General Assembly. Resolution (65/211) 21 December 2010.; The General Assembly. Resolution (36/55) 25 November 1981.; The General Assembly. Resolution) 25 / 2625 (Declaration on Principles of International Law concerning Friendly Relations and Co-operation among States in accordance with the Charter of the United Nations. 24 October.; The General Assembly. Resolution (61/161) 19 December 2006.; The General Assembly. Resolution 58/128. 19 December 2003; The General Assembly. Resolution 62/157 (2007).; The General Assembly. Resolution 67/178 (2012).
6. Петрянин, А. В. (2011). Международное регулирование борьбы с экстремизмом: преемственность и перспективы. Юридическая техника, (5), - С.373-377.



МИНТАҚАВИЙ ҲАМКОРЛИК ҲАМДА ЯШИЛ ЭНЕРГЕТИКА: ИСТИҚБОЛ ВА ХАВОТИРЛАР

ОЙБЕК СИРОЖОВ

ТошКТИ профессори, с.ф.д.

Маълумки, Марказий Осиёда демографик ўсиш ва саноатлашувнинг кучайиши энергияга бўлган талабни кучайтирмоқда. Анъанавий энергия ресурслари (иссиқлик энергия станциялари) орқали электр энергиясини ишлаб чиқиш норентабелли бўлиб бормоқда. Ана шундай шароитда қайта тикланадиган энергия манбаларини қўллашни стратегик аҳамиятга эга ҳисобланади.

Аввало минтақада яшил энергетикани (қайта тикланадиган энергия манбаларини) ривожлантириш имкониятлари ҳақида тўхталсак. Минтақада йилнинг 300-320 кунни қуёшли бўлади. Ўртача қуёш радиацияси — 1500-2000 кВт/м²/йил [1], бу эса қуёш панелларидан самарали фойдаланиш имконини беради. Экспертларнинг фикрича қуёшга нисбатан жойлашуви жиҳатдан ҳам минтақада қуёш энергиясидан фойдаланиш қулай. Шу билан бирга минтақанинг тоғли ва даштли ҳудудларида шамол тезлиги ва барқарорлиги шамол турбиналарини ўрнатиш учун етарли даражада ҳисобланади [2]. Шамол энергияси потенциали 520,000 МВт/соат/йилдан зиёд баҳоланган. Шу билан бирга минтақамизда қишлоқ хўжалигини ривожланганлиги ҳисобига биоёқилғи олиш имкониятлари ҳам мавжуд. Ундан ташқари Қирғизистон ва Тожикистонда гидроэнергетикани ривожлантириш имкониятлари мавжуд бўлиб, Амударё ва Сирдарё, шунингдек кўплаб сой ва сув омборлари орқали микро ва кичик ГЭСлар қуриш имконияти бор. Юқоридагилар минтақани яшил энергияга ўтишда устивор йўналиш бўлиб қолади.

Ундан ташқари у энергияни арзонлаштириш ва харажатларни қисқартириш имконини беради. Экспертлар қайд этишича технологик имкониятлар қуёш ва шамол электр энергиясининг узоқ муддатли ишлаб чиқаришга ва таннархни анъанавий ёнилғи манбаларидан арзонроқ тушишига олиб келмоқда [3]. Ёки қуёш ва шамол қурилмаларига бошланғич сармоя юқори бўлса ҳам, уларнинг ишлаш давомида эксплуатация ва таъмирлаш харажатлари жуда паст. Яшил энергетика хорижий сармоядорларни минтақамизга жалб қилиш имконини ҳам бериб Абу Даби компанияси – Masdar, Саудия Арабистонидан ACWA Power каби нуфузли компаниялар марказий Осиёга айнан яшил энергетика соҳасига

инвестиция киритиш бўйича қизиқиш билдирмоқда [4]. Ёки Халқаро молия ташкилотлари (Жаҳон банки, ОПЕК Фонди, ЕБРР) яшил лойиҳаларни молиялаштиришга қизиқиш билдирмоқда [5]. Минтақада ортиқча энергия ишлаб чиқарилса, уни қўшни давлатларга (масалан, Афғонистон, Покистон, ЕИ) экспорт қилиш имкони бор. Қолаверса бу борада минтақа давлатлари билан ҳамкорликда Европага энегия экспорт қилиш стратегияси қабул қилинди.

Энди минтақавий ҳамкорликни мустаҳкамлашда яшил энергетикани роли ҳақида тўхталсак. Аввало яшил энергетика тизими аввало узоқ муддатли иқтисодий барқарорликни таъминлайди. Чунки яшил энергетика иқтисодиёт драйверлари бўлган саноатни арзон ва барқарор энергия энг муҳими қайта тикланадиган энергия билан таъминлайди. Марказий Осиёда яшил энергетика иқтисодий жиҳатдан нафақат самарали, балки стратегик аҳамиятга эга соҳадир. Эшил энергетикага ўтиш комплекс ёндашув ва қўшнилар билан ҳамкорликда узоқ муддатли стратегия ишлаб чиқишни талаб этади. Чунки бу энергетикани технологик жиҳозлари қиммат бўлиб узоқ муддатга хизмат қилишга мўлжалланган. Уни экспорт қилиш ҳамкорликни талаб этади. Аввало бир мамлакатни энергетик потенциалидан кўра минтақани энергетик потенциали жозибалироқ ҳисобланади. Ундан ташқари энергетикани экспортини экспорти учун муҳим бўлган энергетика йўлаklarини ташкил этиш учун минтақа имкониятларини ҳатто минтақалараро имкониятларни бирлаштиришни талаб этадию бу эса ўзаро боғлиқликни кучайтиради. Ўзаро боғлиқлик эса минтақавий ҳамкорликнинг асосларидан ҳисобланади. Масалан Озарбайжон, Қозоғистон, Ўзбекистон ва ЕИ ўртасида яшил энергетика етказиб бериш тўғрисида шартнома имзолаганлиги фикримизни тасдиқлайди.

Яшил энергетикани ривожлантиришда **минтақавий ҳамкорликнинг зарурияти** жуда катта, чунки бу соҳадаги муваффақият нафақат бир давлатнинг ички имкониятлари, балки қўшни давлатлар билан самарали муносабатларига ҳам боғлиқ. Узлуксиз таъминот, энергияни захиралаш ва узатиш имкониятларини кенгайтиришни минтақавий ҳамкорликсиз амалга ошириб бўлмайди. Минтақавий энергетика лойиҳалари (масалан, CASA-1000 ёки Turkmenistan-Uzbekistan-Kazakhstan-China газ қувури) кўп давлатлар иштирокида амалга оширилади. Шу нуқтаи назардан минтақавий ҳамкорлик — яшил энергетикани барқарор ва самарали ривожлантиришнинг **ажралмас шартидир**. Бу ҳамкорлик нафақат ресурслардан оқилона фойдаланиш,

балки сиёсий барқарорлик, иқтисодий манфаат ва халқаро мавқе учун ҳам зарур.

Энди масалани геосиёсий жиҳатларига эътибор қаратсак. Аввало минтақада яшил энергетикани ривожлантиришнинг геосиёсий зарурияти — бу Марказий Осиёнинг ташқи сиёсий манфаатлари, минтақавий ҳамкорлик ва халқаро позициясини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Геосиёсий жойлашуви жиҳатидан Марказий Осиё Осиёда ўзини энергия марказига айланиш имконияти мавжуд[6]. Қайта тикланадиган энергия салоҳиятини ривожлантириш орқали қўшнилар Қозоғистон, Қирғизистон, Туркменистон ва Тожикистон билан мулоқотни кучайтириш ва ҳамкорлик қилиш мумкин. Яшил энергия экспорт (ЕИ)га йўналтирилиши орқали Россия ва Хитойни минтақадаги **геоиқтисодий таъсирини** камайтириш мумкин. Хорижий ёнилғи ва энергетика инфратузилмаларига боғлиқликни камайтириш – минтақани ташқи таъсирларга қарши туриш қобилиятини оширади. Яшил энергетикага ўтиш орқали минтақа ўзининг **экологик масъулиятли ва модерн давлат** сифатидаги имиджини мустаҳкамлайди [7]. Бу эса халқаро донорлар, инвесторлар ва сиёсий ҳамкорларни жалб қилишда муҳим омил ҳисобланади. Марказий Осиё ушбу ташкилотлар билан ҳамкорлик орқали нафақат иқтисодий, балки сиёсий жиҳатдан ҳам интеграциялашувни кучайтиради. Ундан ташқари электр энергиясини қайта тикланадиган манбалар орқали ишлаб чиқариш минтақадаги **транзит салоҳияти** билан боғлиқ. Масалан, «Жануб – Шимол», «Шарқ – Ғарб» йўналишларида яшил энергия билан таъминланган логистика марказлари яратиш мумкин. Марказий Осиёда яшил энергетика фақат экологик ёки иқтисодий эмас, балки **геосиёсий инструмент** сифатида ҳам муҳимдир. У минтақани нуфузини оширади, халқаро сиёсий тизимдаги мавқеини мустаҳкамлайди ва ташқи хавф-хатарлар олдини олишда стратегик роль ўйнайди.

Яшил энергетика соҳаси янги технологияларни, маҳаллий саноатни ва хизматларни ривожлантиради. Тадқиқотчилар тўғри таъкидлаганидек, технологик экспорт, кадрлар тайёрлаш, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш учун асос бўлади [11].

Жаҳонда яшил лойиҳаларга сармоялар миқдори миллиардлаб долларга етмоқда[12]. Ўзбекистон ушбу соҳада халқаро банклар ва компаниялар билан ҳамкорликни чуқурлаштирмоқда. Қуёш панеллари, аккумуляторлар, шамол турбиналари, “ақлли” тармоқлар каби технологиялар тез ривожланмоқда. Яшил энергетика таълим, илм-фан ва муҳандислик соҳаларига туртки беради. Яшил энергия, айниқса, чекка

худудларда автоном тизимлар орқали аҳоли ҳаётини яхшилаш имконини беради. Унинг истиқболлари минтақанинг барқарор, замонавий ва халқаро бозорда рақобатбардош давлатга айланишида ҳал қилувчи роль ўйнайди[13].

Шу билан бирга айрим хавотирлар мавжудлигини ҳам қайд этиш жоиз. Жумладан, Яшил энергетикани ривожлантириш жараёнидаги **геосиёсий хавфлар** — бу ташқи сиёсий, минтақавий ёки глобал омиллар туфайли юзага келадиган хатарлар бўлиб, улар Марказий Осиё давлатлари каби ривожланаётган мамлакатлар учун муайян муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Қуёш панеллари, шамол турбиналари ва аккумуляторлар каби ускуналар асосан Хитой, Европа ва АҚШдан келтирилади. Глобал сиёсий муносабатлар ёмонлашса (санкциялар, экспорт чекловлари), асбоб-ускуналар импортида узилишлар юзага келиши мумкин. Марказий Осиё технологик жиҳатдан ташқи давлатларга боғлиқ бўлиб қолиши мумкин. ЕИнинг минтақа билан яшил энергетика фонида яқинлашуви минтақа учун глобал ўйинчилар ўртасида навбатдаги “Катта ўйин”ни бошлаб бериши мумкин. Сабаби минтақанинг энергетик салоҳияти унинг замири да мавжуд нодир металлар бўйича ҳам имкониятларидан ЕИ билан бирга Хитой, Россия ёки АҚШ ҳам умидвор. Уларнинг бирортаси бошқа биртасини унга эгалик чиқишини жимгина томоша қилиб туrolммайди. Ўзларида мавжуд геосиёсий инструментларни ишга солган ҳолда таъсир кўрсатишга ҳаракат қилади. Ана шу таъсир жараёни янги ўйинларни бошлаш хавфини кучайтиради.

Хуллас яшил энергетика ривожини катта имкониятлар билан бирга муайян **геосиёсий хавф-хатарларни** ҳам олиб келади. Марказий Осиё бу хавфларни камайитириш учун технологик маҳаллийлаштириш (панеллар ишлаб чиқариш), минтақавий сиёсий ҳамкорликни кучайитириш, ташқи бозорлардан диверсификация қилиш, сиёсий бетарафлик ва прагматик ташқи сиёсатни давом эттириши муҳим ҳисобланади.

Яшил энергетика келажак энергетикаси ҳисобланади. Унга биринчилардан бўлиб ўтиш минтақани технологик тараққиётини кафолати ҳисобланади. Шу билан бирга унга ўтишдаги хавларни ҳам инобатга олиш, энергетик сиёсатда уни олдини олиш имкониятларидан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. <https://kun.uz/kr/news/2024/10/19/yashil-elektr-stansiyalar-orqali-atmosferaga-yiliga-21-mln-tonna-zararli-gazlar-chiqishi-oldi-olinadi-energetika-vazirligi>

2. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/14/renewable/>
3. «Зеленая» энергетика становится одним из драйверов нашей экономики и поистине общенациональным движением. <https://minenergy.uz/ru/news/view/3741>
4. Исайнов Х.Р. «Зеленая экономика» Таджикистана: современное состояние и перспективы развития. <https://economic.tnu.tj/ru/zelenaja-jekonomikatadzhikistana-sovremennoe-sostojanie-i-perspektivy-razvitija/>
5. «Об использовании возобновляемых источников энергии» Закон Республики Узбекистан от 21.05.2019 г. №ЗРУ -539
6. Переход на зеленую энергетику: на каком этапе находится Узбекистан в этом плане? <https://kun.uz/ru/news/2024/04/19/>
7. TESC 2024 – Туркменистан: модернизация энергетики, переход к ВИЭ и экспортный потенциал. <https://www.newscentralasia.net/2024/06/06/turkmenistan-modernizatsiyaenergetiki-perekhod-k-vie-i-eksportnyy-potentsial/>
8. Таджикистан: солнечная энергетика в помощь ГЭС. CABAR.asia-20.03.24 <https://cabar.asia/ru/tadzhikistan-solnechnaya-energetika-v-pomoshh-ges>
9. Ўзбекистон – 2030 стратегияси. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 4-октябрдаги “2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4477-сон Қарори-Lex.uz
11. Boltayev M. J. (2024). Markaziy Osiyoda “yashil energetika”ni rivojlantirishning ayrim masalalari. *Экономика и социум*, (8 (123)), 57-61.
12. https://uza.uz/uz/posts/markaziy-osiyoda-yashil-energiyani-rivozhlantirish-dasturini-amalga-oshirish-taklif-qilindi_639201
13. Уткина М. Перспективы развития «зеленой»энергетики в Центральной Азии. <https://vestikavkaza.ru/analytics/perspektivy-razvitiia-zelenoj-energetiki-vcentralnoj-azii.html>



СОВРЕМЕННЫЕ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ ВЛИЯНИЕ НА РЕГИОН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

УМРБЕК ЮСУПОВ

*Главный научный сотрудник
Международного института Центральной Азии*

Сегодня наш регион оказался в эпицентре перекрёстных интересов крупнейших мировых держав и в фокусе глобальной турбулентности.

Глобальные вызовы: усиливающееся давление

Нарастание геοэкономической напряжённости, протекционизм, санкционные войны, технологическое соперничество — всё это стало новой реальностью, с которой Центральная Азия сталкивается напрямую. Особенно остро ощущаются:

- высокая зависимость от внешних рынков и импортной продукции;
- ограниченность транспортных коридоров;
- энергетические и продовольственные вызовы.

Тем не менее, вопреки пессимистическим прогнозам, **Центральная Азия демонстрирует устойчивость и растущую способность к региональной консолидации.**

Консолидация региона — ключ к устойчивости

Знаковым достижением стал **переломный сдвиг** в региональных отношениях: **от конкуренции — к сотрудничеству.** Яркий пример — **договорённость между Кыргызстаном и Таджикистаном** по делимитации границы, ставшая возможной благодаря политической воле, открытому диалогу и взаимному доверию.

С 2017 года был запущен новый формат пятистороннего диалога лидеров Центральной Азии. **Консультативные встречи стали устойчивым механизмом формирования общей региональной повестки и укрепления доверия.** Принятые Концепция "Центральная Азия – 2040" и Дорожная карта на 2025–2027 годы заложили стратегическую основу для углублённой кооперации.

Регион как новый геополитический актор

Углубляется внешнее взаимодействие региона в форматах «Центральная Азия +»:

- Более 10 международных платформ, включая ЕС, Китай, Россию, США, Индию, Южную Корею и Японию.

- Так, в мае текущего года Термезский диалог собрал представителей более 20 стран Центральной и Южной Азии.
- **На первом саммите «ЦА+ЕС» в Самарканде ЕС объявил о пакете инвестиций в размере 12 млрд евро**, направленных на поддержку торговли, энергетики и цифровой трансформации.
- Китай активно продвигает инициативу «Пояс и путь», включая реализацию **железнодорожного проекта Китай–Кыргызстан–Узбекистан**.
- США демонстрируют прагматичный, конкурентный подход, особенно в сфере цифровой и экономической политики.
- Наблюдается **активизация участия в рамках ОТГ** (Организации тюркских государств), что подтверждает, в частности, недавний визит руководства Узбекистана в Будапешт для участия в неформальном саммите ОТГ и укрепления стратегического партнёрства с Венгрией.

Таким образом, **Центральная Азия** перестаёт быть лишь объектом внешнего влияния — она **становится самостоятельным и полноправным субъектом глобального диалога**.

Пять стратегических приоритетов региона

Позвольте обозначить ключевые направления, от которых зависит устойчивое развитие Центральной Азии:

1. Политический диалог и укрепление доверия. Разработка Концепции региональной безопасности и стабильности, инициированная Узбекистаном, — важный шаг к координации антикризисных мер и обеспечению мира.

2. Экономическая интеграция. Формирование **Единого экономического пространства**, устранение торговых и нетарифных барьеров, сопряжение национальных стратегий развития.

3. Транспортная взаимосвязанность. Реализация проектов «Термез – Кабул – Пешавар», Транскаспийского маршрута, а также создание Регионального совета по логистике.

4. Энергетическая кооперация. Развитие общего энергетического рынка, наращивание взаимных поставок, а также продвижение проектов в сфере возобновляемых источников энергии, включая водородную энергетику Казахстана.

5. Единый подход к Афганистану. Региону необходимо выработать согласованную стратегию по вопросам безопасности, миграции, борьбы с наркотрафиком и оказания гуманитарной помощи.

Заключение: Регион будущего — своими руками

Региональная интеграция в Центральной Азии — это не идеологическая конструкция, а осознанная стратегия выживания и устойчивого развития.

Центральная Азия показывает миру пример того, как, опираясь на внутренний потенциал, взаимное доверие и конструктивный диалог, можно эффективно противостоять внешним вызовам и двигаться к мирному, безопасному и процветающему будущему.

Надеемся, что региональные инициативы, направленные на укрепление устойчивости и сотрудничества, получат должное международное признание и всестороннюю поддержку.

Благодарю за внимание.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MINTAQADA TINCHLIK, DO'STLIK VA HAMKORLIK ALOQALARINI O'RNATISHGA QARATILGAN ISLOHOTLARI

NURIDDIN QOLQANOV

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar kafedrası dotsenti, PhD*

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan hamkorlikka, o'zaro yordam, tinchlik va totuvlik asosidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga intilishi o'z samarasini bermoqda. O'zaro manfaatli munosabatni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi orqali mintaqada siyosiy muloqot va o'zaro ishonch mustahkamlandi. Suvdan foydalanish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaradan o'tish kabi masalalarga yechim topildi.

Ma'lumki, mintaqa markazida joylashgan O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega. Keyingi yillarda yurtimizning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha muzokaralar jarayoni muntazamlilik kasb etdi.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, давлат ва жамиятда бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга ўтказишдек туб ислохотлар ҳеч қачон осон кечмаган. Бироқ Янги Марказий Осиё давлатларидаги бугунги ислохотлар замон талаб қилаётган, орқага қайтмайдиган жараён ва бунда мураккаблик ва турли курашларнинг бўлиши табиий. Курашлар қанчалик машаққатли бўлмасин, айти пайтда у миллионлаб кишиларни ўзига эргаштириб келажакка қатъий ишонч билан қарашга ундамоқда.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ш.Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>

2. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2024. – 560 б.

3. Вакульчук Р. Узбекистан становится катализатором интеграции в Центральной Азии – эксперт – www.eurasia.expert/Uzbekistan-yavlyaetsya-glavnym-katalizatorom-integratsii-v-tsentralnoy-azii-ekspert

4. Глава МВФ – о формуле инклюзивного роста Узбекистана. www.gazeta.uz/ru/2019/05/17/imf/

5. Why Uzbekistan relevant for European Union, Is it the New Silk Road? By «Belt and Road News». March 11 2021.

6. Global geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar va ularning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va nizolarning oldini olishga ta'siri. VI xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami, 2024-yil 14-noyabr. – Toshkent: O'RQK Akademiyasi, 2024. – 360 b. 40-41-b.

7. Асланов М.Ф. Регионализм и стабильность: обеспечение безопасности Центральной Азии в условиях глобальных изменений. –

Халқаро илмий-назарий конференция материаллари тўплами. Ноябрь, 2024. – Т.: Академия. 44-б.

8. Толипов Ф. Катта ўйин қандай ўйналади? ёки Марказий Осиё Президентлари консультатив учрашувда нималар ҳақида консультациялашдилар. 20.09.2021. <https://uzbk.org/?p>. Мурожаат этилган сана: 03.04.2025.

ТОЖИКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ ҲАМКОРЛИГИ МАСАЛАСИ

БЎСТОН ТУРСУНОВ

*Академик Б. Гафуров номли Хўжанд давлат университети
профессори, тарих фанлари доктори
(Тоҷикистон Республикаси)*

Салкам 35 йиллик мустақиллик даврида, Тоҷикистон Республикаси 178 та жаҳон давлатлари билан дипломатик алоқаларни ўрнатди. Булар орасида энг катта эътибор Марказий Осиё мамлакатлари, Россия Федерацияси ва Эрон ислом Республикаси билан дипломатик алоқаларни ривожлантиришга қаратилганлиги, сўнги йилларда давлатимиз раҳбари, Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмон ташқи сиёсатида алоҳида қайд этилиши асло тасодифий ҳол эмас[2]. Афғонистон ва Хитой Халқ Республикаси билан чегара масалада бир тўхтамга келинган бўлса-да, Ўзбекистон ва Қирғизистон Республикалари билан, чегаралар масаласи тўла ҳал этилмаганлиги сўнги йилларда ўта тифиз масала эди. Хусусан, Қирғизистон Республикаси билан ўртада баҳсли территориялар мавжудлиги, чегарани аниқлашда қатор қийинчиликларни юзага келтирибгина қолмай, ҳарбий тўқнашувларга, бегуноҳ одамларнинг қурбон бўлишига олиб келди. Территория масаласи давлат учун ҳам, миллат учун ҳам ўта муҳим масала саналади.

Жаҳон халқлари тарихида бу масалага оид қизиқарли воқеалар жуда кўп учрайди, жумладан, бугунги туркий халқларнинг аجدодларидан бўлган хунлар (Рим империяси қуллиги зулмидан озод қилган ўз халоскорларини европаликлар «гун»-лар дейиш билан бирга, яна “ёввойи”, “маданиятсиз” маъносида «варварлар» дейишган) ҳақида ибратли ҳикоя, хитой ёзма манбаларида сақланиб қолган. Хун халқлари подшоси (у шаньюй дейилган) Туман бўлиб, улар аввалда, юэчжиларга қарам бўлганлар[12]. Туманни икки ўғли икки хотинидан бўлиб, суюмли иккинчи ўғлини валиаҳд қилиш мақсадида, Модэ исмли катта ўғилни юэчжиларга гарровга бериб, ортидан улар устига ҳужум уюштирди ва ўйладки, юэчжилар бундан ғазабланиб гаровдаги Модэни ўлдиришади. Аммо Модэ жасур ва шижоатлилиги туфайли юэчжилар отини ўғирлаб, асирликдан соғ-омон қочиб қутилди ва отаси ҳузурига келди. Модэ жасурлигига қойил қолган ота, унинг ихтиёрига 10 минг оилани бошқариш учун беради, Модэ отасининг жирканч режасидан яхшигина хабардор эди ва кўп ўтмай давлат тўнтариши ташкил

қилиб, хунларнинг шоҳи бўлди. Қўшни халқлардан бўлмиш дунхулар, Модэ шоҳ бўлгач, хунлар кучайиб бораётганлигини кўриб, ўз элчиларини юбориб, орада жанжал чиқариб, хунларни кучсизлантириб, ўзларига бўйсундирмоқчи бўлдилар. Илк марта келган элчилари подшо Модэнинг энг донгдор тулпор отини ва хотинлари орасида энг гўзалини беришни сўрашган. От - эр йигит оламининг асосини, кўчманчи халқлар хазинасини ташкил қилишини яхши билган душман, шу йўл билан ўртада жанжал чиқармоқчи, энди оёққа тураётган давлатни йўқ қилмоқчи бўлган. Модэ хун халқига қарашли қабилалар оқсоқолларини йиғиб, элчилар талабини уларга етказганида, улар шовқин кўтариб, ғазабландилар ва бир овоздан рад жавобини беришни Модэдан талаб қилдилар. Жасур ва донишманд Модэ, уларга мурожаат қилиб, «... энг яқин қўшнимиз биздан арзимас бир отни ва сулувни сўрар экан, биз нега «йўқ» дейлик, албатта берамиз!» - дея жавоб қилади. Элчиларга сўралган малика ва от берилиб, қайтарилган. Ўз ёвуз ниятига эришмаган маккор душман орадан яна вақт ўтказиб, иккинчи бор элчиларни юборади, бу сафар улар, икки халқлар ўртасида ястаниб ётган, ўт ҳам битмайдиган, тошлоқ, тақир бир даштни дунхуларга беришни сўрадилар. Аввалгидек, Модэ қабила оқсоқолларини йиғди, қўшнилар талаби уларга етказилди, шунда баъзи оқсоқоллар, «тулпор отни, севимли ва гўзал сулувни улардан аямадик, энди бир тақир, ҳеч нарсага ярамайдиган даштни шу азиз қўшнилардан аяймизми, берамиз!» - дея жавоб бердилар. Шунда Модэ, ўша оқсоқол ва унинг сўзларини тасдиқлаганларнинг бошини шу ердаёқ танасидан жудо қилишга фармон берди. Сўнг сўз олиб, ер қандай бўлишидан қатъий назар, Ватан эканлигини, ерсиз на Ватан, ва на давлат бўлишини айтиб, элчиларни ҳибсга олишга, хун халқи умумий ҳарбий сафарбарлигини эълон қилишга фармон берди[1, с.52-53]. Хунлар, бир зарба билан душманни жанг майдонида енгиб, дунхуларнинг эркак зотини қириб ташладилар ва аёллари, молу мулки хунлар орасида ўлжа сифатида тақсимлаб олинди. Кўп ўтмай хунлар, қадимги дунёнинг кучли империяларидан бирини ташкил қилдилар. Тарихда Европа халқларини Рим қулдорлик империяси зулмидан озод қилган халқ сифатида мангу қолдилар. Давлат ҳудуди масаласи инсоният тарихида ана шундай эътибор ва эъзозга лойиқ нарсадир.

Ўтган асрнинг 90 – йиллари бошларида - мустақиллик арафасида, Хўжанд олимлари томонидан Марказий Осиё илм, фан ва санъат академияси ташкил қилинди. Кейинроқ бу академия, «Нури Хўжанд» номли Марказий Осиё фан ва санъат академияси деб номланиб, ҳозир таниқли

олим, тарих фанлари доктори, профессор Назиржон Очилович Турсунов, ушбу ташкилотнинг президентиدير. Айти бир вақтнинг ўзида, ўтган асрнинг 90-йиллари бошларида Тошкентда бир гуруҳ тарихчи олимлар томонидан «Махпират» номли Ўрта Осиё халқлари тарихи институти ташкил қилиниб, кейинроқ у «Турон» академияси номини олди. Бу ташкилотга қўқоншинос олим, тарих фанлари доктори, профессор Ҳайдарбек Назирбекович Бобобеков раҳбарлик қилиб, «Турон» номли илмий-тадқиқот журнали ўзбек ва рус тилларида мунтазам чоп қилиб келинмоқда. Мустақиллик йилларида, агар Душанбеда Россия – Тожики (Славян) университети 1996 йил ташкил этилган бўлса, ҳозирда улар сони тўрттага етти[7], Ош шаҳрида ўзбек – қирғиз университетининг 1997 йилда ташкил қилинганлиги ва бугунда Қирғизистон Республикасида 16[6], Ўзбекистон Республикасида 17[8], Қазоғистон Республикасида 18[5] чет эл олийгоҳлари ташкил қилинганлиги бу йўналишда Марказий Осиё давлатлари етарли тажрибага эга эканликларини кўрсатади.

Ўзаро қўшничилик масалаларига қайтадиган бўлсак, хусусан, Ўзбекистон Республикаси билан алоқалар йилдан-йилга яхшиланиб, стратегик шериклик даражасига кўтарилиб, эндиликда, сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларнинг турли йўналишида, ҳамкорликнинг янги саҳифалари очилиб бораётганлиги, икки қўшни давлатлар халқи томонидан хурсандчилик билан қабул қилиниб, қўллаб – қувватланаётганлиги қувончли ҳолдир. Алоқалар ривожланиши ташаббускорлари мўхтарам Президентларимиз Эмомали Раҳмон ва Шавкат Мирамонович Мирзиёевлардир. Жамият ҳаётининг ҳамма йўналишида, ҳал қилиниши лозим бўлган муҳим муаммолар жуда кўп, булар орасида иқтисодий ҳамкорлик ва манфаатдорлик билан бирга, илмий ҳамкорлик энг олдинги ўринлардан бирида туради. Илмий ҳамкорлик, иқтисодий имкониятларни аниқлаш ва бу йўналишдаги алоқаларни янада кучайтиришга қаратилган бўлишдан ташқари, аниқ фанлардан илмий изланишларни ривожлантириш йўлида Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигини йўлга қўйиш, асло фойдадан холи бўлмайди. Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги янгича муносабатларни ташкил қилиш ташаббуси Ўзбекистон Республикаси Президенти, мўхтарам Ш.М. Мирзиёевнинг ташаббуси бўлиб, Жаноби Президентнинг 2018 йил 9-10 мартда Душанбе шаҳрига қилган сафарида, Мамлакатимиз раҳбари томонидан алоҳида олқишланди. Миллат пешвоси, Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, мўхтарам Президентимиз Эмомали Раҳмон Ўзбекистон Республикаси

Президентининг Марказий Осиёда янгича ўзаро ишончга асосланган ҳамкорликни ташкил этиш ташаббусини қўллаб қувватлашини билдирди[3].

Гуманитар фанлар тадқиқоти йўлида ҳам, қатор қилиниши лозим бўлган ишлар мавжуд. Хусусан, Ватанимиз халқлари тарихининг баъзи масалалари Шўролар давридаёқ, ўша давр коммунистик ғояси ва давлат манфаатлари нуқтаи назаридан ўрганилган бўлиб, бугунги давлатларимизнинг буюк мустақиллик ғояларига йўғрилган миллий манфаатларга асло тўғри келмайдигина эмас, баъзи ҳолларда, тамоман қарама-қарши ҳам бўлиб қолди. Бир географик территорияда минг йилликлар давомида, турли номдаги давлатлар таркибида бирга яшаб, намунали маданият ярата олган, жаҳон халқлари цивилизациясига муносиб ҳисса қўшган халқлар ўртасида, бир масаланинг турлича талқин этилиши, салкам ўттиз йиллик мустақиллик даври тарихида ҳалигача давом этдирилмоқда.

Натижада, этногенез (миллатлар келиб чиқиши), этник тарих (уларнинг минг йилликлар давомида шаклланиб бориш)-и жараёни, XX аср бошларидаги миллий - ҳудудий тақсимот, фуқаролар уруши (таҳқирли босмачилик ҳаракати номини олган миллий озодлик ҳаракати), колхозлаштириш ва маданийлаштириш каби тарихий воқеаларининг, ҳозирда, мавжуд миллий тарихимизга доир академик дарслик китобларида баён этилиши, баъзи ҳолатларда Марказий Осиё халқларини бир-биридан узоқ қилиб қўяди. Бу ҳол Марказий Осиёдаги давлатлар ва улар таркибида минг йилликлар давомида биргаликда яшаб, бир Ватанни биргаликда асраб, лозим бўлганда Тўмарис, Широқ, Фрада, Спитамен, Абумуслим, Муқанна, Деваштич, Темурмалик сиймосида жон фидо қилган аждодлар тарихига ёт бўлиб, яратувчилик билан шуғилланиб деҳқончилик маданияти мактабини ярата олган, хунармандчиликни амалий санъат даражасига кўтара олган, этнография илми тили билан айтганда: асрлар давомида, бир хўжалик-маданий типини яратган миллатларнинг бир-биридан узоқлашуви, бегоналашув руҳини туғдиришини, бугун мутахассислар жуда яхши биладилар. Бу ҳақиқатдан кўз юмиб бўлмайди, зиё аҳли, илм-фан намояндалари, эндиликда, фақат расмий ҳужжатлардагина эмас, амалда ҳам бир-бирини ҳурмат қилувчи ва «Марказий Осиё» – деб номланган жаннатмакон Ватанда, бирга муроса қилиб яшай олувчигина эмас, бирга яшаб цивилизацияга асосланган илғор жамиятни бунёд эта олувчи, ҳамиша маданият эгаси бўлиб келган ва абадий шундай бўлиб қоладиган янги авлодни шакллантирмоғи лозим. «Кўрпани ўз томонимизга тортадиган», бундан-да кўполроқ айтадиган

бўлсак «уйда шер, майдон ғариб» бўлиб юрадиган вақтлар, аллақачон ўтиб кетди. Жаҳонда юз бераётган воқеъларга бир назар солайлик, мана ярим асрдан ортибдики, афғон халқининг охи оламни тутди, араб мамлакатларида тинчгина яшаб юрган миллион – миллион халқлар, Европа кўчаларида сарсону саргардон. Бугунда улар сафига, Украинадек иқтисодий ва ҳарбий иқтидорга эга бўлган мамлакатнинг заҳматкаш халқлари қўшилди. Гурузия Республикаси учга бўлиб ташланди, Арманистон ва Озарбайжон бир-бирлари билан мураса қилишгани йўқ. Бир сўз билан айтганда, салкам икки юз йилдан бери империалистик давлатлар жаҳон давлатлари ва халқларини ўзлари хоҳлаганча бўлиб, талаб, ҳукмронлик қилишни давом этдирмоқда. Шундай шароитда Марказий Осиё давлатлари фақат бирлашсаларгина, мустақиллигимизнинг мустаҳкам ва абадий пойдеворини қуриш ва сақлаб қолиш мумкин. Бугунги Тожикистон Республикаси раҳбарияти мақсади ҳам шунга қаратилган бўлиб, шу йилнинг 31 мартада давлатимиз раҳбари Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмон ташаббуси билан Хўжанд саммитининг ташкил қилинганлиги, фикримизнинг ёрқин исботидир. Унда уч Марказий Осиё давлати раҳбарлари – Тожикистон, Қирғизистон ва Ўзбекистон Президентлари йиғилиб, ҳудудий дахлсизлик, дўстлик ва иқтисодий-маданий ҳамкорлик ҳақида шартномаларни имзолаганликлари халқларимиз тарихида шубҳасиз тарихий воқеъа бўлди[9].

Марказий Осиё давлатлари келажаги уларнинг аҳиллиги, иттифоқсиз бўлиши, бу ердаги ҳар бир давлат учун хавфлидир. Бирлашув сиёсий-ҳарбий, иқтисодий ва маданий ҳаётимизни тўла қамраб олмоғи лозим. Бунинг учун, халқимиз тарихида етарли тажриба бор, Марказий Осиё халқлари минг йилликлар давомида елкама-елка туриб, ҳалол меҳнат қилиб, жаҳон халқлари ҳавас қилса арзирлик цивилизацияни яратдилар. Бу улкан тарихий тажрибани, сақлаш ва кўпайтириш, том маънода жаҳон давлатлари ва халқлари орасида муносиб ўрин эгаллаш, вақти келди. Бунинг учун, айрим ўртада мавжуд тафовутларни олиб ташлаш, йўқотиш, бирлашиш йўлини излаш керак. Зиёлиларимиз шу улуғ йўлда бепарво бўлиб, бетараф турмай, халқларимиз учун «йўлчи юлдуз» бўлишлари жуда муҳимдир.

Шундай экан, Марказий Осиё халқлари тарихида сунъий юзага келтирилган тафовутларни йўқотиш, доно давлатимиз раҳбари, жаҳон миқёсидаги сиёсат арбоби, Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмон, Ўзбекистон Президенти мўхтарам Шавкат Мирамонович Мирзиёев билан Душанбеда ўтказилган мулоқот вақтида

айтганидек: «Биз тарихий объективликка таянган ҳолда, асрлар давомида халқларимиз тўплаган ва эришган муваффақиятлар ва қадриятларни сақламоғимиз ва ўрганмоғимиз, тарғиб қилмоғимиз, беасос баҳс ва мунозараларга нуқта қўймоғимиз лозим»[4].

Бу албатта, бир фармон билан ва осонликча ҳал этиладиган масала эмас, бу йўлда аввало Марказий Осиёни бир Ватан деб қараб, тарих фанининг илмий Программасини тузиш, тадқиқотчи олимлар гуруҳини бу ишга жалб этиб, тузилган Программа асосида илмий изланишларни ташкил қилиш лозим. Археология, антропология ва этнология каби тарих илми соҳаларида тадқиқотларни, Марказий Осиё миқёсида биргаликда йўлга қўйиш, мавжуд суғд, хоразм, фарғона, турк руник ёзувлари, араб, форс-тожик, турк-ўзбек, хитой ва бошқа тиллардаги ёзма манбаларни солиштириб объективона ўрганиш ва тўпланган маълумотларни илмий муомилага киритиш керак. Бўлажак авлод, биз яшаб турган ҳудуд – Тожикистон Республикаси, қадимдан ҳозиргача Марказий Осиё таркибида бўлганлигини ва бу территорияда яна тўрт мустақил давлатлар ва халқлар мавжудлигини ҳис қилмоғимиз лозим. Тадқиқотлар жараёнида, Ватанимиз бўлмиш Марказий Осиёда, мавжуд ҳар бир миллат манфаатлари инобатга олиниши, ўзига хослик ва умумийлик принципларига таянмоқ лозим бўлади. Тарихий воқеаларни синфлар, табақалар, маҳаллийчилигу авлодлар манфатини кўзлаб эмас, инсонийлик нуқтаи назаридан туриб объективона, сохталаштирмасдан холислик билан ўрганиш ва ёш авлодни ўзлигини, миллий қадриятларни англаш руҳида, Ватанга муҳаббат ва қўшни халқларга иззат-ҳурмат руҳида, дўстлик руҳида, тарбиялаш лозим. Ушбу сатрлар бундан роса 4 йил аввал вақтли матбуотда ва камина чиқарган тарихий мақолалар мажмуасида илгари сурилган масалалар бўлиб[11], “Турон” подкастида (30 июл 2024 йил) ҳам шу ҳақда фикрларимизни билдирган эдик[10]. Бугунда, Ўзбекистон Республикаси ФА Тарих институти раҳбари, академик Азамат Зиё шу йўлда амалий қадамлар қўйаётганлиги, Марказий Осиё давлатлари ФА Тарих институтлари билан ҳамкорликда таърихни тадқиқ этиш, “Турон” номли журнални биргаликда нашр этиб боришга қарор қилинганлиги ҳақида сўнги кунлардаги хабарлар бизни қувонтиради.

Тожикистон Республикаси раҳбари, Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмон олиб бораётган ташқи сиёсатида, Марказий Осиё давлатлари ва халқларига эътиборнинг биринчи даражага қўйилганлиги, бугунги жаҳонда юзага келган вазъият, ҳаёт талаби эканлигини, айти юқоридаги масалаларни, олдинги ўринга

чиқаётганлигини кўрсатади. Умид қиламизки, қўшни дўст мамлакатлар билан, яқин келажақда, сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳамкорлик янада кучайиб, мавжуд муаммолар навбат билан, амалда ва том маънодаги яхши қўшничилик принциплари асосида ҳал қилинади. Марказий Осиё халқлари албатта, жаҳон ҳамжамиятида ўзининг муносиб ўрнини эгаллайди!

Адабиётлар рўйхати:

1. Гумилев Л.Н. Хунну. – СПб.: Тайм-аут-компасс, 1993. – 212 с.
2. Паёми Президенти Ҷумҳурии Тоҷикистон, Пешвои миллат муҳтарам Эмомалӣ Раҳмон ба Маҷлиси Олии Ҷумҳурии Тоҷикистон «Дар бораи самтҳои асосии сиёсати дохилӣ ва хориҷии ҷумҳурӣ». 26.01.2021. <https://prezident.tj/event/missives/22558>. Мурожаат вақти: 10.03.2021
3. По итогам визита президента Узбекистана Шавката Мирзиёева в Таджикистан бҷло подписано 27 соглашений <https://tj.sputniknews.ru/20180312/mirziyoyev-vizit-itogi-tadzhikistan-uzbekistan-rahmon-1024983640.html> Мурожаат вақти: 7.04.2018
4. Раҳмон Э. Речь на «Вечере дружбы», посвященная государственному визиту Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева в Таджикистан /Согдийская правда. № 22-23. 13 марта 2018 г.
5. Список высших учебных заведений в Казахстане <https://ru.wikipedia.org/wiki> Мурожаат вақти: 11.05.2025.
6. Список высших учебных заведений в Киргизистане <https://bilim.akipress.org/profiles:1/universitie/list/> Мурожаат вақти: 11.05.2025.
7. Список высших учебных заведений в Таджикистане <https://ru.wikipedia.org/wiki> Мурожаат вақти: 11.05.2025.
8. Список высших учебных заведений в Узбекистане//<https://ru.wikipedia.org/wiki82>. Мурожаат вақти: 11.05.2025.
9. Трехсторонняя встреча глав государств Таджикистана, Киргизстана и Узбекистана <https://www.sugd.tj/ru /novosty/4913-trjokhstoronnyaya-vstrecha-glav-gosudarstv-tadzhikistana-kyrgyzstana-i-uzbekistana>. Мурожаат вақти: 10.04.2025.
10. Турон тарихини қайта ёзиш фаоллашди: мактаб дарсликлари таҳлили https:turon_loihasi. Мурожаат вақти: 30.12.2024.
11. Турсунов Б.Р. Марказий Осиё халқлари тарихининг долзарб масалалари. - Хўжанд: Нури маърифат, 2021. – 256 б.

12. Турсунов Б.Р. Мустақил Тоҷикистон ҳамда Марказий Осиё давлатлари ва халқлари ҳамкорлиги масаласи /Суғд ҳақиқати. № 27. 27.03.2021.



ТОЖИКИСТОН ВА ЎЗБЕКИСТОН – ИККИ ДЎСТ ВА ҚАРДОШ ХАЛҚЛАРНИНГ ТАРИХИЙ АЛОҚАЛАРИ (1991-2016 ЙИЛЛАР)

БУНЁД ТОЙИРМУРОВ

Академик Б. Гафуров номли
Хўжанд давлат университети докторанти
(Тожикистон Республикаси)

Мустақил Тожикистон Республикасининг энг янги тарихи жаҳон ҳамжамиятида, халқаро муносабатларнинг юқори суръат билан ривожланиши даври ҳисобланади. Бу муносабатлар орасида Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига (МДХ) аъзо давлатлар ўртасидаги алоқалар муҳим аҳамият касб этади. Қайд этмоқ жоизки, мустақилликнинг ўтган салкам 35 – йиллик машаққатли даврида, Тожикистон Республикаси халқаро ҳамжамиятга аъзо бўлиб қўшилибгина қолмасдан, унинг жаҳон миқёсидаги обрў-эътибори ижобий томонга тубдан ўзгарди, бунда албатта Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмоннинг роли беқиёсдир. Хусусан, фуқаролар уруши номини олган машъум уруш, Эмомали Раҳмон бошлиқ ўша даврда ташкил қилинган янги Ҳукуматнинг катта ғайрат ва курашлари, дўст – биродар Марказий Осиё ва хусусан Ўзбекистон Республикаси, Россия Федерацияси каби хайрихоҳ мамлакатлар ёрдами билан, барҳам топгач, мустақил Тожикистон Республикасининг жаҳондаги обрў-эътибори янада ошди.

Шу ўринда Тожикистон Республикасининг ён қўшни, Ўзбекистон Республикаси билан ўзаро муносабати, дипломатик алоқалари, икки қардош ва дўст тожик-ўзбек халқларининг минг йилликларни қамраб олган, биродарлик алоқаларидан сарчашма олиб, ташкил қилинганлигини алоҳида қайд этмоқ жоиздир. Фуқаролар уруши авж олган ва мамлакатимиз маркази ва жанубий ҳудудларида уруш амалиётлари кетаётган, ёш, мустақил Тожикистон Республикаси олов ичида қолган, оддий халқ очарчиликка мубтало бўлган лаҳзаларда, биродар Ўзбекистон Республикаси байроқлари қадалган поезднинг қатор вагонлари, дон ва озиқ - овқат маҳсулотларини пойтахтга келтирилганлиги, очарчилик ва ҳалокат олди олиниб, минглаб инсонлар ҳаёти сақлаб қолинганлигини, давлатимиз сарвари Э. Раҳмон ўз чиқишларидан бирида «... бир кунда Ўзбекистон Республикаси байроқлари қадалган ўн етти верталёт Кўлоб шаҳрига тушса, аҳоли хурсанд бўлардики, нон заводи бугун ишлайди, оч қолмаймиз» - деган эди[6], у кунларни халқларимиз буюк дўстлигимиз рамзи сифатида, жуда яхши хотирлайдилар.

Чунки тарбияли инсон яхшилик ва яхшиларни қандай қандай қадрласа, жаҳонга ўз цивилизацияси билан минг йиллар аввал танилган тожик халқи ҳам Ўзбекистон Республикаси раҳбариятининг қилган улкан хизматлари ва ёрдамини ҳамisha ёдда сақлабгина қолмай, қадрлайди. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси 1991 йил 22 октябрида Тожикистон Республикаси мустақиллигини тан олиб, дипломатик алоқалар ўрнатган энг биринчи давлатлардан эди.

Қайд этмоқ жоизки, Эмомали Раҳмон ҳокимият теппасига келиши билан, икки қўшни давлатлар ўзаро алоқаларининг янги даври бошланди. 1993 йил 4 январда, мустақил мамлакатимиз тарихида Тожикистон Республикаси янги Конституцион Ҳукумати билан биринчи бўлиб дўстлик, ҳамкорлик ва ўзаро ёрдам ҳақидаги шартномани имзолаган давлат - бу Ўзбекистон Республикаси бўлди[3]. Шундан кейингина, бошқа Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига кирувчи мамлакатлар, жумладан, Россия Федерацияси (шу йилнинг май ойида) ва бошқа дўст мамлакатлар билан бирин-кетин шундай муҳим тарихий ҳужжатлар имзоландики, бу Эмомали Раҳмон раҳбарлигида янги ташкил қилинган Тожикистон Республикаси Ҳукумати ва ёш вужудга келаётган мустақил давлатнинг келажак тақдири учун жуда муҳим эди.

Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат Пешвоси Эмомали Раҳмон жаҳон миқёсидаги сиёсат арбобига айланиб бориш билан, мамлакат стратегик манфаатларидан келиб чиқиб, Тожикистон Республикаси ташқи сиёсатининг келажакдаги муҳим тамойилларини белгилаб берди. Унга мувофиқ, Тожикистон Республикаси, ўзининг географик жойлашган ўрни, геополитик мақоми, сиёсий, иқтисодий ва маданий қизиқишлари билан жаҳон ҳамжамиятини беш сиёсий ҳавзага ажратиб, улар билан яқин алоқаларни йўлга қўйган. Улардан биринчиси бу Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги, иккинчиси – Марказий Осиё давлатлари, учинчиси – форс тилли давлатлар, тўртинчиси – Шарқ мусулмон давлатлари ва охиргиси – нуфузли халқаро ташкилотлар. Бу кўрсатиб берилган Тожикистон Республикасининг ташқи сиёсат Концепцияси Президент амри билан 2015 йилнинг 27 январида қабул қилиниб, беш сиёсий ҳавзадан бевосита икkitаси қўшни давлатлар, жумладан, Ўзбекистон Республикаси билан сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳамкорликка алоҳида эътибор берилишини талаб этади[4].

Холислик билан қайд этмоқ жоизки, мустақилликнинг шу яқин ўттиз беш йиллик тарих учун жуда қисқа даврида, Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари муносибатларида ҳам жуда яқин сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳамкорлик, “Абадий дўстлик” ҳақида шартномалар (2000 йил 15

июнда) [2], ҳамда ўта мураккаб ўзаро дипломатик алоқалар таранглашган вазъиятлар бўлиб ўтди. Бугунги бу дўстлик ва ҳамкорликни қадрига етиш учун, вақтида «совуқ», «таранглашган» дейилган, ўзъаро дипломатик муносабатларнинг ўта мураккаблашган даври, баъзи калтафикрлилар сабоқ чиқаришлари учун ҳам, зарур бўлганлиги шубҳасиздир.

Яъни бугунги ўзъаро ҳурмат, дўстлик ва энг муҳими стратегик шерикликдек жуда юқори даражадаги яқин муносибатларга (2018 йил 17 августида, Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари ўртасида стратегик шериклик ҳақида шартнома имзоланди) [5], ҳар икки мустақил давлатлар бирданига мушарраф бўлган эмас. Бугунги Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги ва Марказий Осиё давлатлари орасида бирор бир давлатлар тарихи Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари тарихи, маданияти каби муштарак эмас. Вақтида Тожикистон Қаҳрамони Бобожон Ғафуров ўзининг ўлмас «Тожиқлар» асарининг сўзбошисида «... Хусусан бир-бирлари билан зич боғлиқ бўлган тожиқлар ва ўзбеклар – бир умумий этник асосда шаклланган халқлардир. Тожиқ халқининг маданий хазинасидан ўзбеклар, ўз навбатида ўзбеклар маданиятидан тожиқлар баҳраманд бўлганлар, моддий маданият, табиати, урф-одат, халқ санъати – шу даражада яқинки уларни ажратиб бўлмайди» - дея бежиз қайд этмаган[1,С.3]. XX аср алломаси, Тожикистон қаҳрамони Бобожон Ғафуровнинг бу гавҳарга баробар сўзлари беасос «Тожиқлар» асари сўзбошисининг биринчи саҳифасида келтирилмаган, аллома бир сўз билан «бизнинг тарихимиз, маданиятимиз бир» - дея ошкора таъкидлаган. Афсуски, «қайта қуриш» дейилган йиллардан бошлаб, коммунистик мафкуранинг қўриқчиси бўлган, кўпроқ «сиёсий полиция» - ҳам деб аталадиган, баъзи номи совуқ маҳкамалар кўрсатмаси билан, Тожикистон Республикаси Қаҳрамони Бобожон Ғафуровдек алломанинг айтган гапларига зид равишда тарих илмида, юзаки тадқиқотлар пайдо бўлди, улар туфайли, икки қардош миллатлар ўртасига тушган илк совуқлик, ана шу Шўролар ҳукмронлигининг сўнги йилларидан бошланди ва юқорида таъкидланган номи совуқ маҳкамалар, шу тарзда, шовинизм ва ҳавойи коммунизм мафкурасига йўғрилган муҳитда тарбияланган олимлар ёрдамида, ўз мақсадларига қисман эришдилар. Аслида, бу асарларни ҳеч қачон илмий тадқиқот деб булмайди, чунки илм бу маърифат ва маданиятнинг ажралмас қисмидир. Маърифат ва маданиятда асло бир инсонни бошқасига, бир халқни бошқасига душман қилиб тарғиб қилиш, уруш – жанжал чиқариш, бир-бирларини қириб ташлашни тарғиб ва ташвиқ, ёки мақсад қилмайди. Қачонки илму маърифат ва маданиятдан аҳли илм узоқлашса, шайтоний йўл – шовинизм, миллатчилик ва маҳаллийчилик каби тубанликка қулайди. Бу

йўлга танҳо илм йўлига тасодифан кириб қолган, инсондўстлик ғояларидан узоқлашган, адашган шахсларгина кириши мумкин. Вақтида, бундай кимсаларни давримизнинг буюк ёзувчиси, марҳум Чингиз Айтматов бир ном билан «манқуртлар» - дея атаган ва бу шўролар даври ғоясини инсондўстлик ғоясидан устун қўйиб, социализм ақидасига душман бўлганларни ҳатто лозим бўлса, жисмоний жиҳатдан ҳам маҳв қилиш руҳида тарбияланганлар учун, жуда тўғри ва объективона баҳо бўлган.

Юртимизда сиёсий курашлар авж олган фуқаролар уруши даврида (1992-1997 йй.), бу тарихий, миллий масалалар назардан четда турган бўлсада, афсуски кейинроқ, объектив ва субъектив сабаблар туфайли бу масалалар яна актуаллик касб этди. Икки қардош халқлар дўстлигига зид равишда, қанчалик ҳаракатлар бўлган бўлса, бу тарихи ва тақдири бир халқлар (аслида донишмандларимиз уларни «тили бошқа, лекин дили бир халқлар» - дердилар, кейинчалик шундай мантиқли, ҳикматли сўзлар ҳам, калтабин шовинистларга масхара ва мазок бўлди) бир-бирларига шунчалик интиқ ва яқин бўлавердилар.

Адабиётлар рўйхати:

1. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – М.: Наука, 1972. – 664 с.
2. Договор между Республикой Узбекистана и Республикой Таджикистана о вечной дружбе. <https://lex.uz/docs/2121650> Мурожаат вақти: 23.12.2024
3. Договор о дружбе. <https://uzbekistan.org.ua/ru/news/5530.html> Мурожаат вақти: 12.05.2025
4. Концепция внешней политики Республики Таджикистан <https://mfa.tj/ru/main/view/4255/kontseptsiya-vneshnei-politiki-respubliki-tadzhikistan>. Мурожаат вақти: 23.09.2019
5. Отныне Узбекистан и Таджикистан – стратегические партнеры https://www.google.com/search?&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyCQgAEEUYORifBTIHCAEQIRifBTIHCAIQIRifBdIBCTE4ODE3ajBqOagCALACAA&sourceid=chrome&ie=UTF-8 Мурожаат вақти: 3.11.2023
6. Эмомали Рахмон о помощи народов Узбекистана в годы гражданской войны в Таджикистане https://www.youtube.com/watch?v=_yJVurx7rZg Мурожаат вақти: 12.05.2025

ТОЖИКИСТОН ВА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ ЯНГИ ДАВРИ

МИРЗОТОҲИР НАБИЗОДА

*Академик Б. Ғафуров номли
Хўжанд давлат университети
доценти, тарих фанлари номзоди*

Икки халқ ва мамлакатлар муносабатлари тарихидаги янги босқич 2016 йил охири, 2017 йилдан бошланди, томонлар шу йилнинг охирида илк авиа алоқаларни йўлга қўйдилар. Хусусан, мустақиллик давридаги мамлакатимиз тарихи учун - 2018 йил, муҳим аҳамият касб этган йил бўлиб қолди. Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари давлат роҳбарларининг шу йил март ва август ойларидаги расмий учрашувлари ва шундан кейинги муносабатлардаги туб ўзгаришлар, тожик - ўзбек халқлари ва Тожикистон – Ўзбекистон Республикалари ўртасидаги муносибатлар янги даврга, ўзаро дўстликни қадрлаш ва қадр топиш, том маънодаги, дўстона алоқалар даврига ўтилганлигини кўрсатди. 2018 йилни якунлар экан Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат пешвоси Эмомали Раҳмон, Ҳукумат аъзолари ва Олий Мажлис вакиллари ҳузуридаги ўз Мурожатномасида икки давлат муносибатларидаги ўзгаришларни: «...Икки ўн йилликдан ортиқ вақт давомида пайдо бўлган Ўзбекистон Республикаси билан сиёсий - иқтисодий ва савдо масалаларининг ҳал этилиши халқимиз ижтимоий-иқтисодий ва маънавий ҳаётидаги учинчи тарихий воқеадир» - дея йилнинг, энг муҳим воқеалари қаторига қўшганлиги асло тасодиф эмас[4]. Давлатимиз роҳбари ўшанда Олий Мажлис вакилларига ўз Мурожатномасида, Тожикистон – Ўзбекистон Республикалари муносабатларининг тубдан яхшиланганлигини, ривожланаётган манфаатли алоқаларни, йилнинг энг муҳим масалалари қаторида «тарихий воқеъа» - дея қайд этди.

Чунки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирамонович Мирзиёевнинг 2018 йил 9-10 март кунлари Душанбега ташрифининг ўзи, икки давлат ўртасидаги муносибатларда катта тарихий воқеаларнинг бошланиши эди[2]. Ташриф чоғида ўзаро муносибатларда куннинг энг долзарб муаммоларидан бўлган масалалар ўз ечимини топди. Жумладан, икки давлат роҳбарларининг яккама-якка учрашувида Миллат Пешвоси шуларни қайд этди: «Ўзбекистон Республикаси билан ҳамкорлик, Тожикистон Республикаси ташқи сиёсатида энг муҳим йўналишлардан ҳисобланади. Бугун ўзаро қабул қилинадиган қарорлар, том маънода тарихий

аҳамиятга эга бўлади. Улар тожик-ўзбек муносабатларини босқичма-босқич янги сифат даражасига олиб чиқиш учун замин ҳозирлайди»[5]. Воқеалар давоми, давлатимиз роҳбарининг бу сўзларини тасдиқлади, учрашувлар давомида, савдо - иқтисодий, маданий, илму-фан, транспорт, сув – энергетика, муҳофа соҳаларида ҳамкорлик масалалари муҳокама этилди. Миллат пешвоси, Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, мўхтарам Президентимиз Эмомали Раҳмон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Марказий Осиёда янгича ўзаро ишончга асосланган ҳамкорликни ташкил этиш ташаббусини қўллаб қувватлашини билдирди[5]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев ўз навбатида, охири вақтларда ўзаро муносабатлардаги ижобий ўзгаришларни қайд этиб, Ўзбекистон томони энергетика соҳасида, гидроэлектр станциялар қуриш, Роғун ГЭС-и қурилишида халқаро ҳуқуқ нормаларни инобатга олиб, иштирок этиш нияти борлигини қайд этди. Чегара билан боғлиқ ҳамма баҳсли масалалар ҳал қилинаётганлигини, бу масалада ўзаро келишув яқинлигини, томонлар олдинги виза режимидан воз кечиб, бир-бирларининг фуқароларини 30 кун мобайнида бевиза ўтказишлари мумкинлигини, икки давлат ўртасида мавжуд бўлган назорат – текширув нуқталарининг ҳаммасини яқин кунларда, қайта ишга тушириш лозимлигини маълум қилди.

Ўша тарихий кунлардаги музокаралардан кейин, ўзаро келишувга мувофиқ, 27 шартнома икки томон маъсул шахслари томонидан имзоланди[1]. Бу ҳужжатлар орасида, солиқ, молия, божхона масалалари, ҳарбий ҳамкорлик, жиноятчиликка қарши ҳамкорликда курашиш, фавқулодда ҳолатлар маҳкамаларининг ўзаро ёрдам масаласидаги ҳамкорлиги, чегараларнинг айрим ҳудудларида баҳсли муаммоларни ҳал этиш, темир йўл, авиа ва бошқа транспорт алоқаларини кенг йўлга қўйиш ва босқичма – босқич 16 назорат – кузатув нуқталарининг фаъолиятини қайта тиклаш каби масалалар бўлиб, уларга оид томонлар келишувига эришилди. Ўша халқимиз тарихининг қувончли кунларида, Ғалаба – Амузанг темир йўл шохобчаси икки давлатнинг темир йўл алоқасини қайта тиклаш йўлидаги илк қадам сифатида, икки давлат роҳбарлари томонидан ишга туширилди.

Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат пешвоси, мўхтарам Президентимиз Эмомали Раҳмон қайта – қайта такрорлаганидек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг бу ташрифи тарихий аҳамиятга эга бўлиб қолди ва ўртада йиғилиб қолган кўпгина муаммолар ҳал этилди. Икки роҳбар учрашув сўнггида 18 йўналишдан иборат қўшма баёнот бериб, 2000 йилнинг 15 июнида имзоланган «Абадий дўстлик» ҳақидаги шартномага собит эканликларини яна бир бор амалда тасдиқладилар, яқин

орада икки давлат ўртасида Стратегик шерикчилик шартномасини ишлаб чиқишга келишиб олдилар. Савдо, транспорт илмий, адабий ва маданий соҳалардаги томонлар ҳамкорликлгини жонлантириш, ўқув муассасалари, ижодий ва спорт жамоалари, ёшлар, хотин-қизлар, касаба иттифоқи каби жамият институтлари ҳамкорлигини ривожлантириш лозимлиги учрашувда алоҳида қайд этилди. Тожикистонда ўзбек тилида, Ўзбекистонда тожик тилида олиб бориладиган таълим тизимини кенгайтириш ва такомиллаштириш, бу тиллардаги классик, мумтоз ва замонавий адабиёт вакиллари асарларини таржима қилиш йўлидаги тадбирларни қўллаб қувватлаш лозимлигига келишиб олинди. Булардан ташқари, назорат-текширув нуқталари фаъолияти қайта тикланиши, ҳарбий соҳада, табиий офатлар рўй берганда, уюшган жиноятчилик, халқаро терроризмга қарши кураш масалаларида ҳамкорлик қилишга келишиб олинди. Давлат роҳбарлари учрашуви якунига оид қўшма баёнотда, Тожикистон ва Ўзбекистон Республикаларининг Марказий Осиё ва жаҳондаги вазъиятга оид муносибати бир хил ёки ўзаро яқинлиги алоҳида қайд этилди.

Тинчлик ва миллий бирлик асосчиси, Миллат пешвоси, Жаноби Олий муҳтарам Президентимиз Эмомали Раҳмоннинг шу 2018 йил 17-18 август кунлари Тошкентга қилган жавоб ташрифи, дўстлик ва биродарлик муносибатлари давомийлигини кўрсатибгина қолмасдан, уни амалда янада мустаҳкамлади. Бу учрашувнинг энг муҳим якуни, икки давлат роҳбарларининг қўшма баёнотида қайд этилди, унга кўра Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари Стратегик шериклик ҳақидаги шартномага имзо чекдилар, ҳамда икки дўст мамлакатларимиз ўртасида, 28 та янги шартномалар имзоланди[3]. Бу шартномалар орасида, хусусан, икки мамлакат Фанлар Академияларининг илм – техника соҳасидаги ҳамкорлиги тўғрисида, Хатлон вилоятининг Сурхондарё вилояти билан Сўғд вилоятининг Самарқанд вилояти билан ҳамкорлик қилиш тўғрисидаги, Дин қўмиталари, вазирликлар ва давлат қўмиталари, ёшлар ташкилотлари ўртасида ҳамкорликни йўлга қўйиш ҳақидаги келишувлар жуда катта аҳамиятга эга бўлиб, келажақда амалий натижалар бериши шубҳасиздир. Буларнинг ҳаммаси икки давлат роҳбариятининг халқларимиз хоҳиш ва иродасини инобатга олиб, ўзаро ҳамкорликни янада кучайтириш тарафдори эканликларини кўрсатди. Айниқса, давлатлар ўтасидаги виза режими тўла бекор қилиниши фуқароларни шубҳасиз жуда қувонтирди, бу келишув халқларимизнинг неча йиллик орзуси эди.

Қайд этмоқ жоизки бугунги кунда, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Тожиклар маданияти маркази мавжуд бўлиб, унинг 10 шохобчаси жойларда

фаъолият кўрсатмоқда, 245 ўрта мактабда, тожик тилида ҳам машғулиятлар олиб борилади, шундан 55 тасида, машғулиятлар соф тожик тилида ташкил қилинган. Булардан ташқари 4 рўзнома, 5 телепрограмма, 30 – дан ортиқ радиопрограммалар мавжуд бўлиб, уларнинг ҳаммаси, тожик тилида фаъолият олиб борадилар. Ўз навбатида қайд этмоқ жоизки, Тожикистон Республикасида ҳам Ўзбеклар жамияти ва унинг Сўғд вилоятида бўлими мавжуд, Республикамизнинг 77 мактабида ўзбек тилида машғулиятлар ташкил қилинган. Ўтган ўқув йили давомида, академик Б. Гафуров номи Хўжанд давлат Университетида 2018 йил ноябрида ўзбек филологияси факултети қайта ташкил қилинди, биология, математика ва чет тиллар факултетларида ўзбек тилида машғулият олиб боровчи гуруҳлар очилди. «Халқ овози» номи билан Душанбеда, Республика Ҳукумати органи ва «Сўғд ҳақиқати» номи билан Хўжандда Сўғд вилояти ҳукумат органи бўлган рўзномалар ва Ўзбеклар жамияти Хўжанд бўлимининг «Қадрият» номи рўзномаси чоп этиб келинмоқда.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, инсоният тарихининг турли даврларида Марказий Осиё халқлари миллат сифатида шаклландилар. Эндиликда улар 5 мустақил давлатларни ташкил этиб, бугунги жаҳон ҳамжамиятининг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида фаъол иштирок этиб келмоқдалар. Тарих шунга гувоҳки, қачон халқларимиз бирлашиб, бир давлатни ташкил қилган бўлсалар, бу давлат империя даражасига етди, ёки жаҳоннинг энг ривожланган давлатларидан бири, иқтисодиёт ва цивилизация маркази сифатида донг таратди. Марказий Осиё халқлари бирлашиб ҳеч қачон ютқизмадилар, бугун ва келажагимиз ҳам бирлашишимизга боғлиқ.

Адабиётлар рўйхати:

1. 27 соглашений подписали Президенты Таджикистана и Узбекистана. <https://tjinform.com/ru/news/pr/17133.html>
2. Исторический визит Шавката Мирзиёева в Душанбе глазами таджикского фейсбука. <https://www.caa-network.org/archives/12621> Мурожаат вақти: 7.04.2018
3. Отныне Узбекистан и Таджикистан – стратегические партнеры https://www.google.com/search?&gs_lcrp= Мурожаат вақти: 3.11.2023
4. Паёми Президенти Ҷумҳурии Тоҷикистон ба Маҷлиси Олии Ҷумҳурии Тоҷикистон 26.12.2018. <https://mti.tj/payomi-prezidenti-um-urii-to-ikiston-ba-ma-lisi-olii-um-urii-to-ikiston-26-12-2018-12-21-sha-ri-dushanbe>. Мурожаат вақти: 7.11.2019

5. По итогам визита президента Узбекистана Шавката Мирзиёева в Таджикистан бцло подписано 27 соглашений <https://tj.sputniknews.ru/20180312/mirziyoyev-vizit-itogi-tadzhikistan-uzbekistan-rahmon-1024983640.html> Мурожаат вақти: 7.04.2018



ТОЖИКИСТОН ВА ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚЛАРИ ДЎСТЛИГИ ВА ҲАМКОРЛИГИ

НЕКРУЗ МУМИНЗОДА

*Тоҷикистон миллий университети изланувчиси
(Душанбе, Тоҷикистон Республикаси)*

ЗИЛОЛАХОН ТУРСУНОВА

*Академик Б. Ғафуров номли Хўжанд давлат университети
Тоҷик халқи тарихи кафедраси изланувчиси
(Хўжанд, Тоҷикистон Республикаси)*

Агар тарихга назар ташласак, дили бир тили бошқа тожик ва ўзбек халқлари, бир дарёдан сув ичиб, бир ижтимоий этник муҳитда минг йилликлар давомида шаклланганлигини, кўриш мумкин ва шу ўринда, жаҳон маданиятига улар биргаликда, ҳисса қўшганликларини таъкидлаш жоиз. Орийларгача бўлган давр, орийлар даври, тожикларнинг халқ сифатида шаклланиши арафасида Марказий Осиёда мавжуд халқлар ва этник гуруҳлар: суғдийлар, бохтарлар, фарғоналиклар, усрушоналиклар, хоразмликлар, сак (улар хаумаварга, тиграхауда, тийай – тара – дарайа каби уч гуруҳга бўлиниб [3, б.48-50] Марказий Осиё даштларида кўчиб юрган энг катта қабилаларда эдилар), массагет, дах, шак, дирбек каби қадимги халқлар ва қабилалар, Аршакийлар, Қўшонийлар, Сосонийлар, Кидоритлар, Хионийлар, Эфталитлар (Ҳайтолийлар), Турк ҳоқонлиги, Араб халифалиги, Тоҳирийлар, Сафғрийлар, Сомонийлар тожиклар ва ўзбекларнинг халқ сифатида шаклланишида баробар рол ўйнаганлар. Айнан шунинг учун бу икки халқнинг нафақат маданияти, урфу одат, маросимлари, балки энг қадимдан яшаган биринчи ўзбек миллати этник қатламини ташкил қилган гуруҳлар антропологик қиёфаси ҳам муштараклигини ва Помир-Фарғона гуруҳини ташкил қилувчи европоидлигини кўрамиз. Бу ҳақда шўролар даврида Б. Ғафуров, Л.В. Ошанин, А.И. Ярхо [1, с.371-373], мустақиллик йилларида Россия Федерацияси Томск ва Новосибирск антропологлари И.Ю. Хитринская, В.А. Степанов, В.П. Пузырев, М.Г. Спридонова, М.И. Воевода батафсил маълумот берадилар [7, с.1-9]. Ҳар икки халқларнинг тақдири ва этник ривожланишида, кейинги тарихий босқичларда мавжуд бўлган Қорахонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, Хоразмшоҳлар, Чиғатой улуси, Темурийлар, Шайбонийлар, Жонийлар, Манғитийлар, Минглар каби сулола ва давлатлар, баробар рол ўйнади. Бунинг этнографик тадқиқотлар ҳам шубҳасиз тасдиқлайди, жумладан, Самарқандда тарбия топиб машҳур этнограф олима даражасига эришган, тожик ва ўзбек

тиллари, урф-одат ва анъаналарини жуда яхши ўрганган ва илмий таҳлил қилган, профессор Ольга Александрова Сухарева, бу мураккаб этник ва сиёсий жараёнлар, тожик ва ўзбек халқларининг этнос сифатида ривожланишида муҳим рол ўйнаб, бу халқлар муштараклигига, генетик ривожланишига ижобий хизмат қилганлигини тадқиқотларида кўрсатиб ўтади[5,с.128-130].

Икки халқ муштараклиги ижтимоий ҳаётнинг ҳамма соҳаларида, сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётда акс этади. Сиёсий ҳаётда, тожиклар ва ўзбеклар орасидан юзлаб давлат ва жамоат арбоблари, халқ қаҳрамонлари Ватан учун хизмат қилдилар. Шу ўринда қайд этмоқ жоизки, тарихда шахснинг роли беқиёсдир, у жамиятда ҳаракатлантирувчи куч ҳисобланади. Тарих илмида, инсондаги яратувчанлик қудрати қандай мадҳ этилса, жасорат ва қаҳрамонлиги ҳам шундай юқори пардаларда мадҳ этилади. Хусусан, Ватан ҳимояси йўлида қилинган фидоийлик, мардлик ва жасорат, халқлар тилида малика Тўмарис, оддий чўпон Широқ жасоратлари сингари, афсона-ривоятга, дostonга айланиб абадиёт асари бўлиб қолади. Чунки Ватан яхлитлиги, миллатнинг борлиги ва бирлиги қаҳрамонликлар натижаси, қаҳрамонлар шарофати биландир[6,с.72]. Шунинг учун ҳам «Ватанни севмоқ - имондандир» - дея қайд этилади муқаддас Хадиси Шарифда.

Заҳматкаш халқимиз мардлик ва жасорат билан ватанни сақлаб, иқтисодий ҳаётнинг ҳамма соҳасини самарали меҳнат қилиб, бойитдилар. Натижада, зироатчилик, хунармандчилик машғулиятлари амалий санъат даражасига кўтарилди, Марказий Осиё Буюк ипак йўли орқали халқаро савдонинг ажралмас занжирига боғланди ва ҳаёт ривожланди. Маданиятнинг илму-фан, адабиёт, санъат каби йўналишлари юқори даражага кўтарилди. Хусусан, Сомонийлар давлати ҳукмронлиги давридан, бу юксак маданиятни Эҳёи Ажам (Шарқ Ренессанси) тушунчаси билан ифодалаш расм бўлди ва у IX асрдан - то XVI аср бошларигача давом этиб, оламга Аҳмад ал-Фарғоний, Мусо ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Абурайхон Беруний, Абу Али ибни Сино, Абўабдуллоҳ Рудакий, Юсуф Хос Ҳожиб, Хожа Аҳмад Ясавий, Умар Хаём, Носир Хусрав, Жалолиддин Балхий-Румий, Хожа Камол Хужандий, Жамолиддин Жамшид, Мирзо Улуғбек, Али Қушчи, Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий, Низомиддин Мир Алишер Навоий, Камолиддин Бехзод каби улкан фан, адабиёт ва санъат арбобларини берди[4; 8,б.397-398].

Тожик – ўзбек халқлари дўстлиги ҳақида гап кетганда, Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий ва Амир Низомиддин Алишер Навоий ўртасидаги дўстлик мисол қилиб кўрсатилади. Ҳақиқатдан ҳам ўз даврининг бу икки уламо ва фузалоси, фақат шоир бўлибгина қолмай тасаввуфнинг нақшбандия сулики

(мактаб, йўл) йирик намояндалари бўлишган. Уларнинг ҳар иккиси Самарқандда таълим ва таҳсил олиб, айна шу ерда, нақшбандия моҳияти билан танишганлар ва то умрларининг охиригача шу сўфийлик мактабига содиқ қолганлар. Улар ижодида ҳам бу тасаввуф мактаби ғоялари ривожлантирилган, Навоий шеъриятда эмас (ҳазрат жуда эрта 10-12 ёшдан шеър ёзганлиги, 15 ёшида шоир сифатида танилганлиги тарихдан маълум), тасаввуфда, яъни нақшбандия сулукида, ўзларини Жомийга мурид - шогирд санаганлар. Бу муносабатлар тарихидан беҳабар кишилар масалани бошқача, нообъективона талқин қиладилар. Жомий ҳақида маълумот берар экан Навоий, у кишининг шариат ва тариқат хирқаларини кийганлигини таъкидлаган. Тасаввуфнинг бу муҳим зиналаридан ўтган Жомий, ҳаёти давомида 99 асар ёзган ва ҳамма асарлари у киши ҳаётлик чоғларидаёқ ўз замонаси илму адаб аҳли ва уламолар ўртасида ҳам, маълум ва машҳур бўлган. Агар то Жомийгача шоирлар, ўзларини мукаммал шеърият мулкининг соҳиби эканликларини исботламоқчи бўлсалар, «Хамса» - беш дostonдан иборат асар ёзганлар. Жомий эса етти дoston ёзиб, уни «Ҳафт авранг» - деб номлаган ва ўз даврининг йирик шоиригина эмас, форс-тожик классик адабиётининг буюк намояндаларидан бири эканлигини шу тарзда исботлаган. Бу улуғ адиб шеърият мулкида қандай машҳур бўлса, ислом дини мағзи бўлган тасаввуф аҳли орасида ҳам шу даражага кўтарила олган, шунинг учун ҳам ўз даврининг уламо ва фузалолари у кишини Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий дея эҳтиром билан тилга олганлар[1,с.513].

Низомиддин Мир Алишер Навоий буюк даҳо Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий замондоши бўлиб, давлат ва жамоат арбоби, турк шеърияти султони, ўзбек, тожик ва араб тилларида ижод қилган буюк сўз устаси эди. Ўрни келганда қайд этмоқ жоизки, Навоий жуда эрта ёшдан тасаввуф ҳақида чуқур билимга эга бўлган, Фаридуддин Аттор каби аҳли тасаввуфнинг йирик намояндаси асарлари билан танишиб чиққан, кейинчалик, тасаввуф илмини чуқур ўзлаштириб унга амал қилган ҳолда яшаган. Жомий ва Навоий дўстлиги кўпроқ шеъриятда ўз ифодасини топган бўлса, тасаввуфда уларнинг ҳамкор, ҳамақида бўлганликларини кўрамыз. Навоий ўз она тили имкониятлари катта эканлигини кўрсатиш учун, 52 минг мисрадан иборат «Хамса» номли беш дostonдан иборат олдинги шу номли асарлардан ҳам мукаммал, китобини ёзибгина қолмасдан, «Муҳокамат ул луғатайин» асарини ҳам ёзиб, бошқа тиллар ва она тили имкониятларини илмий даражада қиёслаб, ўз тили сўз бойлигини кўрсата олган, ўзидан катта илмий ва адабий мерос қолдирган, буюк шоиргина эмас, лингвистика соҳасида йирик олим эди. Фоний таҳаллуси билан тожик тилида ҳам

шеърлар ёзди, Жомийнинг ғазалларига ёзган назираси жуда юқори баҳоланган. Булардан ташқари Жомий хотирасига бағишлаб «Ҳамсат ул - мутаҳаййирин» номли асар ҳам ёзганлиги маълум. Булардан ташқари «Девони Фоний», 6 қиссадан иборат «Ситтаи зарурия», 4 қасидадан иборат «Фусули арбаа» каби асарлари тожик тилида ёзилган қимматли асарлардир. Аллома Б. Ғафуров ўзининг “Тожиқлар” китобида, Низомиддин Мир Алишер Навоий ҳаёти ва ижодига шоирга замондош, бошқа қалам аҳлига қараганда кенгроқ маълумот берганлиги, асло тасодиф бўлмай, ўз даврининг даҳоси бўлган шоир ва олим га эҳтиром ифодасидир[1,с.513-516].

Ҳаёти давомида, Низомиддин Мир Алишер Навоий давлатнинг масъул вазифаларида ҳам ишлади, Астробод вилояти ҳокими, давлат вазири, 1472 – 1487 йиллар давомида Бош вазир каби масъулиятли лавозимларда ишлади. Унинг Хуросонда 40 работ, 17 масжид, 10 хонақоҳ, 9 кўприк, 9 ҳамом, 20 ҳовуз қурдирган ё таъмир этдиргани маълум. Аҳли илм, адаб ва санъатнинг ҳомийси (ҳозирги тилимизда айтсак меценат) сифатида шуҳрат топди, унинг вафотидан кейин ҳам шоирнинг мулки уламо ва фузало, фақирлар учун манфиат келтирганлиги тарихий асарларда қайд қилинган. Унинг дин ва жамият учун қилган жуда катта хизматлари, замондошлари томонидан тариф ва таҳсинга сазовор бўлган ва тарихий асарларда ҳам эҳтиром билан қайд қилинган. Низомиддин Мир Алишер Навоий ҳақида энг юксак баҳони ҳам Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий берган:

Хоса, ки ба боғи ошноӣ

Бар шохи вафо бувад Навоӣ.

(Танланганлар дўстлиги боғида

Навоӣ садоқат шоҳидадир)

Бу икки буюк даҳолар илмий ва адабий меросига, бугунда берилган ва берилаётган баҳо ҳам камлик қилади, аҳли адаб, уламо ва фузало уларга келажакда янада объективроқ баҳо беражакдир. Бу улуг зотларнинг мероси адабиёт илми доирасидан ҳам кенгроқ, каттароқ бўлиб, ислом дини мағзи бўлмиш тасаввуф – сўфийлик ғоялари билан чуқур суғорилганлиги учун ҳам, улар асарларида кўтарилган мавзулар абадиётга алоқадор, шу сабабдан ҳам ҳамма замонлар учун муҳим, долзарб бўлиб қолаверади.

Тожиқ – ўзбек илм ва адаб аҳли, бир – бирлари билан ана шундай дўстона муносибатда бўлишганлар, уларнинг ўзаро дўстлиги ва садоқати, кейинги авлодларгагина эмас, жаҳоннинг бошқа халқларига шу тарзда намуна бўлиб қолди. Бу икки даҳонинг халқларимиз дўстлиги тимсоли бўлиб қолганлигини, бугун Тожикистон ва Ўзбекистон Республикаларида, уларнинг

ҳамроҳ турганлиги акс эттирилган ҳайкаллар ва дам олиш боғлари бино қилинганлигида кўрамыз.

Халқларимиз дўстлиги тарихимизнинг энг янги даврида янада ривожлани, хусусан, адабиётда Садириддин Айний, Мирзо Турсунзода, Абдулла Қодирий, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳор, мусиқа санъатида Шерали Жўраев, Жўрабек Муродов, Жўрабек Набиев ижодий ҳамкорликларида бунини яққол кўришимиз мумкин. Қадимий ва навқирон Хўжанднинг бир қатор фарзандлари - Тошмуҳаммад Қори Ниёзий, Зариф ва Солиҳ Ражабовлар, Султон Умаров, Мавлон Ваҳобов, XX асрда Тошкентдаги Ўрта Осиё университетида (ҳозирги Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети) таълим ва тарбия олиб, профессор ва академик даражасига эришдилар. Тошмуҳаммад Қори Ниёзий Ўзбекистон ССР Фанлар академиясининг биринчи Президенти ва Мавлон Ғафорович Ваҳобовлар академик ва профессор бўлишдан ташқари, Ўзбекистон ССР Вазирлар Маҳкамаси Раисининг ўринбосари даражасигача кўтарилиб, масъул давлат ва жамоат ишларида фаъолият олиб бордилар. Ўтган асрнинг 50-60 – йилларида, академик Бобожон Ғафуров таклифи билан Зариф ва Солиҳ Ражабовлар, Султон Умаров, М.С. Андреев, А. Семёнов, Е. Давидович, Б.А. Литвинский каби илм дарғалари Тошкентдан пойтахтимиз Душанбега кўчиб келиб, физика, тарих ва ҳуқуқ илмлари ривожланишига муносиб ҳисса қўшиб, хизмат қилдилар[2,с.47-50]. Конибодомлик ҳамюртимиз Комил Ёрматов ўзбек киносини асосчиси саналади, Пиримқул Қодиров, Ҳалима Худойбердиева, Асқар Маҳкам, Шойим Бўтаев каби Тожикистон фарзандлари ўзбек замонавий адабиётининг ёрқин намояндалари даражасига етиб, ижод қилдилар. Улар ижодий меросининг таҳлил ва талқини, халқларимиз маданиятидаги ўрни, адабиётшинос олимларимиз томонидан ўрганиб борилмоқда.

Тожикистонлик ўзбек ижод аҳли ҳақида сўз кетганда, бугунги ўзбек лингвистикаси ривожига салмоқли ҳисса қўшган, филология фанлари доктори, профессор А. Бердиалиевнинг фидокорона меҳнати алоҳида таҳсинга сазавордир. Мўхтарам домланинг минглаб шогирдлари, Марказий Осиёнинг ҳамма ҳудудларида фаъолият олиб бораётганларидан ташқари, биргина домланинг ўзлари 40 дан ортиқ фан докторлари ва фан номзодларини тарбиялаб вояга етказиб, ўз илмий мактабларини яратадилар. Бу иқтидорли ва забардаст олим шарофати туфайли Хўжанд илмий муҳити лингвистика соҳасида кучли мактабга эга бўлди, нафақат ўзбек тилшинослиги балки Марказий Осиё ва жаҳон халқлари лингвистикаси ривожланишига салмоқли ҳисса қўшилди. Профессор Абдували Бердиалиев

яратган илмий асарлар, ҳеч муболиғасиз, аллақачонлар жаҳон лингвистикасининг классик асралари мақомини олган.

Darxaqiqat, O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar asrlar davomida shakllangan umumiy tarixiy, til, din va urf-odatlariga asoslangan. Bu aloqalar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi, ayniqsa: madaniy markazlar tashkil etilishi, buyuk allomalar xotirasini yod etish bo'yicha tadbirlar, qo'shma teleko'rsatuv va media loyihalar, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi almashinuv dasturlari davlatlar o'rtasida rivojlanib kelmoqda. Quyida ushbu bosqichlarni kengroq yoritib o'tamiz:

Madaniy markazlarni rivojlantirish O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda madaniy markazlar muhim ahamiyatga ega. Bu markazlar mintaqa xalqlari o'rtasidagi tarixiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Madaniy markazlar O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida umumiy tarix, an'ana, urf-odat va qadriyatlar asosida yaqinlashuvni ta'minlaydi. Ular xalqlar o'rtasida "xalq diplomatiyasi"ni rivojlantirish, ta'lim, san'at, sport va turizm sohalarida hamkorlikni kengaytirishga yordam beradi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda madaniy

markazlar muhim ro'l o'ynaydi. Bu markazlar xalqlar o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning tashabbuslari, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflari, madaniy markazlar orqali amalga oshirilayotgan loyihalar va xalq diplomatiyasi tufayli mintaq davlatlari o'rtasidagi aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Buyuk allomalar xotirasini yod etish tadbirlari O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda yana bir muhim vositadir. Bu tadbirlar umumiy tarixiy-madaniy merosni asrash, targ'ib qilish va mintaqaviy do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston milliy madaniy markazlari ushbu jarayonda faol ishtirok etib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyoning madaniy, ma'naviy hamda diniy merosining betakror buyukligi xammaga ma'lum. Shu ma'noda Markaziy Osiyo mintaqasidan chiqib, jahon madaniyatining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Chingiz Aytmatov, Fikret Amirov, Abay Qo'nanboyev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Chingiz Axmarov kabi ko'plab yuksak iqtidor egalarining ijodi beqiyos madaniy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Bu buyuk ijodkor shaxslar Markaziy Osiyo xalqarining o'zlik tafakkuri, falsafasi, qobiliyatining hech kimga o'xshamas nodir qirralarini yuksak mahorat bilan ifoda etib, nafaqat o'z davriga xos madaniyat va san'at sohasining noyob hislatlarini, balki istiqboldagi taraqqiyotining yangi ufqlarini ham belgilab bergan.[2] Markaziy Osiyoda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Chingiz Aytmatov, Fikret Amirov, Abay Qo'nanboyev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Chingiz Axmarov kabi buyuk allomalarning merosi mintaq xalqlarini birlashtiruvchi madaniy va ilmiy ko'prik vazifasini o'taydi. Ushbu allomalar nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi sivilizasiyalar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. 2018 yilda Samarqandda YuNESKO bilan hamkorlikda o'tkazilgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzuidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo mamlakatlaridan olimlar va mutaxassislar ishtirok etib, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy va boshqa allomalarning merosini muhokama qildi. YuNESKO Bosh direktori o'rinbosari Xubert Gizen ushbu konferensiyada O'zbekistonning madaniy merosni targ'ib qilishdagi muhim rolini alohida ta'kidladi.[3]

Hamkorlikdagi teatr va san'at festivallari Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda muhim vazifalarni bajarib, quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- Madaniy merosni targ'ib qilish: Festivallar orqali mintaq xalqlarining umumiy tarixiy-madaniy merosi, jumladan, san'at, teatr va musiqa an'analari ommalashtiriladi.

- Mintaqaviy do'stlikni mustahkamlash: Markaziy Osiyo mamlakatlaridan ishtirokchilarni jalb qilish orqali o'zaro ishonch va hamkorlik kuchayib, millatlararo totuvlik rivojlanadi.

- Yoshlar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash: Festivallar yosh ijodkorlar uchun platforma bo'lib, ularning xorijdagi hamkasblari bilan tajriba almashishiga yordam beradi.

- Xalqaro e'tirof: YuNESKO, ShHT va Turkiy tilli davlatlar Kengashi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan festivallar Markaziy Osiyoning madaniy merosini jahon miqyosida targ'ib qiladi. Misol uchun: "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, "Madaniyat karvoni"[4] kabi tadbirlar mintaq mamlakatlarining umumiy madaniy merosini targ'ib qilib, do'stlik va integrasiyani kuchaytiradi. Milliy madaniy markazlar ushbu festivallarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi, xususan, yoshlarni jalb qilish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik orqali mintaqaviy madaniy aloqalarni yanada rivojlantiradi.

Qo'shma teleko'rsatuv va media loyihalar ko'proq aholin jalb qilish orqali O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda katta ro'l o'ynaydi. Bu borada madaniy merosni targ'ib qilish umumiy tarixiy-madaniy meros, jumladan, an'anaviy san'at, musiqa, adabiyot va urf-odatlarini ommalashtirish orqali mintaq xalqlarining birligi kuchaytiriladi. Bu esa albatta mintaqaviy do'stlikni mustahkamlaydi. Media loyihalar orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va do'stona munosabatlar rivojlantiradi. Yoshlarni jalb qilish orqali yosh avlodni madaniy-gumanitar loyihalarga jalb qilish, ularning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga erishiladi. Misol uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2021 yilda taklif qilingan ushbu "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: yagona o'tmish va umumiy kelajak" media platformasi Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy tarixiy va madaniy merosini targ'ib qilishga qaratilgan. Ushbu loyiha mintaq olimlari, jurnalistlari va jamoatchilik vakillarini jalb qilib, umumiy media kontent yaratishni maqsad qiladi.[5]

Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi almashinuv dasturlari

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi almashinuv dasturlari muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar talabalar, professor-o'qituvchilar

va tadqiqotchilarning akademik mobilligini ta'minlash, ilmiy hamkorlikni kengaytirish, madaniy almashinuvni mustahkamlash va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu sohada amalga oshirilayotgan asosiy yo'nalishlar va misollar keltiriladi:

Qo'shma ta'lim dasturlari va akademik almashinuv: O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalari, xususan, Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Markaziy Osiyo davlatlaridagi universitetlar bilan talaba va o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'ygan.[6] Masalan, Qozog'istonning Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot hamkorligi: O'zbekiston universitetlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshiradi. Masalan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti YuNESKO bilan hamkorlikda madaniy merosni o'rganish va saqlash bo'yicha ilmiy loyihalarni olib bormoqda. [7]Mintaqadagi universitetlar o'rtasida ilmiy konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar tashkil etilib, ularda talabalar va olimlar o'zaro tajriba almashadilar.

Madaniy va ta'lim sohasidagi tashabbuslar: O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida muzeylar, arxivlar va madaniyat institutlari o'rtasida hamkorlik kengaytirilmoqda. Masalan, mintaqaviy turistik marshrutlar ishlab chiqish va madaniy merosni aks ettiruvchi kataloglar nashr etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kabi muassasalar Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy islohotlar va ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish uchun konferensiyalar tashkil qilmoqda[8]. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi oliy ta'lim muassasalari almashinuv dasturlari madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Bu dasturlar nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mintaqaviy barqarorlik, madaniy integratsiya va xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda bu yo'nalishda qo'shma loyihalar va xalqaro grant dasturlarni kengaytirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

Xulosa. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar – mintaqadagi barqarorlik, hamjihatlik va umumiy taraqqiyotning muhim ustuni sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu aloqalar tarixiy, til va madaniy yaqinlik, umumiy turkiy ildiz va islomiy qadriyatlar asosida shakllangan bo'lib, so'nggi yillarda yangi siyosiy iroda va mintaqaviy integratsiya tamoyillari asosida yanada rivojlanib borayapti.

Ayniqsa, madaniy markazlarni tashkil etish, buyuk allomalarning ilmiy va ma'naviy merosini targ'ib qilish, qo'shma teatr va kinofestivallar, axborot maydonidagi integrasiya (masalan, teleko'rsatuvlar va media loyihalar), hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi talabalar va mutaxassislar almashinuvi mintaqada xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlamoqda. Mazkur jarayon faqat madaniy ifoda emas, balki geosiyosiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mintaqada barqaror madaniy-gumanitar aloqalar orqali davlatlar o'zaro ishonch, muloqot va hamkorlik muhitini shakllanib boradi. Bu esa nafaqat siyosiy barqarorlik, balki iqtisodiy va fan-ta'lim sohalarida ham qo'shma rivojlanishni rag'batlantiradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning mazkur yo'nalishdagi siyosati – mintaqadagi "yumshoq kuch" siyosati sifatida o'zini namoyon qilib, milliy manfaatlarni himoya qilish bilan birga, umumiy mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida madaniy-gumanitar aloqalarni yanada chuqurlashtirish – nafaqat davlatlararo munosabatlarni, balki xalqlar o'rtasidagi haqiqiy yaqinlik va birlikni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Integrasiya va hamkorlik yo'lidagi yangi imkoniyatlar/Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -B. 267.
2. "Markaziy Osiyo madaniy-gumanitar integratsiyalashuvi — barqaror taraqqiyot garovi" O. Abdullaeva, 2023 y. <https://www.uwed.uz/>
3. <https://gov.uz/uz/madaniymeros/general-menu/1373>
4. <https://president.uz/uz>
5. <https://president.uz/uz>
6. <https://fledu.uz/language/uz/>
7. <https://tsuos.uz/toshkent-davlat-sharqshunoslik-universiteti>
8. <https://dsmi.uz/madaniy-islohotlarni-amalga-oshirishning-dolzarb-masalalari-mavzusida-konferensiya-otkazildi/>



МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИДАГИ АҲАМИЯТИНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ

АНВАР ЮЛДАШЕВ

*Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси
профессори, тарих фанлари доктори*

Аннотация. Мазкур мақола Марказий Осиё мамлакатларининг замонавий халқаро муносабатлар тизими трансформациялашув шароитидаги аҳамиятини очиб беришга бағишланган. Мақолада дунёнинг етакчи давлатлари ташқи сиёсатида мазкур минтақага бўлган муносабатларга оид илмий асарлар ва айрим ОАВ да чоп этилган (илмий бўлмасада) сиёсий аҳамиятга эга материаллар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: *Марказий Осиё, Европа Иттифоқи, АҚШ, Хитой, Россия, ШХТ, иқтисодий экспансия, “юмшоқ куч” сиёсати, ҳамкорлик, инвестиция, ҳавфсизлик.*

Кириш

Маълумки, Совет Иттифоқининг парчаланиши натижасида Осиёнинг марказий қисмида ташкил топган янги мустақил давлатлар жойлашган ҳудуд Марказий Осиё деган умумий номни олди. Замонавий Марказий Осиё бешта мустақил давлат – Қозоғистон, Қирғизистон, Ўзбекистон, Тожикистон ва Туркменистон ҳудудлари билан белгиланади. Геосиёсий жиҳатдан Марказий Осиёнинг барча давлатлари бир ҳил даражада ноқулай шароитда жойлашган, чунки уларнинг бирортаси ҳам денгиз коммуникацияларидан тўғридан-тўғри фойдаланиш имкониятига эга эмас. (Эътибор учун, улар орасида фақат Ўзбекистон денгизга чиқиш учун икки давлатдан ўтиши керак).

Бироқ, минтақанинг яқин келажакдаги геосиёсий аҳамияти шундаки, агар “Хитой-Қирғизистон-Ўзбекистон”, “Термиз-Мозори-Шариф-Қобул-Пешовар” темир йўллари қурилиши, минтақада бошқа мультимодал транспорт коридорларнинг ишга туширилиши, хусусан Хитойдан Афғонистоннинг Вохан коридори орқали Тожикистон, Қирғизистон, Туркменистон ва Озарбайжон орқали Туркияга чиқиш йўлаги, Ўзбекистоннинг Хиндистон билан биргаликда режалаштирган Турманистон орқали Эроннинг Чобаҳор портига чиқиш йўлаги бўйича лойиҳалар амалга оширилса, Марказий Осиё Ғарб, Шарқ ва Жануб

мамлакатлари ўртасида ҳақиқий транспорт кўпригига айланиши мумкин. Албатта, бу Марказий Осиё давлатларида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ва интеграция жараёнларининг муҳим шарти сифатида барқарорлик ва хавфсизлик зонасини яратиш, мавжуд чегаралар доирасида давлатларнинг ҳудудий яхлитлигини таъминлаш бўйича саъй-ҳаракатларни бирлаштиришни тақозо этади.

Марказий Осиё минтақасининг халқаро даражадаги сиёсий, иқтисодий ва стратегик аҳамияти унинг иқтисодий ва демографик салоҳияти, географик муҳити ва жойлашуви, табиий ресурслари, минтақа давлатлари ва қўшни давлатлар ўртасидаги муносабатларнинг табиати ҳамда етакчи халқаро ташкилотлар ва минтақавий институтларда тутган ўрни билан боғлиқ. Маълумки минтақа Россия, Хитой, АҚШ ва Европа Иттифоқи геостратегияси нуқтаи назаридан ноёб ҳудуд ҳисобланиб, унга эгалик қилиш мисли қўрилмаган стратегик ютуқларни беради. Марказий Осиё минтақаси энди аввалгидай фақат Россиянинг таъсир доираси эмас, балки бошқа геосиёсий ўйинчиларнинг ҳам ҳаётий манфаатлари доирасига кириб қолаётганини эътиборга олмаслик мумкин эмас.

Асосий қисм.

Марказий Осиё давлатларининг мустақилликка эришгандан кейин дунё ҳамжамиятидаги аҳамияти ва глобал сиёсатдаги ўрни

Марказий Осиё давлатларининг геостратегик жихатдан ҳам Ғарб, ҳам Шарқ мамлакатлари учун муҳим бўлган минтақада жойлашган геосиёсий ўрни улар учун Европа (ЕХХТ, НАТО), Осиё (ИИХТ, ШХТ, ТДТ ва бошқалар), шунингдек глобал даражада БМТнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида иштирок этишлари учун қулай имконият яратади.

Марказий Осиё давлатларини ягона геосиёсий минтақага бирлаштиришнинг муҳим омили бўлиб ҳизмат қиладиган бир нечта жихатлар мавжуд, улар:

- минтақавий нуқтаи назардан ихчам жойлашув;
- тиллар ва ижтимоий-маданий анъаналарнинг яқинлиги;
- диний жихатдан ислом цивилизациясига мансублиги;
- собиқ Совет иттифоқи таркибидаги тарихий ўтмишнинг бирлиги;
- ижтимоий-иқтисодий жихатдан етарли даражада ривожланганлиги;
- турмуш тарзи, психологияси ва жамиятни ижтимоий тартибга солиш механизмларининг ўхшашлиги.

Юқоридаги фикрлар, минтақа давлатларининг мустақилликка эришиб, қайта тикланиши, XXI аср бошидаги энг муҳим геосиёсий воқеалардан бирига айланганлигидан далолат беради. Марказий Осиё

давлатлари жаҳон ҳамжамияти томонидан тан олинган ва фаол иштирок этаётган мустақил суверен давлатлардир. Улар тарихда биринчи марта давлатчиликка эришгач, мустақил равишда халқаро майдонга чиқиб, ислохотлар ўтказиш ҳуқуқига эга бўлдилар. Мазкур давлатларнинг мустақиллиги ва суверенитетининг шаклланиши ва мустаҳкамланиши, уларнинг дунёвий, демократик ва ҳуқуқий давлат сифатида шаклланиши, халқаро муносабатлар тизимида туб сиёсий, иқтисодий ўзгаришлар даврида рўй бермоқда.

Марказий Осиёнинг поссовет ҳудудидаги воқеалар америкалик файласуф ва социолог Элвин Тоффлернинг XX асрнинг 80-йилларида яратган “учинчи тўлқин” ҳақидаги машҳур назариясига жуда мос тушади. Олим сиёсий ҳокимият институтлари реформа қилинмаса, Совет Иттифоқи парчаланиши мумкинлиги тўғрисида огохлантиради. Глобал дунё ва минтақада юз берган тарихий ўзгаришларда “учинчи тўлқин” нинг таъсири аниқ сезилиб, янги цивилизация яратиш жараёнининг ривожланаётганидан далолат беради [1].

Бошқа бир америкалик олим Самуил Хантингтон ўзининг “Тамаддунлар тўқнашуви” номли асарида вужудга келаётган янги дунё тартибини “бир ва кўп ўлчовли”, деб таърифлади. Бундан ташқари у “кўп қутбли дунё” ва “регионализм тизими” тушунчаларини ҳам муомалага киритди. Хантингтон фикрича, империяларнинг жозибадорлик зонасини тарк этиб, мустақил бўлган халқлар ўзларига “Ким билан биргамиз?” эмас, “Киммиз?”, деб сўрашади [2].

Келиб чиқиши Польшадан бўлган машҳур сиёсатшунос, АҚШ 39-президентининг миллий ҳавфсизлик бўйича маслаҳатчиси Збигнев Бжезинский ўзининг “Буюк шахмат тахтаси” номли китобида Қўшма Штатларнинг геосиёсий қудрати ва XXI асрда амалга ошириш мумкин бўлган стратегиялари ҳақида фикр юритади. Бжезинский ўзининг асосий эътиборини Қўшма Штатларнинг Евроосиё, хусусан Марказий Осиё давлатлари бўйича геосиёсий стратегиясига қаратади. Ўрта Осиёда мустақил давлатларнинг пайдо бўлиши Россия жануби-шарқий чегарасининг шимолга минг чақиримгача сурилганлигини англатади, дейди муаллиф [3].

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Раисининг биринчи ўринбосари Содиқ Сафоев ўзининг “Марказий Осиёдаги геосиёсат” номли монографиясида Марказий Осиё минтақаси халқаро ҳамжамиятнинг мустақил субъекти сифатида қайта тикланиши, оламшумул ходиса бўлганлиги, Марказий Осиё доирасидаги интеграция ўзининг тарихи,

амалга ошириш механизмлари, алоҳида хусусиятлари билан ажралиб туриши, Марказий Осиёнинг янги тарихида содир бўлган ушбу ташаббусларнинг муҳим аҳамиятга эга эканлиги ҳақида ёзади [4].

Россия халқлар дўстлиги университети илмий ходими Баров Сергей Андреевич томонидан “Марказий Осиё интеграциясининг сиёсий муаммолари” мавзусида тайёрланган диссертациянинг аҳамиятли жихати, унда регионал интеграциянинг назарий жихатлари билан бир қаторда унинг амалий сиёсий жихатлари ҳам ўрганилган. Мазкур илмий ишда муаллиф интеграция жараёнларининг тарихий ва геосиёсий жихатларини ёритган ҳамда ШХТ, МДХ, ЕОИХ (ЕврАзЭС), КХТ (ОДКБ) мисолларида интеграциялашув моделларини қиёсий таҳлилини қилган [5].

Қозоғистонлик А.Кошанов ва Б.Хусаиновлар “Марказий Осиё ва Кавказ” журналидаги “Марказий Осиё давлатларининг интеграциялашув муаммолари” номли мақолаларида Марказий Осиё давлатларининг интеграциялашув жараёнлари, унда учрайдиган муаммолар, таъсир этувчи ижобий ва салбий жихатларини ўрганишган [6].

Санкт-Петербург давлат университети профессори, сиёсатшунос олима Наталья Еремина “Евразия Эксперт” илмий журналидаги “Ставка на отрыв от России: что стоит за активизацией США в Центральной Азии.” (Россиядан қочиш: АҚШ нинг Марказий Осиёда фаоллаши ортида нима туради) номли мақоласида Қўшма Штатлар кўп йиллар давомида Россияни энг яқин қўшниларидан узиб, уни яққалаб қўйишга ҳаракат қилаётганлиги кўрсатилган [7]. Муаллифнинг таъкидлашича, минтақа мамлакатлари ва Россия Федерациясини умумий тарих боғлайди, уларнинг бозорлари бир-бирига боғлиқ. Бундан ташқари, Россия минтақа мамлакатлари учун хавфсизлик кафолати ҳисобланади.

Тожикистонлик олимлар М.С.Содиқов ва Ф.Х.Фародовларнинг 2020 йил Тожикистон давлат молия-иқтисод университетининг молиявий-иқтисодий бюллетенида чоп этилган “ШХТ интеграция бирлашмаси доирасида Марказий Осиё давлатларининг иқтисодий интеграцияси” номли мақоласида Шанхай ҳамкорлик ташкилоти интеграция бирлашмаси доирасида Марказий Осиё давлатларининг иқтисодий интеграциялашуви масалалари таҳлил қилинган. Мақоланинг эътиборга молик жихати шундан иборатки, Марказий Осиё мамлакатлари макроиқтисодий кўрсаткичлари динамикасини таҳлил қилиш асосида ШХТ амалий фаолияти самарадорлиги, шунингдек, ШХТ дастурлари доирасида Марказий Осиё давлатларининг бир-бири билан ўзаро алоқалар характери, ўзаро манфаатли ҳамкорлик ва минтақани янада ривожлантириш

масалалари белгилаб берилганлиги акс этган [8]. Мақола якунида муаллифлар, минтақавий хавфсизликни таъминлаш ва ҳамкорликни ривожлантиришда замонавий чақириқ ва таҳдидларга биргаликда қарши курашиш масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратишган. Улар фикрича, ШХТ янги турдаги минтақавий ҳамкорлик ташкилоти сифатида бутун жаҳон иқтисодиётини ривожлантиришнинг ҳаракатлантирувчи кучига айланиши мумкин.

Юқоридаги ижобий фикрлар билан бир қаторда, айрим мутахассислар томонидан Марказий Осиё давлатларининг интеграциялашув жараёни пессимистик руҳда баҳоланмоқда. Хусусан, Россия Иқтисодиёт олий мактаби Миллий тадқиқот институти илмий ходими Даря Рекеда яқин келажақда Марказий Осиёда интеграцион бирлашманинг барқарор форматини яратиш даргумон, деб ёзади Унинг фикрича, геосиёсий босим шароитида Марказий Осиё давлатлари ўзларини постсовет давлатлари уюшмаси сифатида эмас, балки ташқи дунё билан мустақил алоқа қилиш учун барқарор ва истиқболли минтақа сифатида кўрсатишга интилади [9]. Улар минтақавий ҳамкорликка интилмоқда, лекин интеграциянинг барқарор, институционал шакллари яратишда сустрелик қилишмоқда, бундай урунишлар 1990-2000-йилларда ҳам кузатилган. Бутун минтақанинг жаҳон ҳамжамиятидаги иштирокини оширишга қаратилган шарт-шароитларнинг қай даражада тўйрилигини келгуси йилларда кўришимиз мумкин.

Хулоса

Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида олиб борилаётган ташқи сиёсатимиз мамлакатимизнинг халқаро майдондаги обрўсини ва имижини сезиларли даражада оширишга, кенг доирадаги давлатлар ҳамда халқаро ташкилотлар билан яқин алоқалар, очиқ мулоқот ва стратегик шериклик ўрнатиш ҳамда мустаҳкамлашга катта ёрдам бермоқда. Ўзбекистоннинг минтақада ўзаро ишонч ва яқин қўшнилик муҳитини яратишга қаратилган саъй-ҳаракатлари қўшни давлатлар томонидан қизғин қўллаб-қувватланмоқда. Хусусан, маслаҳат учрашувлари қатор минтақавий ташаббусларни илгари суриш ва ҳамжиҳатликда амалга ошириш имконини берди. Энг муҳими, Марказий Осиёнинг барча давлатлари ушбу механизмнинг минтақадаги мавжуд муаммоларни биргаликда ҳал қилиш учун қулай платформа эканини эътироф этган ҳолда келгусида ундан самарали фойдаланиш учун тайёр эканини изҳор қилмоқда. Бу эса пировардида минтақанинг келажаги порлоқ бўлишига ишонч билан қараш имконини беради.

Шунга қарамай, Марказий Осиё мамлакатлари ўртасида ўзаро алоқаларни янада чуқурлаштириш йўлида ҳали талайгина ишга солинмаган имкониятлар мавжуд. Улар қаторида сувдан фойдаланиш борасидаги муаммоларни ҳал этишга доир ўзаро келишилган ёндашувларни ишлаб чиқиш, Афғонистонда тинчлик, миллий муроса ва иқтисодий тикланишга эришишга кўмаклашиш йўлида минтақа мамлакатларининг саъй-ҳаракатларини мувофиқлаштириш ва хоказо.

Адабиётлар рўйхати:

1. Тоффлер Э. Третья волна. — М., АСТ. 2010. -800 с.
2. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций /С.Хантингтон; Пер. с англ. Т. Велимеева. Ю. Новикова. -М: ООО «Издательство АСТ», 2003. -603 с.
3. Бжезинский З. Великая шахматная доска. –Москва, Международные отношения, 2009. - 280 с.
4. Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Монография. Тошкент, ЖИДУ, 2005.
5. Баров С.А. Марказий Осиё интеграциясининг сиёсий муаммолари (Политические проблемы интеграции в Центральной Азии. Диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук Москва. Российский университет дружбы народов. Москва. 2013 г.
6. Кошанов А., Хусаинов Б. Проблемы интеграции государств Центральной Азии», Журнал Центральная Азия и Кавказ, 1, 2002.
7. Haas E. «The uniting of Europe” in “The EU. Readings on theory and practice of European integration» edited by B. Nelsen and A.Stubb, Lynne Rienner 2003.
8. Еремина Н.В. Ставка на отрыв от России: что стоит за активизацией США в Центральной Азии. <https://eurasia.expert/chto-stoit-za-aktivizatsiey-ssha-v-tsentralnoy-azii/>.
9. Содиков М.С., Фародов Ф.Х. Экономическая интеграция Центрoазиатских стран в рамках интеграционного объединения ШОС//Финансово-экономический вестник ТГФЭУ. –Душанбе, 2020. -47-50.
10. Резеда Д. Центральнoазиатская интеграция: нескладывающийся пазл? <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/tsentralnoaziatskaya-integratsiya/>

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA'NAVIY - AHLOQIY TARBIYADA TASAVVUF QADRIYATLARINING O'RNI

MIRJAXAN ATAMURATOVA

Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv davrida, dunyo madaniy bir xillik, an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi kabi muammolarga duch kelayotgan bir paytda, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tasavvuf - islomdagi irfoniy yo'nalish - madaniyatlararo muloqot sharoitida shaxsning rivojlanishiga asos bo'la oladigan umumbashariy axloqiy tamoyillarni taklif etadi. Tasavvuf insonning ichki kamoloti, Allohga muhabbat, bag'rikenglik va kamtarlikka e'tibor qaratadi. Bu tamoyillar shaxsning axloqiy o'zagini shakllantiradi, bu esa an'anaviy yo'nalishlar yo'qolib borayotgan globallashuv sharoitida ayniqsa muhim hisoblanadi.

Tasavvuf bir tomondan din va shariat, ikkinchi tomondan falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga hos ta'limot. Tasavvuf islomdagi mistik yo'nalish bo'lib, insonning yashirin ruhiy illatlarga qarshi kurashish va shaxsni ma'naviy tarbiyalashga qaratilgan ta'limot[1].

Tasavvuf ta'limotida insonning Alloh bilan munosabatlarini mustahkamlash, nafsni tarbiyalash va qalb pokligiga erishishni maqsad qiladi. U insonga moddiy dunyoning o'tkinchi tabiatini anglashga yordam beradi va hayotning asl ma'nosini topishga undaydi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson o'zining ichki dunyosini tarbiyalash orqali nafaqat o'ziga, balki atrofdagilarga ham foyda keltira oladi. Bu esa globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki moddiy raqobat va iste'molchilik madaniyati odamlarni ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashtirishi mumkin.

Tasavvuf ma'naviy merosi butun islom olami xalqlarining manaviy merosi sanaladi. Bu ma'naviy meros butun insoniyatga tegishli. Bugungi globallashuv davrida milliy madaniyatlarning qudratli davlatlar va yirik madaniyatlarning kuchli ta'siri ostida qolib ketayotgan bir paytda tasavvuf ta'limoti qadriyatlarini urni alohida.

Globalashuv sharoitida odamlarga ko'plab imkoniyatlar taqdim etilgani bilan bir qatorda, ma'naviy bo'shliq muammolarini ham keltirib chiqaradi. Bugungi kundagi tezkor axborot oqimi va doimiy raqobat, moddiy boylikka intilish insonning ichki tinchligini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Tasavvuf ta'limoti esa bu muammolarga qarshi o'zgacha yondoshuv taklif etadi. U insonga o'z nafsini

nazorat qilish, sabr-toqatli bo'lish va hayotdagi murakkab vaziyatlarga falsafiy nigoh bilan qarashni o'rgatadi. Tasavvuf ta'limotidagi fano va baqo konsepsiyasi insonga moddiy dunyoga berilib ketmaslik va ma'naviy muvofiqlikni topishga yordam beradi. Masalan tasavvuf ta'limotidagi «fano» (o'zlikni yo'q qilish), «baqo» (Allohda mustahkamlanish) konsepsiyalari insonga moddiy va ma'naviy munofiqlikni topishga yordam beradi[2].

Hozirgi kunda globallashuv natijasida dunyoda turli madaniyatlar va dinlar o'rtasida muloqat kuchaymoqda. Tasavvufdagi asosiy g'oyalar mehr - oqibat, insonparvarlik, adolat, sabr umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar bilan o'yg'un keladi. Bu qadriyatlar turli millat va din vakillarini birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan; Yassaviy tariqatida so'zda sodiqlik, dinda sog'lom bo'lish, vafoli bo'lish, nafsga qul bolmaslik, Najmiddin Kubro tariqatida ilm-u irfonga chin muhabbat va Allohning nazari bilan erishish mumkinligi, Bahouddin Naqshbandiya tariqatida Allohga muhabbat bilan birga tirikchilikni ham unutmaslik, buning uchun "Alloh qalbda qo'l mehnatda" bo'lishi aytiladi.

Tasavvuf tariqatlari va uning namoyondalari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni anglashda, bag'rikenglik, vatanparvarlik, tinchlik, xotirjamlik, barqarorlikni ta'minlashda o'z o'rniga ega bo'lib, ulardagi kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Tasavvuf ta'limoti ma'naviy-ahloqiy tarbiya uchun qimmatli vositalar beradi. Uning amaliyotlari orasiga meditatsiya, mushohoda, qalbni o'rganish va ruhiy murabbiylik kiradi. Bu usullar insonda mehr-oqibat, bag'rikenglik, odob-ahloq kabi ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Tasavvuf ta'limoti Allohga yaqinlashish, nafsni jilovlash va qalbni poklash haqida ta'lim beradi. U islomiy ta'lim tizimining nafaqat bilimlarini o'zlashtirishga, balki yaxshi xulq - atvorni shakllantirishga va jismoniy hamda ma'naviy jihatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan maqsadlariga to'la mos keladi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiyada qo'yidagi tasavvufning asosiy qadriyatlarining ayrimlarini keltirsak:

1. Tavakkul - o'z sa'y - harakatining natijasini Allohga havola etish - bu tasavvufning asosiy ta'limotlaridan biri. Tavakkul Allohga bo'lgan to'liq ishonchning bir ko'rinishi bo'lib, dunyoviy narsalarga bog'lanib qolishdan ozod bo'lish va hayotning barcha jabhalarida faqat Allohga suyanishni anglatadi. Tavakkal bizni imkon qadar harakat qilishga va natijani Allohga topshirishga undaydi. Tavakkal orqali inson erishmoqchi bo'lgan maqsadalar haqida ortiqcha tashvishdan xalos bo'ladi. Bu ularga qalblarida xotirjamlikni his qilish va Alloh hamma narsani nazorat qilishga ishonch imkonini beradi. Har bir inson har bir

qadamda chin dildan harakat qilishi va Allohga tayanishi muhim. Shunday qilib, insondagi Allohga ishonch maqsadga erishish uchun kurashda ruhiy kuch va qat'iyat bag'ishlaydi.

2. Sabr. Tasavvuf ta'limoti insonga hayotning turli sinovlariga sabr-toqat bilan yondashish muhimligini o'rgatadi. U sabrni ikki turga ajratadi. Birinchisi, jismoniy sabr - ya'ni, badan bilan bog'liq diniy amrlarni bajarish va qabul qilishdagi sabr, masalan, kasallik yoki ta'qib kabi jismoniy sinovlarga bardosh berish. Ikkinchisi, ma'naviy sabr - bu g'azabni jilovlash. Sabr sinov yoki musibatni ochiq qalb bilan qabul qilish demakdir. Imom G'azzoliyning fikriga ko'ra, sabrni shariatga zid bo'lgan shahvat va g'azabni jilovlash sifatida ko'rish mumkin, bu esa ruhiy sabr deb ataladi. Zamonaviy dunyo ta'siri bilan kurashishda sabr-toqat qo'llanilsa, u ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Ixlos. Ixlos toza, hech qanday aralashmasiz deb talqin qilinadi. Biror narsaga nisbatan pok ishlash ixlos deyiladi.

4. Zikr (Allohni zikr qilish). Tafakkur va Allohni eslash shakli sifatida zikr stress va xavotirni kamaytirishi mumkin bo'lgan ichki xotirjamlikni ta'minlaydi.

Bu qadriyatlar faqatgina bilish jihatlariga emas, balki insonning axloqi va xulq-atvorini shakllantirishga ham qaratilgan. Tavakkul, sabr, ixlos kabi tasavvuf qadriyatlarini o'rgatish orqali islomiy ta'lim yoshlarda sog'lom ruhiyatni shakllantirishga yordam beradi. Ularga nafaqat dunyo natijalariga, balki dunyo va oxirat o'rtasidagi muvozanatga ham e'tibor qaratish o'rgatiladi.

Globalashuv sharoitida tasavvuf ta'limoti insonga moddiy va manaviy dunyo o'rtasida muvofiqlik topishga yordam beradi. Tasavvuf nafaqat insonning ichki olamini boyitadi, balki turli madaniyatlar va dinlar o'rtasida muloqatni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tasavvufning mehr-oqibat, adolat va ma'naviy poklik g'oyalari zamonaviy dunyoda insonparvarlik va barqarorlikni taminlashda muhim manba bulib xizmat qiladi. Shu sababli globalashuv davrida tasavvuf ta'limotini o'rganish va amalda qo'llash inson va jamiyat uchun katta ahamiyatga egadir.

Tasavvufiy qadriyatlar globalashuv davrida ma'naviy -ahloqiy tarbiya uchun katta imkoniyatlarga ega. Undagi ichki uyg'unlik, muhabbat va bag'r'kenlikka urg'u berishi madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ahloqiy qadriyatlarni saqlab qola aladigan shaxsni tarbiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: «Movarounnaxr».1999.
2. Po'latov H. Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. T.: 2011. 170 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY SOHADAGI HAMKORLIK ALOQALARI

MASHHURBEK AXUNOV

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy va iqtisodiy markazida joylashgan bo'lib, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan faol hamkorlik aloqalarini rivojlantirmoqda. 2016-yildan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilgan "ochiq eshiklar" siyosati mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqdi[1].

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida, ayniqsa 2016-yildan so'ng, tashqi siyosatida ochiqlik va faol diplomatiyaga e'tibor qaratib, qo'shni davlatlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirdi[2]. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish asosiy maqsadlarga aylandi[3]. Markaziy Osiyo rahbarlarining maslahat uchrashuvlari (2018-yildan boshlangan) va xalqaro tashkilotlar doirasidagi tashabbuslar O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi rolga xizmat qilmoqda[4].

Siyosiy hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama muzokaralar orqali siyosiy hamkorlikni mustahkamlash yo'lida faol harakat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida Markaziy Osiyo mintaqasi tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Qayd etish joizki, postsovet makonida, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida doimiy ravishda do'stona munosabatlar mavjud bo'lmagan. Bunga bir qator omillar sabab bo'lgan, jumladan, davlat chegaralarini delimitatsiya qilishdagi kelishmovchiliklar, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar, mintaqadagi yetakchi davlat ta'siridan havotirlanish va boshqa masalalar. Ayniqsa, suv resurslari, yaylovlar va suv xo'jaligi infratuzilmasidan foydalanish bo'yicha kelishmovchiliklar ochiq qarama-qarshilikka aylanish xavfini tug'dirgan edi. 2017-yildan boshlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlik masalalariga konstruktiv yondashish va qo'shni davlatlar bilan ahil hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha muhim qadamlar tashladi. O'zbekiston mintaqaviy muammolarni hal qilishda va kooperativ rivojlanishni rag'batlantirishda yetakchi rol o'ynay boshladi. O'zaro

muammolarni barcha mintaqa davlatlari rahbarlari ishtirokida, tenglik prinsipi doirasida hal etish maqsadida 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida taklif qilingan hamda ushbu maslahat uchrashuvlari 2018-yilda rasman boshlandi[9]. Ushbu platforma mintaqaviy xavfsizlik, chegara masalalari va iqtisodiy integratsiyani muhokama qilish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qilmoqda. 2018–2023-yillarda O'zbekiston 86 ta tashabbus ilgari surdi, ulardan 39 tasi iqtisodiy, 20 tasi gumanitar va 12 tasi ekologik sohada bo'ldi[10]. Masalan, O'zbekiston BMT doirasida “Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizligini ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif qildi, ushbu tadbirlar 2019-yilda amalga oshirildi[11].

O'zbekiston Qozog'iston bilan 2013-yilda, Qirg'iziston bilan 2017 va 2023-yillarda, Tojikiston bilan 2018-yilda, Turkmaniston bilan 2017-yilda strategik hamkorlik shartnomalari imzoladi. Shuningdek, 2022-yilda Qozog'iston bilan hamda 2024-yili Tojikiston bilan ittifoq munosabatlari to'g'risida shartnomalar imzolandi[12]. Bu shartnomalar savdo, xavfsizlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, Tojikiston bilan chegara demarkatsiyasi bo'yicha kelishuvlar (2023-yilda 90% yakunlangan) va Qirg'iziston bilan suv resurslarini boshqarish bo'yicha muzokaralar mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shdi[13]. O'zbekistonning BMT sha'feligi ostida “Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik jamg'armasi” tashkil etish tashabbusi mintaqaviy ekologik muammolarni hal qilishda muhim qadam bo'ldi[14]. Bundan tashqari, O'zbekistonning “Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi hudud” tashabbusi xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qildi[15].

Iqtisodiy hamkorlik

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi savdo, transport va energetika sohalarida sezilarli rivojlandi. O'zbekiston Qirg'iziston va Tojikiston bilan yirik qo'shma loyihalarni moliyalashtirish uchun investitsiya jamg'armalarini tuzdi. Ushbu institutlar doirasida avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish boshlangan.

Masalan, Qozog'istonda yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Tojikistonda maishiy texnika ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Qirg'iziston va Qozog'iston Issiqko'l viloyati hududida quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etdi.

O'zbekiston tashabbusi tufayli mintaqaning barcha mamlakatlari bilan chegaraoldi savdo zonalarini tashkil etish ishlari boshlandi. Hozirgi vaqtda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan bunday hududlarni

shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. 2022-yilda O'zbekistonning Qozog'iston bilan savdo aylanmasi 4.5 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 30%ga o'sishni ko'rsatadi[16]. Qirg'iziston bilan savdo 1.2 milliard dollar, Tojikiston bilan 700 million dollar, Turkmaniston bilan 900 million dollarga yetdi[17]. 2024-yilga kelib, O'zbekistonning umumiy YAIM 115 milliard dollarga yetdi, bu Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyingi eng yuqori ko'rsatkichdir (Qozog'iston – 288.1 milliard dollar) [18]. Qirg'izistonning YAIM 14.6 milliard dollar, Tojikistonning 13.7 milliard dollar, Turkmanistonning esa taxminan 50 milliard dollar atrofida bo'ldi (aniq ma'lumotlar cheklangan) [19].

Transport koridorlari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyada muhim rol o'ynamoqda. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li loyihasi, 2024-yilda qurilishi boshlangan, Markaziy Osiyoni Xitoy va Yevropa bozorlari bilan bog'laydi, bu esa mintqa eksport salohiyatini 20% ga oshirishi kutilmoqda [20]. Turkmaniston bilan gaz va neft sohasidagi hamkorlik, xususan, O'zbekiston orqali Turkman gazini Xitoyga eksport qilish loyihasi mintaqaviy energetika xavfsizligini mustahkamladi[21]. Tojikiston bilan suv-energetika sohasidagi kelishuvlar, masalan, Rog'un GES loyihasida O'zbekistonning qo'llab-quvvatlashi, ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni yaxshiladi[22]. 2023-yilda O'zbekiston Tojikistonga 150 million dollarlik investitsiya kiritdi, asosan, energetika va qishloq xo'jaligi sohalariga [23].

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishda davom etmoqda. Masalan, Qozog'istonning oltin-valyuta zaxiralari 2022-yilda 35 milliard dollarni tashkil etdi, O'zbekistonniki esa 35.7 milliard dollarga yetdi [24]. Tojikiston iqtisodiyoti tashqi qarzga (YAIMning 66.7%, 2021) va Rossiyaga mehnat migratsiyasiga yuqori darajada bog'liqligi tufayli zaifliklarga ega, ammo O'zbekiston bilan savdo aloqalari bu muammoni qisman yengillashtirmoqda [25]. O'zbekiston tashqi qarzni YAIMning 56.1% ida ushlab turib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda [26]. Natijada oxirgi 7 yilda mintqa iqtisodiyoti 6,3 foizga o'sib, uning hajmi 450 milliard dollarga yaqinlashdi.

Madaniy hamkorlik

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy hamkorligi ta'lim, san'at va turizm sohalarida faol rivojlanmoqda. O'zbekistonning Samarqand va Buxoro shaharlarida o'tkaziladigan xalqaro madaniy festivallar, masalan, "Sharq taronalari" (har ikki yilda bir marta) va Xivada o'tkazilgan "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" forumi (2022) mintaqaviy madaniy aloqalarni mustahkamladi [27]. 2023-yilda O'zbekistonga Markaziy Osiyodan kelgan turistlar soni 1.5 million kishiga yetdi, bu 2022-yilga nisbatan 25% o'sishni

ko'rsatadi [28]. Xususan, Qozog'istondan 700 ming, Qirg'izistondan 400 ming va Tojikistondan 300 ming turist tashrif buyurdi [29].

Ayni paytda madaniyat yillari, kino kunlari, ko'rgazmalar, konsert va ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini o'tkazish muntazam tus oldi. Mamlakatlarimiz fuqarolari xush ko'radigan barcha sayyohlik yo'nalishlarining 80 foizga yaqini mintaqaviy ichki turizmga to'g'ri kelayotgani buning yorqin dalilidir.

Birgina O'zbekistonda 2023-yilda bu ko'rsatkich 6,6 millionni tashkil etdi va ularning aksariyati qo'shni davlatlardan kelgan sayyohlardir.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xalqaro madaniy munosabatlar sohasida ham bir qancha vazifalar belgilab o'tilgan. Xususan, O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari hamda arxivlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish, mazkur mamlakatlar tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi kataloglarni birgalikda nashr etish, uchinchi davlatlar fuqarolari uchun Markaziy Osiyoda mamlakatlararo turistik marshrutlarni hamkorlikda ishlab chiqish, Markaziy Osiyo davlatlarida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi muxbirlik punktlarini ochish va h.k.

Ta'lim sohasida O'zbekiston Milliy Universiteti Qozog'istonning Al-Farobiy nomidagi universiteti bilan talabalar almashinuv dasturlarini rivojlantirib kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 500 dan ortiq qozog'istonlik talaba O'zbekistonda ta'lim oldi [30]. Qirg'iziston bilan esa O'zbekiston-Qirg'iziston universiteti (Osh shahri, 2022-yilda tashkil etilgan) orqali hamkorlik kengaytirilib, bu universitetda 2000 dan ortiq talaba tahsil olishi ta'minlandi [31]. Tojikiston bilan madaniy hamkorlik Dushanbeda o'tkazilgan O'zbek-Tojik madaniyati kunlari (2023) va Turkmaniston bilan Ashxobodda tashkil etilgan O'zbek madaniyati ko'rgazmasi (2022) orqali rivojlantirilmoqda [32]. O'zbekistonning UNESCO bilan hamkorlikdagi tashabbuslari, xususan, Xiva shahrining madaniy meros sifatidagi ahamiyati mintaqaviy madaniy diplomatiyani mustahkamlab kelmoqda [33].

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda katta yutuqlarga erishmoqda. Siyosiy sohada maslahat uchrashuvlari va strategik shartnomalar mintaqaviy barqarorlikni mustahkamladi. Iqtisodiy sohada savdo aylanmasining o'sishi, transport va energetika loyihalari integratsiyani kuchaytirmoqda. Madaniy sohada festivallar va ta'lim dasturlari mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Biroq, suv resurslari, chegara masalalari va iqtisodiy raqobat kabi muammolar hal qilinishi kelgusidagi munosabatlarni yanada yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo'ladi. Ushbu muammolarni hal etishi mumkin bo'lgan quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- Mintaqaviy savdo kelishuvlarini kengaytirish va savdo to'siqlarini kamaytirish orqali iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish.
- Transport koridorlari (Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li) va energetika loyihalariga xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish.
- Madaniy almashinuv dasturlarini, xususan, yoshlar va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun davlat grantlarini ko'paytirish.
- Suv resurslarini boshqarish bo'yicha Tojikiston va Qirg'iziston bilan uzoq muddatli kelishuvlarni mustahkamlash.
- Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017). BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutq. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2023). Markaziy Osiyo bilan hamkorlik hisoboti.
3. O'zbekiston-2030 strategiyasi. (2023). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
4. Markaziy Osiyo rahbarlari maslahat uchrashuvlari. (2023). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.
5. Rakhimov, M. (2020). Central Asian regional integration: Challenges and opportunities. Journal of Central Asian Studies, 15(3), 45–60.
6. Kassenova, N. (2021). Water resources management in Central Asia. Central Asian Survey, 40(2), 123–140.
7. Jahon banki. (2023). Central Asia trade report.
8. UNESCO. (2023). Cultural cooperation in Central Asia: Uzbekistan's role.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. (2017). BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2024). Maslahat uchrashuvlari statistikasi (2018–2023).
11. BMT Bosh Assambleyasi. (2019). Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizligini ta'minlash rezolyutsiyasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2024). Strategik hamkorlik shartnomalari ro'yxati.
13. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2023). Tojikiston bilan chegara demarkatsiyasi hisoboti.
14. BMT Bosh Assambleyasi. (2022). Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi jamg'armasi.

15. BMT Bosh Assambleyasi. (2020). Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud.
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston-Qozog'iston savdo aylanmasi.
17. Jahon banki. (2023). Central Asia trade report.
18. Muqimov, Sh.A. (2025). Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
19. Muqimov, Sh.A. (2025). Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti.
20. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2024). Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li loyihasi.
21. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Turkmaniston bilan energetika hamkorligi.
22. Tojikiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). Rog'un GES loyihasi.
23. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2023). Tojikistonga investitsiyalar hisoboti.
24. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Tashqi qarz hisoboti.
25. Jahon banki. (2023). Tajikistan economic overview.
26. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Tashqi qarz hisoboti.
27. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2023). Xalqaro madaniy festivallar hisoboti.
28. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2024). Turizm statistikasi.
29. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2024). Turizm statistikasi.
30. O'zbekiston Milliy Universiteti. (2024). Qozog'iston bilan ta'lim hamkorligi dasturi.
31. O'zbekiston-Qirg'iziston universiteti. (2023). Yillik hisobot.
32. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2023). O'zbek-Tojik madaniyati kunlari.
33. UNESCO. (2022). Xiva – Markaziy Osiyo madaniy merosi.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARIDA PARLAMENT DIPLOMATIYASINING O'RNI

BOBIR-MIRZO TO'XTAYEV

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Devoni mas'ul xodimi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

O'zbekiston Respublikasi har tomonlama puxta o'ylangan, milliy manfaatlarga mos keluvchi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan, mintaq va jahon siyosatida o'z obro'siga ega bo'lgan tashqi siyosat olib boradi. Hozirda O'zbekistonning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarda 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud bo'lib, 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi. Shu bilan birga, dunyoning 130 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan holda, ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantirmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz o'z tashqi siyosatining huquqiy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. *O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati mamlakat Konstitutsiyasi*, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risidagi" Qonunlari, "Mudofaa doktrinasi" va boshqa qonun hujjatlariga, BMT va YeXHT faoliyati prinsiplariga, shuningdek Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarga asoslanib olib boriladi.

Birgina, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-18-moddalarda mamlakatimizning tinchlikparvar tashqi siyosatiga oid norma va qoidalar o'z aksini topdi. Ushbu norma va qoidalar mamlakatimizning izchil va barqaror tashqi siyosatini konstitutsiyaviy asoslarini yanada mustahkamladi.

Bosh qomusimizning 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti ekanligi, O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi belgilab qo'yildi[1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har

taraf lama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosat yuritishi Konstitutsiyamizning 18-moddasida o'z aksini topdi[1].

Mazkur prinsipning Konstitutsiyamizga qo'shilishi O'zbekistonning hududiy yaxlitligini dunyodagi barcha davlatlar tan olishi va hurmat qilishi, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch, do'stona aloqalarni rivojlantirish, sarhadlarimiz osoyishtaligi, xalqimiz xavfsizligi, tinch-totuv hayot kechirishi hamda rivojlanishimizning barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki – 2012-yilda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini, chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi[4, B. 440]. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, geografik joylashuvi va mafkurasidan qat'iy nazar barcha mamlakatlar bilan ochiq, do'stona va pragmatik tashqi siyosat yuritilishi O'zbekistonning jahonda mustaqil davlat sifatida e'tirof etilishini ta'minladi.

*Shuni alohida qayd etish lozimki, **Markaziy Osiyo mintaqasi** hayotiy muhim manfaatlar bilan bog'liqligi yuzasidan O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida eng muhim jihat hisoblanadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston o'ziga chegaradosh qo'shni davlatlarga nisbatan ochiq, xayrixoh va pragmatik siyosat olib bormoqda. Konsepsiyada Markaziy Osiyodagi mavjud muammolar tashqi kuchlar aralashuvisiz mintaqadagi davlatlar tomonidan hal etilishi belgilangan[3].*

Mustaqillikning ilk yillaridan O'zbekiston ko'plab davlatlar qatori Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikkitomonlama diplomatik aloqalarni o'rnatib, elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ydi. Shu bilan birga, Qozog'iston va Tojikiston bilan ittifoqchilik munosabatlariga kirishgan bo'lsa, barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik sherikchilik munosabatlari o'rnatilgan. Bu haqida quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik, strategik va ittifoqchilik munosabatlari o'rnatilganligi to'g'risida

Davlat nomi	Diplomatik munosabatlar	Strategik sherikchilik munosabatlari	Ittifoqchilik munosabatlari
 Qozog'iston	1992-yil 23-noyabr	2013-yil	2022-yil.
 Qirg'iziston	1993-yil 16-fevral	2017-yil, 2023-yil.	-

 Turkmaniston	1993-yil 16-fevral	2017-yil.	-
 Tojikiston	1992-yil 20-oktyabr	2018-yil,	2024-yil.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab taraqqiyot darajasini oshirish, rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish borasida ijobiy samaraga erishib kelmoqda. Buni so'nggi o'n yilda mintaqqa iqtisodiyoti jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar oshib (2,6%), barqaror o'sish sur'ati (6,2%)ni namoyon qilganligida hamda 2016-yildan buyon mintaqaviy YAIM 60 foiz oshib, 2023-yil yakunida 450 milliard dollarni tashkil etganligida ko'rishimiz mumkin[6]. Shuningdek, so'nggi 7 yilda mintaqaning tashqi savdosi 2 barobar ko'payib, qari'yib 225 milliard dollarga yetdi. Ichki savdo esa, 4,5 barobar oshdi – 2,4 dan 11 milliard dollargacha ko'paydi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov Markaziy Osiyoda integratsiyani tashkil etish borasida ko'plab harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa, 2016-yildan mintaqqa davlatlari o'rtasida o'zaro ochiq va do'stona munosabatni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev keng tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Xususan Sh.Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatiga kirishish chog'idayoq "...yaqin qo'shnilarimiz Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borish bosh maqsadimizdir" [2] - deya ta'kidlagan edi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajak uchun mas'uliyatini his etishi mintaqaning barqaror rivojlanishi va farovonligining mustahkam poydevori va kafolatidir. Chunki mintaqqa davlatlari yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini yanada amalga oshira oladi. Bunda barcha – Markaziy Osiyo davlatlari ham, boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko'radi.

So'nggi 8 yil davomidagi Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligi natijasida mamlakatlarimiz o'rtasida savdo hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan ziyod oshdi. O'zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 barobar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foizga o'sdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm 2 barobar faollashdi[7].

Markaziy Osiyo mintaqasining O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalishi xususida Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil

19-sentabrdagi 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida “Tinch, iqtisodiy jihatdan farovon Markaziy Osiyo bizning eng muhim maqsadimiz va asosiy vazifamiz”, - deya ta’kidlagan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mazkur sessiyada tashabbusi bilan 2018-yil Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi mexanizmi ishga tushirildi. “Bu format nafaqat muloqot maydoni, balki mintaqa mamlakatlari hamkorligi uchun asosiy yo’nalishlarni belgilaydigan muhim siyosiy qarorlar qabul qilish vositasiga ham aylandi” deyishimiz mumkin.

Xususan, shu kunga qadar bo’lib o’tgan 6 sammitda muhim konseptual hamda uzoq muddatli hujjatlar qabul qilindi. Masalan, 2024-yilda bo’lib o’tgan Ostona sammitida “Markaziy Osiyo-2040” Mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Hujjat uzoq muddatli yo’nalishlarni belgilab, davlatlarimiz mintaqaviy hamkorlik jarayoniga sodiqligini ko’rsatdi.

Ta’kidlash joizki bugungi kunda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida parlament diplomatiyasining o’rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, global tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda qardosh va o’zaro do’st xalqlar parlamentlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, ularning salohiyatidan yanada kengroq foydalanish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So’nggi yillardagi siyosiy jarayonlar mamlakat oliy vakillik organi bo’lmish ikki palatali parlament – Oliy Majlisning tashqi siyosatdagi o’rni va roli ham har qachongidan ko’ra yuksalib, xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo uyushmalar bilan hamkorligi yangi bosqichga ko’tarilganligini ko’rsatmoqda. Buni ikki va ko’p tomonlama davlatlararo munosabatlarda **parlament diplomatiyasining** ahamiyati oshib borayotganida ham ko’rishimiz mumkin. Shu o’rinda, Parlament diplomatiyasi o’zi nima? degan savol o’rtaga chiqadi.

Parlament diplomatiyasi davlatning parlament yoki qonun chiqaruvchi organi a’zolari tomonidan olib boriladigan diplomatiya shaklidir. Ushbu diplomatiya turi an’anaviy diplomatiyani to’ldiradi va xalqaro munosabatlar uchun muqobil aloqa kanali bo’lib xizmat qiladi[8]. Parlament diplomatiyasining asosiy maqsadlari xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, demokratik qadriyatlarni targ’ib qilish, turli mamlakatlar o’rtasida o’zaro tushunishni yaxshilash, davlatning tashqi siyosatiga ta’sir ko’rsatish, shuningdek, savdo va investitsiyalarni osonlashtirishdan iboratdir.

Parlament a’zolari xalq vakillari sifatida bevosita ishtirok etishlari orqali parlament diplomatiyasi xalqaro munosabatlarga qo’shimcha legitimlik va moslashuvchanlik olib keladi. Parlament a’zolari o’z saylovchilari bilan yaqin

aloqada bo'lganligi sababli, ular xalqning fikrini va manfaatlarini xalqaro maydonda yanada to'liqroq ifoda etishlari mumkin. Bu, ayniqsa, demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish va o'zaro tushunishni mustahkamlash kabi masalalarda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekistonda parlament diplomatiyasining huquqqiy asoslari va amaliy mexanizmlari yanada mustahkamlanmoqda.

Jumladan, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Kengashlari tomonidan xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda parlamentning rolini yanada kuchaytirish maqsadida Parlament diplomatiyasi konsepsiyasi qabul qilindi[4. B.365].

Mazkur Konsepsiyada chet davlatlar parlamentlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularning qonun ijodkorligi tajribasini o'rganish bo'yicha parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatida Oliy Majlisning faol ishtirokini ta'minlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish, davlatimiz tashabbuslarini ilgari surish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Oliy Majlisning parlament diplomatiyasi institutlaridan samarali foydalanishida do'st va hamkor bo'lgan davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha tashkil etiladigan parlamentlararo guruhlar va komissiyalarning faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Xususan so'nggi yillarda Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha guruhlar va komissiyalar son jihatidan ham, sifat jihatidan ham keskin oshganini kuzatish mumkin.

Birgina misol, agar 2015-2019-yillar davomida jami 28 davlatning parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar faoliyat olib borgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam 43 tani, 2023-yilga kelib esa jami 58 tani (57 ta davlat va 1 ta Yevropa Ittifoqi parlamenti) tashkil etganini ko'rish mumkin[9].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining xorijiy mamlakatlar parlamentlarining quyi palatalari bilan jami 21 ta parlamentlararo tuzilmalar tashkil etilgan. 19 ta hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar va yuqori darajadagi Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Majlisi o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik Kengashi hamda Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo Komissiyasi shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati hamkorligida jami 36 ta parlamentlararo tuzilmalar tashkil etilgan bo'lib, ushbu parlamentlararo tuzilmalarning 26 tasiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va 10 tasiga Oliy Majlis Senati a'zolari rahbarlik qilmoqda. Shu o'rinda

ta'kidlash joizki O'zbekiston parlamenti, Markaziy Osiyoning barcha 4 davlati bilan ham do'stlik guruhlarini samarali faoliyat olib bormoqda.

Bundan tashqari, Oliy Majlisning xalqaro parlament uyushmalaridagi ishtiroki ancha faollashdi. Bugungi kunda Oliy Majlis qator parlamentlararo uyushmalar ishida a'zo yoki kuzatuvchi maqomida O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishga hamda ilgari surishga asoslangan tashqi siyosiy faoliyatning faol ishtirokchisiga aylandi. So'nggi 7 yil ichida Oliy Majlis Parlamentlararo Ittifoq (PAI), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi (YeXHT PA) kabi qator nufuzli parlamentlararo uyushmalarga a'zo bo'lib kirganini alohida ta'kidlash joiz.

Joriy yilning 5-6-aprel kunlari Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi Toshkent shahrida o'tkazilganligi ham nafaqat jahon parlamentarizmi rivojida muhim bosqich, balki O'zbekistondagi demokratik islohotlarning dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishi hamda yuksak e'tirof etilayotganligining na'munasidir. Bu – mamlakatimizning xalqaro siyosiy maydondagi o'rni, global jarayonlardagi maqomi tobora yuksalayotganining amaliy tasdig'idir.

Ma'lumki, Parlamentlararo Ittifoq – dunyoda shu yo'nalishdagi eng yirik va nufuzli tashkilot sifatida global siyosiy jarayonlarda muhim o'rin egallab kelmoqda. 1889-yilda asos solingan ushbu tuzilmaga ayni paytda 181 ta milliy va 15 ta mintaqaviy parlament a'zo bo'lib kirgan.

Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlarining ham sa'y-harakatlarini birlashtirish, yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal etishga bo'lgan ehtiyoj 5 ta davlat parlamentini yagona institutsional birlashma doirasida hamkorlik qilishi uchun zarurat tug'dirmoqda edi.

Buning natijasi o'laroq 2023-yilda **Markaziy Osiyo davlatlarining parlamentlararo forumi** yo'lga qo'yilishi esa ana shunday hayotiy talablarni qondirish bilan bir qatorda, mintaqaviy hamkorlikka sezilarli darajada sur'at bag'ishlab, xalqlarimizning yanada yaqinlashishiga turtki berdi deyishimiz mumkin. Ushbu forum mintaqa mamlakatlari o'rtasida strategik hamkorlikni mustahkamlash va ushbu jarayonda parlamentlarning rolini yanada oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining birinchi parlamentlararo forumi 2023-yil 10-fevral kuni Qozog'iston Respublikasining Turkiston shahrida o'tkazilib, unda mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklikni qo'llab-quvvatlash maqsadida parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan Turkiston deklaratsiyasi qabul qilindi[11].

Mazkur forum doirasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda turli forumlar, festivallar, madaniy tadbirlarni o'tkazish, xalqlarimizni bir-biri bilan yanada jipslashtirishga xizmat qiluvchi turizm yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikdagi loyihalarni jadal sur'atlarda amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumi esa 2024-yilning 12-15-sentyabr kunlari Xorazm viloyatining ko'hna Xiva shahrida bo'lib, forum yakunida Markaziy Osiyo davlatlarining parlamentlararo tashabbuslari doirasidagi hamkorlik va keyingi harakatlar uchun asos bo'ladigan Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi[12].

Mazkur ikkinchi parlamentlararo forumda Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda parlamentlararo komissiyalar, do'stlik guruhlari va mahalliy vakillik organlarining ishtirokini kengaytirishga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xotin-qizlar va yoshlarning rolini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlar parlamentlari va guruhlarining mintaqa parlamentlari rahbarlariga murojaatlari yuborildi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, mintaqa davlatlarining yoshlari o'rtasidagi hamkorligi kuchayishiga, bunda parlamentlar huzuridagi yoshlar birlashmalarining o'rni ham oshishiga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining uchinchi parlamentlararo forumi esa joriy yilda Qirg'iz Respublikasida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, mintaqa davlatlari o'rtasidagi munosabatlar rivojining bugungi sur'ati mamlakatlarimiz konstruktiv siyosiy muloqotini yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, madaniy-gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga qat'iy sodiqligini yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarda siyosiy kelishmovchiliklarni harbiy kuch va turli ko'rinishdagi siyosiy tahdid va tazyiqlar orqali hal qilish juda katta talofatlarga olib keladi. Davlat va millat manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni zaruriyat tug'ilganda xalqaro huquq va xalqaro jamoatchilik yordamida hal etish ko'proq samara berishi tayin. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar suverenitetini saqlash maqsadida Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o'zaro integratsion jarayonlarni tezlashtirish zarur. Bunda mintaqa davlatlari qonun chiqaruvchi organlari hamkorligidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu sababli mintaqa davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama (*parlamentlarning do'stlik guruhlarini va komissiyalar orqali*) va ko'p tomonlama (*Parlamentlararo Ittifoq (PAI), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi (YeXHT PA) kabi qator nufuzli parlamentlararo uyushmalar doirasida*) parlamentlararo aloqalarni kuchaytirish lozim.

Shuningdek Markaziy Osiyo davlatlarining parlamentlararo forumi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadida ushbu forumni institutsional tuzilmaga aylantirish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. B. 17.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston: taraqqiyot strategiyasi/ "O'zbekiston" nashriyoti, Toshkent, 2022-yil.
4. Jo'rayev Q. O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati. Ijtimoiy siyosiy nashr. Ilmiy-ommabop maqolalar. T.: "Oltin meros press", 2024. - 455 b.
5. G'afurov S.M. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar [Matn] / S.G'afurov. – Toshkent: "MERIT PRINT", 2023. – 108 b.
6. Eldor Aripov: Markaziy Osiyo qisqa davr ichida tubdan o'zgardi. www.uza.uz/posts/650086
7. Markaziy Osiyo integratsiyasi: mintaqaning o'zaro bog'liqligi bizga nima beradi? www.yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-integratsiyasi
8. Parliamentary diplomacy - Diplo - DiploFoundation. www.diplomacy.edu/topics/parliamentary-diplomacy/
9. Parlament diplomatiyasi – O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining muhim omili. www.pri.oliymajlis.uz/news/institute
10. O'zbekiston — Qirg'iziston: parlamentlararo hamkorlik aloqalari yanada rivojlanadi. www.parliament.gov.uz/news/ozbekiston
11. Markaziy Osiyo davlatlarining birinchi parlamentlararo forumi mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. www.senat.uz/international-cooperation
12. Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumida Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi. www.pravacheloveka.uz/oz/news/markaziy-osiyo

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МЕДИАКОНТЕНТДАН ФОЙДАЛАНИШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО

БЕКМУРАТ ТОЛЕПОВ

*Ажиниёз номидаги Нукус ДПИнинг
мустақил изланувчиси*

Замонавий таълим траекторияси, инновацион ўзгаришлар фонида инновацион ғояларнинг етакчи ўрин эгаллаши ўқитиш жараёнига нисбатан янгича ёндашиш заруриятини шакллантирди. Бу зарурият эса ўз навбатида “тегишли таълим мазмунининг янгиланиши педагогик жамоада тарих фанларини ўқитишда янги шакл ва технологияларни излаш зарурлиги тўғрисидаги фикрнинг пайдо бўлишига олиб келди” [2].

ОТМда тарих фанларини ўқитишда талабаларнинг тегишли йўналишда зарур тушунчаларга, улардан амалиётда фойдаланиш тажрибасига эга бўлиши билан бирга мустақил равишда тарихий воқеа-ҳодиса, жараёнларнинг мазмунини таҳлил қила олиш, ижтимоий аҳамиятини баҳолаш, кишилиқ тараққиётининг прогрессив ёки регрессив характер касб этишидаги ўрни, ролини ўрганиш, мавжуд ҳамда келгуси ижтимоий муносабатларга таъсири баҳолаш компетенцияларини ҳам ўзлаштира олишлари зарур. Бу жараён бевосита уларда тарихий тафаккурнинг ривожланиши билан кечади.

Бозор муносабатлари, қолаверса, глобал ахборотлашув феномени табиий равишда ижтимоий муносабатлар, “фаол шахс – ривожланган жамият” тамойилида туб бурилишга эришишни тақозо этмоқда. Юқори даражада ривожланган онг ва тафаккурга эгалик эса шахс фаоллигига эришишнинг муҳим шартидир.

Кишилиқ тараққиётининг турли даврларида муайян замон ва маконда содир бўлган тарихий далилларни ёритувчи манбалар тарих фанларининг “пойдевори”, “ядроти”ни шакллантиради.

Польшалик тадқиқотчи Тереса Марешнинг кўрсатишича, “манбалар – бу тарихий далиллар, кишиларнинг қарашлари ва ҳаракатларининг излари. Шу боис манбалар шахс (тарихчи, талаба, ўқувчи, тадқиқотчи, китобхон ва бошқалар)га тарихий далилларни баён қилиш учунгина бошланғич маълумотларни беради. Шу сабабли тарихий далиллар илк даврданоқ бир қатор саволларни юзага келишига туртки берадиган шахснинг субъектив талқинига асосланади” [1]. Муаллиф, шунингдек, тарихий тафаккур ва

тарихга оид билимларнинг ўзаро қайтар алоқага эгаллигига алоҳида урғу беради: “Тарихий тафаккур тарихга оид билимлар асосида шаклланади, худди шундай тарихга оид билимлар тарихий тафаккур ёрдамида ривожланади” [1].

Тарихий тафаккур ижтимоий субъектларда инсоният кечмишида рўй берган умумий ёки ҳудудий воқеликлар моҳиятини таҳлил қилиш (ўзига хос жиҳатларини ажратиб кўрсатиш), синтезлаш (умумий жиҳатларни аниқлаш), хулосалаш (инсоният, миллат учун аҳамиятини баҳолаш, салбий оқибатларни келтириб чиқарган сабабларни аниқлаш, келгусида улар рўй бермаслигининг олдини олиш чораларини кўриш) каби компетенцияларни ривожлантиради. Тарихий тафаккур – тарихий воқеа ва ҳодисаларни билиш, тарихий жараёнлар моҳиятини, тарихий воқеа ва ҳодисалар ўртасидаги ўзаро алоқалар ва муносабатлар мазмунини умумлаштириш, улар ўртасидаги алоқаларнинг сабаб-оқибатларини ўрнатиш орқали англаш қобилияти. [1] Демак, тарихий тафаккур таҳлил қилиш, умумлаштириш, сабаб ва оқибат алоқадорлигини таъминлаш, хулосалаш орқали тарихий воқеа, ҳодиса ҳамда жараёнларнинг моҳиятини англаш демакдир.

Келтирилган таъриф ва “тафаккур” тушунчаларининг тавсифига таянган ҳолда “тарихий тафаккур” тушунчасини шундай талқин қилиш имконияти юзага келади: тарихий тафаккур – шахс онгида инсоният ёки муайян миллатнинг тарихий тараққиётида рўй берган воқеликлар, жараёнлар тўғрисидаги тасаввурларнинг ҳосил бўлиши орқали хронологик изчиллик моҳиятини идрок қилиш, турли замон ва маконда рўй берган ҳодисалар ўртасидаги ўзаро ижтимоий алоқадорликни аниқлаш орқали субъектив муносабатнинг шаклланишини таъминловчи ақлий фаолият.

А.О.Чубарьяннинг умумий таҳрири остида яратилган “Тарих фанларининг назарияси ва методологияси. Тушунчалар луғати” (“Теория и методология исторической науки. Терминологический словарь”)да кўрсатилишича, моҳиятига кўра тарихий тафаккур икки гуруҳга ажратилади: 1) мантиққа асосланадиган тарихий тафаккур; 2) образли ифодаланадиган тарихий тафаккур.

Глобаллашув шароитида рақамли технологияларнинг жамият ва шахс фаолиятига бевосита таъсири улардан самарали, мақсадли фойдаланиш имкониятларини изланишни тақозо қилмоқда. Талабалар рақамли технологияларнинг энг фаол фойдаланувчилари экани инobatга олинса, у ҳолда ўқитиш жараёнига медиаконтентларни татбиқ қилиш муаммоси янада долзарблaшади. Бирок, ўқитиш жараёнида

медиаконтентлардан фойдаланиш мураккаб жараён бўлиб, унинг муваффақиятини таъминлашда бир қатор шартлар иноатга олинади. Ушбу шартлар ОТМнинг моддий-техник асос, муассасада тегишли йўналишда яратилган педагогик-психологик шарт-шароит, сифатли медиаконтент ҳамда бой медиатекага эгалик, таълим жараёнининг методик таъминоти билан боғлиқ. Қайд этилган шартларнинг инobatга олиниши, қолаверса, ўқитувчиларнинг юқори даражада касбий компетентликка эга бўлишлари тарих фанларида ўқитиш жараёнида медиаконтентлардан мақсадли, муваффақиятли фойдаланиш учун имконият яратади.

Медиаконтент глобал ахборотлашув шароитида тезкор узатиладиган ахборот бўлиб, шахснинг уни олишга бўлган эҳтиёжини қондиришга хизмат қилади. ОТМ олдида турган муҳим ижтимоий-педагогик, таълимий вазифалардан бири талабаларда улар учун фойдали, муҳим, зарур бўлган медиаконтентдан фойдаланиш компетенциясини ривожлантириш саналади. Бинобарин, талабаларни соҳага оид медиаконтентлар билан танишиш, уларнинг мазмунини таҳлилий, қиёсий ва танқидий ўрганиш уларда тарихий тафаккурни самарали ривожлантиришга хизмат қилади.

Тарихий тафаккур тарихий воқеа ва ҳодисаларнинг мазмунини улар ўртасидаги алоқаларнинг сабаб-оқибатларини ўрнатиш орқали англатиб, талабаларда тарихий манба, ҳужжат, харита ва хронологик маълумотлар билан самарали ишлашни таъминлайди.

Контент-таҳлил диалектик ривожланиш ва изчилликни таъминлаш; ижтимоий ва маданий қадриятларга мослик; тарихий тажриба ва замонавий ёндашувлар уйғунлиги; тарихий ворислик; миллий меросни сақлаш; миллий ахлоқий қарашларга мувофиқлик; фаол диалог ёки интерфаоллик; креатив ёндашув ҳамда форсайт (эксперт баҳолаш) тамойиллари медиаконтент асосида талабаларда тарихий тафаккурни ривожлантиришга қаратилган илмий-педагогик фаолиятнинг самарали бўлиши учун замин яратади.

Медиаконтентлар ёрдамида муайян босқичлар талабалар томонидан бошланғич-назарий, предметли-амалий, мантиқий-самарали ҳамда интуитив-маҳсулдор даражадаги тарихий тафаккурнинг ўзлаштирилишини таъминлайди.

Мазкур жараёни ташкилий-методик жиҳатдан ташкил қилишда ўзбек сегментидаги тарихий билимларни тарғиб қилувчи медиаконтентлар, уларнинг инглиз ва рус сегментидаги бу турдаги контентлар билан нисбатини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитиш жараёнида медиаконтентлардан фойдаланиш мураккаб жараён бўлиб, унинг муваффақиятини таъминлашда бир қатор шартлар инобатга олинади. Ушбу шартлар ОТМнинг моддий-техник асос, муассасада тегишли йўналишда яратилган педагогик-психологик шарт-шароит, сифатли медиаконтент ҳамда бой медиатекага эгалик, таълим жараёнининг методик таъминоти билан боғлиқ.

Контент-таҳлил диалектик ривожланиш ва изчилликни таъминлаш; ижтимоий ва маданий қадриятларга мослик; тарихий тажриба ва замонавий ёндашувлар уйғунлиги; тарихий ворислик; миллий меросни сақлаш; миллий ахлоқий қарашларга мувофиқлик; фаол диалог ёки интерфаоллик; креатив ёндашув ҳамда форсайт (эксперт баҳолаш) тамойиллари медиаконтент асосида талабаларда тарихий тафаккурни ривожлантиришга қаратилган илмий-педагогик фаолиятнинг самарали бўлиши учун замин яратади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Жужгова Н.В. Формирование исторического мышления в условиях модернизации системы образования. <https://urok.1sept.ru/articles/310335>.
2. Мареш Тереса. Историческое познание или историческое мышление? // Диалог со временем. – М.: 2013. Вып. 44. – С. 64.
3. Панченко Т.В., Мартынюк М.Н., Мосолов М.С. Развитие исторического мышления обучающихся в исследовательском проекте // Ж. Проблемы современного педагогического образования. – Ялта: 2021. - № 3 (71). – С. 150.



MARKAZIY OSIYODA MAFKURAVIY ISLOHOTLARNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY-SIYOSIY HAMKORLIKNING O'RNI

HUMOIYIDDIN YOQUBOV
O'zDJTU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Mintaqadagi davlatlar mustaqillikka erishganidan so'ng sobiq mafkuraviy tuzumdan voz kechib, milliy g'oya va qadriyatlarni qayta shakllantirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Ayniqsa, axborot almashinuvi, tajriba bo'lishish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va mintaqaviy forumlar orqali ijtimoiy-siyosiy birdamlikni mustahkamlash mafkuraviy yangilanishlarga kuchli turtki bermoqda. Maqolada O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlarning yondashuvlari misolida mafkuraviy strategiyalar tahlil qilinadi hamda umumiy barqarorlik va taraqqiyotga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, mafkuraviy islohotlar, milliy g'oya, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik, ekstremizmga qarshi kurash, demokratik qadriyatlar, xalqaro hamkorlik.*

Markaziy Osiyoda mafkuraviy islohotlarni rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning o'rni ayni paytda nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, balki har bir davlatning ichki siyosiy hayoti va ijtimoiy tizimining takomillashuvida ham muhim o'rin tutadi. Bu jarayon, asosan, mafkuraviy yangilanishlar orqali xalq ongida ijobiy o'zgarishlarni shakllantirish, yot g'oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet hosil qilish va mintaqadagi yosh avlodni global xavflardan himoya qilish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni milliy qadriyatlar, umuminsoniy prinsiplar asosida tarbiyalash zamonaviy mafkuraning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bu islohotlarda ijtimoiy-siyosiy hamkorlik muhim vosita sifatida qaralmoqda. Chunki mintaqada davlatlari o'rtasida g'oyaviy tajriba almashinuvi, ma'naviy qadriyatlar asosida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish va turli xalqaro institutlar bilan birga ishlash orqali mafkuraviy islohotlarga chuqur va kompleks yondashuvlar joriy qilinmoqda. Xususan, xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda olib borilayotgan loyihalar, OAV orqali olib borilayotgan targ'ibot ishlari, ta'lim muassasalarida axloqiy-tarbiyaviy ishlarning kuchaytirilishi ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini yanada boyitmoqda.

Shuningdek, bu islohotlar mintaqaviy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan biri sifatida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, ekstremizm va radikalizm kabi tahdidlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Mafkuraviy sohada olib borilayotgan yangilanishlar milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash, diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kabi strategik vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan olganda, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik mafkuraviy islohotlarning samaradorligini oshirishda, ayniqsa, mintaqada yagona axloqiy-ma'naviy maydonni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mafkuraviy islohotlarning mohiyati, ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlarida mustaqillikdan keyingi davrda dolzarb ahamiyat kasb etdi. Sovet mafkurasining uzoq yillar davomida yuritilgan yagona g'oyaviy siyosati mintaqa xalqlari orasida milliy o'zlik, diniy erkinlik va tarixiy xotiraning so'nishiga sabab bo'ldi. Mustaqillikka erishgan har bir davlat uchun esa o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda avvalo yangi mafkuraviy asoslarni shakllantirish muhim vazifa bo'lib chiqdi. Bu yangi yondashuvda milliy qadriyatlar, madaniy meros, tarixiy haqiqatlar va zamonaviy rivojlanish ehtiyojlari uyg'unlashtirilishi lozim edi.

Mafkuraviy islohotlarning tub mohiyati – ijtimoiy ongni yangilash va fuqarolarning zamonaviy dunyoqarash asosida mustaqil fikrlashini shakllantirishdir. Ayniqsa, bu islohotlar yosh avlodni g'oyaviy jihatdan barkamol, ma'naviy yetuk, o'zining tarixiy ildizlari va madaniy merosiga hurmat bilan qaraydigan, biroq zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlariga ochiq bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Yoshlar orasida radikal g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, ekstremistik oqimlarga qo'shilmaslik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda mafkuraviy islohotlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, bu islohotlar jamiyatda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi birdamlik va totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy mafkura orqali fuqarolarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, davlatga sadoqat kabi tushunchalarni mustahkamlash ham islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mafkuraviy yangilanishlar xalqaro miqyosdagi tahdidlar – informatsion xavfsizlik, madaniyatsizlik, ma'naviy tanazzul kabi muammolarga qarshi kurashishning samarali usuli sifatida ham ko'rilmqda.

Ijtimoiy-siyosiy hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlarida mafkuraviy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim tayanch vazifasini o'taydi. Mintaqadagi davlatlar o'rtasida shakllanayotgan o'zaro ishonch va konstruktiv muloqot mafkuraviy sohadagi tajriba almashinuvi, metodologik yondashuvlarning uyg'unlashuvi va umumiy qadriyatlar asosida harakat qilish

imkonini yaratadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot almashinuvi – ya'ni har bir davlatda qo'llanilayotgan samarali mafkuraviy uslublarni birgalikda o'rganish va tatbiq etish – islohotlarning sifat jihatidan yuksalishiga olib keladi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – masalan, UNESCO, OSCE, UNDP kabi tuzilmalar bilan hamkorlik doirasida xalqaro standartlarga mos mafkuraviy siyosat yuritish, inson huquqlari, erkinlik, bag'rikenglik va demokratik tamoyillarni jamiyat ongiga singdirish jarayoni faol olib boriladi. Ushbu hamkorlik doirasida mintaqaviy dasturlar, qo'shma loyihalar, grantlar va treninglar orqali mafkuraviy sohada zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyati kengaymoqda.

Bundan tashqari, muntazam ravishda o'tkaziladigan xalqaro va mintaqaviy forumlar, konferensiyalar mafkuraviy sohadagi muammolarni ochiq muhokama qilish, turli nuqtai nazarlarni birlashtirib, bir yo'nalishda harakat qilishga xizmat qilmoqda. Bu kabi maydonlar nafaqat mafkuraviy yondashuvlarni ishlab chiqadi, balki ular jamiyatdagi turli qatlamlar bilan muloqotni kuchaytiradi, yoshlarning faolligini oshiradi.

Mafkuraviy islohotlarda OAV va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni ayniqsa muhim. Ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatga singdirilayotgan g'oyaviy tamoyillar, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etilayotgan ijobiy namunalar, ma'naviy tarbiyani mustahkamlovchi kontentlar – bularning barchasi mafkuraning hayotga real ta'sir ko'rsatish darajasini oshiradi. Ta'lim tizimida esa g'oyaviy tarbiya darslari, ijtimoiy fanlarning mazmuni va uslubiyatining zamonaviylashtirilishi orqali bu jarayon yanada chuqurroq amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyoda olib borilayotgan mafkuraviy islohotlar har bir davlatning ichki siyosiy yo'nalishi, tarixiy tajribasi va madaniy o'ziga xosligiga asoslangan bo'lsa-da, ularning mintaqaviy darajadagi uyg'unligi va bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ijtimoiy-siyosiy hamkorlik orqali yanada samarali shakllanmoqda. O'zbekiston tajribasida "Yangi O'zbekiston – yangi g'oya" tamoyili asosida mafkura yangilanishi milliy manfaatlarni ilgari surish, yoshlar ongini zamonaviy bilim va ma'naviyat asosida shakllantirish, ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish kabi yo'nalishlarga qaratilgan. Bu tamoyil keng jamoatchilik, ayniqsa ta'lim va OAV orqali izchil targ'ib qilinmoqda.

Qozog'istonda esa "Ruhani jangyru" dasturi orqali milliy qadriyatlar, til, tarix va madaniyatni tiklashga, zamonaviy global g'oyalar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu dastur fuqarolarning o'zlikni anglash, o'z tarixiga va madaniyatiga nisbatan iftixor tuyg'usini shakllantirish orqali

mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar esa aholining, ayniqsa yoshlarning ekstremistik qarashlarga berilmasligini ta'minlash maqsadida axborot-mafkuraviy profilaktikani kuchaytirmoqda. Bu davlatlarda diniy ta'lim, OAV va huquqni muhofaza qilish tizimlari bilan hamkorlikda turli madaniy-ma'rifiy va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shu misollardan ko'rinib turibdiki, mafkuraviy islohotlar faqatgina ichki siyosat doirasida qolib ketmayapti, balki mintaqaviy darajada umumiy qadriyatlar, xavfsizlik va taraqqiyot masalalari bilan chambarchas bog'liq holda olib borilmoqda. Mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy hamkorlik orqali har bir davlat o'z mafkurasini yangilashda va uni zamonaviy global talablar bilan uyg'unlashtirishda qo'shimcha tajriba, bilim va texnik yordam olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Natijada bu hamkorlik nafaqat xavfsizlikni mustahkamlash, balki g'oyaviy uyg'unlik, ma'naviy birlik va fuqarolik ongini yuksaltirish orqali jamiyatlarni yanada mustahkamroq asosda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari uchun mafkuraviy islohotlar nafaqat ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, balki mintaqaviy hamkorlik asosida umumiy taraqqiyot va g'oyaviy uyg'unlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-siyosiy hamkorlik vositasida axborot va tajriba almashinuvi kuchayib, mafkuraviy immunitet mustahkamlanadi. Natijada, ekstremistik va radikal qarashlarga qarshi samarali kurashish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash imkoniyati kengayadi. Bu esa mintaqa kelajagi uchun barqaror, ochiq va ma'naviy boy jamiyatlar qurilishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jasjit Singh. Reshaping Asian Security. /The Institute for Defence Studies and Analyses, India, New Delhi, 2001. 109-P
2. UN Population Division. World population prospects. /USA, New York, 2020.
3. Malikov Yuriy. Modern Central Asia//Lexington Books, London, 2019. 224-P
4. Barnett Rubin. The Fragmentation of Afghanistan. State formation and collapse in the International System//Tale University Press, USA, 1995.
5. G'afurov S.M. Turkiy davlatlar tashkiloti – O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishi/"Yangi O'zbekiston" gazetasi/228-son, 8-noyabr, 2022 y.

ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИГА ОИД БАЪЗИ АСАРЛАРНИНГ ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ

ЗИЁДИЛЛА ЗИНАТУЛЛАЕВ

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA
кафедраси доценти в.б., PhD*

Марказий Осиё қадимдан кўплаб босқинларга рўбарў келган минтақадир. Қадимги даврда Аҳамонийлар, сўнг Юнон-македонлар босқинига учраган ушбу ҳудуд ўрта асрларда ҳам қизгин сиёсий жараёнлар марказида бўлиб қолди. Араблар кириб келганидан сўнг мазкур ўлка Мовароуннаҳр деб атала бошлади ва ўрта асрлар сўнгига қадар шу ном билан юритилди. Ислом кириб келгач бу ерда кечган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнлар араб, форс ва маҳаллий тарихнавислар асарларида ёритилган.

Мазкур даврга оид араб тилида ёзилган илк асарлардан бири “Футуҳ ал-булдон” [14] (“Мамлакатларнинг фатҳ этилиши”) IX асрда яшаган географ ва тарихчи олим Абу Бакр Аҳмад ибн Яҳё Жобир Балозурий (ваф. 278/892-93 й.) томонидан таълиф этилган. “Футуҳ ал-булдон” арабларнинг юришлари ҳақидаги маълумотларни ўзида мужассам этган қимматли асарлар қаторига киради. Унда бошқа манбаларда йўқ маълумотлар келтирилган. Усмон ибн Аффон (ра, 644-656) ва Хуросон ноиби Абдуллоҳ ибн Амр даврида арабларнинг Мовароуннаҳрга амалга оширган ҳарбий юришлари ва Маймургни эгаллаб, сўнг ортга қайтганлари ҳақидаги маълумотлар фақат шу асарда келтирилгани ҳам унинг алоҳида аҳамиятли манба эканидан далолат беради. “Футуҳ ал-булдон”нинг иккинчи қисмида араблар томонидан шарқда ва шимоли-шарқда олиб борилган ҳарбий ҳаракатлар тафсилотлари баён этилган. Асарда фатҳ этилган ҳудудларнинг маданияти, дини, ҳукмдорлари, ижтимоий ва иқтисодий ҳолати, бошқарув тизими, пул-молия сиёсати, хирож йиғими ва бошқа масалалар ҳақидаги қимматли маълумотлар тадқиқот олдига қўйилган вазифаларнинг ижросида муҳим рол ўйнади. Асарнинг юксак илмий аҳамияти ҳақида унинг қисқартирилган таҳрирдаги арабча матни Михаэл Ян де Гуйе (1839-1909 йй.) томонидан 1866 йили Лейден (Голландия)да[20], инглизча таржимаси П.К.Хитти (1916 йили I жилд) ва Ф.К.Мурготтен (1924 йил II жилд) тарафидан амалга оширилган[2]. Рус тилидаги Хуросон қисмига оид таржимаси Г.Гоибовга тегишлидир[13]. “Китоб футуҳ ал-булдон”

Ш.Камолиддин томонидан ўзбек тилига ҳам ўгирилиб, 2011 йилда шарҳ ва изоҳлар билан бойитилган ҳолда нашр этилган[10].

Араб халифалигининг илк даври тарихи билан шуғулланувчи мутахассис учун қомусий олим Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир Табарийнинг (839-923) “Тарих ар-русул ва-л-мулук” [19] (“Пайғамбарлар ва подшоҳлар тарихи”) асари муҳим манбалардан ҳисобланади. Асарда 912–913 йилларгача Арабистон, Рум (Кичик Осиё), Эрон ва араб халифалиги томонидан забт этилган мамлакатлар билан бир қаторда, Мовароуннаҳрда бўлиб ўтган ижтимоий-сиёсий воқеалар хронологик кетма-кетликда йилма-йил баён этилган. Табарий ўз асарида яҳудийлар ва христианларнинг нақл ва ривоятлари (исроилиёт), Сосонийлар (224-651 й.) солномаси “Хвадай намак” (“Подшоҳнома”), Мадоинийнинг (ваф. IX асрнинг иккинчи ярми) “Тарихи хулафо” (“Халифалар тарихи”), Воқидийнинг (747-823 й.) “Китоб ал-мағозий” (“Урушлар ҳақида китоб”), Ибн Тайфурнинг (819-893 й.) “Тарихи Бағдод” (“Бағдод тарихи”) кабилардан кенг фойдаланган.

“Тарих ар-русул ва-л-мулук”нинг тўлиқ ва қисқартирилган таҳрирлари бўлган. Бироқ бизгача фақат қисқартирилган матнгина[3] етиб келган. Уни голландиялик шарқшунос Михаэл Ян де Гуйе 1879–1901 йилларда 15 жилдда нашр этган. Француз тилидаги таржимаси Г.Зотенберг томонидан 1867-1874 йилларда амалга оширилган[25]. Асарнинг форс[26] ва турк[11] тилларидаги таржималари ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг қўлёзма нусхалари Санкт-Петербург ва Тошкент кутубхоналарида сақланади. Жумладан, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида “Тарих ар-русул ва-л-мулук”нинг араб тилидаги тўртта қўлёзмаси ҳамда форс (инв. №12593, №7322, №7466, №831, №9317), уйғур (№ 9470) ва ўзбек тилларидаги таржималари мавжуд. Асарнинг рус тилидаги қисқартирилган таржимаси В.И.Беляев томонидан 1987 йилда “История Табари” номи билан Тошкентда чоп этилган[12]. Ушбу манбада ислом даврида амал қилган бошқарув тизими, унинг араб халифалиги периферияси, жумладан, Марказий Осиёга трансляцияси жараёнлари ҳақидаги маълумотлар ҳам жой олган.

Мазкур даврга оид қимматли манбалардан яна бири Абу Бакр Муҳаммад ибн Жарир Наршахий (899–960)нинг “Бухоро тарихи” асаридир. Унда Бухоро ва унинг атрофидаги шаҳарларнинг VII–X асрлардаги иқтисодий, маданий, ижтимоий-сиёсий тарихига оид маълумотлар баён этилган. Шунингдек, асарда арабларнинг Мовароуннаҳр ҳудудига амалга оширган илк ҳарбий ҳаракатлари, кейинчалик минтақанинг Қутайба ибн

Муслим бошчилигида забт этилиши, худудга исломга асосланган бошқарув тизимининг кириб келиши, Мовароуннаҳрдаги дастлабки мусулмон сулола бўлган Сомонийларнинг келиб чиқиши ва улар давлатининг ташкил топиши, бошқарув тизими, қўшни минтақалар билан кечган сиёсий жараёнлар, Муқанна бошчилигидаги халифаликка қарши “Оқ кийимлилар” қўзғалони ва бошқа муҳим воқеалар ҳақида ҳикоя қилинади.

“Бухоро тарихи” асарининг араб тилидаги асл нусхаси бизгача етиб келмаган. Бизгача унинг 1128 йилда Қубо шаҳридан бўлган Абу Наср Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Наср Қубовий (ваф. XII аср) томонидан форс тилига ўгирилган нусхаси етиб келган. 1178–1179 йилларда Муҳаммад ибн Зуфар ибн Умар уни қайта таҳрир қилиб, қисқартирилган баёнини яратган. “Бухоро тарихи”нинг 1819–1820 йилларда Бухорода кўчирилган нусхаси ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланмоқда[28]. Шунингдек, жаҳоннинг турли шаҳарларида, хусусан, Санкт-Петербург[24] ва Душанбеда[27] ҳам асарнинг қўлёзма нусхалари сақланади.

Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарининг бир қанча қўлёзмалари асосида тайёрланган матни бир неча бор – 1892 йили шарқшунос олим Шарль Чефер (1820–1898) томонидан Парижда[6], 1904 йили Мулло Султон томонидан Бухорода, 1939 йили Мударрис Ризавий томонидан Техронда нашр этилган[1]. Асарнинг русча таржимасини[22] Н.Лыкошин 1897 йил Тошкентда нашр қилган. Р.Фрайнинг инглизча изоҳли таржимаси 1954 йили Кембрижда чоп этилган[5].

“Бухоро тарихи”нинг ўзбек тилидаги таржимаси А.Расулов томонидан амалга оширилган бўлиб, 1966 йил Тошкентда нашр этилган[23]. Бу ишга асарнинг Санкт-Петербург, Париж, Бухоро, Душанбе ва Техрон қўлёзмалари матнлари жалб этилган. Қўлёзмаларни ўзаро таққослаш натижасида Техрон нашри таржима учун асос қилиб олинган. Кейинчалик А.Расуловнинг ушбу таржимаси бир неча бор қайта нашр этилди[8].

Марказий Осиёнинг ўрта асрлар даври тарихи, жумладан, унинг ҳудудидаги бошқарув тизимига оид муҳим манбалардан яна бири – Абу Саид Абулҳай ибн Заҳҳок ибн Маҳмуд Гардизий (XI аср, ваф. 1061 й.)нинг “Зайнул ахбор” (“Хабарлар безаги”) асаридир. Унда Хуросон ва Мовароуннаҳрнинг араблар кириб келишидан то XI аср ўрталаригача бўлган даврдаги сиёсий ва этник тарихини ўрганишда катта аҳамиятга эга. Гардизий ушбу асарида Жайҳонийнинг “Ажойибул булдон”, Салломийнинг “Китоб фи ахбор вилояти Хуросон”, шунингдек, ибн Халликон, ибн Муқаффанинг асарларидан фойдаланган.

“Зайнул ахбор” беш қисмдан иборат бўлиб, уларнинг бешинчиси арабларнинг Хуросондаги волийлари бошқаруви даври, шунингдек, Тоҳирийлар ва Саффорийлар ҳамда Мовароуннаҳрдаги Сомонийлар ва Ғазнавийлар (1042 йилгача) давлатларининг умумий тарихига бағишланган. Жумладан, мазкур қисмда Марказий Осиёнинг VIII–XI асрлардаги сиёсий бошқаруви ва ундаги ислохотчилик жараёнлари ҳақидаги қимматли маълумотлар ўз аксини топган. “Зайнул ахбор”да Хуросон ва Мовароуннаҳрнинг VII асрнинг иккинчи ярмидан XI биринчи ярмигача бўлган тарихи анчагина кенг ёритилган.

“Зайнул ахбор”нинг юксак илмий қийматидан келиб чиқиб, унинг турли қисмлари бир неча тилларга таржима қилинган. Жумладан, В.В.Бартольд асарнинг турклар ҳақидаги бобини матни ва русча таржимаси билан 1897 йилда нашр эттирган[9]. Худди шу бобни 1903 йили венгер олими Геза Кун асл матн ва венгер тилидаги таржимаси билан Оксфорд қўлёзмаси асосида чоп эттирган[4]. Гардизийнинг Ҳиндистон ҳақида келтирган маълумотларини инглиз шарқшуноси В.Минорский инглиз тилига ўгириб, 1948 йили Лондон университетида “Шарқ ва Африка. Ўтмиш ва ҳозирги тадқиқотлар” номли тўпламда эълон қилган[7]. Асарнинг Тоҳирийлар, Саффорийлар, Сомонийлар ва Ғазнавийлар тарихига тегишли форсча матни 1928 йил[21] Муҳаммад Нозим томонидан Берлинда, 1937 йили[17] эронлик Мирзо Муҳаммад Қазвиний ва 1954 йили[16] Саид Нафисий, тўлиқ матни эса, 1984 йили[18] А.Ҳабибий тарафидан амалга оширилган. “Зайнул ахбор”нинг Марказий Осиёга алоқадор қисми А.К.Андерс томонидан амалга оширилган таржимаси 1991 йили Л.М.Епифанова томонидан нашрга тайёрланиб, Тошкентда чоп этилган[15].

Марказий Осиёнинг VII–XI асрлардаги тарихига оид қимматли асарлар яратган Балозурий, Табарий, Наршахий, Гардизий каби муаррихларнинг асарлари орадан неча асрлар ўтсада ўзининг илмий аҳамиятини йўқотмаган. Уларда ёритилган масалалар қаторида ислом тафаккури шароитида Марказий Осиёда бошқарув тизимининг ривожланишига оид қимматли маълумотлар ва диққатга сазовор мулоҳазалар борлиги ушбу тадқиқот учун бениҳоя муҳимдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. “Бухоро тарихи”нинг матни – мулла Султоннинг изоҳлари билан литографик тарзда, Мударрис Ризавий таҳрири остида 1939 йил Техронда нашр этилган.

2. Aḥmad b. Yaḥyā al-Balādhūrī. *Kitāb Futūḥ al-buldān*. Translated into English by Philip Khūri Ḥitti (volume I: 1916) and Francis Clark Murgotten (volume II: 1924). – 366 p.
3. Annales quos scripsit Abu Djafar ibn Djarir at-Tabari cum aliis edidit M. J. de Goeje, ser. I, III. Lugduni Batavorum, 1901. 422 p.
4. Kuun Géza, Gardezi kézirati munkájának a törökökről, tibetiekről, sínaiakról írott fejezetei. Kiadta: 1903. – 186 s.
5. Narshakhi. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far (1954). The History of Bukhara: Translated from a Persian Abridgment of the Arabic Original by Narshakhi. Translated by Frye, Richard Nelson. Cambridge, Massachusetts: Mediaeval Academy of America, 2019. – 234 p.
6. Schefer, Ch. Description topographique de Boukhara, par Mohammad Nerchakhy/Ernest Leroux, editeur. Paris: 1892. – 186 p.
7. V. Minorsky. Bulletin of the School of Oriental and African Studies, University of London Vol. 12, No. 3/4, Oriental and African Studies Presented to Lionel David Barnett by His Colleagues, Past and Present, 1948. – 640 p.
8. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жафар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. - Тошкент: Камалак, 1991. – 335 б. Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси, муҳаррир А.Ўринбоев. Тошкент: Шарк баёзи, 1993. – 124 б.
9. Абу Са'ид 'Абд ал-Хайй б. Зоҳак Гардизи. Украшение известий / Бартольд В.В. Отчёт о поездке в Среднюю Азию с научной целью. 1897. – 326 с.
10. Абул Аббос Аҳмад ибн Яҳё ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон. Хуросоннинг фатҳ этилиши / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. Тошкент: ТошДШИ, 2017. – 439 б.
11. Ат-Табари, Муҳаммад ибн Джарир. Тарих ар-русул ва-л-мулук / Пер. Абулкасима Паянда. В 16 томах. –Тегеран: 1967. – 526 с.
12. Ат-Табари. История ат-Табари. Избранные отрывки / Пер. с араб. В.И.Беляева. Дополнения к переводу О.Г.Большакова и А.Б.Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. – 445 б.
13. Ахмад ибн Яхя ибн Джабир ал-Балазури. Завоевание Хорасана (Извлечение из сочинения “Футуҳ ал-булдан”) / Пер. с араб. Г.Гоибова. – Душанбе: Дониш, 1987. – 452 с.
14. Балозурий. Абу-л-‘Аббос Аҳмад ибн Яҳё ибн Жобир ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон / ‘Абдуллоҳ Анис ат-Таббо‘ ва ‘Умар Анис ат-Таббо‘ нашри. Байрут: Му‘ассасат ал-ма‘ориф, 1407/1987.

15. Гардизи. Зайн ал-ахбар – Абу Са’ид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / Перевод с персидского языка А.К. Арендса. Введение, комментарии и указатели Л.М. Епифановой. Ташкент: Фан, 1991. – 176 с.
16. Гардизи. Зайн ал-ахбар из Абу Са’ид Абд ал-Хайй бин Даххак бин Махмуд Гардизи / Нафиси. Тегеран: 1954. – 239 с.
17. Гардизи. Зайн ал-ахбар талиф Абу Са’ид Абд ал-Хайй бин Даххак бин Махмуд Гардизи / Казвини. Тегеран: 1937. – 216 с.
18. Гардизи. Тарих-е Гардизи / Изд. А.Хабиби. Тегеран: 1984. – 242 с.
19. Ибн Жарир ат-Табарий. Тарих ат-Табарий. – Ар-Риёд: Байт ал-афкар ад-давлия, 2005. 2260 б.
20. Издал сочинение аль-Балазури: Liber expugnationis regionum. ed. M.J. de Goeje, Pt 1—2. Lugduni Batavorum, 1866. – 232 p.
21. Kitab Zainul Akhbar. Composed by Abu Said. Gardizi about 440 a. H., ed. by Muhammad Nazim. Berlin: 1928. – 196 p.
22. Наршахи – Наршахи Мухаммад. История Бухары / Пер, с перс. Лыкошина Н./Пол ред. Бартольда В. В. Ташкент: 1897. – 186 с.
23. Наршахий – Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси, масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Тошкент: Фан, 1966. – 118 б.
24. Россия фанлар академияси, Шарқшунослик институти (Санкт-Петербург филиали). “Бухоро тарихи” асарининг 1599–1600 йилларда кўчирилган нусхаси. Инв. № 675.
25. Chronique de Tabari traduit sur la version persane de Bel’ami par M.Hermann Zotenberg, I – IV. Paris, 1884. – 268 p.
26. Тарихи Табарий асарининг форсча таржимаси Мунши Навал Кишора нашриёти томонидан бир неча бор аввал Лакхнавда, кейин Нипурда нашр этилган. 1291-1874 йилдаги биринчи Лакхнав нашри (ЛСУ, № 1) ва 1313/1896 йилда Канпурда нашр этилган биринчи нашри (ЛО ИВ, № 1) рақами остида Санкт-Петербургда сақланади.
27. Тожикистон Фанлар академияси, Шарқ қўлёзмалар фонди. Асарининг 1650 йилда кўчирилган нусхаси. Инв. № 513/11.
28. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Инв. № 5388–11. Асарининг XIX аср иккинчи ярмида кўчирилган қўлёзмалари ҳам мавжуд. Инв. № 2212/I, 4355/III.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAKTABGA QABUL QILISH TARTIBI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIKLARI

QAHRAMON ALMARDANOV

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida maktabga qabul qilish tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning maktab ta'limi tizimi, bolalarni maktabga qabul qilishda qo'llaniladigan tartib-qoidalar, yosh chegaralari ko'rib chiqiladi. Har bir davlatdagi ta'lim siyosati va islohotlar taqqoslanib, ularning o'ziga xos jihatlari batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, maktabga qabul, ta'lim tizimi, yosh chegarasi, tartib-qoidalar, ta'lim siyosati, islohotlar, o'ziga xoslik.*

KIRISH. Ta'lim har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa maktabga qabul qilish tartibi va tizimi bolalarning ta'lim olishdagi dastlabki qadami sifatida muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston mustaqillik yillarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro tajribalarni joriy etish va milliy qadriyatlarni saqlagan holda maktab ta'limini takomillashtirish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirdilar. Ushbu jarayonda ayniqsa maktabga qabul qilish tartiblarining huquqiy, tashkiliy va pedagogik jihatlari muhim o'zgarishlarga uchradi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, maktabga qabul qilish jarayonidagi yondashuvlar bolalarning teng imkoniyatlarda ta'lim olishiga, oilalarning ta'limga bo'lgan ishonchiga va davlatning ta'lim siyosati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu boradagi tartiblar umumiy jihatlarga ega bo'lishiga qaramay, har bir mamlakat o'zining ijtimoiy-siyosiy holati, demografik tarkibi va madaniy qadriyatlari asosida o'ziga xos yondashuvlarni shakllantirgan. Shu bois ushbu maqolada maktabga qabul qilish tartibining o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslash, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish orqali yanada inklyuziv va samarali tizim yaratishga xizmat qiluvchi takliflar ilgari suriladi.

TADQIQOT USULLARI. Mazkur ilmiy maqola yozilishida qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Markaziy Osiyo davlatlarining rasmiy qonun hujjatlari, va internetdagi ilmiy yangiliklar asosiy manba sifatida foydalanildi.

MUHOKAMA. O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ta'lim tizimlari so'nggi yillarda sezilarli islohotlardan o'tmoqda. Ushbu mamlakatlarning ta'lim tizimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi zamonaviy talablarga javob beradigan, global raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim 11 yillik bo'lib, uch bosqichga bo'linadi: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) va o'rta ta'lim (X-XI sinflar). Bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda savodxonlik, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, tayanch o'rta ta'lim mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. VII sinfdan keyin kasbiy yo'naltirish va birlamchi professional ko'nikmalar berish choralari ko'riladi. O'rta ta'lim esa yuqori malaka talab qilmaydigan kasblarni egallash yoki oliy ta'limga tayyorgarlikni ta'minlaydi. [3] Qozog'istonda maktab ta'limi tizimi 11 yillik bo'lib, bu tizim o'quvchilarni xalqaro standartlarga mos ravishda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy tahlil qobiliyatlariga ega bo'lishga tayyorlashga qaratilgan. Qozog'iston ta'limida fanlararo yondashuv va raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan maktablarda STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yo'nalishlari faol rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga qozog'istonlik o'quvchilar xalqaro PISA testlarida ishtirok etib, ta'lim sifatini xalqaro miqyosda baholash imkoniyatiga ega. [8] Qirg'iziston 2025-yildan boshlab 12 yillik ta'lim tizimiga to'liq o'tishni ma'qullagan. Bu tizim o'quvchilarga kengroq bilim va ko'nikmalar berish, shuningdek, kasbiy ta'limga erta yo'naltirishni maqsad qiladi. Qirg'izistonda ta'lim tizimi sovet modelidan uzoqlashib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanmoqda. Masalan o'quv dasturlari xalqaro tajribaga moslashtirilib, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. [11] Tojikistonda maktab ta'limi 11 yillik bo'lib, boshlang'ich (4 yil), asosiy (5 yil) va o'rta ta'lim (2 yil) bosqichlaridan iborat. Ta'lim tizimi sovet modeliga asoslangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribani joriy etishga harakat qilinmoqda. Davlat ta'limni rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda, masalan, UNICEF va Jahon banki loyihalari orqali maktablar modernizatsiya qilinmoqda. [1] Turkmaniston ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar cheklangan bo'lsa-da, u 12 yillik ta'limga 2007-yilda o'tgan. Turkmanistonda ta'lim tizimi markazlashgan bo'lib, davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi. O'quv dasturlari milliy va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etishda sekinroq sur'atlar kuzatiladi. [6]

NATIJALAR. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va milliy identifikatsiyani mustahkamlashda katta islohotlar amalga oshirdi. Ta'lim tizimi, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim har bir davlatning ijtimoiy rivojlanish strategiyasining asosiy qismidir. Maktabga qabul qilish jarayonlari esa ushbu tizimning dastlabki va muhim bosqichlaridan biri sifatida ko'riladi. Markaziy Osiyo davlatlarida maktabga qabul qilish odatda davlat tomonidan tartibga solinadi va har bir mamlakatning qonunchilik hujjatlari, mahalliy xususiyatlar va ta'lim tizimining rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabga qabul qilish jarayonlari 2020-yil 23-sentabrda kuchga kirgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Qonunning 9-moddasiga ko'ra, bolalar 7 yoshga to'lgan yilda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfiga qabul qilinadi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi: mikrohudud bo'yicha qabul (20-iyun – 31-iyul) va mikrohududdan tashqari qabul (1-15-avgust). O'zbekistonda 2019-yildan boshlab maktabga qabul qilish jarayonlari davlat xizmatlari sifatida elektron shaklda amalga oshirila boshlandi. Bu tizim my.gov.uz platformasi orqali ishlaydi. [2] Ota-onalar 20-iyundan 31-iyulgacha ushbu platformada ro'yxatdan o'tib, so'rovnoma to'ldiradilar. Arizalar hududiy xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi va mikrohudud bo'yicha maktabga yuboriladi yoki rad etiladi. Rad etilgan taqdirda sabab ko'rsatiladi. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda maktabga borib, sog'liq to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomani taqdim etadilar. Agar bola boshqa tilda (masalan, rus tilida) o'qitiladigan sinfga ariza topshirgan bo'lsa, uning ushbu tilda boshlang'ich so'zlashuv ko'nikmasi qabul komissiyasi tomonidan tekshiriladi. Ushbu tizim ota-onalarga qulaylik yaratish, shaffoflikni ta'minlash va byurokratik to'siqlarni kamaytirish maqsadida joriy etilgan. O'zbekistonda onlayn tizim joriy etilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda internetdan foydalanish imkoniyati qiyinligi va ota-onalarning raqamli savodxonligi pastligi jarayonni qiyinlashtirishi mumkin. Shuningdek, mikrohudud tizimi ba'zida ota-onalarning maktab tanlashdagi erkinligini cheklaydi.

Qozog'istonda ta'lim tizimi 2007-yilda qabul qilingan va 2023-yilda yangi tahrirdan o'tkazilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Maktabga qabul qilish jarayonlari O'zbekistonga o'xshash bo'lib, asosan davlat xizmatlari portali – eGov.kz orqali amalga oshiriladi. Bolalar 6 yoshdan boshlab 1-sinfga qabul qilinadi, bu esa O'zbekistondan farqli ravishda bir yil oldinroq ta'lim boshlanishini anglatadi. [10] Qozog'istonda maktabga qabul qilish uchun ota-onalar eGov.kz platformasida ro'yxatdan o'tib, elektron ariza topshiradilar.

Arizada bolaning shaxsiy ma'lumotlari, yashash joyi va sog'liq holati to'g'risidagi hujjatlar taqdim etiladi. Qabul jarayoni odatda aprel-iyun oylarida boshlanadi va avgustgacha davom etadi. [4] Shahar hududlarida onlayn tizim keng tarqalgan bo'lsa, qishloq joylarda an'anaviy usullar (maktabga bevosita murojaat) qo'llaniladi. Qozog'istonda onlayn tizimning rivojlanganligiga qaramay, qishloq hududlarida infratuzilma muammolari va malakali o'qituvchilar yetishmasligi qabul jarayonlariga ta'sir qiladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul jarayonidagi raqobat yuqori bo'lib, bu ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Qirg'iziston Respublikasida maktabga qabul qilish jarayonlari 2003-yilda qabul qilib, 2024-yilda so'ngi tahrirdan o'tkazilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, bolalar odatda 7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfiga qabul qilinadi, ammo ayrim hollarda, ota-onalarning iltimosiga ko'ra, 6 yoshli bolalar ham qabul qilinishi mumkin. Qirg'izistonda maktabga qabul qilish jarayonlari asosan maktablar tomonidan bevosita amalga oshiriladi "Tunduk" ilovasi va "mektep" sayti orqali ham ro'yxatdan o'tish mumkin. [9] Ota-onalar maktab direktoriga yozma ariza topshiradi, unda bolaning shaxsiy ma'lumotlari (tug'ilganlik haqidagi guvohnoma), sog'liq holati to'g'risidagi ma'lumotnoma va yashash joyini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Qabul jarayoni odatda aprel oyidan boshlanadi va avgust oyining oxirigacha davom etadi. Ota-onalar maktabga murojaat qilganda, bolaning sog'liq holati va ta'limga tayyorligi tekshiriladi. Agar bola maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lsa, maxsus sinflar yoki inklyuziv ta'lim muassasalariga yo'naltiriladi. Qirg'izistonda ta'lim tizimining moliyaviy ta'minoti cheklanganligi maktabga qabul jarayonlariga ta'sir qiladi. Qishloq hududlarida maktablarning moddiy-texnik bazasi zaif, o'qituvchilarning malakasi esa ko'pincha yetarli emas. Bundan tashqari, malakali o'qituvchilarning chet elga migratsiyasi ta'lim sifatiga putur yetkazmoqda. Onlayn qabul tizimi shaharlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilayotgan bo'lsa-da, qishloqlarda internet infratuzilmasining yetishmasligi va ota-onalarning raqamli savodxonligi pastligi bu tizimning kengayishini sekinlashtirmoqda.

Tojikiston Respublikasida maktabga qabul qilish jarayonlari 2004-yil qabul qilinib, 2023-yil tahrir qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, bolalar 7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfiga qabul qilinadi. Tojikistonda maktabga qabul qilish jarayonlari asosan an'anaviy usulda amalga oshiriladi. Ota-onalar maktabga shaxsan murojaat qilib, bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, sog'liq holati to'g'risidagi ma'lumotnoma va yashash joyini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadilar. Qabul jarayoni odatda iyun-avgust oylarida bo'lib o'tadi. [5] Tojikistonda

ta'lim tizimining moliyalashtirilishi past darajada bo'lib, bu maktablarning moddiy-texnik bazasiga ta'sir qiladi. Qishloq joylarda maktablarning yetishmasligi va transport infratuzilmasining zaifligi bolalarni ta'limga jalb qilishda muammolar tug'diradi. Qiz bolalarni maktabga jalb qilishdagi ijtimoiy to'siqlar ayniqsa qishloq hududlarida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Onlayn qabul tizimlarining rivojlanmaganligi esa jarayonlarni shaffof va samarali qilishni qiyinlashtiradi.

Turkmaniston ta'lim tizimi Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yopiq va markazlashgan tizimlardan biridir. Maktabga qabul qilish jarayonlari 2022-yil tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida amalga oshiriladi. Turkmanistonda maktabga qabul qilish jarayonlari davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadi. Bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. Ota-onalar maktabga murojaat qilib, bolaning shaxsiy hujjatlari va sog'liq ma'lumotnomalarini taqdim etadilar. [7] Onlayn tizimlar Turkmanistonda keng tarqalmagan, shuning uchun qabul jarayonlari asosan an'anaviy usulda amalga oshiriladi. Turkmanistonning yopiq tizimi tufayli maktabga qabul qilish jarayonlari haqida ochiq ma'lumotlar kam. Internetdan foydalanish nisbatan cheklanganligi va raqamli infratuzilmaning zaifligi zamonaviy qabul tizimlarini joriy etishni qiyinlashtiradi, iqtisodiy muammolar esa ta'lim sifatiga ta'sir qiladi.

XULOSA. Markaziy Osiyo davlatlarida maktabga qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish va rivojlantirish kerak. Maktabga qabul qilish jarayonini soddalashtirish uchun davlatlarda yagona raqamli platforma yaratish zarur, bu platforma ota-onalarga farzandlarini onlayn ro'yxatdan o'tkazish, hujjat topshirish va qabul jarayonini kuzatish imkonini beradi. Maktab o'rinlari taqsimotida ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun imtiyozli oilalar (kam ta'minlangan, ko'p farzandli yoki nogironligi bo'lgan bolalar) uchun maxsus kvotalar joriy etilishi lozim. Maxsus ixtisoslashgan maktablar uchun qabul imtihonlarini standartlashtirish va ularga tayyorgarlik kurslarini tashkil qilish zarur, imtihonlar shaffof bo'lishi, savollar sifati xalqaro standartlarga mos kelishi kerak. Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maktabga qabul jarayonida maxsus yordam choralari ko'rilishi lozim. Qabul jarayonlari haqida ota-onalarni o'z vaqtida xabardor qilish uchun ommaviy axborot vositalari va mahalliy jamoatlar orqali ma'lumot tarqatish tizimini rivojlantirish kerak. Maktab o'rinlari yetishmasligi muammosini hal qilish uchun yangi maktablar qurish va mavjudlarini kengaytirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida maktabga qabul qilish jarayonini yanada samarali, adolatli va shaffof qilishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Best Country: Система образования в Республике Таджикистан <https://www.best-country.com/ru/asia/tajikistan/education>
2. Diqqat, 1-sinfga qabul my.gov.uz orqali bo'ladi! <https://my.gov.uz/ru/news/826>
3. O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. Поступление в школу <https://www.gov.kz/situations/15/79?lang=ru>
5. Прием документов первоклассников в школах Таджикистана <https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/society/20240522/priem-dokumentov-pervoklassnikov-v-shkolah-tadzhikistana-nachnetsya-s-1-avgusta>
6. Реформы образования в Туркменистане: благие намерения, слабое содержание? <https://www.fergananews.com/articles/7907>
7. Средние школы Туркменистана готовятся к приему первоклашек и новому учебному году <https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/74301/srednie-shkoly-turkmenistana-gotovyatsya-k-priemu-pervoklashek-i-novomu-uchebnomu-godu>
8. Школьная система образования в Казахстане в 2024 году: изменения и особенности <https://www.nur.kz/family/school/1773601-nova-a-sistema-obrazovaniya-v-kazahstane/>
9. Запись в школу. Как не оставить ребенка без гарантированного места https://24.kg/obschestvo/324022_zapis_vshkolu_kak_neostavit_rebenka_bez_garantirovannogo_mesta/amp/
10. Закон Об образовании РК Закон Республики Казахстан Об образовании № 319-III от 27.07.2007 года https://kodeksy-kz.com/amp/ka/ob_obrazovanii.htm
11. В Кыргызстане утвердили переход на 12-летнее школьное образование | Новости Таджикистана ASIA-Plus <https://asiaplustj.info/ru/news/centralasia/20250315/v-kirgizstane-utverdili-perehod-na-12-letnee-shkolnoe-obrazovanie>

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАРБИЯСИ ОҒИР ТАЛАБАЛАРНИ КОНСТРУКТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ МАЗМУНИ

ЗАРИФА МАМАЗОВА

*Ўзбекистон халқаро исломшунослик
академияси катта ўқитувчи*

Олий таълим муассасаларида талабаларнинг шахсий ривожланиши, жамиятга мослашиши ва ижтимоий фаол фуқаро сифатида шаклланишида тарбия муҳим ўрин тутди. Аммо барча талабалар ҳам бир хил руҳий-ахлоқий тайёрликда бўлмайди. Тарбияси оғир талабаларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва улар билан самарали ишлашни ташкил этиш — тарбия жараёнида муҳим вазифадир.

Тарбияси оғир талабаларни конструктив ёндашув асосида тарбиялаш — бу нафақат муаммоли талабани ижобий томонга ўзгартириш, балки бутун таълим тизимини инсонпарварлик ва самарадорлик руҳида бойитишдир. Бундай ёндашув натижасида ҳар бир талаба шахс сифатида қадрланади, унга имконият берилади ва у ижтимоий фаол шахс сифатида тарбияланади.

Тарбияси оғир талабалар деганда:

- Ижтимоий-руҳий жиҳатдан муаммоларга эга бўлган,
- Жамият қоидаларига риоя қилмайдиган,
- Таълим жараёнида қатнашишда бефарқ бўлган,
- Ҳуқуқбузарлик ҳолатларига мойил талабалар тушунилади.

Конструктив ёндашув моҳияти:

Конструктив ёндашув — бу муаммога ижобий, ижодий ва самарали ечим топишга қаратилган ёндашув бўлиб, у талабани жазолаш эмас, балки уни тушуниш, унда ижобий ҳис-туйғуларни шакллантириш, мотивациясини ошириш орқали уни қайта тарбиялашни назарда тутди.

Конструктив ёндашув асосида тарбиялаш мазмуни:

1. Психологик таҳлил ва ёндашув:

Талабанинг шахсий хулқ-атвори, руҳий ҳолати, муҳит билан муносабати таҳлил қилинади.

Инсонпарварлик, меҳр-оқибат ва сабр билан ёндашилади.

2. Инсонпарварлик асосида мулоқот:

Талабага ишонч билдириш.

Унинг фикрига қулоқ тутиш.

Ижобий хулқлари учун рағбат бериш.

3. Ижтимоий муҳит билан ҳамкорлик:

Оила, гуруҳдошлари, устозлар ва психологлар билан яқин ҳамкорликда иш олиб борилади.

Маҳаллий ҳокимият, ёшлар ташкилотлари билан профилактик тадбирлар ўтказилади.

4. Шахсий ривожланишга йўналтирилган чоралар:

Талабани қизиқтирган йўналишлар бўйича тўғараклар, клублар, лойиҳаларга жалб этиш.

Лидерлик, коммуникатив кўникмаларни ривожлантириш орқали ижтимоий фаолликка ундаш.

5. Мотивация ва мақсад қўйиш:

Талабанинг ҳаётдаги мақсадларини аниқлашга ёрдам бериш.

Унга эришиш йўллари тушунтириш ва қўллаб-қувватлаш.

Олий таълимда талабалар билан олиб бориладиган таълим-тарбия ишларининг муваффақияти уларнинг ёши ва психологик хусусиятларини билиш ҳамда педагогик шарт-шароитларни ҳисобга олишга боғлиқдир.

Олий таълим муассасаларида ёшлар билан индивидуал тарбия ишлари — бу ҳар бир талабанинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, уларнинг маънавий, ахлоқий, интеллектуал ва ижтимоий ривожланишига кўмаклашиш мақсадида амалга ошириладиган ишлар тизимидир. Бу жараён тарбиячи, устоз ва мураббийлар томонидан талабаларнинг шахс сифатида шаклланишини қўллаб-қувватлашга қаратилган.

Индивидуал тарбия ишининг асосий мақсадлари:

1. Талабанинг шахсий салоҳиятини очиш
2. Ёшларнинг маънавий-маърифий онгини юксалтириш
3. Ижтимоий фаоллик ва масъулиятни шакллантириш
4. Мустақил фикрлаш ва ҳаётий позицияни мустаҳкамлаш
5. Нотўғри хулқ-атворнинг олдини олиш, профилактика ишлари

Асосий йўналишлар:

1. **Психологик ва педагогик таҳлил** – ҳар бир талабанинг психологик ҳолати, қизиқишлари, муаммолари ўрганилади.

2. **Шахсий суҳбатлар ва маслаҳатлар** – талабалар билан ишончли муносабат ўрнатиш орқали уларнинг дунёқарашига таъсир этиш.

3. **Ижтимоий фаолиятга жалб этиш** – талабаларни клублар, тўғараклар, жамоат ишлари, волонтерлик фаолиятларига жалб қилиш.

4. **Маънавий-маърифий тадбирлар** – маърузалар, учрашувлар, китобхонлик кечалари орқали тарбиявий таъсирни кучайтириш.

5. Оила ва муҳит билан ҳамкорлик – талабанинг оиласи билан алоқада бўлиб, унинг муҳитини тушуниш ва тарбияда мувофиқликни таъминлаш.

Индивидуал тарбия ишларини ташкил этишда қўлланиладиган усуллар:

- Диагностик сўровномалар
- Шахсий суҳбатлар
- Мураббийлик ёки кураторлик тизими
- Мувофиқлаштирувчи дафтар/портфолио юритиш
- Мувофиқлаштирувчи режа тузиш

Адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллаев, Ж. *Педагогика назарияси ва амалиёти*. – Т.: «Fan va texnologiya», 2020.
2. Саидмуродов, А. *Педагогика асослари*. – Т.: «Sharq», 2019.
3. Нишонов, А., Раҳимов, Қ. *Таълим жараёнида психология ва педагогика*. – Т.: «Ўқитувчи», 2021.
4. Каримов, С. *Ёшларни тарбиялашда психологик ёндашувлар*. – Т.: «Илм», 2022.
5. Холмўминова, Ш. *Олий таълим муассасаларида ёшлар билан индивидуал тарбия иши*. – Т.: «Fan», 2020.
6. Маҳмудов, Н. *Талабаларда ижтимоий мослашув ва тарбия муаммолари*. – Т.: «Ilm Ziyو», 2021.
7. Хайдаров, А. *Оғир ёки муаммоли талабалар билан ишлаш усуллари*. – Т.: «Маърифат», 2022.
8. Хайдаров, Б. *Конструктив педагогика: назария ва амалиёт*. – Т.: «Фан ва тараққиёт», 2019.
9. Dewey, J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938. (Конструктивизм асосчиси сифатида)
10. Piaget, J. *The Psychology of Intelligence*. – Routledge, 2001. (асл нусхада – конструктив ёндашувга назарий асос)
11. Қурбонова, З. *Муаммоли талабаларни ижтимоий-психологик қўллаб-қувватлаш механизмлари*, // «Таълим ва Инновация», 2022, №3.
12. Исломова, Д. *Конструктив ёндашувнинг таълимдаги ролини ошириш*, // «Педагогика ва психология масалалари», 2021, №2.
13. <https://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги расмий сайти.
14. <https://ziyonet.uz> – Таълим ва тарбияга оид электрон кутубхона.

ГЕНДЕРНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАШХУРА НОРМАЕВА

*Докторант Ташкентского государственного
университета востоковедения*

Внешняя политика Узбекистана под руководством президента Шавката Мирзиёева с 2016 года претерпела значительные изменения, сместив акцент на регионализм и укрепление экономического и политического сотрудничества в Центральной Азии. Эта политика, известная как «Центральная Азия прежде всего», способствовала улучшению отношений с соседними странами, демаркации границ и решению региональных проблем, таких как управление водными ресурсами и экономическая интеграция. Параллельно Узбекистан проводит внутренние реформы, направленные на продвижение гендерного равенства, включая принятие законов о равных правах и защите женщин от насилия [10]. Однако гендерное измерение внешней политики, предполагающее учёт гендерных норм и неравенств в дипломатических инициативах, остаётся недостаточно исследованным. Гендерная перспектива в международных отношениях подчёркивает, как внешнеполитические стратегии могут способствовать гендерному равенству [6, с. 5].

Цель данной статьи – проанализировать, как Узбекистан интегрирует гендерное измерение в свою внешнюю политику в контексте центральноазиатской интеграции после 2015 года. Основные вопросы исследования: как Узбекистан учитывает гендерные аспекты в своих внешнеполитических инициативах? Какую роль играют гендерные политики в укреплении регионального сотрудничества? Статья опирается на концепцию феминистской внешней политики, которая акцентирует необходимость учёта гендерных аспектов в дипломатии [2, с.7], и использует качественный анализ научных статей, официальных документов и докладов, преимущественно опубликованных после 2015 года.

Гендерная политика в Узбекистане: внутренний контекст. После смены руководства в 2016 году Узбекистан начал институциональные реформы, направленные на улучшение гендерного равенства. В 2019 году были приняты два ключевых закона: «О гарантиях равных прав и

возможностей для женщин и мужчин» и «О защите женщин от притеснений и насилия», которые закрепили принципы недискриминации и защиты [10, с.12]. Эти реформы сопровождались созданием институциональных механизмов, таких как Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства в Сенате, Республиканский центр реабилитации и адаптации жертв насилия, Центр женского предпринимательства и Научно-исследовательский центр «Оила». Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана на 2017–2021 годы включает положения о расширении экономических возможностей женщин, что имеет значение для регионального сотрудничества [4, с.12].

Внутренние гендерные инициативы, такие как поддержка женского предпринимательства и развитие сельских женских сообществ, нашли отражение в международных проектах. Исследование показывает, что программы развития женского фермерства в Узбекистане способствовали укреплению экономических связей с Казахстаном и Кыргызстаном через трансграничные торговые инициативы. Эти программы демонстрируют потенциал гендерных инициатив как инструмента мягкой силы во внешней политике.

Гендерное измерение во внешней политике Узбекистана. После 2016 года внешняя политика Узбекистана стала ориентироваться на региональную интеграцию, что выразилось в активизации диалога с соседними странами и продвижении формата «Центральная Азия +». Однако гендерное измерение в этих инициативах остаётся ограниченным. Например, международная конференция в Ташкенте в июле 2021 года «Центральная и Южная Азия: региональная взаимосвязанность» акцентировала внимание на экономических и транспортных проектах, но не включала обсуждение гендерных аспектов.

Тем не менее, Узбекистан участвует в региональных инициативах, поддерживаемых международными организациями, которые подчёркивают важность гендерного равенства. Доклад ООН-Женщины (2023) отмечает, что Узбекистан поддерживает программы, направленные на ликвидацию насилия в отношении женщин, что способствует укреплению доверия между странами региона [6, с.36]. Конкретным примером является **Диалог женщин-лидеров Центральной Азии**, инициированный Узбекистаном в 2020 году на 46-й сессии Совета ООН по правам человека [8]. Эта платформа объединяет женщин-лидеров из Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана для обмена опытом и продвижения гендерного равенства. В 2021 году, при

председательстве Узбекистана, было проведено Региональное тренинговое лагерь для девушек по лидерству, наставничеству и гендерному равенству в Ташкентской области, организованное Сенатом Олий Мажлиса совместно с ПРООН [7]. Это мероприятие привлекло более 30 участниц из всех стран региона, способствуя укреплению региональных связей и продвижению гендерного равенства.

Узбекистан также активно сотрудничает с международными организациями, такими как ООН, представляя свои достижения в области гендерного равенства. В 2019 году страна подала шестой периодический отчёт в Комитет ООН по ликвидации дискриминации в отношении женщин (CEDAW), демонстрируя приверженность международным стандартам [5].

Региональная интеграция и гендерная перспектива. Центральнoазиатская интеграция после 2015 года фокусируется на экономическом сотрудничестве, управлении водными ресурсами и безопасности. Узбекистан играет ключевую роль, иницируя проекты, такие как строительство железной дороги Узбекистан–Кыргызстан–Китай [3]. Однако гендерные аспекты редко учитываются в этих проектах. Анализ экономических инициатив показывает, что они преимущественно ориентированы на мужские сектора экономики, такие как строительство и энергетика, игнорируя женский труд в сельском хозяйстве и неформальной экономике.

В то же время Узбекистан поддерживает региональные программы, направленные на расширение экономических возможностей женщин. Проект Азиатского банка развития (2019) по поддержке женского предпринимательства в Центральной Азии включает Узбекистан как ключевого партнера, способствуя созданию трансграничных женских бизнес-сетей [1, с.23]. Исследования показывают, что учёт гендерных аспектов в инфраструктурных проектах может повысить экономическую эффективность и социальную инклюзивность [1, с.25]. Кроме того, программы микрокредитования, поддерживаемые Государственным фондом Узбекистана, направлены на стимулирование предпринимательства среди женщин и молодёжи, что способствует экономической интеграции в регионе.

Диалог женщин-лидеров Центральной Азии. Диалог женщин-лидеров Центральной Азии, инициированный Узбекистаном в 2020 году, является ярким примером интеграции гендерной перспективы во внешнюю политику. Платформа была впервые представлена на 46-й сессии Совета ООН по правам человека, где президент Мирзиёев подчеркнул

важность расширения прав и возможностей женщин для устойчивого развития [9]. Первый официальный запуск состоялся в декабре 2020 года с участием высокопоставленных женщин-политиков из всех стран Центральной Азии, которые приняли Декларацию, подтверждающую приверженность использованию потенциала женщин для укрепления мира и устойчивого развития [8].

В 2021 году Узбекистан возглавил Диалог, с Танзилой Нарбаевой, спикером Сената Олий Мажлиса, в качестве председателя. Было проведено Региональное тренинговое лагерь для девушек по лидерству, наставничеству и гендерному равенству, которое привлекло более 30 участниц из всех стран региона. В 2022 году Туркменистан сосредоточился на цифровом охвате и поддержке женщин-предпринимателей [7]. В 2023 году Казахстан акцентировал внимание на роли женщин в инновациях и технологиях [6]. В 2024 году Кыргызстан провёл диалог в Бишкеке, сосредоточившись на экономических и экологических инновациях.

Результаты Диалога включают:

- Укрепление регионального сотрудничества через регулярные встречи и обмен опытом.
- Повышение роли женщин в политике и экономике, способствующее интеграции гендерных аспектов в национальные политики.
- Международное признание инициативы, поддержка со стороны ООН, что укрепляет имидж Узбекистана [7].

Однако влияние на внешнюю политику требует дальнейшего анализа, так как гендерные аспекты редко включаются в крупные экономические проекты.

Таблица 2: Ключевые этапы и результаты Диалога женщин-лидеров Центральной Азии

Год	Председатель	Тема/Фокус	Результаты
2020	Узбекистан	Запуск платформы, принятие Декларации	Создание региональной платформы, укрепление сотрудничества
2021	Узбекистан	Развитие регионального сотрудничества	Проведение тренингового лагеря, интеграция гендерных перспектив
2022	Туркменистан	Цифровой охват, поддержка женщин-предпринимателей	Инновационные программы, расширение экономических возможностей

2023	Казахстан	Инновации и технологии	Усиление роли женщин в экономике, обсуждение глобальных вызовов
2024	Кыргызстан	Экономические и экологические инновации	Продвижение лидерства женщин, укрепление региональных связей

Гендерное измерение внешней политики Узбекистана имеет потенциал для усиления региональной интеграции, но его реализация сталкивается с рядом ограничений. *Во-первых*, несмотря на внутренние реформы, гендерные вопросы редко включаются в повестку внешнеполитических инициатив. Исследования показывают, что приоритет отдается экономическим и геополитическим задачам, что ограничивает внимание к социальным аспектам, включая гендер. *Во-вторых*, отсутствие институциональных механизмов для интеграции гендерной перспективы в дипломатию снижает её эффективность. Доклад ООН-Женщины (2023) подчёркивает, что только 15 государств-членов ООН внедрили феминистские подходы во внешнюю политику, и Узбекистан пока не входит в их число [6, с.7].

Тем не менее, примеры успешных гендерных инициатив, таких как поддержка женского предпринимательства, участие в программах ООН-Женщины и Диалог женщин-лидеров Центральной Азии, свидетельствуют о возможности интеграции гендерной перспективы.

Таблица 1: Основные ограничения и возможности для интеграции гендерной перспективы

Аспект	Ограничения	Возможности
Институциональная база	Отсутствие механизмов для гендерного учёта в дипломатии	Реформы 2019 года создают основу для интеграции
Региональные проекты	Фокус на мужских секторах экономики (строительство, энергетика)	Проекты ADB и Диалог женщин-лидеров укрепляют трансграничные связи
Международное сотрудничество	Ограниченное участие в феминистских внешнеполитических инициативах	Участие в программах ООН-Женщины повышает региональное доверие

Для дальнейшего развития гендерного измерения необходимо:

1. Включение гендерных аспектов в стратегические документы внешней политики;
2. Создание региональных платформ для обсуждения гендерных вопросов;
3. Поддержка трансграничных женских инициатив;
4. Проведение тренингов для дипломатов по гендерным вопросам.

Гендерное измерение внешней политики Узбекистана в контексте центральноазиатской интеграции остаётся недоразвитым, но обладает значительным потенциалом. Внутренние реформы, направленные на гендерное равенство, создают основу для интеграции гендерной перспективы во внешнюю политику, однако её институционализация ограничена. Участие Узбекистана в региональных программах, таких как инициативы ООН-Женщины, проекты Азиатского банка развития и Диалог женщин-лидеров Центральной Азии, демонстрирует первые шаги в этом направлении. Диалог, в частности, стал успешным примером того, как гендерные инициативы могут способствовать региональному сотрудничеству, укрепляя доверие и создавая позитивный имидж страны.

Для усиления гендерного измерения необходимо институционализировать гендерные подходы в дипломатических стратегиях, расширить участие женщин в дипломатии и обеспечить учёт гендерных аспектов в региональных проектах. Это может включать разработку конкретных гендерных стратегий в рамках внешнеполитических документов, проведение регулярных региональных форумов по гендерным вопросам и поддержку трансграничных женских бизнес-сетей. Дальнейшие исследования должны сосредоточиться на анализе конкретных кейсов гендерных программ в Центральной Азии и их влияния на региональную интеграцию, а также на изучении того, как гендерная перспектива может быть интегрирована в крупные инфраструктурные и экономические проекты.

Список литературы:

1. Asian Development Bank. (2019). *Gender in infrastructure: Lessons from Central and West Asia*. <https://www.adb.org/publications/gender-infrastructure-lessons-central-west-asia>
2. Friedrich-Ebert-Stiftung. (2023). Rethinking diplomacy: The case of gender-sensitive foreign policy in Asia. <https://asia.fes.de/news/rethinking-diplomacy-the-case-of-gender-sensitive-foreign-policy-in-asia.html>

3. Kobilov F. Uzbekistan's Regional Economic Foreign Policy: Embracing Regionalism and Economic Unity in Central Asia. Central Asian Bureau for Analytical Reporting (CABAR.asia). <https://cabar.asia/en/uzbekistan-s-regional-economic-foreign-policy>

4. Mirziyoyev, Sh. Strategy of actions on five priority directions of development of the Republic of Uzbekistan in 2017–2021. Tashkent: Government of Uzbekistan.

5. Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. (2019). *CEDAW/C/UZB/6: Sixth periodic report submitted by Uzbekistan under article 18 of the Convention*. <https://www.ohchr.org/en/documents/country-reports/cedaw-c-uzb-6-sixth-periodic-report-uzbekistan>

6. UN Women. (2023). *Accelerating global movement towards gender equality: The role of feminist foreign policy*. <https://eca.unwomen.org/en/digital-library/publications/2023/06/accelerating-global-movement-towards-gender-equality>

7. United Nations Development Programme. (2023). Women leaders from Central Asia discussed gender equality in the context of adaptation to climate change. <https://www.undp.org/uzbekistan/news/women-leaders-central-asia-discussed-gender-equality-context-adaptation-climate-change>

8. United Nations Regional Centre for Preventive Diplomacy for Central Asia. (2020). Launch of the first Women Leaders' Dialogue in Central Asia. <https://unrcca.unmissions.org/launch-first-women-leaders%25E2%2580%2599-dialogue-central-asia>

9. Uzbekistan Embassy in the UK. (2023). Uzbekistan's commitment to gender equality and women's empowerment. <https://www.uzembassy.uk/news/1030>

10. World Bank. (2024). Uzbekistan country gender assessment. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024>



O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN MADANIY- GUMANITAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

GULOM MIRZAYEV

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası boshlig'i o'rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent, mayor*

Markaziy Osiyo mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish, madaniy-gumanitar sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Boisi, O'zbekiston o'zining geografik-siyosiy o'rniga ko'ra Markaziy Osiyo mintaqasida qo'shni davlatlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishni taqozo etadigan bir qator bog'liqlik jihatlarga ega. Chunki, mintaqa mamlakatlari, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonni umumiy tarix, uzviy ma'naviy qadriyatlar bog'lab turadi. Mintaqa xalqlari azaldan qarindoshlik rishtalari, azaliy qo'shniçilik va o'zaro hurmat an'analari ushbu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda mustahkam asos bo'lib xizmat qilyapti. Chunki, mintaqa xalqlarida umumfuqaroviy, yaxlit mentalitet va umumiy hududga mansublik xislatlari rivojini milliy madaniy markazlar, ziyolilarning o'zaro uchrashuvi, adabiy va madaniy dekadalar hamda siyosiy tadbirlar orqali rivojlantirib borishga alohida ahamiyat berilmoqda [3, 32].

2016-yildan keyin yangi darajaga chiqishiga O'zbekiston tashabbus ko'rsatdi. Chunonchi, juda qisqa bir davr ichida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniyat kunlari doirasida madaniy hamkorlik amalga oshirildi. Ma'lumki madaniyat kunlarining o'tkazilishi madaniy-gumanitar hamkorlik yo'nalishida eng zalvorli natija hisoblanadi. Qolaversa, madaniyat kunlarining o'tkazilishi davlatlarning bunday yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini ko'rsatadi. 2017-yil Toshkent viloyati delegatsiyasi Qozog'istonda, Qozog'istonning Qizilo'rda, Sharqiy Qozog'iston va Janubiy Qozog'iston viloyatlari delegatsiyalari O'zbekistonda bo'ldi. Bunday tashriflar nafaqat chegara hududlarida yashayotgan aholini, balki butun mintaqa vakillarini hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo'shniçilikni mustahkamlash to'g'risida qo'shma deklaratsiyada belgilab qo'yilganidek, tomonlar bundan buyon ham ikki davlat hududida istiqomat qilayotgan o'zbek va qozoq etnik birliklari (xalqlari) uchun ona tili, milliy

madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish masalalarida qulay sharoitlar yaratib berishni o'z zimmlariga oldilar [6].

Qozog'iston xalqlari assambleyasi delegatsiyasining O'zbekistonga 2017-yil fevral oyidagi ilk tashrifi ikki tomonlama madaniy-gumanitar aloqalar chuqurlashib borayotganining yaqqol tasdig'i bo'ldi. Tashrif chog'ida o'zbek ilmiy-akademik doiralari hamda Toshkentda istiqomat qiluvchi qozoq millatiga mansub aholi bilan uchrashuvlar bo'lib o'tganligi madaniy hamkorlikning istiqboliga xizmat qildi [7]. 2018-yil "Qozog'istonda O'zbekiston yili", 2019-yil "O'zbekistonda Qozog'iston yili" doirasida keng masshtabli tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari madaniy hamkorligi ham ushbu sohaga doir tegishli hujjatlar asosida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlanib, madaniyat kunlari, do'stlik festivallari kabi madaniy tadbirlar sifatida o'tkazib kelinganligining guvohi bo'lamiz.

Ikki mamlakat hamkorligiga oid materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000-2015-yillarda iqtisodiy va madaniy hamkorlik sust rivojlangan va buning sababini mazkur davlatlarning o'z taraqqiyot yo'llaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan cheklanib qolganligi hamda Qirg'izistonda tez-tez hukumat almashinuvi bilan izohlash mumkin. Qirg'iziston Respublikasi bilan konstruktiv, serqirra va o'zaro manfaatli hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'zbek va qirg'iz xalqlarining tarixi, madaniyati va ma'naviyati, aytish mumkinki, taqdiri mushtarak" [1, 410] ekanini bir qator jihatlarida, xususan, rivojlanib borayotgan madaniy-gumanitar aloqalar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda madaniy-gumanitar aloqalar tarkibiga kiruvchi madaniyat, ta'lim, fan, san'at va turizm sohasida ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirish davlat rahbarlarining oliy darajadagi maqsadlari qilib belgilab olindi va ushbu vazifadan kelib chiqib, bugungi kundagi mazkur sohadagi aloqalar izchil rivojlantirilib tegishli huquqiy asoslar yaratilmoqda.

O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan hududlar o'rtasidagi yo'lga qo'yilgan almashinuvlar madaniy aloqalar rivojiga xizmat qila boshladi. Jumladan, 2016-yil may oyida Botkent viloyati delegatsiyasining Farg'ona viloyatiga, 10 avgust kuni esa O'sh shahar hokimligining Andijon viloyatiga amalga oshirgan tashriflari [8], Qirg'izistonning O'sh, Botken, Jalolobod viloyat rahbarlari, jamoatchilik vakillaridan iborat delegatsiya 2016-yil oktabr oyida Andijon viloyatiga tashrifi paytda O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasining chegaraoldi viloyatlari o'rtasida iqtisodiy, ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish to'g'risida o'zaro ikki

mamlakat aloqalarini mustahkamlash to'g'risida anglashuv memorandumini imzolandi [8].

O'zbek-qirg'iz xalqlari madaniy aloqalarining kulminatsiyali nuqtasi sifatida Qirg'iz xalqi eposi – "Manas"ning o'zbekistonlik baxshilar tomonidan kuylanishini aytish mumkin. Mazkur asar turli millat vakillari, ya'ni, bolalarning tinchlik, do'stlikni madh etishda muhim ahamiyat kasb etadi [14]. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O'sh davlat akademik o'zbek musiqiy-drama teatri jamoasi tomonidan "Manas o'g'li Semetey" asari namoyishlari o'zbekistonlik muxlislarga taqdim etilib kelinadi. O'sh shahridagi Sulaymon tog'i tarixiy etnografik majmuasi tarkibidagi muzey, yodgorliklar va Bobur nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar ham bevosita o'zbek xalqi ajdodlari nomlari bilan bog'liq bo'lib ikki qardosh xalq madaniy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2017-yil fevral oyida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi O'sh davlat akademik o'zbek musiqiy-drama teatri jamoasi Farg'ona vodiysida bo'lganda bunga javob sifatida o'z navbatida Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqiy teatri jamoasi Qirg'izistonning Janubiy mintaqalari - O'sh, O'zgan, Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlarida ijodiy safarda bo'lib [9], o'z dasturlari bilan ijodiy hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Ta'kidlash joizki, ushbu tashrif ikki mamlakat tarixan qaror topgan hamkorligini yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilgan tashriflardan biri sifatida baholanadi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko'tarishi esa mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat va barqarorlikni ta'minlash, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga xizmat qiladi.

2017-yil avgustda Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" XI xalqaro musiqa festivalida Qirg'izistonning "Meros" guruhi ikkinchi o'rinni egalladi [8]. Bishkek va O'shda O'zbekistonning ijodiy jamoalari, san'at ustalari ishtirokida Qirg'izistonda O'zbekiston madaniyati kunlarini o'tkazilganligi madaniy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

2017-yil 5-6-oktabr kunlari Qirg'izistonda O'zbekiston madaniyat kunlari Konsert dasturi T.Satilganov nomidagi qirg'iz milliy filarmoniyasida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston xalq artistlari, xizmat ko'rsatgan artistlar ishtirok etdilar. Tomoshabinlar o'zbek estradasi xonandalarining chiqishlaridan bahramand bo'ldilar. Har bir chiqishni "O'zbekiston" va "Navbahor" raqs ansamblarining raqslari to'ldirdi.

Qolaversa, Bishkek va O'sh kinoteatrlarida 6-7-oktabr kunlari Akbar Bekturdiyevning "Oyqiz ertagi" filmi namoyishi bo'lib o'tgan. "Oyqiz ertagi"

kinokartinasini o'rta asrlar podsholigi davrini aks ettirgan bo'lib, film Xiva shahrida suratga olingan [15].

O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelgan Qirg'iziston prezidenti Sooronboy Jeenbekov (2017-yil dekabr) O'zbekiston Prezidentining Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyevga Qirg'izistonning "Danaker" ordenini tantanali ravishda topshirdi.

2017-yil noyabr oyida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qirg'izistonning "Danaker" ordeni bilan mukofotlagan edi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, Qirg'izistonning oliy mukofotlaridan bo'lgan ushbu orden xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga, millatlararo totuvlikni saqlashga, ilm-fanni rivojlantirishga, milliy madaniyatlarni yaqinlashtirish va boyitishga katta hissa qo'shgan insonlarga beriladi.

"Qirg'izlarda "Ikki kishi gunohkor bo'lsa, bir kishi danaker" degan gap bor. Ya'ni ikki kishi o'rtasidagi mojaroni hal etuvchi bir kishi bo'ladi. Davlatimiz rahbariga bunday mukofot berilishi uning O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarini ravnaq toptirish, ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalarni kengaytirish yo'lidagi xizmatlarining yuksak e'tirofidir" [16].

Madaniy-gumanitar aloqalarda, albatta, adabiyotning o'rni beqiyosdir. Ikki mamlakat madaniy-gumanitar hamkorligining tarkibiy qismlaridan biri, - bu ularning buyuk farzandlariga yuksak ehtirom ko'rsatib kelish an'anasidir. O'zbekistonda ham, Qirg'izistonda ham doimo ikki xalqning buyuk farzandlari xotirasiga yuksak hurmat bajo keltiriladi. Jumladan, 2017-yil 18-oktyabrda O'zbekiston Milliy universitetida qirg'iz xalqining atoqli adibi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil etildi [16] va 2018-yil ushbu ijodkorning tanlangan asarlari nashr etildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Chingiz Aytmatov asarlari eng ko'p tarjima etilgan va nashr qilingan mamlakatlar orasida O'zbekiston yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Adabiy hamkorlik ikki tomonlama faol kechmoqda. Shuningdek, 2017-yil 17-noyabr kuni esa, Bishkekda O'zbekistonning atoqli davlat arbobi va yozuvchisi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan "Ulug' siymo va zamon" ko'rgazmasi tashkil qilindi [16]. 2020-yil 17-fevral kuni Qirg'izistonning "Ala-Too ayimdari ("Olatov xonimlari") ekologik harakati" jamoatchilik birlashmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2019-yil odami", deb e'lon qilindi. Mazkur birlashma raisi Jipargul Bargibayeva davlat rahbari nomiga yo'llagan maktubida bunday qarorga kelish sabablari haqida yozar ekan, "45 kun ichida (qirg'iz millatiga mansub aholi yashaydigan - M.G.)

Manas qishlog'ini obod go'shaga aylantirib, oddiy xalq qalbidan chuqur o'rin egallab, zamonaviy rahbarligingizni namoyon etganingiz uchun", deb ta'kidlagan. Shu bilan birga, qirg'izistonlik jamoat arbobi o'z xatida O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi davlat chegarasi masalasini ikki birodar xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal etishda yirik xalqaro darajadagi siyosatchi sifatida mustahkam ko'prik bo'lgani, shuningdek, zamonamizning buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridan biriga uning nomi berilganligiga ham alohida e'tibor qaratgan. 2020-yil 18-fevralida Bishkek shahrida bo'lib o'tgan tadbirda "Ala-Too ayimdari" tashkiloti rahbariyati bunday faxriy e'tirofga Prezident Shavkat Mirziyoyev nomzodini tanlashda O'zbekiston – Qirg'iziston munosabatlarining sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarilishi, O'zbekiston Prezidenti tomonidan mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, amaliy va qardoshlik aloqalari, Markaziy Osiyoda do'stlik va o'zaro mustahkam ishonch muhitini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ochiq siyosati muhim mezon bo'lib xizmat qilganini ta'kidlagan.

O'rganilayotgan davrda O'zbekiston va Tojikiston madaniy aloqalari tarixida turlicha tendensiyalar kuzatildi. Tarixan nazar tashlaydigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, ko'p asrlik turk-sug'd simbiozi, mintaqadagi etnogenetik va madaniy umumiylik, turmush tarzidagi yaqinlik sug'diy va turkiy etnoslar merosini hozirgi o'zbek, tojik, uyg'ur va mintaqaning boshqa xalqlariga meros qilib qoldirdi [4]. Sug'diy va turkiy yaqinlik arab istilosidan so'ng nom olgan turk (o'zbek) va tojik etnogenezi asosini tashkil qildi [4].

O'zbeklar bilan tojiklar o'rtasida uzoq davrlar mobaynida uzluksiz davom etib kelayotgan aloqalar hozirgi paytga kelib o'zaro yaqinlik, qolaversa qon-qarindoshlik, do'stlik va hamkorlik aloqalari nafaqat tarix sahifalarida, balki bugungi hayotda ham o'rin topishiga sabab bo'layotganligi har ikki davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "o'zbek va tojik xalqlarini ko'p asrlik umumiy tarix, madaniy-ma'naviy mushtaraklik birlashtirib turadi. Bizning urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimiz, dinu diyonatimiz, kundalik hayot tarzimiz shu qadar yaqin va uyg'un, ularni bir-biridan ajratish deyarli mumkin emas" [1, 333]. Ta'kidlash joizki, ikki xalqning ming yillar davomida birgalikda yonma-yon yashab kelganligi O'zbekiston va Tojikiston davlatlari madaniy-gumanitar sohasi hamkorligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning hukumat tepasiga kelishi mintaqa davlatlari bilan O'zbekistonning har tomonlama hamkorligida yangi davrni

boshlab berdi. 2017-yilda Tojikistonda O'zbekiston Respublikasi madaniyati kunlari va O'zbekiston Respublikasida Tojikiston Respublikasi madaniyati kunlari muvafaqqiyatli o'tkazilganligi madaniy hamkorlikning uzviy davomi bo'lib bugungi hamkorlikning yorqin namunasi [10].

2017-2022-yilar oralig'ida O'zbekiston va Tojikiston rahbarlarining to'qqiz marta ikki tomonlama uchrashuvlari bo'lib o'tdi, 2018 yilda esa o'zaro davlat tashriflari amalga oshirilib, hamkorlik munosabatlari tarixida yangi sahifa ochildi [17].

Albatta, davlatlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikning bugungi holati mintaqaning barcha davlatlari bilan izchil rivojlanayotganligiga doir ko'plab misolar keltirish mumkin. 2017-yil Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonning farmoni bilan mamlakat poytaxtidagi "Yoshlikning 50 yilligi" istirohat bog'i nomini "Nizomiddin Alisher Navoiy" deb qayta nomladi. O'z navbatida, Samarqand shahrida ikki xalqning buyuk vakillari – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiya yodgorlik o'rnatildi. Bundan tashqari, Toshkent metropolitenining yangi qurilgan stansiyalaridan biriga atoqli tojik shoiri, Tojikiston Qahramoni Mirzo Tursunzoda nomi berildi [10].

Tojikiston "Imruz News" gazetasi bosh direktori M.Olamov fikricha, "zamonaviy bosqichda O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ichki va tashqi siyosatda faollik ko'rsatmoqda. O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida nihoyatda muhim ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ko'plab jiddiy muammolar, shu jumladan, davlat chegaralari, fuqarolarning o'zaro safarlari va boshqa muhim masalalarda murosaga erishildi, Bu o'z navbatida, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga sharoit yaratib, yigirma yildan ortiq davr mobaynida qo'ldan chiqarilgan imkoniyatlarni qaytarishga xizmat qiladi. ..." [11]. Ko'rinib turibiki, ushbu tahliliy ta'rif O'zbekistonning yuqori darajada rivojlantirayotgan madaniy hamkorligi Tojikiston tomonini ham qiziqtirayotganligidan dalolat beradi.

Tojikistonning "Shashmaqom" akademiyasi 2018-yil 6-10-sentyabr kunlari Shahrisabz shahrida o'tkazilgan "Maqom" xalqaro san'at forumining Bosh sovrinini qo'lga kiritdi.

Ikki mamlakat ilm-fan muassasalari o'rtasidagi aloqalar ham faollashdi. Jumladan, 2021-yili Markaziy Osiyo xalqaro instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi vakillaridan iborat delegatsiya Tojikistonga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashning yangi "o'sish nuqtalari" mavzusida

xalqaro anjuman, turli uchrashuvlar o'tkazildi. Mazkur tadbirlar doirasida ilm-fan muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga oid shartnomalar imzolandi. Xalqaro anjumanda barqaror va xavfsiz mintaqaviy rivojlanishni ta'minlashda ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi holati tahlil qilindi. Savdo-iqtisodiy sohada yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, transport kommunikatsiyasi, infratuzilmalarni rivojlantirish, ilm-fan, madaniy-gumanitar, xavfsizlikni ta'minlash va boshqa masalalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni o'rganish va asrash, ta'lim va turizm sohasidagi loyihalar yuzasidan tajriba almashildi, o'zaro hamkorlik istiqbollari xususida fikrlashildi [13].

2021-yil davomida amalga oshirilgan madaniy-gumanitar almashinuvlar izchilligi ikki mamlakatning ushbu sohadagi aloqalarni faol rivojlantirishga intilayotganini ko'rsatdi. Hatto global pandemiya ham madaniy-gumanitar hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsata olmadi. 2021-yil may oyida Tojikistonda O'zbek kinosi kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ushbu tadbir doirasida "Ilhaq", "Rangsiz tushlar", "Xalq yuragi", "Hamkorlik bo'yicha navbatchi" filmlari, shuningdek, o'zbek kinosining durdona asarlariga aylangan "Kelinlar qo'zg'oloni" va "Sirli sandiq" filmlari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi [17].

O'zbekistonning Turkmaniston bilan madaniy hamkorligi ham Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi.

Ikki qardosh mamlakatning adabiyot sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash yo'lida O'zbekistonda ham doimiy ravishda turli shakldagi tadbirlar o'tkazib turiladi. Bunday tadbirlardan biri 2016-yil 9-noyabr kuni O'zbekiston Milliy kutubxonasida o'tkazildi. Ushbu tadbir O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston shoir-yozuvchilarining ijodiy uchrashuviga bag'ishlandi. Unda turkman delegatsiyasi vakillari – "Miras" radiokanali muharriri M.Sagatov, Turkmaniston Davlat axborot agentligining yetakchi muxbiri M.Kadjarova, "Dünyä edebiyaty (Jahon adabiyoti)" jurnali tahririyati mas'ul kotibi Ye.Geldimuradova, "Edebiyat we sungat (Adabiyot va san'at)" gazetasi tahririyati bo'lim muharriri M.Yagmurov, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zolari, adabiyotshunoslar va tarjimonlar ishtirok etdilar. Ikki mamlakat shoir va yozuvchilarining ijodiy uchrashuvi o'zbek va turkman xalqlarining adabiy, musiqiy, madaniy hamda do'stona aloqalarni mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan O'zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlari doirasida bo'lib o'tdi. Tadbirlarda do'stlik va qo'shnichilik ruhida barqaror rivojlanib borayotgan o'zbek-turkman munosabatlari ikki mamlakat o'rtasida o'zaro

hamkorlik munosabatlari va madaniy almashinuvning mustahkamlanib borishiga xizmat qilayotganligi ta'kidlab o'tilgan [5].

Hqiqatan, adabiyot sohasidagi aloqalar O'zbekiston va Turkmaniston xalqlarining madaniy yo'nalishdagi hamkorligining kengayib borishiga va mustahkamlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

2017-yil 4-5-fevral kunlari Buxoro va Xorazm viloyatlari vakillarining Turkmanistonning Lebap hamda Toshhovuz viloyatlariga tashriflari ham tegishli hududlar ma'muriyatlari rahbarlari, ishbilarmon va jamoatchilik doiralarining vakillari ishtirokidagi muzokaralarga boy bo'lgan edi. Tashrif qatnashchilarining ta'kidlashicha, qardosh mamlakat hamda xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan bunday munosabatlarning yuqori darajasi aks etishi o'zaro hamkorlikda istiqbolli rejalarni belgilab olish imkonini berdi.

Globalashuv jarayonida mintaqa davlatlari o'rtasida madaniy hamkorlikni mustahkamlashda O'zbekistonda har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining roli beqiyos bo'lmoqda va bunda Markaziy Osiyo davlatlari san'atkorlari ham faol ishtirok etib kelmoqda.

2019-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" XII xalqaro musiqa festivalining navbatdagi g'oliblari ham aniqlandi. Unga ko'ra, dunyoning g'olib davlatlari qatorida "Badaxshon" jamoasi (Tojikiston) uchinchi darajali diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Ikkinchi o'rinni Turkmanistonning "Archabil" jamoasi egalladi. Birinchi o'rinni esa Qirg'izistonning "Qomuzchilar" dueti oldi [12].

2022-yil 28-avgust kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir va tarjimon Odil Ikromga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon tomonidan Abu Abdulloh Rudakiy nomidagi Davlat mukofoti topshirildi. Ushbu mukofot Odil Ikromga Jaloliddin Rumiyni olti kitobdan iborat "Ma'naviy masnaviy" asari, "Zamonaviy tojik she'riyati" antologiyasida 60dan ortiq tojik shoirlari she'rlari hamda Muhammad Iqbol, Furug' Farruxzod, Zahiriy Samarqandiy kabi bir qator fors-tojik adabiyoti namoyandalarining asarlarining yuksak saviyadagi tarjimai uchun berildi [20].

2022-yil 26-29-aprel kunlari Xorazm viloyatining Xiva shahrida "Lazgi" xalqaro raqs festivali o'tkazildi. Tadbir YUNESCO va O'zbekiston hamkorligida tashkil etildi. Unda 30 dan ortiq davlatdan mehmonlar, raqs ansambllari ishtirok etdi. "Lazgi" Xorazmning qadimiy raqsi bo'lib, O'zbekiston madaniy merosining elementi sifatida insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Bu haqdagi qaror 2019-yil 12-dekabr kuni UNESCO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi sessiyasida qabul qilingan edi [18].

Festivalning “Gran-Pri” bosh mukofoti va 7 ming AQSh dollarini o‘zbekistonlik raqqosa Dilnoza Ortiqova qo‘lga kiritdi.

“Lazgi” xalqaro raqs festivalining “Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi”, “Eng yaxshi raqs jamoasi” va “Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs” nominatsiyalarida Markaziy Osiyo mamlakatlar san’atkorlirining ishtirokini kuzatish mumkin. “Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi” nominatsiyasi bo‘yicha Feruza Azatova (O‘zbekiston) muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

“Eng yaxshi raqs jamoasi” nominatsiyasi bo‘yicha, birinchi o‘rinni, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining “Tumor” raqs ansambli; ikkinchi o‘rinni O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Navbahor” ashula va raqs ansambli, uchinchi o‘ringa Qirg‘izistonning “Shattik” raqs ansambli qo‘lga kiritdi.

“Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs” nominatsiyasi bo‘yicha, ikkinchi o‘rinni O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “O‘zbekiston” ashula va raqs ansambli hamda Tojikistonning “Zebo” ansambli egalladi [19].

Madaniy-gumanitar aloqalarga doir yana bir muhim hujjat - “Andijon davlat universiteti va O‘sh davlat universiteti hamkorligi to‘g‘risida” Shartnomasini imzolanishi bo‘lib, ushbu hujjat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida ilmiy tadqiqot, malaka oshirish, kelgusida talabalar almashish borasida hamkorlik qilish imkonini berdi [14].

Shu bilan birga, bugungi kunda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligining bugungi holatini yanada mustahkamlash, mintaqaviy hamdo‘stlikni taraqqiy ettirishga doir quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligi yuzasidan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bir qator huquqiy normativ hujjatlar imzolangan bo‘lib, ularning muntazam ijrosini ta‘minlash yuzasidan monitoringini olib borish;

Markaziy Osiyo mamlakatlarining yangi davrdagi aloqalarini yanada mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirishga, milliy-etnik, do‘stlik va birodarlik jarayonlariga rahna soladigan ichki va tashqi omillar bilan muntazam shug‘ullanuvchi va yechimini topuvchi tahliliy-axborot guruhini shakllantirish;

mintaqa mamlakatlari madaniy hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi transchegaraviy daryo va anklav hududlar masalasida hamjihatlikni saqlab turuvchi chegaradosh hududlarda madaniy markazlarni tashkil etish.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligini rivojlantirish, mintaqada madaniy

almashinuvlarni mustahkamlash, odamlarning borish-kelishlarini ko'paytirish, savdo va turizm aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, – 410.
2. Мирзаев Ғ.Р. Азалий қардошлик ришталари тараққиёт йўлида (ўзбек ва туркман халқлари ҳамкорлиги). Т.: Наврўз, 2016. – Б. 83.
3. Назаров Н. Марказий Осиёда этноижтимоий ҳамкорлик. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. № 4 (76) /2016. – Б. 32.
4. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. – Т.: ART-FLEX, 2010. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Халқ сўзи, 2016 – 9 ноябрь.
6. Халқ сўзи, 2017 йил 27 апрель.
7. Халқ сўзи, 2017 йил 21 март.
8. Халқ сўзи, 2017 йил 5 сентябрь.
9. Халқ сўзи, 2017 йил 14 декабрь.
10. Халқ сўзи, 2018 йил 10 март.
11. Халқ сўзи, 2018 йил 20 июль.
12. Халқ сўзи, 2019 йил 31 август.
13. Ўзаро ҳурмат, яхши қўшничилик, стратегик шерикликка асосланган ҳамкорлик. Халқаро анжуман. // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 2 июнь.
14. “Ўзбекистон овози”. – 2016 йил 29 октябрь.
15. <http://kun.uz/news/2017/10/06/kirgizistonda-uzbekiston-madaniati-kunlari> 06.10.2017.
16. <http://kun.uz/news/2017/12/13/savkat-mirzиеevga-kirgiziston-ordeni-topsirildi> 14.12.2017.
17. <https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/%D1%9Ezbekiston-tozhikiston-yahshi-%D2%9B%D1%9Eshnilar-va-ishonchli-%D2%B3amkorlar/?lang=oz> (01.05.2022.).
18. <https://kun.uz/news/2022/04/30/lazgi-xalqaro-raqs-festivali-goliblari-aniqlandi> 7.08.2022.
19. <https://daryo.uz/k/2022/04/29/xiva-shahrida-o%CA%BBtkazilgan-lazgi-xalqaro-raqs-festivali-yakuniga-yetdi-o%CA%BBzbekistonlik-raqqosa-gran-prini-qo%CA%BBlga-kiritdi/> 7.08.2022.
20. <http://oyina.uz/kiril/posts/9335> (28.08.2022).

MARKAZIY OSIYO: JAHON INTEGRATSIYASI YO'LIDAGI TO'SIQ VA IMKONIYATLAR

OYBEK G'AYBULLAYEV

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti
tayanch doktoranti*

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida xalqaro munosabatlarning subekti bo'lgan davlatlar o'rtasida bog'liqlik doimiy ravishda kuchayib bormoqda. Ilm-fan, ishlab chiqarish va boshqa sohalaridagi yutuqlar ommalashuvi va amaliyotga tadbqiq qilinishi nihoyatda tez suratda amalga oshmoqda. Bu jarayonlarga parallel ravishda davlatlar oldidagi muammolarni ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning turli-tumanligi, manfaaddor tomonlarning xabardorlik darajasi yuqoriligi hisobiga bir davlat doirasida hal qilinish imkoniyati nisbatan yo'qolib borayotrganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Bunday sharoitda dunyo davlatlari o'z oldilaridagi muammolarni hal qilish, ustuvor maqsadlarga erishish yo'lida kuch va imkoniyatlarni birlashtiradigan integratsiya jarayonlari ehtiyoj sezmoqdalar.

Natijasi insoniyat uchun ijobiy yoki salbiy ekanligidan qat'iy nazar bir masalada hamkorlik o'rnatilishi unda ishtirok etuvchilarga doim ma'lum darajada ustunlik bergan. O'tgan asrda shakllantirilgan Uchlar ittifoqi, Antanta ittifoqi, Berlin-Rim-Tokio uchburchagi, Yevropa Ittifoqi, OPEC kabi birlashmalar faoliyati bu fikrni asoslaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki biror masalaga individual emas, aksincha jamoaviy yondashuv ko'zlangan maqsadga erishish samaradorligida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham dunyo davlatlari o'zlari uchun hayotiy zaruratga aylangan tinchlik, xavfsizlik, barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik qilib keladilar.

Integratsiya deganda davlatlar, mintaqalar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va institutsional hamkorlikni kuchaytirish orqali birgalikda boshqariladigan yagona tizimni shakllantirish jarayoni tushuniladi va u hamkorlik jarayonlarining rivojlanishi natijasida yuz beradi (Sirojov, 2016).

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari mintaq va jahon hamjamiyati oldida turgan muammolarga yechim topish, barqaror rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish maqsadida global integratsiya jarayonlariga faol urg'u bermoqdalar. Ko'p vektorli tashqi siyosat olib borish, tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish mintaq davlatlari uchun dolzarb malasardan bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv borasida mintaqaning geosiyosiy ahamiyati, tabiiy hamda strategik (uran, nodir

metallar) resurslari, tarixiy va madaniy merosi kabi kuchli potensialga ega bo'lishlariga qaramasdan, bir qator muammolarga duch kelmoqdalar. Birinchidan, geografik joylashuv. Mintaqa shimol-janub va sharq-g'arb savdo yo'llari chorrahasida joylashgan, jahon bozorida talab katta bo'lgan resurslarga ega bo'lsada eng arzon yo'l hisoblangan dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi, savdo yo'llariga kirish uchun qo'shni davlatlar infratuzilmasidan foydalanish, logistik markazlarning to'liq shakllanmaganligi natijasida eksport-import jarayonida murakkabliklar mavjud. Ikkinchidan, iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinmaganligi. Mintaqa davlatlari eksport mahsulotlari ichida neft, gaz, oltin, uran kabi tabiiy resurslarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Butun dunyoda tabiatni asrash, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash mavzusi kun tartibida bo'lib turgan paytda neft, gaz kabi mahsulotlardan daromad ko'ruvchi davlatlar oldiga jiddiy savollarni qo'yilishi tabiiy. Uchinchidan, boshqaruv va so'z erkinligi masalasi. Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan so'z erkinligiga asoslangan demokratik jamiyat qurish sari harakat qilib kelishayotgan bo'lishsada, erishilgan natijalar dunyoning yetakchi davlatlari nazdida yetarli emas (Jalg'ashev, 2025). Ba'zi mamlakatlarda korrupsiya, byurokratik to'siqlar va siyosiy o'zgarishlarning sekinligi xorijiy investitsiyalarni cheklaydi (S, 2025). To'rtinchidan, o'zaro kelishmovchiliklar. Mintaqada bugun o'zaro ishonch, hamkorlik aloqalari, muammolarni diplomatik yo'llar orqali hal qilish tendensiyalari kuchayib borayotgan bo'lsada, ayrim davlatlar o'rtasidagi chegara muammolari, suv resurslarini taqsimlash borasidagi ziddiyatlar ("Spot", 2025). Markaziy Osiyo mintaqasini global integrtasiya jarayonlari sari harakatlarida o'ziga xos to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Sababi jahon hamjamiyati qaysidir mintaqani muammolari bilan "qabul qilishi", agar undan qandaydir yashirin manfaat bo'lmasa, kamdan-kam kuzatiladigan holat.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida yuqorida sanab o'tilgan holatlarni bartaraf qilish va mintaqani dunyo jamoatchiligiga "ulkan imkoniyatlar mintaqasi sifatida qayta tadqim etish" masalasi turibdi. Bu yo'lda oldimizga qo'yan maqsadlarga erishishda quyidagilarni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz.

1. Dunyo bozoriga chiqish uchun zarur bo'lgan taransport infratuzilmasini shakllantirish orqali mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim. Masalan, 2022-yilda "Shimol-Janub" koridorining Sharqiy to'g'ridan-to'g'ri temir yo'l yo'nalishiga muqobil transport yo'lagi sifatida Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston hamda Belarus – Rossiya – Qozog'iston – O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston multimodal transport koridorlarini tashkil etish masalasi muhokama qilingan edi (Xolmatov, 2022) Taklif etilgan transport

yo'laklarining masofasi 1,5–2 baravarga qisqaroq ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ko'rib turibmizki, bu masalada amaliy harakatlar mavjud.

2. Yuqorida biz neft, gaz kabi mahsulotlarga bo'lgan sari butun dunyoda talab yildan-yilga kamayib borishi mumkin, degan nuqtai nazardan kelib chiqib bu turdagi mahsulotlarni muqobillariga almashtirish masalasini kun tartibiga qo'yish kerak deb hisoblaymiz. Markaziy Osiyo mamlakatlari yashil energiya manbalari borasida ulkan imkoniyatlarga ega. Qozog'istonda amalga oshirilayotgan shamol elektr stansiyalari (ShES), O'zbekistonda amalga oshirilayotgan shamol elektr stansiyalari, quyosh elektr stansiyalari (QES), Qirg'iziston va Tojikistonda amalga oshirilayotgan GES loyihalari orqali ishlab chiqarilgan energiya manbalarini jahon bozoriga taqdim etish imkoniyati mavjud. 2030-yildan boshlab O'zbekiston, Qozog'iston va Ozarbayjon birgalikda Yevropaga elektr energiya yetazib berishni rejalashtirayotganliklari (Mamadaminov, 2024) ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanish yo'lidagi qadam bo'lib xizmat qiladi.

3. Mintaqaviy integratsiyani shakllantirish bizga global integratsiyalashuv yo'lida o'ziga xos tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi. Dunyo hamjamiyati bilan mustahkam aloqalar o'rnatilishida mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch, ko'p tomonlama hamkorlik, sohalar kesimidagi rivojlangan munosabatlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, biz tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik muhiti mavjud bo'lgan, hamkorlik jarayonlarining integratsiya boshqichida bo'lgan mintaqa sifatida harakt qilgandagina dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuv natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ehtimoliy zararlarni minimallashtirgan bo'lamiz. Soddaroq tilda tushuntirganda, mintaqaviy integrtasiya natijasida ishlab chiqarish sohasida arzon energiya manbalari, arzon logistika xarajatlari hisobiga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

4. Inson kapitaliga etibor berishimiz lozim. Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi o'rtacha yosh, mehnatga layoqatli aholi soni bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarga ega. Bu imkoniyatdan unumli foydalanib, hozirgi kunda butun dunyoda talab yuqori bo'lgan kadrlarni tayyorlah mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari uchun dunyo hamjamiyati bilan chuqur aloqalar o'rnatilishi tinchlik va barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu mintaqa geosiyosiy va geostretegik jihatdan muhim nuqta hisoblanadi. Bu jihatdan qaraganda jahon hamjamiyatining ham mintaqa davlatlari bilan hamkorlikdan manfaatlari bor. Institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish va global kuch markazlari o'rtasidagi "oltin

o'rtalik"ni topish jahon integratsiyalashuvi yo'lida Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim vazifalar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Spot", 2025. spot.uz. [В Интернетe] Available at: <https://www.spot.uz/oz/2025/04/10/rogun-ges/> [Дата обращения: 10 04 2025].
2. Jalg'ashev, S., 2025. qalampir.uz. [В Интернетe] Available at: <https://qalampir.uz/uz/news/duneda-oav-erkinligi-bugilmok-da-uzbekistonda-a%D2%B3vol-k-anday-118342> [Дата обращения: 05 05 2025].
3. Mamadaminov, U., 2024. kun.uz. [В Интернетe] Available at: <https://www.kun.uz/news/2024/11/13/ozbekiston-2030-yilgacha-yevropaga-1015-mlrd-kvts-elektr-energiyasi-eksport-qilishi-mumkin> [Дата обращения: 13 11 2024].
4. S, E., 2025. gazeta.uz. [В Интернетe] Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international/> [Дата обращения: 11 02 2025].
2. Sirojov, O., 2016. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari. Toshkent: O'ZBEKISTON.
3. Xolmatov, B., 2022. www.mintrans.uz. [В Интернетe] Available at: <https://www.mintrans.uz/news/ozbekiston-shimol-zhanub-jonalishi-bojlab-yangi-multimodal-transport-jolagini-tashkil-etmoqchi> [Дата обращения: 25 noyabr 2022].



FARG'ONA VODIYISI SHAHARLARIDA XIZMAT KO'RSATISH VA MUHANDISLIK TIZIMI (1917-1941 yy)

DOSTANBEK VAXOBOV

*University of Business and Science,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi shaharlarda iqtisodiy tanglik oqibatida shahar infratuzilmasida vujudga kelgan muammolar tahlil etilgan. Jumladan, shaharlarning yoritish tizimi etarli darajada emasligi, mavjud ko'chalari, hovli, uylar va jamoat joylarida kanalizatsiya tizimining yetishmasligi kabi holatlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar, mehmonxona binolari, kommunal xo'jalik korxonalari, to'qimachilik fabrikalari hamda ambulatoriyalarning obodonlashtirish ishlari doirasidagi ahvoli tahlil qilingan. Maqolada aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir etuvchi mazkur muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, shaharsozlik, infratuzilma, sovet davri, 1917-1941 yillar, urbanizatsiya, jamoatchilik ishlari, shahar infratuzilmasi, xalq xo'jaligi, ijtimoiy o'zgarishlar, transport tizimi, shaharlari rivojlanishi, yoritish tizimi, kanalizatsiya, ichimlik suvi, mehmonxona binosi, kommunal xo'jalik, to'qimachilik fabrikasi, obodonlashtirish ishlari, aholi turmush darajasi.*

Farg'ona vodiysi, Markaziy Osiyoning eng qadimiy va rivojlangan mintaqalaridan biri bo'lib, o'zining boy tarixi, madaniyati va iqtisodiyoti bilan mashhurdir. XX-asrning boshlarida, ayniqsa, 1917-1941 yillarda, Farg'ona vodiysining shaharlari sanoat va infrastruktura sohalarida jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Shu davrda, shaharlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan xizmat ko'rsatish va muhandislik tizimlari rivojlana boshladi. Bu tizimlar nafaqat shaharlarda yashovchi aholining kundalik hayotiga, balki mintaqadagi iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Farg'ona viloyatida shaharlarni obodonlashtirish ishlari ikkinchi darajaga tushib qoldi. 1916-yilda Namangan shahrining obodonchilik ishlariga byudjetdan 15.460 rubl, shahar ko'chalarini yoritish uchun esa 10 ming rubl ajratilgan [1. 3]. 1918 yilda Turkiston Muxtoriyati tugatilgach, vayronaga aylangan Qo'qon shahri ko'chalari 1919-yildan boshlab ta'mirlana boshlandi. Shaharda 75 ta o'tish ko'priklari qurildi hamda bir nechta katta-katta ko'priklar ta'mirdan chiqarildi [2. 70].

XX-asrning 20-yillaridan boshlab shaharlarga elektr, gaz va kerosin lampalar kirib kela boshlandi. Turkistondagi boshqa shaharlarga singari Farg'ona vodiysi shaharlarini obodonlashtirishda shahar ko'chalarini yoritish muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, 1920-yillarda Andijon shahrining ko'chalari kerosin lampalari bilan yoritilgan bo'lsa, keyinchalik elektr fonarlardan foydalanilgan. 1924-yildan boshlab Andijonda shahar ko'chalarini yoritish ishlariga ham e'tibor berila boshlandi. 1924–1925 yillarda shaharda elektr tarmoqlari o'tkazilib, shaharning eski qismida yangi dizel quvvati 60 l o'rnatilishi natijasida 900 ta elektr chiroqlari yordamida ko'chalar yoritilgan. 1941-yilga kelib Andijon shahrining 26 ta ko'chasini 500 ta elektr fonar yoritgan [3. 110].

1920-yillarning o'rtalariga kelib Qo'qonda 89 dona elektr lampa o'rnatilgan bo'lsa-da, ular shaharni yorita olmagan [4. 16]. Buning asosiy sababi shaharda elektr energiyasini yetkazib beruvchi 5 ta dvigatel, XX-asrning dastlabki yillarida o'rnatilgan bo'lib, ular 1920 yillarga kelib ancha eskirib qolgan edi. Bu davrda Farg'ona viloyatida 7 ta elektr stansiyalar mavjud bo'lsa-da, ulardan atigi 3 tasigina ishlagan, holos [5. 26].

Bu davrda Farg'ona vodiysi shaharlarida mavjud binolarni ta'mirlash ishlariga ham jiddiy e'tibor berilmagan. 1921-yildan boshlab Andijonda shahar binolarini ta'mirlash ishlari boshlanib, shu yilning sentyabriga qadar qayta ta'mirlangan 12 ta binoga 7 mln. rubl mablag' sarflangan. Shuningdek, shahardagi «Rossiya» mehmonxonasi, fuqarolar yig'ilishi o'tkaziladigan bino, to'qimachilik fabrikasi va 2 ta xususiy uy ham qayta ta'mirlangan. 1921-yilning o'zida Andijonda umumiy hisobda 157 ta uy ta'mirlangan.

1921-yilda Qo'qon shahar kommunal bo'limi tomonidan shahardagi binolarni ta'mirlash uchun 3 mln rubl mablag' sarflangan [6. 145]. Ammo, Qo'qon shahri sanitariya holati yaxshi emas edi, shahar ko'chalarida chiroqlar yetishmas, ko'priklar va piyodalar uchun ajratilgan yo'llar kam edi. Shaharda tuzilgan kommunal xo'jaligi aholidan 3.451.640 rubl kommunal to'lovlar undirilgan bo'lsa-da, ahvol juda nochor edi [7. 6].

1923-yilda Skobelev (Farg'ona) shahar elektrostansiyasi ishga tushgan [8. 40]. 1924-yil 1-oktyabrda shaharda 292 ta turar joy binolari bo'lib, 1924–1925 yillarda bu binolarning 33 tasi ta'mirlangan [9. 17]. Biroq, bu binolarning aksariyati kapital ta'mirga muhtoj bo'lgan. Shu bilan birga, Qo'qon shahrida yangi turar joy binolarining qurilish ishlari olib borilgan. 1924–1925 yillarda umumiy maydoni 750 m² tashkil qilgan 30 ta yangi turar joy binolari qurib bitkazilgan [10. 89].

1924–1925 yillarda Andijon shahrida aholi uchun yangi 4 ta turar-joy binolari qurilgan. Shuningdek, shaharda: bakterologik laboratoriya, 3 ta shahar

kasalxonasi binosi, yangi mehmonxona binosi, eski shahar ambulatoriya binosi va 2 ta maktab binosining qurilishi boshlangan. 1924–1925 yillarda shahardagi uylarning ta'mirlash ishlariga 29887 rubl sarflangan [11. 165]. 1923–1924 yillarda shahar ko'chalari, ko'priklar ta'mirlangan, mavjud ariqlar tozalanib, ko'chalarining chekkalariga daraxtlar ekilgan. 1924-yilda Andijonda shaharning turli ko'chalarida ko'chat ekish haftaliklari tashkil etib, 2 mingga yaqin ko'chat o'tkazilgan [12. 92]. 1924–1925 yillarda Andijonda shahar qurilish ishlariga 40101 rubl sarflangan [13. 165].

1924-yilda Namangan shahridagi 9153 ta bino mahalliy xo'jalik bo'limiga qarashli bo'lgan. Shaharda 12 ta bino mahalliy xo'jalik tasarrufida bo'lgan, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organiga tegishli 68 ta bino, 9 ta bino davlat muassasalariga, 2 tasi jamoatchilik uyushmalariga, 8 tasi maktab va internatlarga, qolganlarida esa xonadonlar joylashgan [14. 9]. Shu yili shaharda 22 ta uy ta'mirlanib, unga 5451 rubl, shahardagi binolarni yoritish uchun 3401 rubl sarflangan. Shahardagi katta yo'lni kesib o'tish joylarida 3 ta ko'prik qurildi hamda mahalliy qurilish materiallari yordamida 33 ta kichik ko'priklar qayta ta'mirlandi [15. 5]. Biroq kerakli vositalarning yetishmasligi tufayli shahar ko'cha va trotuarlari qayta ta'mirlanmay qolgan. 1924-yildan boshlab shaharda aholi yashashi uchun turar joylar, madaniy-maishiy muassasalar va kommunal obyektlar qurilishi boshlangan [16. 5].

Namanganda 1925-yilda shahardagi mahalliy xo'jalik bo'limlarining daromadi 116,7 ming rublni tashkil etgan holda, shahardagi turar joylar qurilishiga 45,6 ming rubl ajratilgan. 1921–1926 yillarda shaharda tashqi ko'rinishi bilan boshqalardan ajralib turuvchi 4 ta yangi maktab binolari barpo etilib, hovlisida chinor daraxtlari ekilgan [17. 7]. 1927-yil avgustda Namanganda sodir bo'lgan kuchli zilzila oqibatida shahardagi ko'plab aholi turar-joylari vayron bo'lgan. Zilzila tufayli aziyat chekkan aholi uchun hukumat ko'magida ko'plab turar joylar qurilgan. Masalan, 1927-yildan 1929-yilgacha umumiy maydoni 11940 m²ni tashkil qilgan 81 ta ko'p qavatli uylar qurib bitkazilgan [18. 6]. 1929 yilda shahardagi mahalliy xo'jalik bo'limining daromadi 660567 ming rublni tashkil etgan [19. 6].

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida aloqalar yo'llari va vositalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmagan. Buning asosiy sababi bolsheviklar bu davrda o'z yakkahukmronligini o'rnatish bilan ovora bo'lgan. Shahar ko'chalari asosan, otda yurishga mo'ljallangan bo'lib, ularning kengligi 2,85 metrni tashkil etgan [20. 135]. Shaharlardagi qarovsiz qolgan yo'llarni hamda ko'priklarni ta'mirlash ishlari 1923-1926 yillardan boshlangan va bu sohada mablag' ajratilgan. Lekin yo'l qurilishi uchun ajratilgan mablag' juda kam miqdorda

bo'lgan. Masalan, Namangan uezdida ko'chalarga tosh yotqizish uchun 24.000 rubl so'ralgan, faqat 10.000 rubl berilgan holos [21. 14]. 1940-yilda Farg'onada uzunligi 36 ming metr bo'lgan yo'llar qurilgan hamda trotuarlarni asfal'tlashga kirishilgan [22. 62]. Biroq, Farg'ona vodiyesi shaharlarida yo'l qurilishi nochor ahvolda bo'lgan.

1930-yillar boshida Andijon shahrida tosh yotqizilgan yo'llar 10 foizni, Qo'qon shahrida esa 40 foizni tashkil etgan holos [23. 35]. 1934-yilda Qo'qon shahar soveti tomonidan yo'llarni ta'mirlash hamda ko'priq qurilishi uchun 47 ming rubl mablag' ajratilgan. Ajoyib mablag' asosida shahardagi yo'llarni kengligi 11 metrga, yo'lakchalarining kengligi 1-1,5 metr, uzunligi esa 8,5 kilometrga uzaytiriladi [24. 318]. Bu davrda yo'l qurilishi son jihatdan oshgan bo'lsa-da, sifat jihatdan talabga javob bermasligi va hatto oddiy texnik talablar bo'yicha javob bermasligi ta'kidlangan. Shuning uchun ham aholi orasida ot-arava asosiy transport vositasi vazifasini bajargan.

Shaharlar hayotidagi muammolardan biri toza ichimlik suvi bilan bog'liq bo'lgan. Ma'lumki, o'lkamiz aholisi qadimdan ichimlik suvi sifatida asosan ariq va quduq suyidan foydalangan bo'lsalar-da, XX-asr boshlariga kelib mutaxassislar bu suv ichish uchun yarasiz degan xulosaga kelishgan. Farg'ona vodiyasidagi Andijon, Farg'ona, Namangan, Marg'ilon kabi shaharlardagi aholini ham ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekistonda vodoprovod birinchi bo'lib 1929-yilda Buxoroda ishga tushirilgan. 1931-yilda Andijonda, 1932-yilda esa Qo'qon shahrida ham vodoprovod qurish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa-da, bu ishlar oxiriga yetmay qolgan [25. 174]. Shu sababli ham vodiya shaharlarda ariqlarni tozalash ishlariga katta e'tibor berilib, doimiy ravishda hasharlar uyushtirilgan.

1930-yillarning boshlarida Qo'qon shahar hududi 2.350 gektardan iborat bo'lib, unda 80,000 aholi istiqomat qilar edi [26. 178]. Shahar aholisining asosiy qismi shahar bo'ylab yoyilgan quduqlardan suv ichishgan. Biroq, bu quduqlarning joylashish masofasi bir-biridan uzoqda joylashganligi uchun aholini suv bilan ta'minlash uchun etarli bo'lmagan. Buning oqibatida shaharning eski qismida yashovchi qatlam asosan hovuz va ariqlardan foydalangan.

O'rganilayotgan davrda Farg'ona vodiyesi shaharlari tozalash ishlariga kommunal xo'jalik tomonidan juda kam miqdorda mablag' ajratilgan. Shaharda kanalizatsiya tizimining yo'qligi oqibatida bir qator muammolar yuzaga keladi. Bu kabi muammolar o'sha davr matbuotida ham yoritib borilgan [27. 28]. 1929-yilning avgustida Andijon shahrining sanitariya ahvoli haqidagi masala shahar soveti tomonidan maxsus muhokama qilingan va "obodlashtirish oyligi" tashkil qilish haqida qaror qabul qilingan edi [28. 83].

1930-yillarning boshlarida Qo'qon shahrining sanitariya ahvolini yaxshilash uchun ham yetarli mablag' ajratilmagan. Ajratilgan mablag' esa shaharning 67.3 km uzunlikdagi ko'chalarini tozalashga yetgan xolos [29. 34]. Shaharidagi bozorlardan sanitariya ahvoli ham achinarli holatda bo'lgan. Shaharning eski qismida joylashgan bozor hududida axlat qutilarining yo'qligi oqibatida, axlat uyumlari to'planib yotgan. Shahar yaqin yerlarida paxta maydonlarini sug'orilishi bilan yer osti suvlarining balandlab ketishi oqibatida, shaharning aksariyat qismida botqoqliklar yuzaga kelgan. Buning oqibatida aholi orasida bezgak kasalligi keng tarqalgan, uylarning poydevori nurashiga ham sabab bo'lgan.

Shaharlar ijtimoiy infratuzilmalariidagi yana katta muammo Farg'ona vodiysi shaharlariida umumiy yuvinish joylari - hammomlar yetishmasligida namoyon bo'lgan. Shaharlardagi hammomlarning aksariyati ijarachilarga berilgan bo'lib, haftaida ikki kun aholining kambagal qatlamiga bepul xizmat ko'rsatgan. Masalan, 1920-yillarining boshlarida Andijonda 7 ta hammom bo'lib, ularning atigi 3 tasigina yarakli ahvolda bo'lgan, xolos [30. 191]. Qolgan 4 tasi mahalliy tipdagi hammomlar bo'lib, sanitariya talablariga javob bermagan. 1933-yilda Qo'qon shahrida mavjud bo'lgan 6 ta hammomdan atigi 4 tasi ishlab turgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida shaharlarga ko'kalamzorlashtirish ishiga umuman e'tibor berilmagan. Faqat 1928-yildan bu ishga ahamiyat berila boshlandi. Biroq, bu sohada ajratilgan mablag'lar yetishmas edi. Shaharlarda yildan-yilga o'simliklar ekish va bog'lar barpo etishga ham e'tibor berila boshlandi. O'sha davrdagi matbuot sahifalarida Farg'ona vodiysi shaharlari ichida Andijonda bu masalaga ko'proq e'tibor qaratilganligi yoritilgan [31. 31]. Buning ustiga Andijondagi istirohat bog'i shaharning "eski" qismining markazida, ya'ni aholi gavjum joyda joylashgan mahalliy aholi istirohat bog'ida o'tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish uchun qulayliklar tug'dirgan. Bu holat sovet hokimiyatining istirohat bog'ini tashkil qilishga siyosiy ahamiyat berganligidan dalolat bergan.

1930-yilda Andijon shahrida A. Ikromov nomli madaniyat va istirohat bog'i qurilishi boshlang'an bo'lib, ikki yil o'tib ochilgan [32. 164]. Biroq, bog' qurilishi loyihasiz qurilganligi oqibatida keyinchalik ko'plab kamchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, istirohat bog'i hududidagi inshootlar qisqa vaqtga mo'ljallab, asosan xom g'isht va qamishlardan qurilgan edi. Bundan tashqari bog' hududida umumiy ovqatlanish shohobchalari yetishmas, pavilyonlarning aksariyati, bolalar shaharcha ko'rgazmalar ko'pincha ishlamay turgan. Bundan tashqari bog' eski shaharda joylashganligi uchun yangi shahar aholisining bog'ga tashrif buyrishi uchun maxsus transport yo'lga qo'yilmagan edi. Yangi shahar aholisi bog'ga kelishi uchun piyoda yoki izvoshilar xizmatidan foydalanishga

majbur bo'lishgan. Bog' hududini qo'riqlash ishlari ham talab darajasida bo'lmagan. 1935-yilda shaharda yog'-moy kombinati, 1936-yilda esa temir yo'l stantsiyasi tomonidan ham bunday bog'lar ochilgan [33. 165].

1930-yillarning boshida Qo'qon shahrining yangi qismlarida ham madaniyat va istirohat bog'i faoliyat ko'rsatgan. Bog'da 2 ta favvora va kino ko'rish uchun ham qulayliklar mavjud bo'lgan [34. 165]. Shuningdek, shaharga aholisi uchun jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun ham maxsus maydonchalar tashkil etilgan. Mazkur bog'da turli xil gullar ekilganligi va yo'lakchalar qurilganligi shaharning aholisi dam olishiga qulay imkoniyat yaratgan.

O'rganilayotgan davrda Farg'ona vodiyesi shaharlarda yoritish tizimining yetarli darajada emasligi sohalarga yetarli mablag' ajratilmaganligi bilan izohlanar edi. Shuningdek, shaharlarda obodonlashtirish va tozalash ishlari uchun kommunal xo'jalik tomonidan juda kam miqdorda mablag'lar ajratilgan. Shaharlardagi mavjud ko'chalar, hovlilar, uylar va jamoat joylarida kanalizatsiya yo'qligi tufayli sanitariya-gigiena holati yaxshi emasdi. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham qator muammolar mavjud bo'lgan.

Mazkur maqolaga xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, bu davrda shaharlarning ijtimoiy infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish tizimi mutlaqoqoniqarli ahvolda edi. Xizmat ko'rsatish tizimi talab va ehtiyojlarni qondirmas edi. Bunday sharoitda an'anaviy shahar madaniyati tubdan izdan chiqib, chuqur inqirozga uchrab borardi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 3-варақ.
2. История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к России до настоящего времени). –Ташкент. Фан. 1984. – С. 70.
3. Нурмухаммедов Х.У. История развития социалистического города Андижана (1917 – конец 50-х годов). Диссертация на соискание учёной степени канд. ист.наук. – Ташкент, 1981. – С. 110.
4. ФВДА, 121-фонд, 2-рўйхат, 447-иш, 16-варақ.
5. ФВДА, 121-фонд, 2-рўйхат, 447-иш, 26-варақ.
6. ФВДА, 435-фонд, 1-рўйхат, 52-иш, 145-варақ.
7. Отчёт о деятельности Туркестанского Экономического Совета за февраль-октябрь месяцы 1921 года. – Т., Изд-е ТЭС., 1922. – С. 6.
8. История Ферганы. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 40.
9. ФВДА, 121-фонд, 2-рўйхат, 347-иш, 17-варақ.
10. История Коканда.... – С. 89.

11. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 496-иш, 165-варақ.
12. История Андижана.... – С. 92.
13. АВДА, 145-фонд, 1-рўйхат, 295-иш, 165-варақ.
14. НВДА, 13-фонд, 1-рўйхат, 17-иш, 9-варақ.
15. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 5-варақ.
16. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 5-варақ.
17. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 4-варақ.
18. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 6-варақ.
19. НВДА, 796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 6-варақ.
20. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йиллар). – Тошкент., Адабиёт учқунлари. 2015. – Б. 135.
21. Фарғона вилоят давлат архиви. 121-фонд, 2-рўйхат, 447-иш, 14-варақ.
22. Рахимов М. История Ферганы. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 62.
23. ЎЗРМДА, 2182-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 35-варақ.
24. Хўжаев Ф. Ўзбекистон ССР Советларининг V қурултойида Ўзбекистон ССР ҳукуматининг ҳисоботи / Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 3 том. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 318.
25. Шодмонова С. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари... – Б. 174.
26. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йиллар).... – Б. 178.
27. Узбекистанская правда. 1929. 28 июл.
28. Нурмухаммедов Х.У. История развития социалистического города Андижана (1917 – конец 50-х годов). Диссертация на соискание учёной степени канд. ист.наук. – Ташкент, 1981. – С. 83.
29. ЎЗРМДА, 2185-фонд, 1-рўйхат, 85-иш, 34-варақ.
30. Шодмонова С. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари..... – Б. 191.
31. Правда Востока. 1940 г. 31 декабр.
32. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йй). – Тошкент: Адабиёт учқунлари. 2015. – Б. 164.
33. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йй). – Тошкент: Адабиёт учқунлари. 2015. – Б. 165.
34. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йй). – Тошкент: Адабиёт учқунлари. 2015. – Б. 165.

MARKAZIY OSIYO REGIONAL INTEGRATSIYANING GEOSIYOSIY MUVOZANATGA TA'SIRI: TASHQI KUCHLAR TA'SIRINI KAMAYTIRISHDAGI STRATEGIK ROLINING TAHLILI

MUHAMMADRO'ZI ABDULHAYEV, NIZOM XAKIMOV

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti mustaqil tadqiqotchilari

Anotatsiya. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy integratsiya jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilishi oqibatida mintaq davlatlari o'rtasidagi siyosiy dialoglar faollashuvi, iqtisodiy va transport-logistika sohalaridagi hamkorlik kengayishi kuzatildi. Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida shakllanayotgan regional integratsiya jarayonlarining geosiyosiy va geo-iqtisodiy jihatlarini tahlil etadi. Xususan, hududiy integratsiyaga mintaqadagi yetakchi tashqi geosiyosiy aktorlarning ta'sir kuchini cheklash va muvozanatlashtirishdagi strategik funksiyasi yoritiladi. Maqolada mintaq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy interdependensiya (*o'zaro bog'liqlik*), siyosiy konvergentsiya (*yaqinlashuv*), xavfsizlik sohasida institutsional kooperatsiya (*tashkilotlararo hamkorlik*) va transchegaraviy muammolarga nisbatan ko'p tomonlama yondashuvlar asosida amalga oshirilayotgan integratsion model tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, tashqi kuchlarning mintaqaviy siyosatga aralashuvi, asimmetrik geoiqtisodiy aloqalar, neokolonialistik siyosiy ta'sir vositalari va xavfsizlik paradigmasidagi dominatsion (*ustun*) pozitsiyalarining integratsion dinamika bilan qanday uyg'unlashuvi yoki qarama-qarshiligi ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning mintaqaviy suverenitet, barqarorlik va strategik avtonomiya kabi omillarga ijobiy ta'siri tahliliy jihatdan asoslanadi. Shu bilan birga, maqolada regional integratsiya jarayonidagi strukturaviy to'siqlar, siyosiy diskurslar o'rtasidagi tafovutlar, iqtisodiy diversifikatsiyalashganlik darajalari hamda tashqi bosimlarga nisbatan ichki barqarorlikni mustahkamlashda mintaqaviy tashkilotlarning roli muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *mintaqaviy integratsiya, geosiyosiy ta'sir, geo-iqtisodiy aloqalar, siyosiy dialog, iqtisodiy interdependensiya, tashqi aktorlar, strategik avtonomiya, asimmetrik geoiqtisodiy aloqalar, neokolonializm, siyosiy konvergentsiya, transchegaraviy muammolar, mintaqaviy tashkilotlar.*

Kirish

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan, geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatlarni inobatga olgan holda, keng qamrovli integratsiya jarayonlari uchun o'ta muhim hududlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu jarayonlar yangi bosqichga ko'tarilib, mintaqaviy hamkorlikni faollashtirish va siyosiy-iqtisodiy interdependensiyani rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirishga olib keldi. Shu o'rinda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va transport-logistika sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning bosh omili sifatida, davlatlarning mintaqaviy siyosatda birlashish va birgalikda rivojlanish maqsadlarining tobora kuchayib borayotgani ko'rinadi. Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiya jarayonlari o'zida bir nechta strategik va geosiyosiy jihatlarni aks ettiradi. Mintaqaviy integratsiya faqat iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bilan cheklanmay, balki mintaqadagi geosiyosiy aktorlar va tashqi kuchlarning mintaqaga ta'sirini boshqarish va balanslashtirish bilan ham bog'liqdir. Mintaqaviy integratsiyaning yuksalishi o'z navbatida, mintaqada davlatlarining suvereniteti, xavfsizligi va strategik avtonomiyasini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikda faoliyat yuritishlari, ularning mintaqadagi geosiyosiy raqobat va inqirozlarni bartaraf etishda yordam berishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy integratsiyaning geosiyosiy va jihatlari tahlil qilinadi. Mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichidagi strategik funksiyalari, shuningdek, tashqi kuchlar va asimmetrik geoiqtisodiy aloqalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ko'rib chiqiladi. Maqolada, mintaqaviy integratsiya jarayonining iqtisodiy interdependensiya, siyosiy konvergentsiya va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikka nisbatan qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Bunda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlikning barqarorlikka qanday hissa qo'shayotgani ko'rsatib o'tiladi. Maqola davomida mintaqaviy siyosatda tashqi aktorlarning aralashuvi va ularning mintaqada siyosatiga ta'sirini o'rganish juda muhim. Markaziy Osiyo, ko'plab global geosiyosiy manfaatlar o'rtasida joylashgan bo'lib, tashqi kuchlar, shu jumladan, Yevropa, AQSh, Xitoy, Rossiya kabi davlatlar o'z geosiyosiy o'rnini ushbu mintaqada xar doim mustahkamlashga intilib keladilar. Bunday geosiyosiy muhitda, mintaqaviy integratsiya faqat iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan emas, balki tashqi tahdidlarga qarshi mintaqaviy birlashish shaklida ham rivojlanmoqda. Integratsion jarayonlar asimmetrik geoiqtisodiy aloqalarni boshqarish va neokolonialistik ta'sirlarni cheklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy integratsiyasidagi o'zgarishlar, shuningdek,

mintaqadagi suverenitet va barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, integratsion jarayonlar bilan bog'liq turli to'siqlar va siyosiy tafovutlar ham mavjud. Maqolada mintaqaviy tashkilotlar va ularning o'rni, shuningdek, tashqi bosimlarga qarshi turishda ichki barqarorlikni taminlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Bu tahlil Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining murakkabligi va uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, maqolada mintaqaviy integratsiyaning rivojlanishidagi struktural to'siqlar, siyosiy diskurslar o'rtasidagi tafovutlar va tashqi kuchlarning ta'sirini hisobga olishda mintaqaviy integratsiya jarayonining kelgusi yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Markaziy Osiyo bugungi kunda global geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvining epitsentriga aylangan bo'lib, mintaqaning strategik geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va demografik salohiyati uni yirik davlatlar manfaatlar to'qnashuvining markaziga aylantirmoqda. [1] Mintaqaga nisbatan Xitoy, Rossiya va AQSh tomonidan olib borilayotgan siyosiy va iqtisodiy strategiyalar o'zaro farqli, ammo har biri o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan. Bunday sharoitda, regional integratsiyaning mintaq davlatlari uchun tashqi geosiyosiy ta'sirlarni muvozanatlashtiruvchi va suverenitetni mustahkamlovchi vosita sifatidagi roli tobora muhimlashmoqda. Geosiyosiy ta'sir kuchlarining Markaziy Osiyodagi ishtiroki har xil shakllarda ifodalanadi. Rossiya asosan harbiy-texnik va mehnat migratsiyasi vositalari orqali o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Xitoy mintaqada "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida infratuzilmaviy investitsiyalar, energetika loyihalari va savdo-iqtisodiy hamkorlik orqali ustunlikka ega bo'lishga intilmoqda. AQSh esa diplomatik tashabbuslar, xavfsizlik bo'yicha hamkorlik va "C5+1" formati orqali mintaqadagi ishtirokini kuchaytirmoqda. Biroq, bu tashqi kuchlar bilan aloqalarning asimmetrik shaklga ega bo'lishi, ya'ni mintaq davlatlarining nomutanosib iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarga ega bo'lishi, ular uchun noxolis shartlar, iqtisodiy qaramlik va suverenitetni cheklovchi holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, regional integratsiya mintaq ichida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, resurslarni kooperatsiya asosida boshqarish, umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish orqali tashqi bosimlarga nisbatan muqobil struktura yaratishi mumkin. Integratsiyaning nazariy asoslarini liberal hukumatlararo yondashuv bilan izohlash mumkin. Bu nazariya, S. Xoffmann (*Hoffmann, 1966*) tomonidan asoslangan bo'lib, milliy davlatlar o'z milliy manfaatlarini asosiy determinant sifatida e'tiborga olib, integratsion qarorlarni muzokaralar orqali qabul qiladi. Bu modelga ko'ra, iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich bosqichi bo'lib, tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakati ta'minlanadi. Aynan

shu jarayon davomida davlatlar o'zaro iqtisodiy bog'liqlik orqali siyosiy integratsiya uchun zarur bo'lgan institutsional asoslarni shakllantiradi. [2] Markaziy Osiyoda YeOII doirasidagi hamkorliklar bu jarayonni tahlil qilish uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. YeOII tarkibidagi davlatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi, bojxona tartiboti va texnik reglamentlarni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy integratsiya kuchaymoqda. O'zbekistonning kuzatuvchi maqomida bo'lishi va ayrim texnik sohalarda ishtirok etishi, integratsiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan modeliga misol bo'la oladi. Migratsiya yo'nalishida esa, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya o'rtasidagi ishchi kuchi harakati institutsional normalar bilan tartibga solingan bo'lib, bu YeOII doirasidagi ijtimoiy integratsiyaning belgisidir.

Markaziy Osiyoning o'zaro savdo ko'rsatkichlari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning hozircha sust ekanligini ko'rsatadi. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi umumiy tashqi savdoning qariyb 10,2 foizini tashkil etdi, bu esa avvalgi yillarga nisbatan ijobiy siljishni anglatadi. Shuningdek, Jahon Iqtisodiy Forumi (*WEF*) reytinglariga ko'ra, mintaqadagi davlatlar o'rtasida iqtisodiy raqobatbardoshlikda ham sezilarli farqlar mavjud: Qozog'iston 55-o'rinda, Qirg'iziston 96-o'rinda, Tojikiston esa 104-o'rinda qayd etilgan (*WEF, 2019*). O'zbekiston va Turkmaniston esa reytingda qatnashmagan. Bu esa, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning diversifikatsiyalashmaganligini va tashqi bozorlarga yuqori darajadagi qaramlikni ko'rsatadi. Boshqa tomondan, mintaqada integratsion tashabbuslar so'nggi yillarda faollashmoqda. [3] 2018-yildan beri "C5" formatidagi davlat rahbarlari sammitlari doimiy tus olib, suv resurslaridan foydalanish, transport-logistika infratuzilmasi va iqtisodiy hamkorlik sohasida qo'shma bayonotlar qabul qilinmoqda. 2022-yilda Cholpon-Ota sammitida "Qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitim" imzolanishi regional integratsiyaning institutsional shakllanishini bildiradi. Integratsiyaning tashqi kuchlarga nisbatan ta'sirni kamaytiruvchi funksiyasi eng avvalo mintaqada davlatlariga tashqi siyosatda yagona pozitsiya shakllantirish imkonini berishidir. Xususan, AQShning 2019–2025 Markaziy Osiyo strategiyasi mintaqani Rossiya va Xitoy ta'siridan cheklashga qaratilgan bo'lib, buning uchun "C5+1" formati orqali siyosiy va iqtisodiy yordam ko'rsatishni taklif qilmoqda. Xitoy esa "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida mintaqada davlatlarini o'z infratuzilmaviy loyihalariga jalb etish orqali iqtisodiy qaramlikni kuchaytirmoqda. Integratsion strukturalar esa bu tashqi strategiyalarga nisbatan ichki muvozanatli javob bo'la oladi. Delovarova va Chernova (2024) tomonidan ilgari surilgan "kumulative integratsiya" konsepsiyasi Markaziy Osiyodagi real

sharoitlarga mos integratsiya modelini taklif qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mintaqaviy integratsiya klassik yondashuvlardan farqli o'laroq, qat'iy supranatsional strukturalarga emas, balki bosqichma-bosqich va selektiv hamkorlikka asoslanadi. [4] Bu model davlatlarga tashqi bosimlardan qochgan holda iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, migratsiya sohasidagi integratsiya tashqi kuchlarga qarshi mintaqa ichidagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qirg'iziston va Tojikistondan Qozog'istonga mehnat migratsiyasining oshishi, Rossiyaga qaramlikning kamayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, YeOII doirasidagi pensiya ta'minoti, tibbiy xizmatlar va migratsiya huquqlari bo'yicha kelishuvlar Markaziy Osiyo uchun o'z mehnat bozorini barpo etish imkoniyatlarini yaratmoqda. [5]

Shu tarzda, mintaqaviy integratsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, raqamli transformatsiya va madaniy almashinuv uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 2023-yilda \$5 milliarddan oshgani, hamkorlik salohiyatining kengayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2024-yil may oyi holatiga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida transport, energetika va ekologik xavfsizlik sohalarida 20 dan ortiq hamkorlik bitimlari imzolangan. Bu esa tashqi kuchlarga nisbatan mintaqaviy resurslarni ichki muvofiqlashtirish orqali barqaror raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. va transport-logistika tizimlarini yaxshilashga, balki geosiyosiy xavfsizlik, siyosiy suverenitet va tashqi kuchlarga nisbatan muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi strategik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda siyosiy elitalarning irodasi, iqtisodiy resurslarni kooperatsiya asosida boshqarish, institutsional tizimlarni uyg'unlashtirish va fuqarolik jamiyatini jalb etish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi ishtirokning faollashtirilishi, tashqi kuchlarga qaramlikni kamaytirish va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Iqtisodiy interdependensiya Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy interdependensiya, ya'ni o'zaro bog'liqlik, integratsiyaning eng muhim ustunlaridan biridir. Bu holat ishlab chiqarish, savdo, energiya ta'minoti, transport-logistika tarmoqlari va mehnat migratsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Misol uchun, 2023-yilgi statistikaga ko'ra, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo hajmi 5,1 milliard AQSh dollariga yetdi. O'zbekiston elektr energiyasini Tojikiston va Qirg'izistondan import qiladi, Qozog'iston esa bu mamlakatlarga neft va gaz yetkazib beradi. Bunday o'zaro iqtisodiy qaramlik, mintaqa ichida siyosiy ishonch va barqarorlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, o'zaro iqtisodiy

manfaatlar davlatlarni tashqi kuchlarga nisbatan birgalikda harakat qilishga undaydi. Ayniqsa, umumiy transport infratuzilmasi, masalan, O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy temiryo'li loyihasi, iqtisodiy interdependensiyani mustahkamlab, tashqi bozorlarga chiqishda regional birlikni kuchaytiradi. [6]

Strategik avtonomiya Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosatda mustaqil yo'l tutishi mintaqaviy integratsiyaning eng muhim natijalaridan biridir. Xususan, bu tushuncha tashqi geosiyosiy kuchlarga nisbatan qaror qabul qilishdagi erkinlikni anglatadi. O'zbekistonning YOII (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi)da to'liq a'zolikdan voz kechib, kuzatuvchi maqomda qolishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu tariqa, mamlakat o'zining savdo siyosatini Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan mustaqil ravishda olib bormoqda. Qozog'iston ham YeOIga a'zo bo'lsa-da, Xitoy bilan aloqalarini muvozanatlashtirgan holda olib bormoqda. [7]

Strategik avtonomiya, shuningdek, tashqi moliyaviy resurslardan foydalanganda milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlashda ham muhim omildir. Shu orqali Markaziy Osiyo davlatlari global kuchlar bilan asimmetrik munosabatlarning oldini olib, o'z tashqi siyosatini regional manfaatlar asosida shakllantirishi mumkin. Asimmetrik geoiqtisodiy aloqalar tushunchasi Markaziy Osiyo davlatlari va yirik tashqi geoiqtisodiy aktorlar — ayniqsa, Rossiya va Xitoy bilan bo'lgan tengsiz va noteng iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida berilgan milliardlab dollarlik kreditlar ko'p hollarda Xitoy kompaniyalariga bog'liq bo'lgan infratuzilma loyihalari bilan qaytmoqda. Masalan, Qirg'iziston Xitoydan olgan qarzlarning katta qismini qaytara olmay, infratuzilma ustidan nazoratni bo'lishishga majbur bo'lgan. Shuningdek, Rossiya bilan energiya resurslari bo'yicha shartnomalar ko'p hollarda faqat Rossiya manfaati asosida tuzilmoqda. Bunday asimmetrik aloqalar mintaqaning iqtisodiy suverenitetiga tahdid soladi. Shuning uchun, ichki mintaqaviy integratsiya orqali teng huquqli iqtisodiy munosabatlar shakllantirish zarur. Bu integratsiya mintaqada davlatlarini tashqi kuchlarning dominant iqtisodiy strategiyalaridan himoya qiluvchi tamoyil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiya jarayoni murakkab va ko'p qirrali bir jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq. Mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi ko'plab to'siqlarga duch kelmoqda, shu jumladan, iqtisodiy diversifikatsiyaning yetishmasligi, siyosiy tizimlar o'rtasidagi farqlar va geosiyosiy raqobatlar. Biroq, mintaqaviy integratsiyani ilgari surish uchun ShHT, EKO kabi xalqaro tashkilotlarning roli juda muhimdir, chunki bu tuzilmalar o'zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni kengaytirishga yordam beradi. Maqolada,

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va siyosiy integratsiyasini chuqurlashtirish uchun ichki siyosatdagi barqarorlik va tashqi siyosatdagi muvofiqlik zarurligi ta'kidlangan. Mintaqaviy integratsiyaning samarali bo'lishi uchun davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va siyosiy ishonchni oshirish kerak. Shu bilan birga, mintaqadagi davlatlarning o'zaro manfaatlarini hisobga olib, integratsiya jarayonini yanada chuqurlashtirish uchun birgalikda ishlash zarurati mavjud. Shu bois, Markaziy Osiyo integratsiya jarayoni, nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, balki siyosiy va ijtimoiy sohalarda ham yirik o'zgarishlarni talab etadi. Integratsiyaning muvaffaqiyati uchun davlatlarning o'zaro ishonchi, barqaror siyosiy tizimlari va iqtisodiy siyosatdagi moslashuvchanlik juda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Delovarova, S. & Sultanmuratov, N. (2023). *Migration flows and social integration within the Eurasian Economic Union: Institutional and regulatory frameworks*. Journal of International Relations and Political Science, 12(3), 45-56.
2. Hoffman, S. (1966). *Obstinate or obsolete? The fate of the nation-state and the case of Western Europe*. The Daedalus, 95(4), 862-915.
3. World Economic Forum (WEF). (2019). *Global Competitiveness Report*. Geneva: WEF.
4. Eurasian Economic Union (EEU). (2024). *Annual report on economic integration and trade relations within the EEU*. Moscow: EEU Secretariat.
5. International Monetary Fund (IMF). (2022). *Central Asia's regional economic outlook*. Washington, D.C.: IMF.
6. Nazarbaev, N. (2017). *The concept of regional cooperation in Central Asia: Challenges and prospects*. Central Asia Review, 5(2), 22-30.
7. Feshbach, M. (2004). *Russia's role in the geopolitical dynamics of Central Asia*. Journal of Central Asian Studies, 10(1), 35-50.
8. Khamidov, B. (2021). *The geopolitical struggle in Central Asia: External actors and regional security*. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy Press.
9. World Bank. (2020). *Transport and infrastructure cooperation in Central Asia*. Washington, D.C.: World Bank Group.
10. Liu, X. (2021). *China's Belt and Road Initiative: Central Asia's integration prospects*. Asian Journal of International Relations, 19(4), 89-102.
11. Gulomov, S. (2014). *Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiya jarayonlari va istiqbollari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi.

12. Ibrahimov, N. (2017). *Siyosiy integratsiya va Markaziy Osiyo davlatlarining yangi rivojlanish yo'llari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.



MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASIDA GENDER TENGLIK BILAN BOG'LIQ MASALALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY AHAMIYATI

MOXIRA JUMANIYAZOVA

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasi o'qituvchisi*

Hozirgi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda ta'minlash kun tartibiga qo'yilayotgan asosiy maqsadlardan biri hisoblanmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, 17 ta maqsadga erishish bo'yicha 16 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat. Markaziy Osiyo mintaqasi ham bugun o'zining yangi qiyofasida dunyo sahnasida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni natijasida ko'pgina masalalar qatorida gender tenglik bilan bog'liq siyosiy-ijtimoiy holatlarni barqarorlashtirish – mintaqada ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Shu o'rinda, O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengligi tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar e'tiborga molikdir. Jumladan, 2016-yildan bugungi kunga qadar gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, Prezidentning 9 ta Farmon va qarori, hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" ishlab chiqildi va hayotga tadbiiq etilmoqda.

Xususan, Qozog'iston ham gender tengligi reytingida dunyoning 144 mamlakati orasida 52-o'rinni egalladi. Bu haqida "Gender farqi bo'yicha global hisobot – 2017" Butunjahon iqtisodiiy forumining yangi hisobotida e'lon qilindi. Markaziiy Osiyo mamlakatlaridan: Qirg'iziston 85-pog'onadan joy olgan bo'lsa, Tojikiston 95-o'rinda joylashdi. Mo'g'uliston reytingning 53-o'rnini egalladi. Tadqiqot to'rtta asosiiy yo'nalish: sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiiy imkoniyatlar va ayollarning siyosiiy faoliyati bo'yicha o'tkazildi. Ayollar uchun eng yaxshi imkoniyatlar yaratilgan davlatlar orasida Islandiya, Norvegiya, Finlyandiya, Ruanda va Shvetsiya bor. Gender tengligi reytingidagi eng so'nggi pog'onani Yaman egalladi. Tadqiqotchilarning fikricha, u yerda ayollarning o'z huquqlaridan

foydalanishi biroz mushkulroq. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, gender muammolarini hal etishning hozirgi tezligida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka faqatgina 100 yildan so'ng erishish mumkin. O'tgan yilda bu ko'rsatkich biroz kamroq edi – ya'ni 83 yil.

Gender tengligiga erishish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirishdir. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham unga erishish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy, siyosiy va ishbilarmonlik hayotida yosh ayollarning rolini oshirish uchun kelajakdagi yetakchi ayollarni tayyorlash asosiy vazifalardan biridir.

Bu borada, 2021-yildan beri Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti shafeligida Markaziy Osiyoda qizlar uchun yetakchilik, murabbiylik va gender tengligi bo'yicha mintaqaviy o'quv lageri o'tkazilib kelinmoqda. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan BMT Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi va "BMT-Ayollar" tashkiloti ko'magida tashkil etildi. Tadbirda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistondan 30 nafardan ortiq qizlar ishtirok etib kelmoqda. O'quv lageri Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan qizlar va istiqbolli kadrlar salohiyatini oshirish, ularda davlat va jamiyat hayotida yanada faol ishtirok etish uchun yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'quv mashg'ulotlarining o'tkazilishi mintaqada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, qizlarning kasbiy mahorati va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlar zahirida mintaqada ayollar huquqlari va gender tenglik bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni oldini olish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashdek ustuvor vazifalar yotadi.

Ma'lumki, gender tenglik jamiyatga oid tushuncha bo'lib, uni zahirida erkaklar va ayollarning ijtimoiy vazifalarini qamrab oladi. Gender bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar tengligi hamda jamiyatda hamda shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqei, vazifalarini ifodalovchi tushuncha [3] deb ta'rif berilgan. Sotsiolog olim E.Giddens ta'rifi [5] ga ko'ra esa, "gender erkak va ayol o'rtasidagi fizik farqlar emas, balki ayollik va erkaklikning ijtimoiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatidir. Bundan kelib chiqiladiki, gender tenglik tushuncha sifatida jamiyatga kirib kelgandan buyon davlatlar miqyosidagi islohotlarning mezonlaridan biriga aylanib bormoqda. O'rganishlar natijasida, gender tengligiga erishishning 4 ta modeli kuzatiladi: Gender integratsiya modeli – ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, siyosiy, xususiy, fuqarolik jamiyati va

boshqalarni qamrab oladi. Gender tengligi tamoyilining integratsiyasi tenglik to'g'risidagi muayyan qarashlar barcha sohalarida siyosatning bir qismiga aylanishini nazarda tutadi. Gender tengligi kuch va resurslarni adolatli taqsimlanishini, shuningdek, erkaklar va ayollarning harakatlari va ehtiyojlarini teng baholashni o'z ichiga oladi.

Me'yoriy hujjatlarda va tegishli adabiyotlarda kompleks gender yondashuvni integratsiya qilish uchun davlat siyosatining barcha sohalarida gender tahlil o'tkazishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Uning maqsadi jamiyatdagi gender tafovutlar, gender nomutanosibliklar yoki gender asimmetriyasi (notengligi), ya'ni gender kamsitish darajasini aniqlashdir [4].

Hozirgi kunda gender tenglik integratsiyasini qo'llash va amaliy natijaga erishishda Markaziy Osiyoning O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari ancha yuqori natija ko'rsatmoqda. Aytish mumkinki, BMT ning 1979-yilda qabul qilgan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaga (CEDAW) dunyo davlatlarining 2/3 qismidan ko'prog'i ratifikatsiya qilganligi, ularning orasida mintaqa mamlakatlarining, xususan O'zbekistonning mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz ushbu xalqaro hujjatni 1995-yilda rasman ratifikatsiya qildi. Konvensiyaga muvofiq, ishtirokchi davlatlar Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasiga Konvensiya qoidalarining milliy darajada amalga oshirilishi to'g'risida davriy hisobotlar taqdim etish majburiyatini oladilar (18-modda). Hisobotlar davlatga mavjud vaziyatni tanqidiy baholash, majburiyatlarni oydinlashtirish va Konvensiya qoidalarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida islohotga muhtoj sohalarni aniqlash imkonini beradi [2]. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda global o'zgarishlar jarayonlari va milliy miqyosidagi ma'muriy islohotlar sharoitida nafaqat gender siyosat, balki butun milliy statistika tizimi ham takomillashtirilayotganini hisobga olish ham muhimdir. Shu tarzda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoniga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga aylantirildi. Negaki, Gender siyosatdagi tendensiyalarni hisobga olgan holda uni amalga oshirishda statistic tuzilmalarni isloh qilishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Gender tenglik va rivojlanish sohasida Markaziy Osiyoda tezlikda rivojlanib kelayotgan mamlakatlardan yana biri – bu Qozog'istondir. Mamlakatda amal qilayotgan huquqiy va siyosiy mexanizmlar xotin-qizlarning huquqlarini yanada kengaytirish va gender tenglikni ta'minlash uchun qulay muhit yaratmoqda. Xususan, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari tengligini kafolatlaydi va jinsi bo'yicha kamsitishni taqiqlaydi.

Bundan tashqari mamlakat 1998-yil BMTning “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasiga (CEDAW) qo‘shildi. Shuningdek, Qozog‘iston ham mintaqada birinchilar qatorida gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha milliy organ bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xotin-qizlar ishlari va ijtimoiy-demografik siyosat bo‘yicha komissiya tuzishga erishdi. Bundan tashqari mamlakat BMT xavfsizlik kengashining “Xotin-qizlar, dunyo va xavfsizlik” rezolyutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi Milliy harakatlar reja”sini qabul qildi.

Sohada o‘zining yakdil yo‘nalishiga ega bo‘lgan Qozog‘iston tajribasi bugun gender tenglik integratsiyasining yangi usullarini ishlab chiqish zarurligi va gender statistikasini shakllantirishda milliy tizimini takomillashtirish maqsadida boshqa mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlik faoliyatini olib borishni taqozo etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning amalga oshishi bevosita jamiyatda shakllanayotgan o‘ziga xos tendensiyalarga bog‘liq. Gender tenglikka oid ijtimoiy-siyosiy jarayon ham mamlakatlarning xalqaro maydondagi rolini ochib berayotganligi sababli, uni har tomonlama o‘rganish, islohotni amalga oshirishda milliy o‘ziga hosliklarni hisobga olish ham ahamiyatlidir. Bu borada mintaqda yetakchi mamlakatlar hozircha O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ekanligi, yana boshqa mamlakatlar xususan, Tojikiston, Turkmanistonning ham islohotlarni qamrab olib borishi kelgusida mintaqada o‘ziga xos gender tenglik tendensiyasi takomillashishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – “O‘zbekiston” – 2023.
2. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya: parlamentariylar uchun qo‘llanma. – Parlamentlararo ittifoq, 2004-yil. – 60-bet.
3. Xoliqova M., Ishanxanova G., Po‘latova Sh. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar: – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 11-13.
4. F.Xamdamova, X.Saidvaliyeva, M.Raximova, D.Sufiyeva. – Toshkent: Baktria Press, 2023. – B 12.
5. Гидденс Э. Социология. – Москва, 199. – С. 665.

МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИК – ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИДАГИ ЭНГ УСТУВОР ВАЗИФА

МУТАЛИФ ИСРОИЛОВ

ГулДУ “Тарих” кафедраси катта ўқитувчиси

Марказий Осиё жаҳон тарихий тараққиётида ўзига хос локал цивилизацияларидан бўлиб, минтақа халқлари томонидан яратилган маънавий-моддий цивилизация неъматлари нафақат туркий олам ва мусулмон шарқи, балки жаҳон тарихий тараққиётида беқиёс катта аҳамиятга эга. Минтақа Шарқ ва Ғарб тарихий ришталарининг ҳам асосий маркази сифатида кун тартибидан тушмаган. Марказий Осиё барча – геосиёсий, геостратегик ва геоиқтисодий кўрсаткичларга кўра бир қатор афзалликларга эга бўлиб, Марказий Осиёнинг янги мустақил давлатларида таъсир учун кураш айни шу ҳол билан боғлиқдир. Минтақа атлантистик ва континенталистик давлатлар ўртасида ўзига хос тўсиқ вазифасини бажаради. Бугунги кунда Марказий Осиё ўзининг муҳим геостратегик ўрни, бой табиий, энергетика ва минерал хом ашё ресурслари, ишлаб чиқариш ва илмий-техникавий имкониятларига кўра халқаро сиёсатда тобора муҳимроқ рол ўйнамоқда.

XXI аср бўсағасида юз берган геосиёсий ўзгаришлар кучларнинг халқаро балансида ва цивилизациялар ўртасидаги алоқаларда Марказий Осиё муҳим рол ўйнашини яна бир қарра тасдиқлади. [1].

Бу республикаларда юз бераётган ҳодисалар жаҳондаги энг йирик давлатлар турли жўғрофий-сиёсий тузилмаларнинг манфаатларига бевосита дахлдордир. Минтақада мутлақо янги геостратегик вазият юзага келди. Ўтган аср мезонлари, таърифлари ва сиёсий хариталари бугунги Марказий Осиёни тушуниш ва унинг муаммоларини англаш учун тўғри келмай қолди. Минтақага янгича, янада кенгроқ ёндашувсиз у дуч келган жиддий муаммоларнинг тўғри ечимини топиш мумкин эмас.

Минтақани маданий, этнолингвистик, геосиёсий ва геоиқтисодий тенденциялар, шунингдек хавфсизлик муаммолари мажмуи нуқтаи назаридан англаш, муқаррор тарзда Марказий Осиё фақатгина Собиқ СССРнинг беш республикасида иборат эмас, деган хулосага олиб келади. Афғонистон ҳамда Хитойнинг ғарбий ҳудудлари ҳам узвий равишда минтақанинг таркибий қисмларидир.

Бугунги кунда мазкур минтақани фақат география, иқлим, умумий тарихий ва цивилизацион илдизларгина бирлаштирмайди. Минтақа

мамлакатлари қарши турган хавф-хатарлар ва муаммолар ҳам умумийдир. Уларнинг келиб чиқиши ва хусусияти Марказий Осиёнинг барча мамлакатлари айнан шу композицияда бирга иш олиб боришини ва ҳамкорликни институциявийлаштиришни тақозо этади. Бундан минтақадаги бир давлатнинг четда туриши ҳам барча ҳаракатларни йўққа чиқариши мумкин. Худди шунингдек, минтақа давлатлари яқин, институциявийлаштирилган ҳамкорлик қилган тақдирдагина минтақанинг стратегик имтиёз ва афзалликларидан тўлақонли ва кенг қамровли равишда фойдаланиш учун имконият яратиши мумкин.

Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, Марказий Осиёнинг геосиёсий аҳамияти минтақанинг ўз салоҳияти билан эмас, балки асосан бошқа, чиндан ҳам муҳим минтақаларга яқинлиги билан белгиланади. [2].

Минтақанинг геосиёсий мавқеи қуйидаги омиллар билан белгиланади: Марказий Осиёнинг геосиёсий мавқеи, аввало, унинг иқтисодий имкониятлари билан белгиланади. Бу борада энг манфаатли ҳамкорлар билан иш олиб бориш муҳимлигини таъкидлаб, минтақада етакчи давлатлар манфаатларининг шиддат билан шаклланиб бораётганлигини инобатга олиш зарур.

Минтақанинг табиий бойликлари, бозорлари, интеллектуал салоҳияти ва арзон ишчи кучи устидан ўз таъсирини ўрнатиш учун қудратли давлатлар ўртасида шиддатли рақобат бормоқда. Рақобат ҳатто “юмшоқ куч стратегиясининг” асосий унсури бўлган мафкуравий жабҳаларда ҳам бормоқда. Мазкур жабҳада рақобатлашаётган томонларнинг асосий мақсадларига ташхис қўйиш биров қийин бўлади.

Минтақа учун асосан АҚШ, Россия, Хитой, ЕИ, Туркия, Эрон, Ҳиндистон, Покистон, Саудия Арабистони, Япония, Жанубий Корея рақобатлашмоқда. Россия, Хитой, Эрон, Туркия, Ҳиндистон, Покистон Марказий Осиё давлатлари учун ЕвроОсиё ва Тинч океанига чиқиш имконини берувчи стратегик минтақалар ҳисобланади. АҚШ, Хитой, Япония, Жанубий Корея ва Европа Иттифоқи нафақат сармоя ва замонавий технологиялар киритувчи балки, бундан олдин тилга олинган давлатлар каби стратегик ҳамкорлар ҳам ҳисобланади. Айнан юқорида қайд этилган ички ва ташқи омиллар минтақа давлатлари ташқи сиёсатига ҳал қилувчи таъсир кўрсатади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев давлат раҳбари сифатидаги фаолиятининг илк кунларидан Марказий Осиё давлатлари билан амалий, ўзаро манфаатли ва яхши қўшнилик муносабатларини шакллантириш, минтақада хавфсизликни таъминлашни

ташқи сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида белгилади. Марказий Осиёда жўғрофий-сиёсий жиҳатдан марказий ўрин тутган Ўзбекистон кучлар тенглиги ва мувозанатини таъминлаш, стратегик муҳим бўлган ушбу минтақада ҳамкорликка мустаҳкам замин яратиш жараёнида сезиларли рол ўйнаш учун ҳамма имкониятларга эга.

Марказий Осиё хавфсизлигини халқаро ҳуқуқий асосини шакллантиришнинг мунозарасиз элементи бу минтақавий ёндашишдир. Минтақавий хавфсизлиқнинг институционаллашувида халқаро ҳуқуқий муаммолар муҳим ўринни эгаллайди. Марказий Осиёни осойишталик, барқарор тараққиёт ҳамда яхши қўшничилик ҳудудига айлантириш Юртбошимиз томонидан Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган. Бу 2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам ўз ифодасини топган. Чунончи, ушбу дастуриламал ҳужжатда Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик, аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш яқин истиқболдаги устувор вазифа сифатида мустаҳкамланган. Бу нафақат Ўзбекистон балки минтақавий хавфсизликни таъминлашда ўзига хос янги прагматик ёндашувлар даври бошланганлигини ҳам билдиради.

Президент Ш. Мирзиёев бошчилигида мамлакатимиз ташқи сиёсатнинг устувор йўналиши саналган яқин қўшниларга нисбатана очиқ ва конструктив сиёсат олиб бориш, минтақадаги муаммоларни тенглик, ўзаро манфаатларни ҳурмат қилиш, ҳамда оқилона келишув асосида ҳал этишга қаратилган ишлар амалга оширилди. Сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, чегараларни делимитация ва демаркация қилиш, чегара олди ҳудудларида савдони ривожлантириш каби мураккаб масалалар бўйича ўзаро манфаатли ечимлар топилди. Натижада 2018 йилда қўшни давлатлар билан савдо айланмаси 50 фоиздан зиёд ўсди. 2018 йилда Ўзбекистоннинг 10 та муҳим халқаро ташаббуси амалга оширилди. [3].

Булардан хавфсизлик ва барқарор тараққиёт масалалари бўйича асосийлари қуйдагилар:

1. 2018 йил 22 июнда БМТ Бош Ассамблеясининг “Марказий Осиё минтақасида тинчлик, барқарорлик ва изчил тараққиётни таъминлаш бўйича минтақавий ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш ” бўйича резолюцияси.

2. 2018 йил 9 июнда Циндаода ШХТнинг навбатдаги саммитида Президент Ш. Мирзиёев таклифига мувофиқ ШХТга аъзо давлат

раҳбарларининг Ёшларга Қўшма мурожати ва уни амалга ошириш бўйича Ҳаракатлар дастури қабул қилинди.

3. 2018 йил 27 ноябр Президент Ш. Мирзиёев ташаббуси билан минтақа экологик хавфсизлигига энг катта таҳдид саналган Орол бўйидаги вазиятни яхшилаш мақсадида БМТнинг Оролбўй минтақаси учун Инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама траст фонди фаолияти йўлга қўйилди.

4. 2018 йил 12 декабрь БМТ Бош Ассамблесининг ялпи сессиясида “Маърифат ва диний бағрикенглик” резолюцияси қабул қилинди.

Бундан ташқари Ўзбекистон раҳбариятининг 2018 йил 26-27 март кунлари Тошкентда БМТ шафелигида “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида Афғонистон бўйича халқаро конференциянинг ташкил этилиши, унинг якунлари бўйича “Тошкент декларацияси”нинг қабул қилиниши умумбашарий аҳамият касб этади. Декларация БМТ БОШ Ассамблесининг 72 сессиясида Афғонистон ва Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш нинг расмий ҳужжати сифатида тасдиқланди.

Юртбошимизнинг қўшни мамлакатларга амалга оширган давлат ва амалий ташрифлари давомида, шунингдек, турли халқаро саммитлар доирасида қўшни мамлакатлар раҳбарлари билан мунтазам равишда ўтказиб келаётган мулоқотлари самараси ўлароқ, ўтган қисқа вақт мобайнида Марказий Осиёда принципиал жиҳатдан мутлақо янги сиёсий муҳит яратилди. Стратегик шерик давлатлар сафи кенгайди.

Ўзбекистон минтақа мамлакатлари билан энг нозик масалалар ечимида, айниқса, давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш борасида прагматик ёндашиб, тарихий келишувларга эришмоқда. Ўзбекистон ва Марказий Осиё мамлакатлари ўртасида давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш масалалари бўйича улкан келишувларга эришилди.

Авваллари Марказий Осиё мамлакатлари қудратли давлатларнинг объектлари сифатида, ички иттифоқлар, дейлик, ЕвроОсиё иқтисодий Ҳамжамияти ёки Шанхай ҳамкорлик ташкилоти доирасидагина учрашар эдилар. Эндиликда Марказий Осиё давлатларининг ҳамжиҳатлиги янги, назоратчидан холи бўлган даражага кўтарилди.

Мамлакатимиз раҳбари 2017 йил сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 72-й сессиясида минтақада хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш бўйича Марказий Осиё мамлакатларининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш борасида қуйидаги муҳим ташаббусларни таклиф қилди:

1) Мунтазам равишда Марказий Осиё давлат раҳбарларининг маслаҳат учрашувларини ўтказиш.

2) Умумминтақавий муаммоларни ҳамкорликда ҳал этиш чораларини қидиришга бўлган бугунги эҳтиёж шароитида мунтазам фаолият юритадиган минтақавий ҳамкорлик маркази фаолиятини такомиллаштириш.

3) БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш ҳамда БМТ Бош Ассамблеясининг “Маърифат ва диний бағрикенглик” деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиш. Таҳлиллар шуни кўрсатдики, халқаро терроризм ва экстремизм илдизини бошқа омиллар билан бирга жаҳолат ва мурасасизлик ташкил этади. Шу муносабат билан одамлар, биринчи навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ҳамда бутун жаҳон жамоатчилигига Ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини етказиш энг муҳим вазифадир. Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси ШХТга аъзо мамлакатлар томонидан қўллаб-қувватланди.

Марказий Осиё давлатлари халқаро нуфузининг ошиб бораётганлиги минтақада шаклланаётган янгича фаол ва прагматик узоқни кўрувчи дипломатик муҳит натижаси бўлди. Буни минтақа билан боғлиқ бўлган халқаро форматларда ҳам кўришимиз мумкин. «Марказий Осиё – АҚШ», «Марказий Осиё – Европа иттифоқи», «Марказий Осиё – Корея Республикаси», «Марказий Осиё – Япония» каби мулоқот форматлари қаторига охирги йилларда «Марказий Осиё – Ҳиндистон», «Марказий Осиё – Хитой» ва «Марказий Осиё – Россия Федерацияси» сингари янги форматлар қўшилди.

Мазкур ҳолат, биринчидан, минтақадаги ижобий ўзгаришлар натижасида юзага келган мутлақо янги муҳит дунёнинг етакчи давлатлари томонидан Марказий Осиёга нисбатан эътиборнинг ошганини кўрсатса, иккинчидан, чет эл давлатлари минтақа мамлакатлари билан нафақат икки томонлама ҳамкорлик доирасида, балки ягона минтақавий кўп томонлама муносабатларни ривожлантиришга аҳамият қаратаётганидан далолатдир. Шу билан бирга, минтақа ҳамда бошқа давлат ва халқаро институтлар ўртасида янги форматларнинг тузилиши бу, Марказий Осиёнинг геосиёсий ва иқтисодий аҳамияти ошиб боришига, шунингдек минтақага халқаро муносабатлардаги яхлит сиёсий-дипломатик субъект сифатида қаралишига олиб келмоқда [4].

Умуман олганда, кейинги йилларда Марказий осиеда юзага келган қуйдаги илғор интеграцион жараёнларда Ўзбекистоннинг ташаббуслари юксак эътирофга лойиқ.

Булар :

➤ Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари билан икки томонлама ва минтақавий алоқаларни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш;

➤ Минтақа давлатлари ўртасида олий ва юқори даражада ўзаро ташрифларни сифат жиҳатдан юқори босқичга кўтарилиши;

➤ “Халқ дипломатияси” механизмларидан самарали фойдаланиш;

➤ яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш йўлидаги мавжуд тўсиқларни биргаликда ҳал этиш;

➤ савдо иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ва товар айирбошлаш ҳажмининг ўсиши ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш учун қулай шароитлар яратиш;

➤ минтақанинг транзит ва логистика салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва транспорт инфратузилмаси ривожланишини таъминлаш;

➤ Марказий Осиё мамлакатларининг минтақалари (шу жумладан, чегара ҳудудлари) ўртасидаги ҳамкорликнинг янада мустаҳкамланиши. [5].

Хорижий экспертларнинг таъкидлашича, Ўзбекистон Республикасининг прагматик ва конструктив сиёсати самарасида минтақада жуда қисқа вақт ичида янгича сиёсий реаллик шаклланди. Марказий Осиё мамлакатлари ўртасидаги давлатлараро муносабатлар манфаатларни ўзаро ҳисобга олиш ва ҳурмат қилиш, икки томонлама очиқлик ва сиёсий ишонч сингари хусусиятларнинг тобора мустаҳкамланиши билан ҳам аҳамиятлидир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Алимов Р.М. Центральная Азия: геοэкономика, геополитика, безопасность. – Т.: Шарқ, 2002, 23-б.

2. Сафоев С. Марказий Осиёда геосиёсат. Т.ЖИДУ. 2005, 13-б.

3. Файзиев О. Ўзбекистон дунёга ўз сўзини айтмоқда. Халқ сўзи. 2019, 1-январь, № 1.

4. Туляков Э., Ҳакимов Ф. Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик-Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши. Ўзбекистон Стратегияси №04(2020) / ISSN 2181-2535 Журнал уй варақаси <https://journal.strategy.uz>.

5. Саидов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonning-tash-i-siyosati-asosiy-ustuvor-y-nalishlar-va-erishilgan-natizhalar/viewer>.



UKRAINADAGI URUSHDAN MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI FOYDALANA OLDIMI?

SARDOR ALI NURMATOV

Jurnal

Annotatsiya. AQSH prezidenti Donald Trampning Ukraina urushiga barham berish borasidagi qadamlari va Rossiya bilan munosabatlarni bosqichma-bosqich normallashtirishga intilishi – Markaziy Osiyo respublikalari uchun yangi geosiyosiy reallikni shakllantirmoqda. Boz ustiga, Amerika va Xitoy o'rtasida qaytalangan savdo urush mintaqa mamlakatlari ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Tabiiyki, savol tug'iladi: urush fonida mintaqa davlatlari o'zaro hamkorlikni kuchaytirish uchun nimalarga qo'l urdi? Mazkur maqolada shu haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, Rossiya, AQSH, Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, geosiyosat, geoiqtisod, integratsiya.*

Abstract. U.S. President Donald Trump's steps toward ending the war in Ukraine and his efforts to gradually normalize relations with Russia are shaping a new geopolitical reality for the Central Asian republics. Moreover, the ongoing trade war between the United States and China is inevitably affecting the countries of the region. Naturally, the question arises: what measures have the states in the region taken to strengthen mutual cooperation amid the backdrop of war? This article explores these developments.

Keywords: *Central Asia, Russia, USA, China, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, geopolitics, geoeconomics, integration.*

Kirish

Ukrainadagi urush Rossiyaning qudratli kuch sifatidagi imijiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va Markaziy Osiyo mamlakatlari (*O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston*)ni Moskva bilan aloqalarni qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.

Mintaqa davlatlari Rossiya boshchilik qiladigan iqtisodiy (*Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi – YOII*) va harbiy (*Kollektiv xavfsizlik shartnomasi – KXSHT*) institutlar orqali Kreml bilan hamkorlik rishtalarini bog'lagan edi [1]. Ammo Ukraina urushining bir necha yillarga cho'zilishi va G'arb mamlakatlari tomonidan Rossiyaga nisbatan qo'llanilgan xalqaro sanksiyalar – Moskvaning YOII va KXSHT kabi institutlar orqali Markaziy Osiyo respublikalariga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini pasaytirdi.

Urush fonida Markaziy Osiyo atrofidagi xavfsizlik va iqtisodiy muvozanat darz ketdi. Mintaqa davlatlari vujudga kelgan bo'shliqni boshqa kuch markazlari hisobiga qoplashni boshladi. Buni Turkiya, Ozarbayjon va arab davlatlari bilan faol munosabatlarda ko'rishimiz mumkin [2].

2025-yil 29-yanvar kuni Anqara shahrida O'zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon tashqi ishlar, savdo, iqtisodiyot va transport vazirlarining ikkinchi uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi [3]. Uchrashuv yakunida "Anqara deklaratsiyasi" imzolangandi. Bu deklaratsiyada uch davlatning bir-birining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va chegaralarining daxlsizligini qat'iy qo'llab-quvvatlashi yozilgan.

Shu bilan birga, Ukraina urushi Markaziy Osiyo jamoatchilik fikrini ancha o'zgartirdi. Buni o'tkazilgan so'rovnomalarda yaqqol ko'rish mumkin: Markaziy Osiyo Barometri so'rovlariga ko'ra, Rossiyaning harakatlarini qoralash kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda [4]. Masalan, 2024-yilda Qozog'istonda respondentlarning 58 foizi ushbu bosqinni asossiz deb hisoblagan.

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent Muxtor Nazirov "Daryo" internet nashriga bergan intervyusida ushbu holatni quyidagicha sharhlagan:

Urush fonida Markaziy Osiyo respublikalarida milliy o'zlik bilan bog'liq bir qancha o'zgarishlar kuzatildi. Masalan, O'zbekiston va Qozog'istonda Stalin qatag'oni bo'yicha maxfiy arxiv hujjatlar ochish va ularni o'rganish harakati faollashdi. Bu Rossiyaning hozirgi hukumatiga obro' qo'shadigan holat emas. Bundan tashqari, Qozog'istonda lotin alifbosiga o'tish bo'yicha qat'iy strategiya belgilab olindi. Bu qadamlar ma'lum ma'noda Rossiyadan masofa saqlashga intilishni ifodalaydi [5].

Mintaqaga qo'shni yana bir global kuch markazi Xitoy Rossiyaning Ukraina urushi bilan chalg'ishi natijasida – Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini yanada chuqurlashtirdi. 2023-yil 18–19-may kunlari Xitoyning Sian shahrida mintaqaning barcha besh yetakchisi ishtirok etgan "Xitoy – Markaziy Osiyo" sammiti Pekin mintaqaviy diplomatiyasida burilish nuqtasi bo'ldi [6].

2024-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo aylanmasi 24 foizga o'sib, 80 milliard dollardan oshdi va Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li kabi infratuzilma loyihalari Rossiyaning e'tirozlariga qaramay olg'a siljishda davom etmoqda.

2024-yil dekabr oyida e'lon qilingan Yevrosiyo taraqqiyot bankining (YeATB) yangi tadqiqoti "YeATB o'zaro investitsiyalar monitoringi – 2024. Yevrosiyo mintaqasi" hisobotida qayd etilishicha, bir yarim yil ichida Yevrosiyo mamlakatlari tomonidan Xitoydan ishlab chiqarish sohasiga jalb qilingan

investitsiyalar 8 foizga o'sib, 11,8 milliard dollarga yetgan. Uning 97 foizi Markaziy Osiyoga, jumladan, O'zbekistondagi avtomobil zavodi va Qozog'istondagi keramik granit zavodiga yo'naltirilgan [7].

Xitoy tomonidan elektr energiyasi sohasiga kiritilgan investitsiyalar bir yarim yil ichida 2,1 barobar oshib, 4,1 milliard dollarni tashkil etgan. Shundan 85 foizi O'zbekistonga (quyosh va gidroelektr stansiyalari) yo'naltirilgan [8].

Urushdan oldingi yillarda va bugungi kunda Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston iqtisodiy taqdiri Rossiyadan keladigan muhojirlar tomonidan yuboriladigan pul o'tkazmalariga bog'lanib qolgani hech kimga sir emas.

2023-yildagi hisob-kitoblarga ko'ra, tojikistonlik va qirg'izistonlik mehnat muhojirlarining 80 foizdan ortig'i Rossiyada. O'zbekistonlik muhojirlar oqimi ko'proq diversifikatsiyalangan: 57 foizi Rossiyada, 15 foizi Qozog'istonda va 10 foizi yana boshqa davlatlarda.

2024-yil holatiga ko'ra, mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalari Tojikiston yalpi ichki mahsuloti (YIM)ning 45 foizini, Qirg'izistonda 24 foizini, O'zbekistonda esa 14 foizini tashkil qilgan [9]. Bu o'z navbatida Moskva qo'lidagi muhim ta'sir dastagi bo'lib, Rossiya bundan mintaqa davlatlariga bosim o'tkazish uchun doim foydalanib kelgan.

Urushdan keyingi demografik o'zgarishlar, jumladan, Rossiya aholisining 2030-yilga borib 132 millionga kamayishi bo'yicha prognozlar, rus jamiyatidagi postkonflikt hayot tarzi Markaziy Osiyolik muhojirlar taqdiriga tahdid solmoqda.

Markaziy Osiyo aholisining 60 foizi 30 yoshgacha bo'lganligi sababli, yangi ish o'rinlari yaratish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Bunga Markaziy Osiyo hukumatlari ikki tomonlama strategiyalar – Yevropa davlatlari, Turkiya va Fors ko'rfazi davlatlari bilan ikki tomonlama mehnat shartnomalari bo'yicha muzokaralar olib borish va shu bilan birga maxsus iqtisodiy zonalar orqali mahalliy ish o'rinlarini yaratishga sarmoya kiritish – bilan javob berishmoqda.

Yevrosiyo taraqqiyot banki (EDB) ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy, Turkiya, Eron va Fors ko'rfazi davlatlaridan Yevrosiyo mintaqasi mamlakatlariga kiritgan investitsiyalar hajmi 2024-yilning birinchi yarmi yakuniga ko'ra 90,4 milliard dollarga yetgan va bu 2023-yilga nisbatan 6,4 foizga o'sgan [10].

Qizig'i, Yevrosiyo mintaqasiga Xitoy, Turkiya, Eron va Fors ko'rfazi davlatlaridan kiritilayotgan sarmoyalarning 51 foizi Markaziy Osiyo davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bir yarim yil davomida ushbu investitsiyalar hajmi 25 foizga oshib, 46,2 milliard dollarini tashkil qilgan [11]. Jumladan:

- Turkmaniston (17,5 mlrd. dollar, 12,5 foiz);
- Qozog'iston (15,5 mlrd. dollar, 11,1%);
- O'zbekiston (8,8 mlrd dollar, 6,3%);

Ukraina urushi davom etar ekan Yevropa Ittifoqi (YI) va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashib, siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik kabi turli sohalarni qamrab oldi.

2023-yil oktabr oyida Lyuksemburgda bo'lib o'tgan 19-vazirlik uchrashuvi yakunida YI va Markaziy Osiyo davlatlari 79 ta chora-tadbirdan iborat qo'shma yo'l xaritasini tasdiqladi [12]. Ushbu yo'l xaritasi beshta asosiy yo'nalishda hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, 2022 va 2023-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari va Yevropa kengashi raisi ishtirokida ikki marta sammit o'tkazildi [13]. Bu tomonlarning strategik sheriklikni mustahkamlashga intilayotganini ko'rsatadi.

2022-yilda YI Qozog'iston bilan, 2024-yilda esa O'zbekiston bilan strategik hamkorlik bo'yicha kelishuvlar imzoladi [14]. Ushbu kelishuvlar muhim xomashyolarni barqaror yetkazib berish zanjirlarini yaratish va sanoat rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ya'ni Markaziy Osiyo davlatlari YI bilan hamkorlikni strategik ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblab, savdo hajmini oshirish va Yevropa investitsiyalarini jalb qilish orqali mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishga harakat qilmoqda.

Shuningdek, 2025-yil 3-4-aprel kunlari O'zbekistonda "Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo" uchinchi sammiti o'tkazildi. Unda Yevropa kengashi prezidenti Antonio Kosta va Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Leyen ishtirok etdi.

Urush natijasida Shimoliy koridor savdo yo'llarining uzilishi muqobil infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni tezlashtirdi:

— O'rta yo'lak (Trans-Kaspiy): 2024-yilda yuk tashish hajmi uch baravar ko'payib, 1,2 million hajmga yetdi, OTB mablag'lari hisobidan Aqtau va Bokudagi portlarni modernizatsiya qilish.

— Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridorini kengaytirish (CPEC): 2024 yilda Qirg'izistonning CPECga qo'shilishi Gvadar portiga temir yo'l orqali kirishni ta'minlaydi, Rossiya tranzitiga qaramlikni kamaytiradi.

— Muqobil yo'nalishlar: Hindiston-Eronning Chabahor-Zahidan temir yo'li bo'yicha hamkorligi Turkmaniston va O'zbekistonga Afg'onistonni aylanib o'tib Hind okeaniga chiqish imkonini beradi.

Yaqin o'tmishgacha Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi suv resurslarini taqsimlash masalasi mintaqaning eng murakkab geosiyosiy muammolaridan biri hisoblanar edi. Misol uchun, mantiqdagi birinchi davlatlararo mojaro, 2021-

2022-yillardagi Qirg'iziston-Tojikiston chegarasidagi to'qnashuvlarga aynan suv va o'zlik masalasi sabab bo'lgan edi [15].

Biroq so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarini boshqarish bo'yicha hamkorlikni faollashtirdi, bir qancha ikki tomonlama shartnomalar imzolandi. Oxirgi uch yil ichida daryo suv resurslarini birgalikda boshqarishga qaratilgan to'rtta yangi shartnoma imzolangan [16].

Kelgusi o'n yillik Markaziy Osiyo global jarayonlarning periferiyasidan mustahkam suverenitetga ega o'rta darajaga chiqishi uchun hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Albatta, agar mintaqa yetakchilari ichki islohotlarni tashqi muvozanat bilan uyg'unlashtira olishiga ham ko'p narsa bog'liq. Urushdan keyingi davrda Markaziy Osiyoning eng katta muammosi – *Rossiyaning xatti-harakatlari xavotir Markaziy Osiyo davlatlarini ma'lum ma'noda birlashtirdi*. Sharq va G'arb o'rtasida tanlov qilish emas, balki strategik ikkilanishlar doirasidan chiqadigan barqaror yo'lni aniqlashdir.

Xulosa

Bir vaqtlar amerikalik siyosatshunos Zbigniew Brzezinski Markaziy Osiyo "Yevrosiyo bolqonlari" deb atagan edi. Ya'ni bu hududda chegara masalasida bir uchqun chiqsa, alanga olib ketish mumkin. Lekin oxirgi vaqtlarda mintaqada davlatlari o'rtasida chegara muammolariga barham berilayotgani, davlatlarning tashqi bosimlarga nisbatan bardoshini oshiradi.

Bundan tashqari, suv-energiya resurslarini o'zaro kelishgan holda taqsimlash borasida mintaqada mamlakatlarning bir-birini tushunish darajasi ancha oshdi. Hozir Markaziy Osiyo davlatlari orasida deyarli suv nizolari yo'q. Aksincha, O'zbekiston Qozog'iston va Qirg'izistonning "Qambarota GES-1" stansiyasini qurilishida investor sifatida qo'shildi. Bularning barchasi Ukraina urushida fonida yuz berdi. Rossiyaning xatti-harakatlari xavotir Markaziy Osiyo davlatlarini ma'lum ma'noda birlashtirdi deyish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzahatamov R.Sh. "Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro tashkilotlar va yirik davlatlar bilan hamkorligi" — URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/4902/4043>, 2024
2. "Urushda qatnashgan emas, qatnashmagan yutadi". Ukraina inqirozi Markaziy Osiyo davlatlariga qanday ta'sir ko'rsatdi? URL: <https://daryo.uz/2025/03/19?/>, 2025.
3. O'zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon o'rtasida Anqara deklaratsiyasi imzolandi. <https://daryo.uz/2025/01/30/>, 2025.
4. <https://centralasiabarometer.org/>

5. “Urushda qatnashgan emas, qatnashmagan yutadi”. Ukraina inqirozi Markaziy Osiyo davlatlariga qanday ta’sir ko’rsatdi? URL: <https://daryo.uz/2025/03/19?/>, 2025.

6. 18–19-may kunlari Sian shahrida “Xitoy-Markaziy Osiyo” sammiti bo’lib o’tadi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/16/>, 2023.

7. Мониторинг ЕАБР: Накопленные прямые инвестиции Китая, Турции и стран Залива в Евразийский регион достигли 87 млрд долларов. URL: <https://eabr.org/press/releases/>, 2025.

8. Накопленные прямые инвестиции Китая, Турции и стран Залива в Евразийский регион достигли \$87 млрд. URL: <https://www.finversia.ru/news/markets/>, 2025.

9. Migrantlar pul yubormasa, O‘zbekistonda kambag‘allik keskin oshadi — Jahon banki. URL: <https://daryo.uz/2025/03/10/>, 2025.

10. Мониторинг ЕАБР: Накопленные прямые инвестиции Китая, Турции и стран Залива в Евразийский регион достигли 87 млрд долларов. URL: <https://eabr.org/press/releases/>, 2025.

11. Накопленные прямые инвестиции Китая, Турции и стран Залива в Евразийский регион достигли \$87 млрд. URL: <https://www.finversia.ru/news/markets/>, 2025.

12. ЕС и страны Центральной Азии договорились углублять отношения. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2023/10/24/>, 2023.

13. Политика Европейского Союза в Центральной Азии. URL: <https://cronos.asia/politika/>, 2025.

14. Европа-Центральная Азия: три сценария взаимодействия. URL: <https://exclusive.kz/>, 2024.

15. Qirg‘iziston va Tojikiston chegarasidagi nizo. Asosiy ma’lumotlar. URL: <https://daryo.uz/2021/04/29/>, 2021.

16. Центральная Азия расширяет сотрудничество по устойчивому использованию общих рек. URL: <https://avesta.tj/2025/02/24/>, 2025.



ПРОГНОЗЫ ИЗМЕНЕНИЯ ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

БЕКТЕМИР КУДРАТОВ

*базовый докторант в Координационно
-методическом центре по вопросам новейшей истории
Узбекистана при Академии наук РУз*

Центральная Азия — это регион, расположенный на стыке Востока и Запада, который обладает уникальным геостратегическим положением. В эпоху перемен мировой системы Центральная Азия постепенно превращается в пространство, где сталкиваются интересы различных участников международных отношений. Богатые природные ресурсы, значительный транспортно-логистический потенциал и выгодное географическое положение делают этот регион привлекательным для многих. Изменение геополитической ситуации может существенно повлиять не только на внутреннее развитие стран Центральной Азии, но и на глобальные процессы.

Центральная Азия в XXI веке становится ареной активной геополитической конкуренции между глобальными и региональными акторами. Регион обладает стратегическим положением между Россией, Китаем, Ираном, Афганистаном и Южной Азией, а также богатыми природными ресурсами (нефть, газ, уран, редкоземельные металлы).

Изменение мирового порядка, связанное с перераспределением влияния между США, Китаем и Россией, а также последствия конфликта в Украине, вывод войск НАТО из Афганистана и развитие китайской инициативы «Один пояс — один путь» (BRI), создают новые вызовы и возможности для стран региона. В условиях трансформации мировой геополитики вопрос устойчивости и суверенитета государств Центральной Азии приобретает особую значимость.

Центральная Азия в силу своего географического расположения, богатых природных ресурсов и признанной культурно-цивилизационной роли является одним из редких регионов мира, к которому приковано столь широкое внимание внешних сил. Действительно, «в очень небольшом регионе одновременно сконцентрированы и взаимоувязаны в сложный комплекс интересы крупнейших мировых игроков – ключевых глобальных ньюсмейкеров – России и КНР, США и ЕС, Японии и Южной Кореи, Ирана и Турции. Многие из них утвердили свои стратегии в отношении небольшого

региона в центре Евразии». К данной группе государств-акторов, определенных казахстанскими авторами, будет справедливо добавить Индию и государства мусульманского пояса. [5; с.214]

Так, Китай все больше усиливает свое присутствие в данном регионе. Реализуя инициативу «Один пояс — один путь», Китай активно инвестирует в транспортную инфраструктуру, энергетические и промышленные объекты. Его влияние растёт как экономически, так и политически. Вместе с тем, усиливается обеспокоенность зависимостью стран региона от китайских кредитов и политических обязательств.

Озабоченности касательно китайского присутствия в Центральной Азии не новы. На протяжении столетий Китай влиял на регионе через форпосты на Шелковом пути и коммерческие интересы, порождавшиеся торговлей между ним и соседними странами. После распада Советского Союза Китай быстро признал суверенитет центральноазиатских стран, но отношения развивались довольно медленно – с одной стороны, из-за того, что экономический потенциал стран Центральной Азии был достаточно низким, а китайское руководство недооценивало свои потребности в углеводородах; с другой стороны, потому что Пекин не сразу осознал масштабы интересов Запада в регионе. [4]

Все изменилось по мере того, как экономический рост в Центральной Азии ускорился, а влияние США стало расти на фоне глобальной войны с террором. Сотрудничество Китая и стран Центральной Азии не сконцентрировано на вопросах безопасности – экономические темы играют доминирующую роль. Для него первостепенное значение имеет Туркменистан, а не Казахстан: китайские компании вложили значительные средства в туркменскую газовую промышленность как раз в то время, когда туркмено-российские отношения начали ухудшаться из-за того, что Москва рассматривала Туркменистан как газового конкурента. В отличие от России, концентрировавшейся на интеграционных проектах, Китай предпочитал двустороннее сотрудничество – прежде всего государственные контракты в сфере инфраструктуры и транспорта. Китай предпочел новую экспансионистскую стратегию, заявленную в знаковой речи председателя Си «Один пояс, один путь» в 2013 году в Назарбаев университете в Астане. [11]

В свою очередь, **Россия** традиционно рассматривается как доминирующая сила в регионе, особенно в вопросах безопасности. Однако военный конфликт на Украине, западные санкции и экономические

трудности привели к ослаблению ее позиций. Несмотря на это, влияние России сохраняется через ОДКБ, ЕАЭС и культурно-языковое пространство.

Следует также отметить, что Россия важна для стран Центральной Азии потому, что на протяжении многих лет является главной военно-политической силой в регионе. Российские военные имеют несколько баз и объектов в Таджикистане, где с первых дней независимости дислоцируется 201-я мотострелковая дивизия[12] (преобразованная в 2004 году в 201-ю военную базу); в 2012-м российское правительство подписало договор с Кыргызстаном о преобразовании авиабазы в Канте в «объединённую военную базу» вместе с другими полками и службами на 15 лет, причем данный срок может быть продлен.[2] Российские военные внимательно следили за беспорядками в Кыргызстане в 2010 году, но не вмешивались, так как не получили соответствующего запроса от правительства страны. Когда же в январе 2022 года власть в Казахстане столкнулась с серьёзным вызовом со стороны участников охвативших многие города беспорядков, военные из всех стран-участниц Организации Договора о коллективной безопасности были немедленно отправлены в страну. Солдаты и офицеры воздерживались от прямых столкновений с вооружёнными протестующими, однако и без их прямого участия в борьбе с бунтовщиками данная акция стала заметным проявлением силы ОДКБ и мощной демонстрацией продолжающегося присутствия России в регионе. [3; с. 15]

Что касается **ЕС и США**, то указанные акторы ищут возможности для установления новых экономических связей, особенно в энергетике.

США традиционно рассматривают Центральную Азию с позиции глобального целеполагания и в качестве единого международного актора.

В обнародованной в октябре 2022 г. новой Стратегии национальной безопасности США Центральная Азия упомянута в главе «Углубление нашего союза с Европой». В документе отмечается, что в Евразии «мы продолжим поддерживать независимость, суверенитет и территориальную целостность Центральной Азии. Мы будем содействовать усилиям по укреплению устойчивости и демократического развития пяти стран этого региона. Мы продолжим работу в рамках дипломатической платформы «C5+1» (Казахстан, Кыргызская Республика, Таджикистан, Туркменистан, Узбекистан и Соединенные Штаты) по вопросам климатической адаптации, развития региональной энергетики и продовольственной безопасности, укрепления интеграции в регионе и ее большей взаимосвязанности с глобальными рынками». [10]

Заки Валидийнинг ислом маданиятига оид қарашлари Марказий Осиёдаги маданиятлараро интеграциянинг яна бир муҳим қисми ҳисобланади. Валидий, исломий таълим ва маданиятнинг тараққиётига эътибор қаратган ҳолда, ўзига хос қарашларни илгари сурган. Унинг фикрича, ислом маданияти Марказий Осиёдаги маданиятлар орасидаги ўзаро алоқаларни ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаган.

Валидийнинг замонавий таълимга бўлган муносабати, унинг Марказий Осиё халқларига ишора қилган ривож ва модернизация концепциясини англатади. Унинг ўзига хос фалсафий ва тарихи қарашлари Марказий Осиёдаги исломий маданият ва илм-фаннинг ривожини ва уларнинг умумий юксалишига таъсир кўрсатди.

Заки Валидий, Марказий Осиёдаги маданиятлараро алоқаларнинг тараққиётига асосий ҳиссасини қўшган. Унинг тадқиқотлари ва асарлари, турк, ўзбек ва бошқа Марказий Осиё халқларининг маданий, ижтимоий ва сиёсий интеграциясини мустаҳкамлашга қаратилган эди. Валидий ўз асарларида, маданиятларнинг ўзаро таъсири ва уларнинг бирлашиш жараёнини аниқлашда муҳим илмий тадқиқот ишларини бажарган.

Унинг асарлари ва фикрлари, Марказий Осиё халқлари ўртасидаги маданиятлараро мулоқот ва ҳамжиҳатликни ривожлантиришга асосий йўналиш бўлган. Валидийнинг маданиятлар ўртасидаги интеграцияга қўшган ҳиссаси, Марказий Осиёдаги халқлари маданиятларининг ҳамжиҳатлигига таъсир кўрсатган.

Хорижий ва маҳаллий олимлар Ф.Бергдолът, [3], Х.Паксой [4], А.Инон [5], Г.Янски [6], С.Есин [7], А.Юлдашбаев [8], С.Н.Иванов [9], Т.Бойқаро [10], А.Г.Салихов [11], М.Абдурахмоновлар [12] Валидийнинг илмий меросини ўрганиш орқали, Марказий Осиёдаги маданиятлар ўртасидаги ўзаро таъсирни янада аниқлашга ҳаракат қилмоқдалар. Улар Валидийнинг фикрларини замонавий билим ва фаннинг талабларига мувофиқ қайта ишлаб чиқиш ва Марказий Осиёнинг тарихий ва маданий ривожини янада аниқлашга интилишмоқда.

Валидийнинг ижтимоий ва сиёсий қарашлари ҳам Марказий Осиё халқларининг маданиятлараро интеграциясига катта таъсир кўрсатган.

Унинг сиёсий қарашлари, ўзбек ва бошқа халқларнинг бирлигини таъминлаш ва уларнинг миллий мустақиллигини мустаҳкамлашга қаратилган.

Хулоса:

Марказий Осиё мамлакатларининг маданиятлараро интеграциясида Заки Валидийнинг илмий мероси муҳим ўрин тутди. Унинг фалсафий, тарихи, жадидчилик ва маданиятлараро интеграциянинг ўзаро таъсирида мустаҳкам алоқа ва ҳамжиҳатликни кўрсатган. Валидийнинг асарлари Марказий Осиё халқлари ўртасидаги маданиятлараро интеграциянинг аниқ намунаси сифатида таълим ва илмий тараққиётни қўллаб-қувватлаган ва уларнинг миллий ўзликларини ривожлантиришга йўл очган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Zeki Velidi Togan, *Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi*, Istanbul, 1947, p. 113.
2. Velidi Togan, Zeki, *Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi*, Istanbul, 1947, p. 156.
3. Bergdolt F. Der geistige Hintergrund des Türkischen Historikes Ahmet Zeki Velidi Togan nach seinen Memorien. – Berlin: 1981-140 s.
4. Paksoy H.B. Basmachi Movement from Within: Account of Zeki Velidi Togan // Nationalities Papers. 1996. Vol. 23. № 2. P. 373-399.
5. Inan A. Makaleler ve Incilemeler. II Cild. – Ankara.: 1991. – 418 s.
6. Jansky H. Ahmet Zeki Velidi Togan // Zeki Velidi Togan'a Armapan Symbolae in honorem Z.V.Togan: 60. Dopum yili minasebetiyle. – Istanbul. 1966. S.XXXIII.
7. E'sin C. Merhum Prof. Zeki Velidi Togan in Hatıralar adlı eseri // İslam Tezkipleri Ens'titusu Dergis'i. 1987. Cild IV. 3-4 kisim. – C. 7-17.
8. Юлдашбаев А.М. Известный и неизвестный Заки Валиди (в памяти своих современников). – Уфа, «Китап». 2000. – С.320.
9. Иванов С.Н. Николай Федорович Катанов (очерк жизни и деятельности). Изд-е 2-е. – Москва.: Наука, 1973.
10. Байкара Тунджер. Заки Валиди Тоган. – Уфа: «Китап». 1998. – С.328.
11. Salihov A. Ahmet Zeki Velidi Togan Bibliografyasi // Türk Dunyasi Aras'tirmalari. – Istanbul: 1994. S. 209-230.
12. Абдурахмонов М. Научная деятельность А.З.Валидов Туркестане. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Тошкент.: 2005. С.302.

УЗБЕКИСТАН – ОДИН ИЗ ГЛАВНЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

БЕКТОШ БЕРДИЕВ

*доцент Международной академии
исломоведения Узбекистана, PhD.*

Многим из нас известно, что Узбекистан в 2024 году занял первое место среди стран Центральной Азии по увеличению числа иностранных туристов. Рост составил более 20%, что позволило этой стране выделиться на фоне соседей. Специалисты отмечают, что за прошлый год сюда приехало около 8 миллионов гостей из-за рубежа, что на 20,1% больше, чем годом ранее. Из них 6,3 миллиона человек, а это 79,4%, пересекли границу пешком, что говорит о популярности наземных маршрутов среди путешественников.

Никому не секрет, что сегодня Узбекистан стал привлекательной страной для туристов со всего мира. Страна активно работает над развитием туристических локаций и улучшением транспортной инфраструктуры, ведь это делает Узбекистан не только центром туризма в регионе с богатым культурным наследием, но и комфортным направлением для мирового туризма. В плане гастрономии, необходимо особо отметить, что узбекские блюда, лепешки и самсы и другие элементы кухни стали символами гостеприимства народа и уюта страны. А столица Ташкент — с давних времен считается «городом хлеба», где туристы и гости города могут не только попробовать традиционные лепешки и вкусные блюда, но и сами научиться их готовить. Местными жителями Ташкента создана уникальная туристическая улица, чтобы гости могли ближе познакомиться с богатой культурой и традициями Узбекистана.

С уверенностью, можно сказать, что развитая транспортная инфраструктура страны повышает рейтинг Узбекистана среди туристов мира и помогает расширить географию маршрута и для остальных государств Центральной Азии.

Общий поток туристов в Центральной Азии тоже вырос. Эксперты подсчитали, что в 2024 году Казахстан, Узбекистан, Кыргызстан и Таджикистан вместе приняли 28,6 миллиона иностранных посетителей. Это на 11% больше, чем в 2023 году. Данные по Туркменистану в расчетах отсутствуют, так как информация по этой стране не предоставлена. Тем не

менее, даже без учета Туркменистана видно, что регион становится все более привлекательным для путешественников со всего мира.

Самый заметный вклад в рост показателей внес Казахстан. В прошлом году сюда приехало 15,3 миллиона иностранцев. Из них 10,4 миллиона человек задержались в стране дольше, чем на сутки, что указывает на интерес к длительным поездкам. На втором месте по числу туристов оказался Кыргызстан с 8,6 миллиона посетителей. Узбекистан, хотя и уступает по общей численности Казахстану, все же лидирует по темпам роста, что делает его заметным игроком в туристической сфере региона.

Аналитики подчеркивают, что увеличение числа туристов связано с развитием инфраструктуры и упрощением условий для въезда в страны Центральной Азии. В Узбекистане, например, активно продвигают исторические и культурные достопримечательности, что привлекает людей из разных уголков планеты. Казахстан же делает ставку на разнообразие природы и деловые возможности, а Кыргызстан манит горными пейзажами и экотуризмом. Таджикистан тоже постепенно наращивает поток гостей, хотя его показатели пока скромнее.

В 2024 году Узбекистан посетили туристы из более чем 100 стран, причем значительная часть приехала из соседних государств Центральной Азии, что подчеркивает рост внутреннего туризма в регионе.

Узбекистан, обладая богатым культурным наследием, историческими памятниками и красивой природой, относится к числу государств, уделяющих большое внимание развитию туризма. В Стратегии «Узбекистан – 2030» поставлена задача увеличения числа туристов путем создания широких условий для развития внешнего и внутреннего туризма.

По количеству иностранных туристов Узбекистан достиг 98% от уровня, наблюдавшегося до пандемии. В частности, в 2019 году страну посетили 6,748 млн. иностранных туристов, а к 2023 году это число составило 6,626 млн. Это свидетельствует о быстром восстановлении туристической отрасли в нашей стране. С целью привлечения большего числа иностранных туристов в Узбекистане проводятся практические мероприятия по упрощению визового режима, разработке новых направлений, привлечению инвестиций в проекты, связанные с этой отраслью, и проведению крупных мероприятий. Например, в 2023 году реализовано 508 проектов общей стоимостью 9,5 трлн. сумов, что позволило создать 9 492 новых рабочих места. Было открыто 183 новых отеля и 232 хостела, общее количество объектов размещения достигло 5526. Кроме того, создано 452 семейных гостевых дома, общее количество

которых достигло 3 458. В результате открытия 810 новых туристических организаций и турагентств их общее количество увеличилось до 2 649.

Особенно в последние годы в сфере туризма быстрыми темпами развивается «трэвел журналистика» и благодаря тому, многие журналисты приезжают в нашу страну и освещают повседневный быт нашего народа и народов Центральной Азии. Многие из них положительно освещают последние изменения не только в Узбекистане, но и в целом регионе.

По информации, распространённой в официальных источниках, «По сравнению с 2019 годом общее количество авиаполётов в Узбекистане возросло до 77 тысяч авиарейсов, это стало возможным благодаря улучшению авиационной инфраструктуре, расширению географии полетов и созданию удобных комфортабельных условий для авиапассажиров. В Узбекистане оперируют 23 иностранных авиакомпаний и до конца текущего 2025 года планируется осуществление авиаполётов 45 иностранных авиакомпаний».

Кроме того, отмена визового режима, открытие года туризма Узбекистана в Китае, увеличение авиарейсов сделали Узбекистан и доступнее для китайских туристов. При поддержке Комитета по туризму многие компании принимают участие в разных международных выставках, Roadshow и B2B встречах, в информационных турах, что помогает нам находить новых партнёров, укреплять деловые связи, заключать соглашения. С каждым годом компании, занимающиеся туризмом принимают большое количество туристов из Китая, представляя Узбекистан как страну с уникальной историей и богатой культурой.

Стоит отметить, что Узбекистан продолжает привлекать внимание мировой общественности. Американская газета The New York Times включила Бухару, один из древнейших городов Центральной Азии, в список из 52 мест, которые обязательно стоит посетить в этом году. Издание подчёркивает особую значимость этого города, как ключевой точки на Великом Шёлковом пути. Кроме того, британский журнал о путешествиях Wanderlust рекомендовал Узбекистан в числе лучших туристических направлений 2025 года. Эта оценка ещё раз подчёркивает растущую популярность страны среди любителей путешествий.

Как отметила специальный корреспондент CGTN-Русский Азиза Узабергенова «Узбекистан стремится стать ключевым туристическим центром региона Центральной Азии. В 2024 году страну посетили более 9 миллионов туристов, что свидетельствует о растущем интересе к его богатой истории и уникальной культуре. Благодаря развитию

инфраструктуры, улучшению транспортной доступности и сохранению культурного наследия, страна становится всё более привлекательной для путешественников со всего мира».

Узбекистан с ее богатым культурно-историческим наследием и уникальной архитектурой уделяет большое внимание вопросу развития круглогодичного туризма.

Узбекистан - одна из стран-лидеров культурного туризма в Центральной Азии. Огромной популярностью у туристов пользуется неповторимая архитектура Самарканда, одного из древнейших городов мира, основанного, по археологическим данным, в середине VIII века до н. э. Самарканд, который был столицей многих тюркских государств на протяжении всей истории, зачастую называют «Римом Востока». Еще один прекрасный город - Бухара, которую называют «Куполом ислама». Город взрастил множество религиозных деятелей и мусульманских ученых.

Туристической «жемчужиной» Узбекистана считают город Хива, музей по открытым небом, где отдельного внимания заслуживает историко-архитектурный музей-заповедник «Ичан-Кала». Мощеные улочки, глиняные мечети, искусные узоры и величественные крепостные стены производят на туристов неизгладимые впечатления.

Еще одно направление туризма в Узбекистане Шахрисабз - один из древнейших и колоритных городов страны. В 2002 году город отметил 2700-летний юбилей. Входит в список всемирного наследия ЮНЕСКО.

В настоящее время в Узбекистане планируется развивать такие виды туризма, как экотуризм, горный туризм, пешеходный и гастрономический туризм.

Правительство Узбекистана продолжает усилия по развитию различных туристических направлений в регионах страны. Важные шаги предпринимаются для развития туристической инфраструктуры и предоставления виз иностранным туристам. В этом контексте в Намагане ежегодно проводятся фестивали цветов, в Бухаре - фестивали шелка и специй, в Хиве - фестивали танцев, в Паркенте - фестивали винограда и вина.

За последние годы был отменен визовый режим для граждан более 90 стран, а для многих стран действует упрощенный визовый режим.

Уже в первые месяцы весны температура воздуха в Узбекистане прогревается до 20 градусов, проходят массовые праздничные мероприятия по случаю праздника Новруз, готовят традиционный десерт сумелек. В это время года особой популярностью пользуется экотуризм.

Важные работы по развитию горного, природного и экотуризма проведены в Чарвакском горном районе и Зааминском горном районе, расположенном между Ташкентом и Самаркандом на высоте 2500 метров над уровнем моря. Последний часто сравнивают с лесами Швейцарии из-за климата и сосновых лесов.

В этом контексте в туристической зоне отдыха «Заамин» площадью 950 гектаров было построено более 20 отелей, канатная дорога длиной 2,5 километра, подвесной пешеходный мост длиной 305 метров и высотой 150 метров. Потрясающие ландшафты и чистейший горный воздух, разнообразие фауны и растительного мира, древние места для паломничества и уникальная национальная здравница привлекают сюда сотни туристов.

Гости имеют возможность посетить горно-арчовый заповедник, кристально чистые озера, санаторий, уникальное ущелье Тешиктош и здесь же гробницу, именуемую в народе «Парпи ойм».

Внимание местных и иностранных туристов в особенности привлекают подвесной пешеходный мост и канатная дорога. Туристические районы Чарвак и Заамин в мае-августе становятся популярными местами для уставших от жары и любителей разнообразить досуг.

Летом и осенью особой популярностью в Узбекистане пользуются достопримечательности древних городов Самарканд, Бухара, Хива и Шахрисабз. Ежегодно в страну приезжает множество туристов, чтобы увидеть исторические и культурные ценности Средневековья.

Еще одно развивающееся направление туризма в Узбекистане - это гастрономический туризм. Фестивали и конкурсы, связанные со всемирно известным узбекским пловом, также являются важными факторами выбора Узбекистана для тех, кто любит кухню страны и гастрономический туризм.

Зимой же местных туристов и гостей из зарубежных стран принимают горнолыжные курорты Чимган и Амирсай, расположенные в 70 километрах от Ташкента.

Чимган – один из старейших горнолыжных курортов Центральной Азии и одно из самых интересных мест для любителей активного отдыха в Узбекистане. Расположен на одноименном горном массиве. Помимо спусков на лыжах, здесь можно заняться сноубордингом, фрирайдом, прокатиться на лошадях или полетать на аэроплане. Центр оборудован около 10 трассами и 1,5 км канатной дорожкой.

Горнолыжный курорт Амирсой, построенный в 2019 году на 900 гектарах земли, оборудован около 20 трассами и двум канатными дорогами, длина каждого из которых по пять километров.

Эксперт по туризму Рустам Саидов рассказал агентству «Анадолу», что в последние годы правительство придает большое значение популяризации туристических направлений, которые внесут вклад в развитие круглогодичного туризма.

В Узбекистане, одной из важнейших стран культурного туризма с ее богатым культурным и историческим наследием, уникальной архитектурой и искусством, «круглогодичный туризм» может быть преобразован в один из важных секторов экономики, считает он.

Помимо исторических и культурных ценностей страны, можно популяризировать ее пустыни и степи, зеленую природу, горные и сосновые леса, пустыни, а также природные, горные, туристические, спортивные, гастрономические, пустынные и экотуристические направления, сказал Саидов.

«В Узбекистане имеется большой потенциал для развития круглогодичного туризма. Если эти возможности будут использованы эффективно, Узбекистан вскоре станет одной из стран, которую посещают многие туристы из Европы и Азии», - добавил он.



POSTSOVET MAKONIDAGI SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING ASOSIY TENDENSIYALARI

SIROTILLOXON MUXAMMADSOLIYEV

*Guliston davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti*

1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanganidan so'ng sobiq respublikalar mustaqil davlatlar sifatida o'z siyosiy yo'nalishlarini belgilashga majbur bo'ldi. Shu jarayonda sobiq ittifoq davlatlarini shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: Boltiqbo'yi mamlakatlari (Estoniya, Latviya va Litva) va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kirgan respublikalar. Ushbu ikki guruh o'rtasidagi siyosiy transformatsiya yo'nalishlarida jiddiy tafovutlar mavjud.

Boltiqbo'yi davlatlari G'arb bilan integratsiyalashuv yo'lini tanlab, qisqa vaqt ichida demokratik institutlarni joriy qilishga va Yevropa Ittifoqi hamda NATO kabi tuzilmalarga a'zo bo'lishga erishdi. MDH davlatlarida esa siyosiy transformatsiya murakkab va ziddiyatli bo'lib kechdi. Ularning ko'pchiligi 1990-yillardagi ichki notinchliklar, etnik ziddiyatlar, fuqarolar urushlari va iqtisodiy tangliklar fonida kuchli ijroiya hokimiyatni o'zida mujassam etgan prezidentlik boshqaruvini afzal ko'rdi.

Rasmiy konstitutsiyalarida demokratik tamoyillar belgilangan bo'lsa-da, ko'plab MDH davlatlarida amalda siyosiy hokimiyat bir markazda – prezident atrofida jamlandi. H.Linz va A.Stepan ta'biri bilan aytganda, bu holat partiyadan ustun turuvchi shaxsiy hokimiyatlarni yuzaga keltirdi. [1]

Shunga qaramay, ayrim davlatlar – xususan, Qirg'iziston, Ukraina, Gruziya va dastlabki bosqichda Rossiyada – demokratiya yo'lida muayyan yutuqlarga erishdi. Ular ayrim bosqichlarda muxolifatning siyosiy maydonga chiqishiga imkon yaratdi va inqiloblar orqali siyosiy almashinuvi sodir bo'ldi. Biroq, ushbu tajribalarning barqaror demokratik tizimga olib kelgani shubha ostida, chunki ko'pchilik hollarda hokimiyat o'zini "barqarorlik" niqobi ostida kuchaytirishga intildi.

Ayniqsa Rossiya va Ozarbayjon misolida ko'rish mumkinki, dastlabki demokratik urinishlar avtoritar tendensiyalarga o'rnini bo'shatdi. Maykl Ross energiya resurslariga boy davlatlarda demokratik institutlarning ildiz otishini murakkablashtiruvchi omil sifatida tabiiy boyliklar rolini ta'kidlaydi. [2]

Ammo bu nazariyani butun Markaziy Osiyoga tatbiq etish qiyin, chunki siyosiy konsolidatsiya resurslar miqdoridan qat'i nazar kuzatilmoqda. Neft va gazga boy Qozog'iston va Turkmanistonda ham, kamtarona resurslarga ega, lekin

aholisi ko'p va noqulay geografik hududda joylashgan O'zbekistonda ham, resurslari yo'q bo'lgan Tojikistonda ham siyosiy transformatsiya xususiyatlari bir-biriga juda o'xshash.

Ozarbayjonda demokratik hukumat saylanishi mamlakat uchun og'ir bir sharoitda yuz berib, Armaniston bilan qonli mojaro vaqtiga to'g'ri keldi. Og'ir siyosiy vaziyat kompartiyasning sobiq rahbari Haydar Aliyevni yana hokimiyatga olib keldi. Mamlakatda iqtisodiy avolni o'nglash uchun bir qator liberal islohotlar o'tkazildi. 2003-yilda H. Aliyevning vafot etishi bilan o'rnini uning o'g'li Ilhom Aliyev egalladi. Bu postsovet respublikalari orasida hokimiyatning otadan farzandga o'tishi bilan bog'liq birinchi hodisa bo'ldi.

Rossiya B. Yelsin davrida bir qator demokratik islohotlarni amalga oshirdi. Muxolif partiyalarning saylovlarda erkin ishtirok etishi ta'minlandi. Uning vorisi V. Putin boshqaruvning dastlabki yillarida demokratik boshqaruv tarafdori sifatida namoyon bo'ldi va demokratiya prinsiplariga sodiq qolishini ta'kidladi. Hatto dastlabki ikki muddatdan so'ng prezidentlikni D. Medvedevga topshirdi. Biroq keyinchalik amalga oshirilgan o'zgarishlar Rossiyada demokratik tranzit orqaga ketishini ko'rsatdi. Avvaliga prezidentlik vakolat muddati to'rt yildan olti yilga oshirilgan bo'lsa, 2020-yilgi referendum bilan prezidentlikka surunkasiga ikki martadan ortiq saylanishni taqiqlovchi cheklov olib tashlandi va Putinning avvalgi prezidentlik muddatlari hisobga olinmaydigan bo'ldi. [3] Natijada, yangi konstitutsiyaviy o'zgarishlar amalda prezident Putinga yana ikki muddat hokimiyatda qolish imkonini beradi.

Ayrim olimlar demokratiyaning uchinchi to'lqinidan keyin yangi boshqaruv tizimlari paydo bo'lganini ta'kidlaydilar. S.Levitski va L.A.Vey yangi davr tuzumlarini gibril rejimlar yoki raqobatli avtoritarizm deb nomlaydi. Bu rejim o'zida demokratiya va avtoritar elementlarni saqlaydi. Gibril rejim sharoitida davlatda formal demokratik institutlar mavjud bo'ladi, ular hokimiyatga erishishda asosiy vosiya hisoblanadi, saylovlar adolatsiz bo'lsa-da, nisbatan erkin bo'ladi. Siyosiy raqobatda muxolif partiyalar ham ishtirok etadi. Hattoki ularning ma'lum darajada yutish imkoniyatlari ham mavjud bo'ladi. [4]

Rossiyalik S.Guriyev va britaniyalik D.Treysman demokratiya niqobidagi avtoritar tuzumni "manipulyativ diktatura" yoki "axborot avtokratiyasi" deb ataydilar. V. Putin siyosati haqida mualliflar shunday yozadi: "Putin demokrat sifatidagi tashqi ko'rinishini saqlab qolgan holda, ... hukumat qudratini izchil markazlashtira boshladi... Ko'p o'tmay u (o'zi rahbarlik qiluvchi) ijroiya organi qudratini mustahkamlash maqsadida amalga oshirgan chora-tadbirlari to'g'ridan-to'g'ri hukumat organlari balansi va tiyib turish mexanizmlarini ishdan chiqara boshladi. Natijada siyosiy raqobat maydoni torayib bordi". [5]

Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar esa Rossiyadagidan biroz farq qiladi. 1991-yilda Markaziy Osiyoda respublikalaridan faqat O'zbekiston va Tojikistondagi prezidentlik saylovlarida muqobil nomzodlar bo'lgani e'tiborga molik. Shunga qaramay, Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonda hali siyosiy plyuralizm yaxshi shakllanmagan, fuqarolik jamiyati zaif, kommunistik partiyaning sobiq rahbarlariga raqobat qiladigan muxolif kuchlar yetarlicha dastakka ega bo'lmagani sharoitida prezidentlar o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga erishdi. 2000-yillar boshlariga kelib, bu davlatlarda konstitutsiyaviy o'zgarishlar orqali hokimiyatda uzoq vaqt qolish uchun siyosiy mexanizmlar yo'lga qo'yilgan edi.

1991-yildan keyin Markaziy Osiyo respublikalarida vujudga kelgan siyosiy tizimning universal turi prezidentlik respublikasi bo'lib, hokimiyat ijro hokimiyati qo'lida jamlandi. Demokratik de-yure, de-fakto bu siyosiy tizimlar avtoritar boshqaruv elementlarini o'z ichiga oladi. Hokimiyatning uchta tarmoqqa (ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud) bo'linishi rasmiy ravishda Markaziy Osiyoning barcha respublikalari konstitutsiyasida mavjud bo'lsa-da, amalda parlament va sud hokimiyati ijro etuvchi hokimiyatga bo'ysunadi. [6]

Prezidentning sezilarli vakolatlari davlat rahbari millatning "otasi" sifatida qabul qilinadigan patriarxal Markaziy Osiyo jamiyatlaridagi tarixiy an'anaviylikni aks ettiradi. Beshta davlat o'rtasidagi tafovutlar qonun chiqaruvchi hokimiyat uchun qoldirilgan vakolatlar hajmiga ta'sir qiladi. Qirg'iziston va Qozog'istonda milliy parlamentlar (yarim) mustaqil, ammo Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida prezidentlar amalda cheklanmagan vakolatlarga ega bo'lishdi. [7]

Rossiyalik muallif D.Malisheva Markaziy Osiyoda shakllangan siyosiy tizimni "boshqariladigan demokratiya" deb ataydi: "Boshqaruvning bunday shakli hokimiyat elitalari nuqtayi nazaridan, tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni eng maqbul tarzda saqlashga, konfessiyalararo va millatlararo nizolar rivojlanishining oldini olishga imkon beradi". [8]

Ijroiya hokimiyatining cheksiz vakolatlarga ega roldan tashqari, Markaziy Osiyodagi siyosiy elita biznes tuzilmalari bilan birlashib, ularga iqtisodiyot, boylik va tabiiy resurslar ustidan nazorat qilishning qo'shimcha vositalarini berdi. Markaziy Osiyo uchun ayniqsa dolzarb bo'lgan va sovet siyosiy tizimi merosi bo'lgan va bu mintaqada tarixdagi oldingi monarxiya davri bo'lgan postsovet siyosatining yana bir xususiyati hokimiyatni o'tkazish va almashtirishning demokratik mexanizmining noto'g'ri ishlashidir.

Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonda 1990-yillar boshlarida prezidentlikka yangi saylangan yoki SSSR davridan beri o'z lavozimini egallab kelgan siyosiy rahbarlar

hokimiyatda o'n yoki undan ko'proq yil, ba'zan o'limiga qadar qoldi. O'tmishda sovet rahbarini saylashning aniq mexanizmining yo'qligi va bu bilan bog'liq demokratik amaliyot va tajribalarning yo'qligi bu respublikalarda saylovlarni birinchi navbatda tasdiqlovchi protseduraga aylantirdi.

Demokratik ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish SSSR parchalanganidan so'ng ko'pchilik sobiq Sovet respublikalarida, shu jumladan Markaziy Osiyoda boshlangan edi. Barcha mamlakatlarda yangi konstitutsiyalarning qabul qilinishi, parlamentlar va siyosiy partiyalarning tashkil etilishi, Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida saylovlarning o'tkazilishi bilan demokratiya sari ba'zi harakatlar amalga oshirildi. Binobarin, mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillarda ma'lum taraqqiyot va sovet siyosiy tizimidan uzoqlashishga guvoh bo'ldi.

Biroq keyinchalik bu tendensiya zaiflashdi va Markaziy Osiyodagi aksariyat davlatlar avtoritar tizimga o'tdi. Qozog'istonda 1992-1998-yillar oralig'ida demokratlashtirish bo'yicha juda kamtarona urinishlar bo'lgan. Qozog'iston rahbari Nursulton Nazarboyev mustaqil Qozog'istonning birinchi Prezidenti bo'lganidan keyin iqtisodiyotni erkin bozorga aylantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Deyarli barcha postsovet davlatlarida bo'lgani singari Qozog'istonda ham N.Nazarboyev boshchiligida kuchli boshqaruv apparati tomonidan mamlakatning yangi davlatchiligi asoslarini "yuqoridan - quyiga" shakllantirishga kirishildi. [9]

Qozog'istondagi "boshqariladigan demokratiya" zamirida prezident hokimiyatini mustahkamlash bilan bir qatorda, demokratiyaning institutsional elementlarini izchil rivojlantirish orqali mamlakat siyosiy tizimining barqarorligini oshirish g'oyasi yotadi. [10]

1998-yilda Qozog'iston konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritilib, prezident vakolat muddati besh yildan yetti yilga cho'zildi. Konstitutsiyada bir shaxsning ikki martadan ortiq saylanish huquqi yo'qligi belgilab qo'yilgan edi. Shunga qaramay, N.Nazarboyev prezidentlikka yana 4 marta (1999, 2006, 2011, 2016-yillarda) qayta saylandi. Konstitutsiyaviy kengash 1999-yildan boshlangan muddatni Nazarboyev uchun birinchi muddat deb hisoblanishi haqida xulosa berdi. 2007-yilda esa konstitutsiyaga yana o'zgartirish kiritilib, vakolat muddati besh yilga tushirildi. 2010-yilda M.Nazarboyevga Elboshi unvoni berildi va bu maqom konstitutsiyada mustahkamlab qo'yildi. Yangi maqom Nazarboyevga prezidentlikka cheksiz marta qayta saylanish huquqini berdi. [11]

2016-yilda Tojikistonda o'tkazilgan referendumda Konstitutsiyaga yana qo'shimcha tuzatishlar kiritilgan bo'lib, ulardan eng muhimi Prezident Rahmonga cheksiz qayta saylanish huquqi berildi. Yangi konstitutsiya bilan I.Rahmonga "Tinchlik va milliy birlik asoschisi" - "Peshvoyi millat" unvoni berildi. [12]

Mintaqadagi eng avtoritar va yopiq siyosiy rejimni o'rnatgan S.Niyozov Turkmanboshi davrida Turkmanistonda barcha muxolif partiyalar faoliyati taqiqlandi, hukumat ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot kanallari ustidan to'liq nazorat o'rnatdi. Niyozov, shuningdek, Turkmanistonning xalqaro miqyosda butunlay yakkalanishiga olib keladigan va mamlakatni har qanday xalqaro tashkilotga kirishiga to'sqinlik qiluvchi betaraflik siyosatini ham yuritdi. Turkmanboshi bir vaqtning o'zida prezident, hukumat raisi, yagona partiyaning yetakchisi, "Galkinish" milliy harakati raisi, Xalq Maslahati raisi sifatida mamlakatda yakkahokimlik o'rnatdi. S.Niyozovning "Ruhnoma" kitobi asosida mamlakatning asosiy mafkurasi shakllandi. Bu asar rasmiy nashrlarda turkman xaqi uchun asosiy kitob, hidoyat kitobi deb e'tirof etildi. 1999-yilda Niyozov Turkmanistonning umrbod prezidenti deb e'lon qilindi. [13]

2006-yilda Saparmurod Niyozov vafotidan keyin uning davrida hukumat raisi o'rinbosari lavozimida ishlab kelgan Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanistonning ikkinchi prezidenti etib saylandi. Uning boshqaruvi davrida Turkmanistonda Berdimuhamedov shaxsini ulug'lash yo'lidan borildi. 2007-yilda Berimuhamedovga Arkadag unvoni berilgan bo'lsa, 2016-yilda prezidentlikda umrbod qolish huquqiga ega bo'ldi. [14]

Xulosa qilib aytganda, SSSR qulaganidan so'ng yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq turli mintaqalarda turlicha to'ldirildi. Boltiqbo'yi davlatlari Yevrointegratsiyaga asoslangan demokratik islohotlar yo'lidan ketgan bo'lsa, MDHga a'zo bo'lgan davlatlarda siyosiy transformatsiya avtoritarlik elementlari bilan uyg'unlashgan gibril rejimlar shaklida kechdi. Bu davlatlarda kuchli prezidentlik tizimi o'rnatilib, ko'p hollarda konstitutsiyaviy islohotlar orqali hukmron elitalarning hokimiyatda uzoq muddat qolishi ta'minlandi.

Maykl Rossning "resurs la'nati" nazariyasidan farqli ravishda, Markaziy Osiyodagi siyosiy tizimlarning o'xshashligi ularning tabiiy boyliklarga egalik darajasidan ko'ra, avtoritar meros va zaif fuqarolik jamiyatlariga tayanadi. Shu bilan birga, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmanistonda konstitutsiyaviy tuzatishlar orqali prezidentlarga cheksiz vakolatlar berilishi bu mintaqada "boshqariladigan demokratiya" yoki "axborot avtokratiyasi" kabi siyosiy shakllarning qaror topishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Linz, J.J., Stepan A. Problems of Democratic Transition and Consolidation: Southern Europe, South America and Post-Communist Europe. – Baltimore and London: The John Hopkins University Press, 1996. – p. 399.

2. Ross M.L. Does Oil Hinder Democracy? *World Politics*. 2001;53(3):325-361. doi:10.1353/wp.2001.0011
3. "Полный текст поправок в Конституцию: что меняется?" (in Russian). State Duma. 14 March 2020. Archived from the original on 10 April 2020. Retrieved 2 June 2020.
4. Levitsky S, Way LA. *Competitive Authoritarianism: Hybrid Regimes after the Cold War*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – p.5
5. Guriev, Sergei and Treisman, Daniel. *Spin Dictators: The Changing Face of Tyranny in the 21st Century*. – Princeton: Princeton University Press, 2022. – b.15
6. Laumulin, M. (2016) Formation of the post-Soviet statehood in Central Asia. *Outlines of Global Transformations: Politics, Economics, Law*, 9(11), 95–52. <https://doi.org/10.23932/2542-0240-2016-9-5-95-113> (in Russian).
7. Malysheva, D. B. (2018) Political processes in the republics of post-Soviet central Asia. *Outlines of Global Transformations: Politics, Economics, Law*, 11(3), 36–52. <https://doi.org/10.23932/2542-0240-2018-11-3-36-52> (in Russian).
8. Малышева Д.В. Центральноазиатский центр мировой политики. - ИМЭМО РАН, 2010 - С. 10.
9. Nazirov M. *Markaziy Osiyo: zamonaviy siyosiy jarayonlar. Monografiya*. – Toshkent: Qamar media, 2021. – В. 65.
10. Евсеев В.В. Авторитаризм в Центральной Азии (на примере Казахстана). // Вестник МГИМО-Университета. 2013;(5(32)). — с. 104.
11. О Первом Президенте Республики Казахстан – Елбасы. Конституционный закон Республики Казахстан от 14.06.2010 № 289-IV. Статья 1. https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z0000000083_
12. Конституция Республики Таджикистан. Статья 65. <http://www.prezident.tj/ru/taxonomy/term/5/112>
13. Проклов И. Политическая система современного Туркменистана // *Азия и Африка сегодня*. — 2007. — № 10. с. 29
14. Эксперт: глава Туркмении может стать "пожизненным президентом". РИА Новости (20160914T1424). Дата обращения: 31 октября 2021. Архивировано 5 сентября 2021 года.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT SUVERENITETI VA XALQ HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

SHOIRA AVAZOVA

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi dotsenti v.b., yu.f.n.*

Bugungi kunda davlatlarning dunyo xaritasida o'z o'rnini saqlab qolishi, xalqaro maydonda milliy davlatchilikka bo'layotgan tahdidlarga qarshi tura olishi, davlat suverenitetini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

“Suverenitet” tushunchasi fanda XVII asrda sodir bo'lgan muhim tarixiy voqealar ta'sirida shakllandi. Yevropada o'rta asrlardan keyingi davrda davlat qurilishining rivojlanishi, davlat hokimiyati bilan jamiyatning diniy qatlami va Rim katolik cherkovi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskin o'zgardi hamda milliy davlatchilikka tayanadigan milliy mafkuraning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bunday holatlarni so'nggi o'rta asrlarda Yevropaning qator davlatlarida, jumladan, Ispaniya va Angliyada kuzatish mumkin edi.

O'zbekiston ham davlatchilik tarixida to'plangan tajribalarga asoslanib, Konstitutsiyada “suverenitet” tushunchasini aks ettirdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bobi “Davlat suvereniteti” deb nomlanib, “davlat suvereniteti” asosiy prinsiplar qatoriga kiritilgan [4:50].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlanib, O'zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga yangi uchta, ya'ni «huquqiy davlat», «ijtimoiy davlat» va «dunyoviy davlat» tushunchalari qo'shimcha qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigida “...hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi” deya ta'kidlagan edi [2].

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va kam ta'minlanganlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modeli bo'lib, bunday davlatda qat'iy bozor iqtisodiyoti, turli pandemiya va epidemiyalar sharoitida o'z fuqarolariga

muayyan minimal farovonlik kafolatlanadi. Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi ham har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi.

Huquqiy davlat – bu demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat. Qolaversa, qonunlarning butun davlat hududidagi ustuvorligi, hokimiyatlar vakolatining bo'linishi, shaxs va davlatning o'zaro ma'sulligi, inson huquqlari va erkinliklarining himoyalanihidir.

Ma'lumki, davlatlar dinga munosabati bo'yicha quyidagi tiplarga bo'linadi: dunyoviy (sekulyar), klerikal davlat (davlat diniga ega bo'lgan davlatlar), teokratik davlatlar va ateistik davlatlar.

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki fuqarolik qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlatdir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o'rnatilmasligini, ularning davlatdan alohida faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Dunyoviy davlatchilik tarixi G'arb davlatlariga, Amerika Qo'shma Shtatlariga borib taqalib AQSH o'zini qonun hujjatlariga ko'ra dunyoviy davlat deb e'lon qilgan ilk davlat hisoblanadi.

Ushbu davlatda hech qachon rasmiy din mavjud bo'lmagan. AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi o'zgarish ham har bir amerikalik uchun dinga erkin e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi.

Dunyoviy davlatlar taraqqiyotiga XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada davlat va cherkov o'rtasidagi funktsiyalarning bo'linishi jarayonida boshlangan yevropacha sekulyarizatsiya jarayonlari katta ta'sir o'tkazdi. Ushbu jarayonlarga Frantsiya Respublikasining cherkovni davlatdan ajratish va vijdon erkinligini insonning asosiy shaxsiy huquqlaridan biri ekanligini e'tirof etish haqidagi konstitutsiyada mustahkamlab qo'ygan normalari ham turtki bo'ldi.

Sekulyar (lot. *secularis* – dunyoviy) — nimanidur cherkov va diniy idoralar tasarrufidan olish, davlatni dindan ajratish, dunyoviy jamiyat qurish ma'nolarini anglatadi.

Dunyoviy tipdagi davlatlarda inson va fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi, diniy bag'rikenglik tamoyillari tom ma'noda ta'minlanishi kafolatlanadi. Zero, bunday davlatlarda ma'lum bir din ustuvor ahamiyatga ega bo'lmaydi va barcha din vakillari o'zlarining diniy rasm-rusumlarini erkin amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu bois, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasiga O'zbekistonning dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 154-moddasida 1-

moddada qoidalar o'zgaras bo'lib, qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas deb, belgilab qo'yildi.

Dunyoviy davlatning quyidagi belgilari mavjud:

- *Har kim uchun vijdon erkinligi kafolatlangan, davlatning diniy-konfessiyaviy qarashlar va institutlardan ajratilganligi;*
- *Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, qarorlar qabul qilishda va ularni ijro qilishda Konstitutsiyaga va qonunlarga, umumjamiyat manfaatlariga asoslangan tarzda boshqarilishi;*
- *Vijdon va e'tiqod erkinligining mavjudligi, davlatning jamiyat hayotida fuqarolar tomonidan e'tiqod qilinayotgan dinlarga teng va birdek betaraf munosabatda bo'lishi hamda hech qaysi dinning davlat dini sifatida o'rnatilmasligi;*
- *Qonun ijodkorligi, odil sudlov, davlat hokimiyati organlarining shakllanishi va faoliyati dunyoviylik printsipli asosida amalga oshirilishi;*
- *Hukumat qarorlari dinga munosabatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning manfaatlarini hisobga olgan holda butun jamiyat uchun qabul qilinishi;*
- *Davlat fuqarolarga vijdon erkinligini amalga oshirishda teng kafolatlar yaratib, o'zini hech qaysi bir din bilan bog'lamasligi;*
- *Dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmasligi, balki insonlarning ma'naviy va ruhiy kamolotga erishishining omili bo'lib hisoblanishi;*
- *Turli din vakillarining bag'rikenglik muhitida va tinch-totuvlikda yashashi.*

Jamiyatda turli-tuman din, millat, etnik guruhlar va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati, albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslana olmaydi

Dunyoviy davlatning mazkur belgilaridan ko'rinib turibdiki, faqat dunyoviy davlatda chinakam diniy erkinliklar ta'minlanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, dunyoviylik – dahriylik emas, ayni paytda dunyoviy davlat dahriylikka targ'ib etuvchi davlat ekanligini anglatmaydi. Aksincha, dunyoviy davlatda barcha uchun vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi ta'minlanadi, turli din vakillariga teng imkoniyat yaratib beriladi hamda diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan boriladi.

Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekiston xalqi tomonidan "vakolatli vakillari timsolida", ya'ni parlament a'zolari – o'z davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan 1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan. Bundan farqli o'laroq, yangi tahrirdagi Konstitutsiya "yagona O'zbekiston xalqi" bevosita umumxalq referendumida – to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan qabul qildi.

Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o'zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya'ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligini anglatuvchi tamoyil o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" degan konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, xalq bilan doimiy muloqot qilish faoliyatimiz mezoni etib belgilandi, davlat idoralari rahbarlari fuqarolar oldida hisobot beradigan samarali tizim yo'lga qo'yildi [2]. Buning natijasida O'zbekiston aholisi uchun mamlakatning xohlagan hududida erkin yashash, ko'chmas mulk sotib olish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish, ta'lim olish, mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, turli davlat xizmatlaridan foydalanishning o'ziga xos tizimiga oid katta imkoniyatlar kafolatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi ikkinchi bandida yana bir umume'tirof etilgan tamoyil mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra davlat hokimiyati faqat "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi".

Ushbu norma talqini borasida shuni ta'kidlash o'rinliki, insoniyat tajribasi negizida demokratiyaning ikki turi ishlab chiqilgan. Bulardan biri – to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya bo'lsa, ikkinchisi – saylangan vakillarning tegishli muassasalari orqali amalga oshiriladigan vakillik demokratiyasidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 07.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4815>
3. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / X.T.Odilqoriyev, O'X.Muxamedov, B.A.Saidov va boshq.; Mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.
4. Davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / Shavkat Asadov, Azizjon Yo'ldoshev. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 80 b.

THE ROLE OF UZBEKISTAN-KAZAKHSTAN TANDEM IN SHAPING CENTRAL ASIAN INTEGRATION INITIATIVES

MUSURMAN KHURRAMOV

*Senior lecturer, PhD,
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan*

Introduction

Since the disintegration of the Soviet Union in 1991, the five republics of Central Asia have struggled to foster meaningful regional integration, despite their extensive historical, linguistic, and socio-cultural commonalities. The absence of strong regional institutions and the prevalence of bilateral tensions have constrained collective regionalism for decades. Nevertheless, a notable transformation began to unfold in the late 2010s, particularly with the emergence of a cooperative relationship between Uzbekistan and Kazakhstan, two geopolitical heavyweights of the region. The leadership transition in Uzbekistan in 2016, marked by the ascent of President Shavkat Mirziyoyev, catalyzed a foreign policy shift toward proactive regional engagement, reshaping the dynamics of Central Asian politics (Bohr, 2021).

This article aims to examine the evolving strategic tandem between Uzbekistan and Kazakhstan in the context of regional integration. It seeks to answer the following research questions: What internal and external drivers are reinforcing Uzbek-Kazakh cooperation? How has this bilateral alignment affected multilateral frameworks in Central Asia? What barriers continue to hinder regional cohesion? Employing a qualitative methodology grounded in content analysis of political declarations, official agreements, and regional forums, the study evaluates the performance and prospects of this partnership.

Theoretical and Analytical Framework

To understand the trajectory of Central Asian integration, it is essential to anchor the analysis within regional integration theories, particularly functionalism and neofunctionalism. Functionalist theory posits that integration begins with technical and economic cooperation, which eventually spills over into political unification. Neofunctionalism further emphasizes the role of supranational institutions and elite socialization. However, the Central Asian context, characterized by leadership-centered governance, limited supranational coordination, and overlapping spheres of external influence, demands a more nuanced lens.

In this context, the concept of “strategic tandem” becomes analytically relevant. It refers to a cooperative dyad of regional powers whose alignment fosters regional public goods such as stability, connectivity, and collective problem-solving (International Crisis Group, 2022). Uzbekistan and Kazakhstan, due to their demographic size, natural resources, strategic geography, and political leverage, are uniquely positioned to drive such processes. Their tandem serves as a potential catalyst for spillover effects in domains including trade, environmental policy, education, and infrastructure development.

Historical Background of Uzbek-Kazakh Relations

The evolution of Uzbek-Kazakh relations since the dissolution of the Soviet Union in 1991 provides critical context for understanding current regional integration efforts. Despite shared historical experiences, cultural affinities, and common strategic interests, bilateral relations in the immediate post-independence era were marked by cautious pragmatism and periods of latent competition. The early 1990s saw both countries grappling with the challenges of state-building, economic transition, and sovereignty consolidation, which led to divergent foreign policy orientations and limited political engagement.

During the presidency of Islam Karimov, Uzbekistan’s foreign policy was predominantly guided by a security-oriented and self-reliant framework, with a strong emphasis on preserving internal stability and adopting a measured approach toward political and economic reform. Conversely, Kazakhstan under President Nursultan Nazarbayev pursued a multivector foreign policy, seeking balanced relations with global powers while advocating for regional cooperation, especially through the establishment of the Eurasian Economic Union (EAEU) and the Conference on Interaction and Confidence Building Measures in Asia (CICA) (Cooley, 2019).

Bilateral tensions during the 1990s and early 2000s were exacerbated by disputes over border demarcation, water resource management, and differing security priorities. Periodic diplomatic spats and border closures further hindered the development of sustained cooperation. However, the countries maintained essential diplomatic channels and gradually increased economic ties, particularly through energy trade and labor migration flows.

A modest thaw began in the mid-2000s, driven by pragmatic economic interests. After leadership transition in Uzbekistan President Shavkat Mirziyoyev’s ascent to power marked the beginning of a new regional diplomacy, characterized by openness, confidence-building, and a proactive embrace of multilateralism. His second foreign visit as president was to Kazakhstan in March

2017—a highly symbolic gesture underscoring his intent to reset bilateral relations.

The period from 2017 onward witnessed a marked acceleration in Uzbek-Kazakh cooperation. High-level exchanges became frequent, and bilateral trade volumes expanded rapidly, surpassing USD 5 billion by 2022 (World Bank, 2024). Agreements on transport, customs harmonization, and investment further institutionalized the relationship. In addition, the two countries coordinated closely on regional forums, laying the groundwork for multilateral formats such as the Consultative Meetings of Central Asian Leaders. The 2017 Strategic Partnership Treaty formalized a comprehensive bilateral framework, while the establishment of the Uzbekistan-Kazakhstan Intergovernmental Council created a structured mechanism for policy alignment across sectors.

Current Regional Integration Initiatives

Consultative Meetings of Central Asian Leaders. Launched in 2018 at the initiative of Uzbekistan and with strong support from Kazakhstan, the Consultative Meetings of Central Asian Leaders have emerged as an informal yet influential regional dialogue mechanism. Held annually, these summits provide a platform for collective deliberation on transboundary security threats, trade facilitation, water management, and pandemic response. The frequency and increasing policy relevance of these meetings underscore the leadership roles played by Tashkent and Astana in setting a cooperative regional agenda (Tokayev, 2022).

Organization of Turkic States (OTS). Uzbekistan's accession to the OTS in 2019 marked a significant alignment with Kazakhstan's longstanding commitment to Turkic multilateralism. Within this framework, both nations have actively promoted cultural convergence, economic harmonization, and connectivity initiatives. The joint support for the Turkic Investment Fund and the modernization of the Silk Road corridor reflects their shared geopolitical aspirations and cultural solidarity.

International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS). As the ecological catastrophe of the Aral Sea continues to threaten public health and livelihoods in the region, IFAS has become a renewed focus for bilateral environmental diplomacy. Uzbekistan and Kazakhstan have advocated for IFAS reform, transparency in funding allocation, and coordinated afforestation programs. Their shared environmental vulnerability has catalyzed collaborative research, policy coordination, and appeals for international donor support (World Bank, 2024).

Infrastructure and Connectivity Projects. Strategic infrastructure development lies at the heart of the Uzbek-Kazakh integration model. Both states are central to the development of the Trans-Caspian International Transport Route (TITR), also known as the Middle Corridor, which aims to connect East Asia to Europe via Central Asia and the Caucasus. The completion of the Turkestan-Tashkent highway, modernization of border checkpoints, and establishment of joint logistics hubs illustrate their operational cooperation. These efforts are further supported by harmonized customs digitalization programs and bilateral trade facilitation agreements.

Comparative Leadership Roles

The foreign policy transformation of Uzbekistan under President Mirziyoyev has introduced a paradigm wherein Central Asia is treated not as a buffer zone but as a unified geopolitical subject. In numerous speeches at regional forums and the United Nations, Mirziyoyev has emphasized principles of sovereignty, mutual respect, and peaceful development. Kazakhstan, while maintaining its traditional multivector policy, has increasingly found convergence with Uzbekistan's regional vision, especially under President Kassym-Jomart Tokayev.

Their complementarity is evidenced by co-authored declarations, shared chairmanship in regional summits, and synchronized positions on regional crises such as the situation in Afghanistan. Rather than competing for dominance, the two states demonstrate a model of decentralized leadership—one that promotes inclusivity and consensual policymaking across the region (Bohr, 2021).

Challenges and Constraints

Despite the positive trajectory of Uzbek-Kazakh cooperation, several systemic and structural constraints continue to impede the realization of deep and sustainable regional integration. These challenges originate from both endogenous weaknesses within Central Asian political economies and exogenous pressures stemming from the region's geostrategic positioning between major global powers.

Geopolitical Competition and External Dependencies. Central Asia is situated at the nexus of geopolitical influence exerted by Russia, China, the United States, the European Union, and increasingly, regional middle powers such as Turkey and Iran. Each actor pursues its own economic and security interests in the region, often through bilateral partnerships that can undermine regional cohesion. For instance, while China's Belt and Road Initiative (BRI) has stimulated

large-scale infrastructural investment, it has also fostered fragmented bilateral agreements that may bypass regional planning mechanisms (World Bank, 2024). Similarly, Russia's emphasis on the Eurasian Economic Union (EAEU), of which Kazakhstan is a member and Uzbekistan an observer, introduces asymmetries that complicate collective economic policymaking.

Institutional Deficits and Weak Legal Frameworks. Most regional cooperation formats in Central Asia, including the Consultative Meetings and IFAS, lack the formalized structures, permanent secretariats, and legally binding mechanisms that are necessary for policy enforcement and long-term planning. The reliance on high-level political engagement has played a key role in fostering regional cooperation, though it may be influenced by leadership transitions and shifting policy priorities. Additionally, the implementation of regional initiatives may proceed gradually due to institutional challenges, including administrative constraints and capacity development needs within the public sector. (Bohr, 2021).

Uneven Economic Development and Policy Divergence. While Kazakhstan and Uzbekistan share a similar vision for regional leadership, other Central Asian republics exhibit divergent levels of economic development and policy orientation. Turkmenistan's policy of strict neutrality, Tajikistan's reliance on remittances, and Kyrgyzstan's evolving political landscape present differing national contexts that can influence the depth of their engagement in regional integration efforts. These variations in development trajectories contribute to differing national capacities and strategic priorities, which may present challenges in coordinating shared infrastructure projects, aligning trade policies, or establishing joint regulatory frameworks. (UNDP, 2023).

Environmental and Resource Management Conflicts. Transboundary water management continues to be a complex and sensitive issue in Central Asia. The upstream-downstream dynamics among Kyrgyzstan, Tajikistan, Uzbekistan, and Kazakhstan occasionally lead to differing perspectives on water distribution, particularly during times of seasonal water stress and energy demand. While initiatives such as IFAS have contributed to fostering dialogue and cooperation, there remains a need to further develop and implement comprehensive legal frameworks and mutually beneficial water-sharing arrangements. The anticipated impacts of climate change may add further complexity, underscoring the importance of strengthening regional governance and collaborative approaches (World Bank, 2024).

Prospects and Recommendations

The evolving Uzbekistan-Kazakhstan tandem holds considerable promise for enhancing regional integration in Central Asia. However, the realization of this potential will depend on the ability of both countries to institutionalize their cooperation, broaden multilateral engagement, and mitigate the structural constraints outlined earlier. Several strategic opportunities and actionable policy pathways can be identified to deepen the regionalization process.

Institutionalization of Regional Dialogue Mechanisms. One of the most pressing priorities is the transformation of existing informal platforms—such as the Consultative Meetings of Central Asian Leaders—into semi-formal or formal institutions. Establishing a permanent secretariat with a rotational chairmanship and technical staff would ensure continuity in policy implementation and agenda-setting. This secretariat could oversee working groups on key issues such as trade, water security, transportation, and climate adaptation. A more structured institutional framework would also facilitate monitoring and evaluation mechanisms, enhancing transparency and accountability among member states.

Creation of a Central Asian Free Trade Area (CAFTA). Building on existing bilateral trade agreements, Uzbekistan and Kazakhstan should lead the formation of a regional free trade area that includes harmonized customs regulations, reduced non-tariff barriers, and mutual recognition of standards. The CAFTA could be modeled on ASEAN-style flexible arrangements, allowing for phased integration and differentiated commitments. The harmonization of digital customs procedures and joint logistics centers—particularly in border regions such as Turkestan and Tashkent—would provide a practical foundation for expanding intra-regional trade.

Expansion of Transnational Infrastructure and Energy Projects. To achieve deeper economic integration, both countries must continue to invest in cross-border infrastructure projects. These should include railways, highways, and energy transmission networks that facilitate regional connectivity. The Uzbekistan-Kazakhstan-China railway corridor, as well as the Trans-Caspian International Transport Route, are vital assets that require joint governance mechanisms and coordinated logistics strategies. Energy interdependence can also be enhanced through co-investment in green energy projects, including solar and wind power farms in the Kyzylkum and Karaganda regions.

Joint Environmental Governance and Climate Cooperation. Given the shared environmental challenges of water scarcity, desertification, and the degradation of the Aral Sea basin, Uzbekistan and Kazakhstan must take the lead in revitalizing IFAS and integrating its functions with newer multilateral frameworks. A regional

climate security strategy—co-drafted by both governments—could serve as a blueprint for coordinated adaptation measures, disaster risk reduction, and sustainable resource management. Enhanced cooperation in satellite monitoring, data sharing, and early warning systems would further bolster regional resilience.

Regional Identity Building and People-to-People Diplomacy. Beyond institutional and economic dimensions, strengthening the social foundations of regional integration is critical. Both governments should promote academic mobility, cultural exchanges, and youth engagement initiatives. Joint programs between universities, collaborative research centers, and regional history curriculum development can foster a shared Central Asian identity. Initiatives like the “Central Asia Youth Forum” or a regional student mobility scheme—modeled on Erasmus+—could cultivate a generation of leaders with a regional outlook.

Multilateral Engagement and Conflict Mediation. Finally, the Uzbek-Kazakh tandem should position itself as a credible mediator in regional conflicts and a bridge between Central Asia and external powers. By fostering consensus on issues such as water distribution, trade disputes, or border tensions, the two countries can demonstrate the utility of regional mechanisms over external arbitration. Simultaneously, their joint diplomacy in organizations such as the SCO, OTS, and the UN can amplify Central Asia’s collective voice on global challenges.

Conclusion

The strategic alignment of Uzbekistan and Kazakhstan has redefined the contours of regional cooperation in Central Asia. Their partnership, characterized by pragmatic diplomacy, shared cultural identity, and geopolitical complementarity, serves as a beacon of endogenous regionalism in a historically fragmented landscape. The post-2016 period has witnessed a deliberate shift from rivalry and inertia toward mutual accommodation and constructive leadership. This transformation is particularly significant in a region historically marked by bilateral disputes, institutional weakness, and external overreach.

What distinguishes the Uzbek-Kazakh tandem is not only the scale of their political and economic influence but also their ability to reframe regional integration as a shared developmental imperative rather than a zero-sum game. Through a series of high-level consultations, strategic agreements, and collaborative projects, both countries have laid the groundwork for what could become a new model of regionalism that is both inclusive and resilient. Their proactive engagement in forums such as the Consultative Meetings, the

Organization of Turkic States, and IFAS demonstrates a preference for multilateral diplomacy and collective problem-solving.

Nevertheless, the continued momentum of regional integration will depend on several important factors. Institutional frameworks are still evolving, and in the absence of binding legal instruments, much of the progress relies on the commitment and vision of current leadership. In addition, varying national priorities among Central Asian states, along with the growing interest of external actors in the region, may pose ongoing challenges to cohesive cooperation.

In this light, the future of Central Asian regionalism will likely be determined by the degree to which Uzbekistan and Kazakhstan can institutionalize their cooperation, broaden their inclusivity to engage other regional actors, and insulate their agenda from external geopolitical pressures. If successful, the Uzbek-Kazakh tandem could serve not only as a stabilizing force for Central Asia but also as a model for post-Soviet regional integration based on sovereign equality, shared responsibility, and mutual gain. The contours of regional cooperation in Central Asia are increasingly being shaped by their partnership, which is characterized by pragmatic diplomacy, shared cultural identity, and geopolitical complementarity. This evolving dynamic serves as a beacon of endogenous regionalism in a historically fragmented landscape. While significant barriers remain, especially in institutional design and multilateral cohesion, the momentum generated since 2016 offers a unique opportunity for Central Asia to evolve into a more interconnected and sovereign region. The success of this project will ultimately depend on sustained political commitment, visionary leadership, and the ability to translate bilateral synergy into regional institutional frameworks.

References

1. Bohr, A. (2021). Regionalism in Central Asia: Theoretical Reflections and Policy Implications. *Central Asian Survey*, 40(1), 17–35.
2. International Crisis Group. (2022). Uzbekistan-Kazakhstan Relations: Engines of Regional Integration? Europe and Central Asia Report No. 263. Retrieved from <https://www.crisisgroup.org>
3. Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan. (2023). Official Statements and Treaties. Government of Uzbekistan Archive.
4. Tokayev, K. (2022). "Central Asia: A Common Home for Shared Development." Speech at the Summit of the Organization of Turkic States. Astana.

5. United Nations Development Programme. (2023). Regional Cooperation and Sustainable Development in Central Asia: Trends and Challenges. UNDP Regional Report Series.
6. World Bank. (2024). Cross-Border Trade and Infrastructure in Central Asia: Policy Recommendations for Inclusive Development. World Bank Central Asia Briefs.
7. Dadabaev, T. (2018). Connectivity and Regional Integration in Central Asia: Post-Soviet Approaches. *Asian Journal of Comparative Politics*, 3(2), 111–129.
8. Laruelle, M. (2021). *The New Central Asia: Geopolitics, Security, and Political Economy*. Lexington Books.
9. Peyrouse, S. (2017). The Economic and Strategic Importance of Central Asia for Global Powers. *Journal of Eurasian Studies*, 8(1), 1–12.
10. Starr, S.F. (Ed.). (2011). *The Ferghana Valley: The Heart of Central Asia*. M.E. Sharpe.

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (ҚИРҒИЗИСТОН ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИ МИСОЛИДА)

ОТАБЕК АЛИМАРДОНОВ

*Ўзбекистонда ШХТ Халқ дипломатияси маркази
бош мутахассиси, PhD, доцент*

Халқ дипломатияси – давлат ва халқ ўртасидаги муносабатларнинг “юмшоқ куч” воситаси бўлиб, маданий алмашув, халқаро ҳамкорлик ва миллатлараро мулоқотни ривожлантиришга қаратилган.

Марказий Осиё минтақасида халқ дипломатияси тобора муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Ушбу ёндашув минтақавий барқарорликни мустаҳкамлаш, маданий ва ижтимоий алоқаларни ривожлантириш, шунингдек, давлатлараро “юмшоқ куч” воситаларини кенг қўллаш имконини беради. Қирғизистон мисолида, халқ дипломатияси маданий алмашув, адабиёт, спорт ва таълим соҳалари орқали кенг амалга оширилмоқда. Манас эпоси, Чингиз Айтматов мероси, Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари, Қирғизистон Халқ Ассамблеяси ҳамда университетларнинг роли бу жараёнда алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу мақолада Қирғизистоннинг халқ дипломатиясига оид механизмлари ва уларнинг халқаро майдондаги таъсири таҳлил қилинади.

Қирғизистон халқ дипломатияси ҳақида тўхталганда қуйидаги 5 та муҳим акторларнинг роли ва ўрнини алоҳида очиб бериш лозим ҳисобланади. Булар: Манас эпоси, Чингиз Айтматов ва Иссиқ-Кўл форуми, Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари, Қирғизистон Халқ Ассамблеяси, Қирғизистон университетлари.

Ушбу жадвалда Қирғизистон халқ дипломатияси акторлари кўрсатиб ўтилган.

	Акторлар	Фаолияти
1.	Манас эпоси	Манас эпоси халқ дипломатиясида миллий маданиятни тарғиб қилишнинг самарали воситаси сифатида хизмат қилади.
2.	Чингиз Айтматов ва Иссиқ-Кўл форуми	Чингиз Айтматов (1928–2008) ижоди нафақат миллий адабий мерос сифатида, балки Қирғизистоннинг халқ дипломатиясида ҳам муҳим рол ўйнайди. Биринчи Иссиқкўл форуми 1986 йилда ўтказилиб, унга ёзувчи Чингиз Айтматовнинг дўстлари таклиф этилган эди.

3.	Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари	Бутунжаҳон кўчманчилар ўйини (World Nomad Games) нинг асосий мақсади кўчманчи халқлар маданияти, анъаналари ва спорт турларини асраб-авайлаш, кенг жамоатчиликка тарғиб қилишдир. Унинг Қирғизистон халқ дипломатиясидаги ўрни катта ва муҳим ҳисобланади.
4.	Қирғизистон Халқ Ассамблеяси	Қирғизистон Халқ Ассамблеяси халқ дипломатиясида миллий тотувликни сақлаш, этник ва маданий турлиликни ҳимоя қилиш ҳамда халқлар ўртасида самарали мулоқотни йўлга қўйишда муҳим роль ўйнайди.
5.	Қирғизистон университетлари	Университетлараро ҳамкорлик ва хорижий талабаларни жалб қилиш орқали мамлакат халқ дипломатиясига ижобий таъсир кўрсатади

Манас эпоси Қирғизистон халқ дипломатиясида маданий мерос ва ўзаро тушунишни мустаҳкамловчи муҳим восита сифатида хизмат қилади. У халқларни бирлаштириш, миллий қадриятларни сақлаш ва халқаро майдонда миллий маданиятни тарғиб қилиш учун катта аҳамиятга эга.

Манас эпоси ва халқ дипломатияси ўртасида муҳим алоқалар мавжуд бўлиб, улар маданий дипломатиянинг самарали воситаси сифатида хизмат қилади. Аввало, шунини айтиш жоизки, Манас бу қирғиз халқи мансуб буюк қаҳрамонлик эпоси бўлиб, у миллий ўзлик, қадриятлар ва тарихий хотирани акс эттиради. Унда маънавий қадриятлар, эркинликка интилиш, адолат ва халқ бирдамлиги каби муҳим мавзулар акс этган. Манас эпоси орқали қирғиз халқи ўз миллий қадриятларини асраб-авайлайди ва келажак авлодларга етказди.

Иккинчидан, Манас эпоси қирғиз халқи маданий дипломатиясининг муҳим воситасидир. У қирғиз маданияти ва тарихи ҳақида халқаро жамоатчиликка маълумот беришда муҳим рол ўйнайди. Манас турли мамлакатлардаги маданий тадбирлар, форумлар ва фестивалларда намоиш этилиб, халқлараро мулоқотни рағбатлантиради. Бу эса Қирғизистоннинг халқаро майдондаги ижобий образини шакллантиришга ёрдам беради. Эпоснинг халқаро танилиши Қирғизистоннинг маданий дипломатияси учун катта имкониятлар яратади.

Учинчидан, Манас эпоси халқ дипломатиясида миллий маданиятни тарғиб қилишнинг самарали воситаси сифатида хизмат қилади. У миллий идентичликни мустаҳкамлаб, халқлар ўртасидаги маданий уйғунлик ва дўстликни мустаҳкамлайди. Манас эпоси асосида ташкил этилган тадбирлар (конференциялар, фестиваллар, спектакллар) орқали маданий

алмашув ва дипломатия амалга оширилади. Бу тадбирларда хорижлик олимлар, адабий танқидчилар ва маданият ходимлари қатнашади.

Тўртинчидан, халқаро манасхонлик орқали Қирғизистоннинг халқаро имиджи яхшиланади. Эпос орқали Қирғизистоннинг уникал маданий бренди сифатида халқаро майдонда танилади. Унинг ёрдамида мамлакат халқаро аренада маданий дипломатиядаги нуфузини оширади.

Чингиз Айтматов ва Иссиқ-Кўл форуми. Чингиз Айтматов (1928–2008) – XX асрнинг энг машхур қирғиз ёзувчиси ва жаҳон адабиётига катта таъсир кўрсатган адиб ҳисобланади. Унинг ижоди нафақат миллий адабий мерос сифатида, балки Қирғизистоннинг халқ дипломатиясида ҳам муҳим рол ўйнайди.

Ч.Айтматовнинг асарларида инсон ва табиат, халқлар ўртасидаги ўзаро тушуниш ва бағрикенглик мавзулари кенг ёритилган. Бу Қирғизистон халқ дипломатиясининг асосий элементларидан бири бўлган миллий маданият ва умуминсоний қадриятларни бирлаштирувчи куч ҳисобланади.

Ч.Айтматовнинг ижоди Қирғизистоннинг халқаро имиджини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. У қирғиз халқи ва маданиятининг дунё миқёсидаги энг машхур ва қадрланадиган кўринишларидан бирига айланди.

Қирғизистон халқ дипломатияси миллий маданият, адабиёт ва анъаналарни халқаро аренада тарғиб қилишга қаратилган. Чингиз Айтматовнинг ижоди эса бу жараёнда маданий дипломатиянинг муҳим қисмига айланди. Қуйидаги жадвалда Ч.Айтматов ва унинг ижодини қирғиз халқ дипломатиясига таъсирини кўриб чиқамиз.

	Чингиз Айтматов мероси	Халқ дипломатиясига таъсири
1.	Ч.Айтматов ижоди	Қирғизистоннинг миллий маданияти ва тарихини бутун дунёга танитишда кўплаб амалий имкониятлар яратди.
2.	Ч. Айтматов асарлари	Турли халқаро тадбирларда, фестивалларда ва маданий форумларда намоиш этилади.
3.	Айтматовшунослик	Хорижийтилларда нашрлар чиқариш ва тадқиқотлар олиб борилади, бу эса халқ дипломатиясининг илмий ва маданий асосларини мустаҳкамлайди.
4.	Иссиқ-Кўл форуми	Бутун дунёга Қирғизистон модели сифатида тинчлик дипломатиясини тарғиб қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Чингиз Айтматовнинг ижоди Қирғизистон халқ дипломатиясининг самарали воситаси сифатида хизмат қилади. У миллий маданиятни сақлаш

ва халқаро жамоатчиликка танитишда муҳим роль ўйнади. Айтматов орқали Қирғизистон ўз миллий идентичлигини сақлаб қолди ва халқаро майдонда маданий дипломатияда нуфузга эга бўлди.

Биринчи Иссиққўл форуми 1986 йилда ўтказилиб, унга ёзувчи Чингиз Айтматовнинг дўстлари таклиф этилган эди. Иккинчи Иссиққўл форуми 1997 йилда Қирғизистон пойтахти Бишкекда бўлиб ўтди. Учинчи форум Чингиз Айтматов туғилган кунининг 90 йиллиги муносабати билан “Хотира йили” деб эълон қилинган 2018 йилда 25 мамлакатдан 155 нафар зиёли иштирокида ўтказилди. 2020 йилда Бишкекда бўлиб ўтган 4-учрашувда форум номини “Чингиз Айтматов номидаги Халқаро Иссиққўл форуми” деб ўзгартириш тўғрисида қарор қабул қилинди.

Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари. Бутунжаҳон кўчманчилар ўйини (World Nomad Games) – бу йилдан йилга ўтказиладиган халқаро спорт ва маданий тадбир бўлиб, унинг асосий мақсади кўчманчи халқлар маданияти, анъаналари ва спорт турларини асраб-авайлаш, кенг жамоатчиликка тарғиб қилишдир. Унинг Қирғизистон халқ дипломатиясидаги ўрни катта ва муҳим ҳисобланади.

Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари Қирғизистон брендидир. Бутунжаҳон кўчманчилар ўйини Қирғизистон халқ дипломатиясидаги энг самарали ва кўзга кўринарли воситалардан бири бўлиб, у орқали мамлакат миллий маданиятини тарғиб қилади, халқаро ҳамкорликни кучайтириб, иқтисодий ва ижтимоий ривожланишга ҳисса қўшади. Шу билан бирга, у халқлар ўртасида мулоқотни ва бирдамликни мустаҳкамлайдиган муҳим платформадир.

У биринчи марта 2014 йилда ўтказилган. 2016 ва 2018 йилларда ҳам Қирғизистон мезбонлик қилган. 2022 йилда ўйинлар Туркияда бўлиб ўтган бўлса, 2024 йил Қозоғистонда ўтказилди. Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари лойиҳасининг асосий жиҳати спорт, маданий ва илмий дастурларнинг учлигидир. Бу компонентларнинг ўзаро алоқадорлиги миллий этник спорт турларини, умуман, кўчманчи маданиятни ҳар томонлама ўрганиш ва жаҳон миқёсида тарғиб қилиш имконини беради.

Остона шаҳрида бўлиб ўтган ўйинларнинг спорт дастури доирасида 20 та беллашув ва 10 та кўрғазмали спорт тури бўйича мусобақалар ўтказилди.

Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинининг халқаро миқёсдаги обрўси ортиб бормоқда. Бу Қирғизистоннинг халқаро аренада маданий ва спорт дипломатиясидаги нуфузини оширади. Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари ЮНЕСКОнинг номоддий маданий мероси рўйхатига киритилган. Бу

шунчаки спорт мусобақаси эмас, балки 80 тадан ортиқ мамлакатларни бирлаштирган кўчманчи халқларнинг маданий меросига чуқур сингдиришдир.

Ўзбекистонда 2026 йилда Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари бўлиб ўтади. [1]

Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинининг Қирғизистон халқ дипломатиясидаги ўрни ниҳоятда катта. Биринчидан, ушбу спорт ўйинлари орқали Қирғизистон кўчманчи халқ сифатида ўзининг бой маданий меросини, урф-одатлари ва анъаналарини халқаро ҳамжамиятга таништириш имконига эга бўлади. Яъни ўйинлар орқали мамлакатнинг миллий маданияти ва кўчманчи турмуш тарзи кенг аудиторияга етказилади. Қолаверса, бу халқлараро мулоқотни ривожлантириб, Қирғизистоннинг халқаро имиджини оширишга хизмат қилади. Иккинчидан, ўйинлар кўплаб хорижий спортчилар, маданият ва санъат ходимлари ҳамда туристларни жалб этади. Бу эса Қирғизистонга хориждан сармоя ва туристларнинг кириб келишини ошириб, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларга ижобий таъсир кўрсатади. Учинчидан, Бутунжаҳон кўчманчилар ўйини мамлакатнинг халқ дипломатиясидаги муҳим «юмшоқ куч» воситасига айланади. Тўртинчидан, ўйинларда Қирғизистоннинг миллий спорт турлари – көкбору, ат чаплаш, көчмөнчи курашлари каби ўйинлар намоиш этилади. Бу ўз халқининг маданий қадриятларига муҳаббатни кучайтиришга ва миллий идентичликни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Юқоридаги тўрт жиҳатнинг барчаси мамлакатнинг халқ дипломатияси доирасида миллий бирдамлик ва фахр туйғусини тарғиб қилишда муҳимдир.

Қирғизистон Халқ Ассамблеяси халқ дипломатиясида муҳим ва таъсирли институтлардан бири ҳисобланади. У мамлакатда этник ва маданий турлиликни мустаҳкамлаш, миллий тотувликни сақлаш ва халқлар ўртасидаги ҳамжиҳатликни ривожлантиришга қаратилган сиёсатни олиб боришда муҳим институт ҳисобланади.

Қирғизистон Халқ Ассамблеясининг мақсади ва вазифаларига мамлакатдаги барча этник гуруҳларнинг манфаатларини муҳофаза қилиш ва миллий тинчликни таъминлаш, миллий ва маданий муносабатларда ўзаро ҳурмат, тушуниш ва ҳамжиҳатликни ошириш, халқлар ўртасидаги мулоқотни йўлга қўйиш орқали миллий тотувликни сақлаш ва мустаҳкамлаш каби муҳим тамойиллар киради. Қирғизистон Халқ Ассамблеяси ташқи алоқаларда халқлараро мулоқот ва ҳамкорликни ривожлантиришда маданий дипломатиянинг муҳим тузилмаси

ҳисобланади. Ассамблея орқали мамлакат этник гуруҳлари ва қўшни давлатлар халқлари ўртасида самарали мулоқот йўлга қўйилади. Халқ дипломатияси доирасида халқаро маданий алмашинув, тадбирлар ва лойиҳалар ташкил этилади.

Ушбу ташкилот шунингдек, миллий маданиятларни сақлаш ва ривожлантириш, этник камситишга қарши курашишда фаол рол ўйнайди. Миллий фестиваллар, форумлар ва конференциялар орқали этник гуруҳлар ўртасида маданий уйғунлик ва бирдамликни мустаҳкамлайди. Халқ Ассамблеяси минтақадаги ва халқаро миқёсдаги этник ва маданий ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиб, халқлар ўртасида тинчлик ва ҳамжиҳатликни тарғиб қилади. Қирғизистоннинг халқ дипломатиясидаги нуфузини оширишга ҳисса қўшади. Ушбу ташкилот ташаббуси билан мамлакатда этник ва диний бағрикенгликни мустаҳкамлашга қаратилган лойиҳалар, турли миллатлар ва конфессиялар ўртасида ҳамкорликни кучайтириш бўйича форумлар ташкил этилмоқда. Қирғизистон Халқ Ассамблеяси халқ дипломатиясида миллий тотувликни сақлаш, этник ва маданий турлиликни ҳимоя қилиш ҳамда халқлар ўртасида самарали мулоқотни йўлга қўйишда муҳим роль ўйнайди. У миллий ва халқаро даражада Қирғизистоннинг ижобий имиджини шакллантиришда халқаро ҳамкорлик ва маданий дипломатиянинг асосий воситаси ҳисобланади.

Қирғизистон олий таълим тизими. Қирғизистон, хусусан, Бишкекдаги олийгоҳлар (масалан, Қирғизистон-Туркия Манас университети) орқали хорижлик талабаларни ўзига жалб қилмоқда. Бу таълим дипломатияси орқали бошқа давлатлардаги элиталар орасида Қирғизистонга нисбатан ижобий қарашлар шаклланимоқда.

2022/2023 ўқув йилида Қирғизистонда 71 минг 700 нафар хорижлик талаба таҳсил олган. Уларнинг 40 минг 282 нафарини Ўзбекистон фуқаролари ташкил этади.

2022/2023 ўқув йилида Қирғизистонда таҳсил олган талабаларнинг 43 мингдан ортиғини МДХ мамлакатлари фуқаролари ташкил этган.

МДХ давлатлари:

Ўзбекистон - 40 282;

Қозоғистон - 3 179;

Россия - 1 916;

Тожикистон - 876;

Туркменистон - 64;

Бошқа давлатлар - 36.

МДХдан ташқари давлатлар:

Ҳиндистон – 15 306;
Покистон – 8 407;
Туркия - 467;
Хитой - 399;
Афғонистон – 347;
бошқа давлатлар – 395

Қирғизистон Миллий статистика қўмитаси маълумотиға кўра, 2012/2013 ўқув йилида хорижлик талабаларнинг сони 11 минг 300 нафарни ташкил этган. Қирғизистонда таълим олган талабаларнинг энг кўпи Қозоғистон (4357), кейинги ўринларда Ўзбекистон (1219) ва Ҳиндистон (1137) мамлакатлари бўлган. [2]

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, Қирғизистон тажрибаси халқ дипломатиясининг самарали йўналишлари қандай бўлиши мумкинлигини яққол намоён этади. Манас эпосининг миллий ва халқаро аҳамияти, Чингиз Айтматов ижодининг маданий кўприк сифатидаги роли, Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинлари орқали маданий меросни асраш ва оммалаштириш, Халқ Ассамблеяси орқали этник тотувликни таъминлаш ва университетлар орқали таълим дипломатиясини амалга ошириш Қирғизистоннинг халқ дипломатиясидаги стратегик ютуқларидир. Ушбу воситалар Қирғизистоннинг халқаро имижини кучайтириб, минтақада барқарорлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда. Шу боисдан, Қирғизистон модели Марказий Осиё давлатлари учун намунавий тажриба сифатида қаралиши мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон президенти Бутунжаҳон кўчманчилар ўйинларининг очилиш маросимида иштирок этди.
<https://sputniknews.uz/20240909/mirziyoev-butunjahon-kochmanchilar-marosim-45537606.html>
2. Сколько иностранных студентов учатся в Кыргызстане.
https://ru.sputnik.kg/20230611/kyrgyzstan-inostrannye-turisty-1076129700.html?_ga=2.120392648.1988519613.1748260163-1644967435.1748260163

MARKAZIY OSIYO XALQLARI PEDAGOGIK QARASHLARI TARAQQIYOTIDA ABDULLA AVLONIY ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

KUMUSH XAMRAKULOVA

O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston jadidchiligining yirik namoyondasi Abdulla Avloniy pedagogik merosining Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik qarashlari rivojlanishidagi o'rni turli manbalar va adabiyotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *jadidchilik, didaktika, "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq".*

Dunyo ilm-fani taraqqiyotiga turkiy xalqlarning ta'siri ko'plab mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, pedagogika sohasi bu borada istisno emas. Ma'lumki, taraqqiyotni ta'minlashda pedagogikaning ahamiyati kattadir. Zeroki, XVI-XVII asrlarda Yevropada pedagogika sohasining rivojlanishi, ushbu sohada yetakchi mutafakkirlarning yozgan asarlari qit'ada ta'limning rivojlanib, bu o'z navbatida Renessansning Ma'rifatparvarlik davriga o'tib borishiga xizmat qildi. Xuddi shu davrda turkiy tilli mamlakatlarda dunyoviy ilm-fanga qiziqishning pasayishi ularning taraqqiyotdan orqada qolishiga va bu, o'z navbatida Yevropa davlatlari mustamlakasiga aylanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari joylashgan tarixiy Turkiston o'lkasi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi.

Turkiy xalqlarning ziyoli, millatparvar namoyondalari ushbu holatdan xulosa chiqarib, fan, ta'lim va madaniyatda o'ziga xos modernizatsiyani amalga oshirib, yangiliklar kiritishga harakat qilishdi. Bu XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharq uyg'onish davri deb atalgan harakatning Turkistondagi ko'rinishi – jadidchilikda namoyon bo'ldi. Ushbu harakatning yetakchilaridan biri Abdulla Avloniy edi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) – turkiy xalqlar pedagogik sohasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan pedagog-olim, jadidlar yetakchilaridan biri, adib, jamoat arbobi. Adibning pedagogika sohasiga oid "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" va "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlari turkiy xalqlar pedagogik qarashlari rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

"Birinchi muallim" 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan. U, muallif ta'kidlaganidek, "avvalgi sinf shogirdlari uchun" yozilgan edi. Avloniy uni yozishda o'ziga qadar mavjud bo'lgan darsliklarga, birinchi navbatda,

Munavvarqorining “Adibi avval”i va Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”iga suyandi. Dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalandi. Pirovard natijada zamon talablariga javob bera oladigan, ayni paytda Aziziy boshlab bergan yo’lni takomillashtiruvchi original asar yozishga muvaffaq bo’ldi [5, 34].

Muallif kitobida oddiydan murakkabga borish prinsipiga qat’iy amal qiladi, uni “tadrijiy sur’atda tartib et”adi. Darslar harflar alifbosi tartibida keltiriladi. So’ng navbati bilan qaysi o’rinda qanday yozilishi va ularga oid ixcham, sodda misollar beriladi. Bosh harflar, o’rta harflar, oxir harflar tushuntiriladi. Nihoyat, matnlarga o’tiladi: dastlabki matni “Maktab” deb atalgan. Unda, tabiiyki, maktabning fazilatlarini haqida gap ketadi. Adib o’z so’zlarini:

Taraddud birla makabda o’qing o’g’lonlar, o’g’lonlar,

Bo’lursiz bir kuni olamda zo’r insonlar, o’g’lonlar, [1, 97] – satrlari bilan tugatadi.

“Ikkinchi muallim” yuqoridagi kitobning bevosita davomi, “Alifbodan so’ng o’qutmak uchun” yozilgan, “axloqiy hikoyalar, adabiy she’rlar ila ziynatlangan”. Binobarin, u – darslik-majmua. Kitob dastlab 1912-yilda Toshkentda G’ulom Hasan Orifjonov litografiyasida bosilib chiqdi. So’ngra 1915–1917-yillarda qayta nashr qilindi. Boshqa asarlaridagi singari bunda ham nashrlar o’zaro farq qiladi, mukammallashib boradi. Asarga:

*Shavkati inson erur ilm-u adab,
E’tibor etmas anga mol-u nasab. –*

degan satrlar epigraf qilib olingan. Kitobning birinchi nashridagi hikoyalar qirqdan kam edi, so’nggi nashrida ular qirqdan ortiq. Hikoyalar aksari nasriy bo’lib, ularning barchasi bolalarning yoshiga, aqliga, savodiga mos. “Birinchi muallim”dagi singari Avloniy bu asarida ham hikoyalarning hayotiy va qiziqarli bo’lishiga, ifodaning sodda va aniqligiga alohida e’tibor beradi. “Eng oson usul ila”, “Ochuq til va oson tarkib ila” yozishga harakat qiladi. Kitobni o’qir ekanmiz, Avloniyning xalq og’zaki ijodidan samarali foydalanganini yaqqol ko’ramiz. Ulardan chiqariladigan hissa ham ko’pincha xalq maqollaridir. Ayni chog’da u Sharq she’riyatining o’lmas asarlaridan oziq oldi. Adibning bir qator hikoyalarida Navoiyning mashhur “Hayrat ul-abror”i, Sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston”i ta’siri ochiq ko’rinib turadi. Ba’zan o’zbek adabiyotida hikoyachilikni yuqori bosqichga olib chiqqan Poshshoxo’janing “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” to’plamlaridagi ma’lum va mashhur hikoyalarni qayta ishlash, davrga moslashtirish seziladi.

Adib XIX asr rus klassik adabiyotidan, ayniqsa, L.N. Tolstoy va I.A.Krilov asarlaridan ham ayrimlarini ijodiy qayta ishlab, o’z asarlarida ulardan foydalanadi.

1913-yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosilib chiqdi [3, 366]. 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Lekin XX asr boshidagi turkiy xalqlar ma’rifatchiligining noyob hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” – axloq haqida fikr yuritiladi.

Avloniy o‘z asarini yaratishda Shayx Sa’diy izidan bordi. Kitobning “Turkiy guliston yoxud axloq” deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so‘ng so‘zida alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. U shunday yozadi: “Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi afrodi shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i, o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldug‘imdan, manga ham ochiq ma’lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram Shayx Sa’diy usulinda yozmakni, garchi og‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddasi bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”.

Avloniy axloq to‘g‘risida “Guliston”ga o‘xshash bir asar yozar ekan, shu bahonada zamonasining muhim, dardli masalalarini ham asarga g‘oyat ustalik bilan singdirib keta oldi. Bular huquqsizlik, mustamlakachilik asoratlari bilan bog‘liq tutqunlik va turg‘unlik edi. Adibni xalqning nochor, g‘arib turmushi chuqur o‘yga soladi:

*Har kun o‘luram shomgacha man g‘amga giriftor,
Har shab yonuram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu mani ahvolima voqif,
Man xastayamu millatim o‘lmish nega bemor?*

Asarning ilk sahifasida keltirilgan bu to‘rtlik unga bermalol epigraf bo‘la oladi. Shoir har bir axloqiy tushunchani talqin qilar ekan, uni bevosita o‘z davri masalalari bilan bog‘laydi va kitobga o‘sha zamon nafasini olib kirishga muvaffaq bo‘lgan.

Avloniy adolatni, har bir millatning ozod va baxtli bo‘lish huquqini dunyoning asosi deb bildi, birovga “jabr qiluvchining yoqasi hech qachon jazo qo‘lidan qutula olmas‘ligini aytdi. Zulmni qoralab, “quvvatsizlar” g‘amini ko‘tarib chiqdi [4, 54].

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, adibning har ikki “Muallim”dagi ixcham she‘rlari va nasriy hikoyalari, bir tomondan usuli jadid maktablari darsliklarining mazmun va tuzilishini anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan jadid adabiyotining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. Bejiz emas, tadqiqotchi R.Barakayev Avloniy va XX asr o‘zbek bolalar

adabiyoti masalasini atroflicha o'rganib, uni ushbu sohaning "yetakchi namoyandasi" sifatida baholaydi [2, 27].

"Turkiy guliston yoxud axloq" XX asr boshlaridagi turkiy xalqlar pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki umuman bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. // Tahrir hay'ati: N. Karimov va boshq.; To'plovchi: B. Qosimov; Izohlar va lug'atni O. To'laboyev tuzgan /. – T.: "Ma'naviyat", 2006.
2. Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва А.Авлоний ижоди. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 1994.
3. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар) // Масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев. – Тўлдирилган қайта нашр. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1999.
4. Oltinbek Olim. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
5. Қосимов Б. Абдулла Авлоний, Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: "Маънавият", 1998.



II QISM

TURKIYA VA ROSSIYANING GEOSIYOSIY MANFAATLARI KESIMIDA HUDUDLAR TASNIFI

JAVOHIR DALIMIRZAYEV

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy

siyosiy jarayonlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M.Nazirov

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiya va Rossiyaning geosiyosiy manfaatlari ularning hududiy siyosati kontekstida tahlil qilinadi. Tarixiy raqobat, xavfsizlik konsepsiyalari va mintaqaviy ta'sirni kengaytirishga intilish bu ikki davlatning strategiyasiga asos bo'lmoqda. Rossiyaning realizmga asoslangan hududiy siyosati va Turkiyaning mintaqaviy faolligi ko'plab qarama-qarshi holatlarni yuzaga keltiradi. Maqolada Kavkaz, Qora dengiz, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq kabi strategik hududlardagi raqobat hamda hamkorlik imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, Turkiyaning mintaqaviy kuchga aylanish harakatlari va Rossiyaning geosiyosiy ta'sirining pasayishi o'zaro kuch muvozanatiga qanday ta'sir qilayotgani ko'rib chiqiladi. Muallif ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni doimiy raqobat va vaqtinchalik ittifoqlar orqali baholaydi hamda bu jarayonni "pragmatik raqobat" deb ataydi.

Kalit so'zlar: *geosiyosat, Turkiya, Rossiya, hududiy siyosat, Markaziy Osiyo, Qora dengiz, Yaqin Sharq, Pragmatik ittifoqlar, hududiy ta'sir.*

Kirish. Bir necha yillar oldin amerikalik mutafakkir Robert Kaplan "Geografiyaning qasosi" nomli kitob yozgan edi. Unda millatning qudrati va xavfsizlik strategiyasi geografiya bilan bog'liq ekanligi hamda geografiyadan foydalanish farovonlikni ta'minlashi va ta'sirini kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlangan[1]. Bu holat Rossiya va Turkiya uchun ham xosdir. Ushbu ikki davlat uchun atrofdagi tabiiy geografik hududlarni nazorat qilishgina ichki barqarorlik va mintaqaviy muvozanatni kafolatlaydi. Muammo, har biri o'z ta'sir doirasi deb hisoblaydigan hududlar qo'shnilar ta'sir doirasi bilan ustma-ust kelganda yuzaga keladi.

Yevrosiyaning qator mintaqalari xususan, Markaziy Osiyo, bugungi kunda Rossiya va Turkiya kabi yirik geosiyosiy aktorlar o'rtasida raqobat kuchayib borayotgan strategik mintaqaga aylangan. Ushbu ikki davlat o'zining tarixiy,

madaniy va xavfsizlik doiralaridan kelib chiqib, bu hududni ta'sir zonasi sifatida ko'radi. Rossiya, sobiq Sovet ittifoqi merosxo'ri sifatida, Markaziy Osiyoni "yaqin xorij" konsepsiyasi doirasida ko'rib, Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi va boshqa hamkorlik shakllari orqali mintaqadagi ustuvor pozitsiyasini saqlab qolishga intiladi. Turkiya esa etnik, diniy va madaniy umumiylikni asos qilib olgan holda, iqtisodiy hamkorlik, madaniy diplomatiya va harbiy-texnik sheriklik orqali mintaqadagi ishtirokini kengaytirishga harakat qilmoqda. Ushbu strategiyalar zahirida, har ikki davlatning milliy manfaatlaridan kelib chiqadigan geosiyosiy intilishlar yotadi. Natijada, Markaziy Osiyo hududi Rossiya va Turkiya o'rtasidagi mintaqaviy raqobat va hamkorlik kontekstida yangi kuchlar muvozanatini shakllantiruvchi geostrategik makonga aylanmoqda.

Rossiya va Turkiya – xalqaro tartibotdagi xatti-harakatlari asosan geosiyosiy ambitsiyaga ega kuchlar o'rtasidagi munosabatlarning realizm konsepsiyasiga mos keladigan ikki davlatdir. Ikkalasi ham suveren davlatlar, biroq ular geografik yaqinlik, mintaqaviy raqobat va manfaatlar uyg'unligidan kelib chiqadigan yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlikni ham saqlab turadi.

Suverenitet ular uchun o'z xavfsizlik muammolarini kuchga asoslanib – hudud hajmi, demografik imkoniyatlar, boylik va harbiy kuch orqali – hal qila olish qobiliyati sifatida tushuniladi[2].

Shu bois, ularning xatti-harakatlari milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan – ya'ni boshqa mintaqaviy va global kuchlarga nisbatan o'zlarida mavjud bo'lgan kuch miqdori asosida – belgilanadi. Ushbu omillar qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha qudratli bo'ladi.

Qora dengiz, Kavkaz, Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi namoyon bo'layotgan turlicha to'qnashuv yoki hamkorlik yondashuvlari ham tarixiy ildizga ega xavfsizlik tushunchasidan kelib chiqadi. Bu esa ular adolatsiz deb biladigan va o'zlarini qulay his qilmaydigan xalqaro tartibotda kuchlar taqsimotiga qarshilikka asoslangan.

Rossiya va Turkiya yuzaga kelgan tarixiy lahzalarda yoki sharoitlarda, odatda, qo'shnilar ustidan o'z ustunligini o'rnatish orqali, yoki agar bu imkonsiz bo'lsa, ular bilan hamkorlik qilish orqali milliy qudratini oshirishga intilgan.

Ularning milliy siyosati asosan geosiyosiy xarakterga ega bo'lib, raqobatlashilayotgan geografik hududlarda ustunlikni qo'lga kiritish yoki, agar bu imkonsiz bo'lsa, boshqa tomonlarning bunday ustunlikka erishishini oldini olish maqsadida vaziyatga qarab ittifoqlar tuzish tamoyiliga asoslanadi.

Bu ular o'rtasida to'qnashuv doimiy va tabiiy holat degani emas. Shuningdek, raqobat faqat qo'shni geografik hududlar yoki harbiy soha bilan cheklanadi, degani ham emas. Ammo har bir davlat o'z manfaatlariga eng mos

keladigan strategiyani, ko'pincha boshqalarning hisobiga bo'lsa ham, pragmatik tarzda belgilaydi.

Shu tariqa, Rossiya va Turkiya har bir geosiyosiy voqealikda o'z milliy manfaatlari nuqtai nazaridan qarab, kuch ishlatish yoki ishlatmaslik va buni qachon amalga oshirishni belgilaydi. Bu esa ularning tarixida doimiy to'qnashuv bo'lganini va ular o'rtasida har qanday vaqtda urush chiqishi ehtimoli mavjudligini anglatadi.

Biroq ular pragmatik davlatlar bo'lgani uchun, siyosatlarini mafkuraga emas, balki milliy manfaatlarga asoslaydilar. Shu sababli, ular o'zaro ittifoq tuzishga ham tayyor bo'ladilar, agar bunday qadamning qiymati ular uchun maqbul bo'lsa, va bu ittifoqlar vaqt va hudud jihatidan o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Turkiya va Rossiyani geosiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilib chiqsak va taqqoslasak, Rossiya kuchliroq ekanligi ayon bo'ladi. Uning geografik hududi Turkiya hududidan yigirma baravar katta. Rossiya 140 million va Turkiya 85 million atrofidagi aholiga ega. Iqtisodiy jihatdan ham Rossiya nisbatan boyroq. Rossiyaning xarid qobiliyati paritetiga ko'ra hisoblangan yalpi ichki mahsuloti Turkiyanikidan bir yarim baravar katta[3].

Agar harbiy sohani ko'rib chiqsak va Ukrainadagi urush natijasida yuzaga kelgan yo'qotishlarni hisobga olmasak, qiyoslash uchun Rossiyaning qurolli kuchlari son jihatidan Turkiya va Eron qurolli kuchlarining yig'indisiga teng. Rossiyaning harbiy sanoati ham boshqa ikki davlatnikiga qaraganda ancha qudratli. Biroq, so'nggi yillarda Turkiya harbiy sanoati ham sezilarli o'sdi va ba'zi sohalarda, masalan, dron texnologiyasi kabi yo'nalishlarda, texnologik yetakchilikni qo'lga kiritdi[4].

Boshqacha aytganda, faqat miqdoriy ko'rsatkichlar nuqtayi nazaridan qaraganda, Rossiya katta davlatlarga xos ba'zi xususiyatlarga ega. Biroq Ukrainadagi urushdagi ishtiroki, demografik zaifliklari va eng ilg'or texnologiyalarni o'zlashtira olmaganligi sababli uni tanazzulga yuz tutayotgan kuch sifatida ham ta'riflashimiz mumkin. Rossiyaning harbiy va iqtisodiy salohiyati zaiflashmoqda hamda AQSh va Xitoy kabi global yetakchi kuchlardan tobora ortda qolmoqda.

Aksincha, Turkiyaning Ukrainadagi urushda bevosita ishtirok etmagani, ularning demografik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi va, hozirgi Turkiyadagi inqirozga qaramasdan, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining ortishi uning geosiyosiy og'irligini mutlaq jihatdan oshirdi va Rossiyaga nisbatan farqni qisqartirdi.

Ushbu ikki kuchning o'zaro kuch munosabatlaridagi yanada tenglashuv tabiiy ravishda aks etmoqda. Agar geosiyosiy tahlilni davom ettirib, bu ikki kuchni xarakterlovchi umumiy xususiyatlarni aniqlasak, quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, ularning ikkalasi o'zlarini tarix kelajagida fundamental rol o'ynashga mahkum etilgan, messianistik tasavvurga ega davlatlar deb hisoblaydi.

Ikkinchidan, bu ikki davlat – Rossiya va Turkiya – mavjud liberal tartibotni tanqid qiluvchi va o'zlarini uning qurboni sifatida ko'radigan revizionist kuchlardir. Turli pozitsiyalardan kelib chiqib, ular mavjud tartibot ularning manfaatlariga zid ekanligiga ishonishadi.

Masalan, Rossiya, Xitoy bilan hamkorlikda xalqaro kuchlarni yanada teng taqsimlaydigan va AQShning global ustunligini yo'qotadigan alternativ tartibot yaratishga intilmoqda.

Turkiya esa liberal tartibotni ochiqchasiga rad etmaydi; aksincha, mavjud noaniqlik sharoitida yirik kuchlar o'rtasidagi raqobat orqali unga taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z manfaatlarini ilgari surishga harakat qiladi.

Uchinchidan, ushbu ikki davlatni xalqaro maydondagi xatti-harakatlarida kuchli mafkuraviy tafakkurga ega, avtoritar yetakchilar boshqaradi. Ikkalasining ham ekspansionistik intilishlari mavjud.

Bu intilishlar ba'zida geosiyosiy xarakterga ega bo'lib, ular o'z ta'sirini periferiya hududlariga yoyishga intiladi – Rossiya buni “yaqin xorij” deb ataydi. Ba'zida esa ideologik tusga ega bo'ladi, masalan, Turkiya misolida bo'lgani kabi. Xalqaro munosabatlar konturida Turkiyada islomiy tendensiyalar kuchayib borayotgani bilan birga, ilgari Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan va hozir ham “o'z ta'sir doirasida bo'lishi kerak” – deb hisoblaydigan qo'shni hududlarda geosiyosiy ambitsiyalari mavjud.

To'rtinchidan, bu ikki kuch o'z manfaatlarini ilgari surish uchun kuch ishlatishga tayyor. Ular buni bevosita, vositachi kuchlar – ya'ni “proksi”lar – orqali, yoki gibril strategiyalardan foydalanib amalga oshiradi. Masalan, Rossiya Suriyada yoki Liviyada Vagner harbiylashtirilgan kompaniyasidan foydalansa, Turkiya Kavkazda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Armanistonga qarshi Ozarbayjondan vositachi kuch sifatida foydalandi.

Nihoyat, bu ikki davlat pragmatik kuchlardir. Ular qarama-qarshi kuchlar bilan kelishuvga erisha oladi va ayrim vaziyatlarda bir-biri bilan ittifoq tuzib, boshqa holatlarda esa raqobat yurita oladi.

Ikkala davlatning geosiyosiy modellari ko'plab umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har birining uni boshqalaridan ajratib turuvchi o'ziga xos jihatlari mavjud. Rossiya har doim imperiyachilik da'vosiga ega bo'lgan va o'zini taqdir

tomonidan tanlangan xalqlardan biri sifatida ko'rgan. Bu xalq Sharq va G'arb o'rtasida vositachilik qilish hamda slavyan xalqlarining huquqlarini himoya qilish kabi messianik vazifani bajarishi kerak deb hisoblaydi.

Rossiya tarixi an'anaviy tarzda kuch ishlatishga asoslangan ekspansionistik siyosati bilan ajralib turadi. Bu siyosat G'arbiy Yevropadan Tinch okeanigacha cho'zilgan keng hududlarni zabt etishga qaratilgan. Asrlar davomida kengayish janubga – Kavkaz tog'lari va Markaziy Osiyo tog' tizmalariga, sharqqa – Tinch okeanigacha va shimolga – Arktikaning muzli suvlariga tomon yo'naltirilgan edi.

Biroq Rossiyaning g'arbga qarab kengayishi bir nechta muammolarni yuzaga keltirdi. U yerda tabiiy to'siqlarning yo'qligi tabiiy chegaralarni yaratishni qiyinlashtirgan, shuningdek, u tarixan qudratli Yevropa davlatlari bilan to'qnashgan.

Rossiyaning ushbu mintaqadagi geosiyosiy konsepsiyasi doimiy ravishda Markaziy Yevropa davlatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvlarning oldini olish uchun tampon zonalar va shunday atalgan "tampon davlatlar" yaratishga asoslangan edi.

Rossiyaning davlat sifatidagi geosiyosati rus davlatchiligining boshidanoq xavfsiz chegaralarni izlashga asoslangan. Biroq bu kengayish tinch yo'l bilan emas, balki chuqur tajovuzkorlik bilan kechgan[5]. Pyotr I davridan boshlab Rossiya yetakchilari mamlakat farovonligi va buyukligi yo'lida kuch ishlatish zarurligini takrorlab kelganlar, hatto bu Rossiyani doimiy urush holatida ushlab turishni anglatgan bo'lsa ham.

Shu ma'noda, Rossiya davlatining qarashlari tubdan geosiyosiy xarakterga ega bo'lgan. U o'z geografiyasidan – shimol-janub va janub-shimol yo'nalishida oqib o'tuvchi tezkor daryolar tarmog'idan – va ayniqsa, Yevropa istilolaridan muhim tarixiy daqiqalarda himoya qilib kelgan qattiq iqlim xususiyatlaridan foydalangan.

Rossiyaning bu yondashuvi realizm tarafdori bo'lgan siyosiy nazariyotchilar, masalan, Jon Mersheimer ta'riflaganidek, yirik davlatlarga xos geosiyosiy xatti-harakatni aks ettiradi: "avval ular mintaqaviy darajada kengayadi, keyin esa global darajaga chiqib, ilgari hukmron bo'lgan kuchlar bilan to'qnashadi"[6].

Rossiyaning ekspansiyasidagi eng yuqori nuqta Sovuq urush davriga to'g'ri kelgan, bu davr tugashi va buning natijasida yuzaga kelgan geografik chekinish esa o'zini doimo global kuch sifatida tasavvur qilgan Rossiya uchun og'ir zarba bo'ldi.

Shu bois, zamonaviy Rossiya geosiyosati imkon qadar yo'qotilgan hududlarni tiklashga qaratilgan. Bu maqsadga, xususan, XXI asrning ikkinchi o'n

yilligidan boshlab ilgari surilgan Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi loyihasi xizmat qiladi. Ushbu loyihada tarixan turkiy dunyoga mansub va, qisman, eroniy ta'sirda bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston va Qirg'iziston) va Yevropa davlatlari (Belarus) birlashtiriladi.

Bu siyosiy tajribada Ukraina muhim rol o'ynaydi. Ukraina Rossiyaning og'irlik markazini haddan tashqari Osiyoga siljishining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xuddi shuningdek, Kavkaz ham Rossiya uchun "yaqin xoriy" doirasidagi hudud sifatida ko'riladi va shu sababli u Rossiya siyosiy doiralaring tafakkurida Rossiya ta'sir doirasiga kirishi kerak deb hisoblanadi.

Bunday ulkan ekspansionistik geosiyosiy dizaynning muammosi shundaki, Rossiya o'z ta'sir doirasini qayta shakllantirishni amalga oshirish uchun yetarli geosiyosiy og'irlikka ega emas va bu jarayonda Turkiya kabi qo'shnilari bilan to'qnashishi muqarrar. Natijada, Rossiyaning geosiyosiy ambitsiyalari uning muvaffaqiyat erishish imkoniyatlaridan oshib ketadi.

Rossiyaning yalpi ichki mahsuloti boshqa yirik davlatlar bilan solishtirganda nisbatan past va uning aholisi keskin demografik tanazzulni boshdan kechirmoqda. Shunday sharoitda Rossiyaning global kuch maqomini saqlab qolish imkoniyatini faqat harbiy va yadroviy salohiyati hamda, asosan, energetika kabi tabiiy resurslari ta'minlashi mumkin.

Biroq, bu maqomning saqlanib qolishi Ukrainadagi urush natijalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Rossiyaning ekspansionistik xatti-harakati tarixan uni Turkiya kabi qo'shni kuchlar bilan to'qnashuvga olib kelgan va deyarli doimiy mojarolar holatini yuzaga keltirgan. An'anaviy ravishda bu to'qnashuvlarda Rossiya ustun kelgan. Biroq, bugungi kunda vaziyat o'zgargan. Ukrainadagi urush natijasida Rossiyaning zaiflashgani Turkiya uchun manfaatlarga ega bo'lgan chegara hududlarida, an'anaviy ravishda Rossiya ta'sir doirasida bo'lgan hududlarda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyatini yaratmoqda.

Bu nuqtayi nazardan, Turkiyaning geosiyosiy xatti-harakati "o'rta kuchlarning uyg'onishi"[7] deb atalishi mumkin bo'lgan tendensiyaga mos keladi.

Turkiya misolida, uning Osiyo, Afrika va Yevropa o'rtasidagi strategik joylashuvi va mintaqah davlatlari bilan mushtarak tarixiy va diniy o'tmishning mavjudligi unga Kavkaz, Markaziy Osiyo, Bolqon va Yaqin Sharq mintaqalarida kuchli ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro tizimdagi tartibsizliklardan foydalanib, u mintaqaviy dominant kuchga aylanishga harakat qilmoqda va Rossiya bilan teng raqobat qilish imkoniyatiga ega.

So'nggi yillarda Turkiya geosiyosatda aql bilan olib borilgan tashqi siyosatni rivojlantirib kelmoqda. Ukrainadagi urush bu siyosatni yanada kuchaytirdi[8].

Turkiya ushbu siyosatni mojarolardan va keskinliklardan foydalanish, shuningdek, Rossiya, AQSh va Fransiya kabi boshqa kuchlarning ayrim geografik hududlardan chekinishi natijasida yuzaga kelgan kuch bo'shliqlaridan foydalangan holda olib bormoqda.

Bu konsepsiyaga Turkiyaning geosiyosiy maqsadlar yo'lida "yumshoq kuch"dan foydalanishi ham kiradi. Masalan, Qora dengiz orqali Ukraina g'allasini eksport qilish bo'yicha kelishuvda vositachilik qilishi, Suriyadagi vaziyatda ba'zi paytlarda Rossiya bilan ittifoq tuzishi yoki Kavkazdagi manfaatlarini ilgari surishda Ozarbayjondan vositachi davlat sifatida foydalanishi bunga misol bo'la oladi.

Mustaqillik davrida, Mustafo Kamol Otaturk davrida ishlab chiqilgan va "Turkiyada tinchlik, dunyoda tinchlik"[9] tamoyiliga asoslangan an'anaviy turk geosiyosati yangi davrda neoimperializm bilan almashtirildi. Ushbu neoimperializmning yakuniy maqsadi sobiq Usmoniylar imperiyasini imkon qadar kengroq geografiyada qayta tiklash bo'lishi mumkin.

Bu o'zgarish Prezident Erdog'an boshchiligidagi AKP partiyasining tashqi siyosatida burilish yasadi. XX asr oxirlarida bu siyosat "qo'shnilar bilan muammolarsiz munosabatlar" tamoyiliga asoslangan edi. Bu orqali Anqara Turkiyaning ta'sirini savdo aloqalarini rivojlantirish, demokratiyani targ'ib qilish va islomiy identitetini ta'kidlagan holda kengaytirishga intildi[10]. Biroq 2000-yillardan boshlab bu siyosat ichki siyosatda avtoritarlikning kuchayishi va xalqaro maydonda yanada qat'iyroq faoliyat bilan almashtirildi.

Sobiq tashqi ishlar vaziri Ahmet Davuto'g'lining so'zlariga ko'ra[11], Turkiya endi Yaqin Sharq, Bolqon, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Kaspiy, O'rta yer dengizi, Fors ko'rfazi va Qora dengiz mintaqalarida "strategik kenglik" ka ega mamlakat sifatida o'zini ko'radi. Bu unga ko'p yo'nalishli tashqi siyosat olib borish va global siyosatda markaziy rol da'vo qilish imkonini beradi.

"Strategik kenglik" doktrinasini, Adolat va rivojlanish partiyasi tashqi siyosatining asosiy yo'riqnomasiga aylangan, Turkiyaning ushbu mintaqalarda bir vaqtning o'zida ta'sir o'tkazish va global strategik rolga da'vo qilish imkoniyatini ko'zda tutadi. Unga ko'ra Turkiya o'zining tarixiy va geografik kengligiga mos keladigan hududlarda Usmoniylar merosi bilan yanada kuchaytirilgan faol tashqi siyosatni rivojlantirishi kerak. Ushbu doktrinaning to'liq rivojlanishi esa yaqin va o'rta kelajakda Turkiyani Rossiya va Eron bilan to'qnashuviga olib keladi.

Xuddi shuningdek, Turkiyaning "Moviy Vatan" strategiyasi[12] ham Turkiya ta'sirini mintaqada kengaytirishga qaratilgan bo'lib, uning yakuniy

maqsadi O'rta yer dengizida hukmronlik qilish va Usmoniylar imperiyasi davridagi savdo va dengiz qudratini qayta tiklashdan iborat.

Bu strategiya O'rta yer dengizidagi dengiz chegaralarini kengroq deb hisoblash bilan bir qatorda, Turkiyani dengiz kuchi sifatida qayta joylashtirishga urinishni ham anglatadi. Shu ma'noda, va strategiya mualliflarining bayonotiga ko'ra, Turkiyaning geosiyosiy manfaatlari asosan geosiyosiy motivatsiyalarga asoslangan bo'lib, ularning markazida Turkiyaning G'arbga nisbatan noroziligi yotadi.

Bundan tashqari, Turkiya geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan Bosfor va Dardanel bo'g'ozlariga egalik qiladi. Bu bo'g'ozlar Qora dengiz va Egey dengizini bog'lovchi, har yili yuzlab million tonna yuk o'tadigan hayotiy dengiz yo'llaridir. Ularning nazorati Turkiyaga 1936-yilda Montryo konvensiyasi orqali berilgan. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush esa bu bo'g'ozlarning strategik ahamiyatini keskin oshirib yubordi.

Biroq Turkiyaning ambitsiyalari buning bilan cheklanmaydi. Prezident Erdog'an ayniqsa Yaqin Sharqda Turkiya kuchini yanada kengroq ko'rsatishni maqsad qilgan. Mintaqada AQShning ishtirokining kamayishi va Rossiyaning zaiflashishi natijasida vujudga kelgan bo'shliqni Anqara to'ldirishni xohlamoqda. Bu Turkiyaning tashqi siyosatida harbiy va diplomatik harakatlarni kengaytirishga qaratilgan qat'iy burilishni anglatadi.

So'nggi yillarda Turkiya Iroq, Liviya va Suriyada harbiy operatsiyalar olib bordi; Efiopiya va Ukraina kabi hamkorlarga dronlar yetkazib berdi; hamda Ozarbayjondan Armaniston bilan Tog'li Qorabog' hududidagi mojaroda "vositachi aktyor" sifatida foydalandi[13].

Rossiya va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar tarixan raqobatga asoslangan va ko'plab holatlarda to'qnashuvli bo'lgan. Rossiyaning Qora dengizga kengayishi Turkiya hisobidan amalga oshgan bo'lib, ikki davlat XVI asr o'rtalaridan XX asr boshlariga qadar o'n uchta urush olib borgan.

Shu sababli, Sovuq urush davrida bu ikki kuch o'rtasidagi munosabatlar ochiqchasiga dushmanona bo'lgan. Biroq harbiy jihatdan kuchliroq bo'lgan Rossiya Qora dengiz, Bolqon, Kavkaz va Markaziy Osiyo chegaralarida o'z ustunligini saqlab qolgan, bu hududlarda uning manfaatlari Turkiya manfaatlari bilan to'qnashgan.

Sovuq urush tugaganidan beri Turkiya va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar geosiyosiy raqobatdan manfaatlarga asoslangan hamkorlikka o'tib bordi. Bu esa ikkala davlatga, kelishmovchiliklarga qaramasdan, o'zaro manfaat keltiruvchi parallel strategiyalarni amalga oshirish imkonini berdi.

Bunga Akkuyu atom elektr stansiyasi misol bo'la oladi. Ushbu ulkan loyiha Turkiya hududida Rossiya kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan holda qurildi va 2023-yilda, Ukraina istilosi davom etayotgan bir paytda tantanali ravishda ochildi. Rejalarga ko'ra, 2026-yilga kelib bu stansiya Turkiya elektr energiyasi iste'molining 10 foizini ta'minlashi kutilmoqda[14].

Ushbu hamkorlik siyosatining yana bir muhim namunasi Turkiyaning S-400 raketaga qarshi mudofaa tizimini xarid qilish bo'yicha tuzgan kelishuvlaridir[15]. Bu xarid Turkiyaning qurol-yarog' tizimlarini diversifikatsiya qilish orqali aerokosmik va mudofaa sanoatida G'arbga nisbatan o'zining strategik mustaqilligini oshirish istagi bilan hamohangdir. Shu bilan birga, bu xarid Turkiyaning xavfsizlik ehtiyojlarini ham qondirishga xizmat qiladi.

Biroq, Anqara o'z manfaatlarini ko'zlab Rossiya bilan munosabatlarini haddan tashqari rivojlantirishni istamaydi, chunki bu noqulay qaramlikka olib kelishi mumkin. Rossiya-Ukraina urushida Turkiya ikki davlat o'rtasida qiyin muvozanatni saqlashga harakat qildi. U "har ikki lagerda o'rin egallash" [16] (ya'ni neytral pozitsiyani saqlash) strategiyasidan chekinmadi va Rossiyaning zaiflashuvidan o'z foydasiga foydalanishga intilmoqda.

Turkiya Ukraina mudofaasi uchun muhim harbiy texnikalarni, jumladan Bayraktar TB2 jangovar dronlarini yetkazib berdi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasida Rossiya bosqinini qoralovchi rezolyutsiya uchun ovoz berdi, turk bo'g'ozlaridan barcha harbiy kemalarning o'tishini taqiqladi va Suriyaga uchayotgan Rossiya samolyotlariga o'z havo hududini yopdi.

Biroq, buning aksi sifatida, Turkiya o'zining energetika ehtiyojlari sababli Rossiyaga qarshi G'arb sanksiyalariga qarshi chiqdi va rus sayyohlari uchun eshiklarini yopmadi.

Bu ikkiyoqlama pozitsiya unga mojaroda vositachi sifatida o'zini namoyon qilish va "yumshoq kuch"dan foydalangan holda Ukraina g'allasini jahon bozorlariga yetkazib berish bo'yicha kelishuvga erishishga yordam berish imkonini berdi[17].

Rossiya va Turkiya o'rtasidagi bu ikkiyoqlama munosabat periferiya mintaqalarida ham qo'shimcha strategik o'lchamga ega bo'ldi. Qora dengiz, Sharqiy O'rta yer dengizi va Yaqin Sharqdagi o'zgarib borayotgan vaziyat har ikkala davlatni yangi geosiyosiy pozitsiyalarni qabul qilishga majbur qildi.

Rossiya "yaqin xorij" hududlarida nazoratni saqlab qolishga intilgan holda, chegaralar xavfsizligi siyosatini olib bordi, biroq bu siyosatda xarajat va xavflarni nazorat ostida ushlab turishga harakat qilmoqda.

Rossiyaning qat'iy siyosati assimmetrik "do'stlik" strategiyasi bilan birga olib borildi. Bu strategiya orqali Rossiya o'zaro o'sib borayotgan bog'liqlik

munosabatlari orqali Turkiya boshchiligida o'ziga qarshi shakllanishi mumkin bo'lgan qo'shni davlatlar blokini paydo bo'lishining oldini olishga intilmoqda.

O'z navbatida, Turkiya o'zini revizionist kuch sifatida namoyon qilmoqda. U hozirgi xalqaro tartibdagi beqarorlikdan foydalanib, Rossiya bilan ikki tomonlama munosabatlardagi asimmetriyalarni muvozanatlash va xalqaro aloqalarda yanada katta mustaqillikka erishishga intilmoqda. Bu esa sobiq Usmoniylar imperiyasiga tegishli bo'lgan va Turkiya hali ham o'z ta'sir doirasi sifatida ko'radigan mintaqalarda yanada faol aralashuvga olib keldi [18].

Natijada, Rossiya va Turkiya bir tomondan Qora dengizda g'alla eksporti bo'yicha kelishuvlarga erisha oladi, boshqa tomondan esa qo'shni mintaqalarda geosiyosiy raqib sifatida harakat qiladi.

Sharqiy O'rta yer dengizi, Qora dengiz mintaqasi va Janubiy Kavkaz – Rossiya va Turkiya manfaatlari eng kuchli tarzda to'qnashadigan va mushtarak harakat qiladigan hududlardir.

Suriya esa bu raqobatning asosiy sinov maydoniga aylangan. Bu yerda ikki davlat qarama-qarshi tomonlarni qo'llab-quvvatlamogda: Rossiya Prezident Asad hukumatini himoya qilsa, Turkiya esa Ahmad ash-Shaara boshchiligidagi bugungi hukumatni asosiy ta'minlovchisi hisoblanadi.

Har qanday holatda ham, Turkiya hukumati Rossiya bilan munosabatlarning keskinlashuvi xavfini yaxshi anglaydi. Ayniqsa, kurd masalasi hamda islomiy va dunyoviy kuchlar o'rtasidagi ichki qarama-qarshilik Turkiyaning strategik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishiga jiddiy to'siq bo'lib, uni mintaqaviy yetakchi kuchga aylanish yo'lidagi katta xatarga aylantiradi.

Liviya masalasida Rossiya generallar Xalifa Haftar va Tobrukda joylashgan, sharqiy Sirenaykani nazorat qiluvchi Vakillar palatasini qo'llab-quvvatlaydi. Turkiya esa poytaxt Tripolini ham o'z ichiga olgan Tripolitaniya mintaqasini boshqarayotgan Prezident Dbayba rahbarligidagi milliy birlik hukumatini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, Turkiya Yevrosiyo geosiyosatida tobora kuchayib borayotgan og'ish ko'rsatmoqda. U Markaziy Osiyo respublikalari va Kavkazdagi (Ozarbayjon) davlatlar bilan yaqinlashmoqda. Turkiya bu hududlar bilan tarixiy, etnik va til jihatidan mushtaraklikka ega, biroq bu hududlar yaqin o'tmishda rasman Rossiyaning ta'sir doirasiga kirgar edi.

2023-yilda bo'lib o'tgan Tog'li Qorabog' urushida Ozarbayjonning g'alabasi, asosan Turkiya ko'magida erishilgan bo'lsa-da, Ukrainadagi urushdan avval buni tasavvur qilib bo'lmas edi. Chunki Rossiya bu hududni doimo o'z ta'sir doirasiga kiruvchi deb hisoblagan va Ukrainadagi urushgacha bu mintaqaga qo'shni kuchlarning har qanday kirib kelishiga qat'iy qarshilik ko'rsatgan edi.

Rossiyaning passivligi Turkiyaning Kavkaz va Markaziy Osiyoda o'z rolini kuchaytirish niyatlariga xizmat qilmoqda. Turkiya bu mintaqalarda turkiy davlatlar bilan yanada yaqinroq aloqalar o'rnatishga intilmoqda, chunki Anqara umumiy ildizlarga asoslangan ma'lum bir ta'sir kuchiga ega.

Xuddi shuningdek, AQShning Afg'onistondan chiqib ketganidan so'ng, Turkiya bu mamlakatda ham ko'proq rol o'ynash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bu orqali u AQSh qoldirgan bo'shliqni to'ldirishni maqsad qilmoqda [19]. Shunday ekan, yaqin yillarda Turkiyaning tashqi siyosatida Anqara nazorat qiladigan turkiy makonni qayta shakllantirish g'oyasi intellektual, mafkuraviy va geosiyosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Agar shunday bo'lsa, Turkiya va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning raqobatga asoslangan, hattoki ziddiyatli tabiati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Axir, turkiy dunyoning katta qismi sobiq Sovet hududiga kiradi.

Xulosa. Agar Turkiya Yevrosiyo yo'nalishiga geosiyosiy og'ishi amalga oshirilsa, bu uni Rossiya bilan to'qnashuv yo'liga olib chiqishi ehtimoli yuqori. Bu esa turli mintaqalarda, turli shakllarda va har xil darajadagi keskinliklar bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Shunga qaramay, na Rossiya, na Turkiya bu raqobatning xavfli darajaga yetishini istaydi. Shu sababli, ikki davlat yuqori darajadagi muloqotga asoslangan, nizoli masalalarni izolyatsiya qiladigan hamkorlikni davom ettiradigan nazorat tizimini shakllantirgan.

Maqsad – aloqa kanallarini ochiq holda saqlab, Turkiyaning Rossiya hisobiga olib borilayotgan kengayish siyosatini har ikki davlat uchun boshqariladigan darajada ushlab turish va uni xavfli darajaga yetkazmaslikdir.

Har qanday holatda ham, geosiyosiy raqib sifatida ayniqsa, ular raqobatlashayotgan sohalarda, Turkiya Rossiyaning har qanday zaifligidan o'z manfaatlarini ilgari surish uchun foydalanadi.

Rossiya va Turkiya – keng qamrovli geosiyosiy tasavvurga ega bo'lgan davlatlar bo'lib, ular ichki barqarorlik va mintaqaviy muvozanatni ta'minlashning eng yaxshi yo'li sifatida atrofdagi hududlarda hukmron kuchga aylanish zarur deb biladilar.

Bu xavfsizlik tushunchasi ularning tarixiy tajribasiga asoslangan bo'lib, ular adolatsiz deb hisoblagan va o'zlarini qulay his qilmaydigan xalqaro tizimdagi kuchlar taqsimoti bilan kelishmovchilikdan kelib chiqadi.

Ikkala davlatning geosiyosiy strategiyasi dunyo deb ataluvchi buyuk shaxmat taxtasida o'z nisbiy mavqeini yaxshilashga qaratilgan. Shu maqsadda ular manfaatlariga qarab turli ssenariylarda bir-biri bilan hamkorlik qiladi yoki raqobatlashadi.

Pragmatik davlatlar sifatida ularning tashqi va xavfsizlik siyosati mafkuradan ko'ra milliy manfaatlarga tayanadi. Shuning uchun ular Ukrainadagi va Falastindagi ochiq mojarolarni o'z manfaatlariga mos ravishda xalqaro tartibni o'zgartirish va o'zlari rad etadigan tartibotga qarshi chiqish imkoniyati sifatida ko'rmoqdalar. Bu yangi tartibda ular hozirgacha berilmagan yetakchi rolni egallashga intilmoqdalar va bunga erishish mumkinligiga ishonmoqdalar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Robert D. Kaplan. *The Revenge of Geography: what the map tells us about coming conflicts and the battle against fate*. Published in the United States by Random House, an imprint of The Random House Publishing Group, a division of Random House, Inc., New York.
2. Małgorzata Zachara. *The concept of sovereignty in transatlantic relations*. No. 46 (2017), Published By: Księgarnia Akademicka
3. Ignacio Fuente Cobo. *Russia, Turkey and Iran. The "Great Game" of the revisionist powers*. Document Analysis. 18/2024.
4. Atlantic Council. (n.d.). *The geopolitics of Turkey's drone program*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/issue-brief/the-geopolitics-of-turkeys-drone-program/>
5. Ohanyan, Anna. "Why Russia starts so many conflicts on its own borders", *The Washington Post*. September 12, 2018
6. Mearsheimer, John J. "The Inevitable Rivalry: America, China, and the Tragedy of Great-Power Politics", *Foreign Affairs*, vol. 100, no. 6. New York, Nov/Dec 2021,
7. "The new world order and the rise of the middle powers", *Financial Times*. February 28, 2022.
8. Khan, Leena. "Erdoğan's opportunism in the wake of the Russia-Ukraine war", *Middle East Institute*. July 6, 2022.
9. Murat Seyrek, Demir. "Was Turkey's Atatürk an authoritarian leader or a visionary European?", *Euronews*. November 10, 2023.
10. Davutoglu, Ahmet "Turkey's Zero-Problems", *Foreign Policy*. 20 May 2010.
11. Murinson, Alexander. "The Strategic Depth Doctrine of Turkish Foreign Policy", *Middle Eastern Studies*. 2010.
12. Denizeau, Aurélien. "Mavi Vatan, la " Patrie bleue ": Origines, influence et limites d'une doctrine ambitieuse pour la Turquie", *Etudes de l'Ifri*. Avril 2021.
13. Burge, Joanne. "IAEA Chief Highlights Sustainable Energy as First Nuclear Fuel Arrives in Türkiye", *IAEA*. April 28, 2023.

14. Sánchez TAPIA, Felipe. "Turkey, between the S-400 and the wall", IEEE. 23 February 2022
15. Edwards, Maxim. "Erdogan Is a Key Player in Ukraine-on Both Sides", Foreign Policy. May 22, 2023
16. Gaber, Yevgeniya. "Grain drain: Why Turkey can't afford to ignore Russian grain smuggling from Ukraine", Atlantic Council. July 25, 2022.
17. Akyol, Mustafa. "From Ataturk to Erdogan: Turks rewrite history", Al Monitor. November 20, 2014.
18. Levent, Kemal. "Turkey's role in Afghanistan: a major risk", Al Jazeera Centre for Strategic Studies. August 26, 2021.
19. Champion, Marc. "Erdogan's Putin Meeting Was More about Damage Control than Grain", The Washington Post. September 5, 2023
20. Anadolu Agency. (n.d.). *Turkey, Russia need each other despite differences: Expert*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.aa.com.tr/en/world/turkey-russia-need-each-other-despite-differences-expert/2418123>
21. Atlantic Council. (n.d.). *The geopolitics of Turkey's drone program*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/issue-brief/the-geopolitics-of-turkeys-drone-program/>
22. Brookings Institution. (n.d.). *Why Russia and Turkey are always at odds—and also allies*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.brookings.edu/articles/why-russia-and-turkey-are-always-at-odds-and-also-allies/>
23. Carnegie Europe. (n.d.). *Russia and Turkey: A difficult partnership*. Retrieved May 12, 2025, from <https://carnegieeurope.eu/strategieurope/87957>
24. CSIS. (n.d.). *The limits of Russia's power*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.csis.org/analysis/limits-russias-power>
25. E-International Relations. (2020, October 17). *Neo-Ottomanism and Turkey's foreign policy in the 21st century*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.e-ir.info/2020/10/17/neo-ottomanism-and-turkeys-foreign-policy-in-the-21st-century/>
26. Jamestown Foundation. (n.d.). *Russian strategy in the Black Sea aimed at isolating Ukraine*. Retrieved May 12, 2025, from <https://jamestown.org/program/russian-strategy-in-the-black-sea-aimed-at-isolating-ukraine/>
27. JSTOR. (n.d.). *Why Turkey's Foreign Policy Is Shifting*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.jstor.org/stable/10.2307/26491234>
28. JSTOR. (n.d.). *The Rise of Turkey's Defense Industry*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.jstor.org/stable/10.2307/48608963>

29. Reuters. (2022, September 15). *Turkey tests limits of its friendship with Russia*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.reuters.com/world/middle-east/turkey-tests-limits-its-friendship-with-russia-2022-09-15/>

30. The Central Asia-Caucasus Analyst. (n.d.-a). *Russia and Turkey's relations: Between cooperation and competition*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13654-russia-and-turkey%E2%80%99s-relations-between-cooperation-and-competition.html>

31. The Central Asia-Caucasus Analyst. (n.d.-b). *Turkey's pivot to Central Asia*. Retrieved May 12, 2025, from <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13513-turkeys-pivot-to-central-asia.html>



MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA O'ZBEKISTON-XITOIY MUNOSABATLARI

JAVOHIR NURMUXAMATOV

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy

siyosiy jarayonlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD M.Xurramov

O'zbekiston-Xitoy hamkorligining zamonaviy bosqichi 1992-yil 2-yanvarda, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatishi bilan boshlandi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi va bugungi kunda samarali, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tamoqda. Mintaqalarni bir-biriga bog'lagan, o'zaro boyishni va madaniy almashinuvni rag'batlantirgan afsonaviy Ipak yo'li bugungi kunda yangicha mazmun kasb etib, o'z yo'nalishi bo'ylab mamlakatlar va xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va insonparvarlik ko'prigi sifatida xizmat qilishni davom ettirmoqda[1].

"Xitoy va O'zbekiston qadimiy sivilizatsiyalardir. Buyuk Ipak yo'li ikki xalqning 2000 yildan ortiq davom etgan do'stona aloqalariga guvohlik qilgan. G'arbiy Xan sulolasidan Chjan Syan (miloddan avvalgi 206-24-yillar), Tan sulolasidan Syuan Szang (618-907), Min sulolasidan Chen Cheng (1368-1644) kabi bir qator tarixiy shaxslar g'arbga, O'zbekistonga safar qilib, Toshkent, Samarqand, Navoiy singari mashhur shaharlarda o'z izlarini qoldirganlar. Yuan sulolasi davrida (1271-1368) asli buxorolik bo'lgan davlat arbobi Sayyid Ajall Shamsiddin Xitoyning Yunnan viloyatiga hokim etib tayinlangan. XIV asr o'rtalarida astronomiya va taqvim sohasining bilimdoni, asli samarqandlik olim U Shu Nankindagi rasadxona qurilishida ishtirok etgan. Bu insonlar Xitoy-O'zbekiston do'stligining asoschilariga aylanib, ular haqidagi rivoyatlar hozirga qadar ikki mamlakatda keng tarqalgan"[2] – deb ikki mamlakat munosabatlariga yuqori tarif beradi Si Jin Pin.

Diplomatik aloqalar o'rnatilganidan buyon o'tgan 30 yildan ortiq vaqt davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. 2016-yil iyun oyida Xitoy-O'zbekiston munosabatlari rasman keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. 2022-yilda ular ikki tomonlama darajada umumiy kelajakka ega hamjamiyat

qurishga sodiqliklarini e'lon qildilar. 2024-yilda esa keng qamrovli strategik sheriklikning yangi davrini boshladilar.

Tomonlar o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali eng dolzarb global va mintaqaviy masalalarda pozitsiyalarining yaqinligi hamda mushtarakligini namoyon etmoqda.

Pekin so'nggi yillarda O'zbekiston tomonidan BMTda ilgari surilgan bir qator qarorlarni qo'llab-quvvatladi. Toshkent esa o'z navbatida, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish uchun g'oyat muhim bo'lgan global taraqqiyot, global xavfsizlik va global sivilizatsiya bo'yicha Xitoy ilgari surayotgan tashabbuslarni yuqori baholab, qo'llab-quvvatlab kelmoqda [3].

2005-yilda Xitoy va O'zbekiston "Xitoy-O'zbekiston do'stlik va hamkorlik shartnomasi"ni imzoladi. Bu ikki tomonlama shartnoma iqtisodiyot, savdo, terrorizmga qarshi kurash va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik kabi bir qator tashabbuslarni o'z ichiga oladi.

2013-yilda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi boshlanishi bilan O'zbekiston mintaqadagi strategik geosiyosiy sherikka aylandi. Garchi ikki davlat umumiy chegaraga ega bo'lmasa-da, O'zbekistonning joylashuvi Xitoyning g'arbdagi tabiiy gazning asosiy manbai bo'lgan Turkmanistonga boradigan yo'lida joylashgan. "Markaziy Osiyo-Xitoy" gaz quvuri Turkmanistonning gaz ta'minotini Xitoyning Shinjon-Uyg'ur g'arbiy mintaqasidagi tarmog'iga ulash uchun O'zbekiston hududidan o'tadi. [4]

Xitoy Markaziy Osiyoning asosiy savdo sherigiga aylanib, iqtisodiy ta'sir bo'yicha hatto Rossiyadan ham o'zib ketdi. 2023-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo hajmi 89,4 milliard dollarga yetib, o'tgan yilga nisbatan 27 foizga oshdi. Bu keskin o'sish Xitoyning investitsiyalar, savdo shartnomalari va infratuzilma loyihalari orqali iqtisodiy mavqeyini mustahkamlash uchun qilayotgan sa'y-harakatlarini ko'rsatadi. Xitoyning O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya sektoriga kiritgan investitsiyalari besh barobar oshdi, bu esa Pekinning barqaror rivojlanishga e'tiborini ko'rsatadi. Infratuzilmani rivojlantirish Xitoyning Markaziy Osiyodagi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li Xitoyga mintaqaga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini beruvchi asosiy loyihadir, bu Rossiya tranzit tarmoqlariga qaramlikni kamaytiradi. Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekiston 2024-yil iyun oyida loyihani amalga oshirish bo'yicha uch tomonlama bitim imzoladilar [5].

Bu Pekinning savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish kabi keng qamrovli maqsadiga mos keladi, ayniqsa Qizil dengizdagi husiylarning hujumlari kabi global uzilishlar fonida.

Bundan tashqari, O'zbekistonning Kaspiy dengiziga yaqinligi uni Fors ko'rfazi va Qora dengiz portlariga savdo yo'llarini ochadigan qulay yo'lakka aylantiradi. O'zbekistonning o'zi ham Xitoyga katta miqdorda tabiiy gaz, shuningdek, paxta va noorganik kimyoviy moddalar kabi boshqa tovarlarni yetkazib beradi. Biroq, ikki tomonlama savdo va hamkorlikni keng geosiyosiy voqelikdan ajratib bo'lmaydi. Qirg'iziston va Tojikiston kabi vositachi davlatlar orqali xavfsiz va samarali savdo yo'llarini o'rnatishdagi qiyinchiliklar O'zbekiston va g'arbdagi boshqa davlatlar bilan savdo-sotiqni qiyinlashtirishi mumkin [6].

Xitoy-O'zbekiston ikki tomonlama savdosi

Bugun O'zbekiston va Xitoy mamlakatlari o'zaro yaxshi munosabatlarga ega bo'lgan strategik darajadagi hamkor mamlakatlar hisoblanadi. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy eng katta ulushga (2024-yili eksport 1.9 mlrd, import 9.3 mlrd dollar tashkil etgan) ega hamda mamlakatga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlat hamdir.

Xitoyning O'zbekistonga eksporti asosan quyidagilardan iborat: Qurilish mashinalari va uskunalari elektr mashinalari va audiovizual uskunalari, transport vositalari, plastmassa va tegishli mahsulotlar, qurilish mashinalari va uskunalari.

O'zbekistonning Xitoyga eksporti asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi: mineral yoqilg'ilar, mis va uning mahsulotlari, paxta va sabzavotlardir.

Xitoy oxirgi o'n yilliklarda mamlakatga katta miqdorda investitsiya kiritib, bu borada yetakchilikda Rossiyadan o'zib ketdi. Investitsiya oqimining asosiy yo'nalishi yashil energetika tarmoqlariga, xususan shamol, quyosh hamda suv kabi qayta tiklanuvchi manbalarga to'g'ri keladi. Va bu tarmoqlarda bugun Xitoy dunyodagi yetakchi davlatga aylanib ulgurdi.

Xitoyning toza energiyaga tez o'tishi global energetika bozorlarini qayta shakllantira boshlaydi va bu Markaziy Osiyo uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi. *Eurasianet* tomonidan yaqinda o'tkazilgan tahlilga ko'ra, bu o'zgarish Rossiya, Turkmaniston va Qozog'iston kabi yirik tabiiy gaz eksport qiluvchi davlatlar uchun qiyinchilik tug'dirsa-da, O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

BloombergNEF tomonidan "Energetikaga o'tish ta'minot zanjirlari 2025" nomli hisobot Xitoyning toza energiya ishlab chiqarishdagi ustun mavqeini ta'kidlaydi. Mamlakat quyosh panellari, shamol turbinalari va batareyalar kabi sohalarda global ishlab chiqarishning 70% dan ortig'ini nazorat qiladi, faqat vodorod elektrolizatorlari sohasida etishmaydi.

Xitoy sarmoya bo'yicha ham yetakchilik qilmoqda. 2024 yilda materik Xitoy toza texnologiyali ishlab chiqarish ob'ektlariga global xarajatlarning 76 foizini tashkil etdi. Ushbu mustahkam sanoat bazasi mamlakatda toza energiyadan foydalanishning o'sishiga mos keladi. Hozirgi vaqtda qayta tiklanadigan manbalar mamlakatning o'sib borayotgan elektr energiyasiga bo'lgan talabining qariyb 80 foizini qondirmoqda [7].

Qayta tiklanadigan energetika sohasida "shubhasiz jahon yetakchisi" bilan hamkorlik Toshkentning energetik xavfsizligi va ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, mamlakat va mintaqadagi birinchi vodorod zavodi ham har yili qariyb 33 million kub metr gazni tejash, og'ir sanoatni dekarbonizatsiya qilish hamda o'sishning yangi dvigatelini qo'shib, O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradi[8]. Shu bilan birga, Xitoy va G'arb o'rtasidagi savdo keskinligi Xitoyda ishlab chiqarilgan quyosh panellari va boshqa toza energiya texnologiyalarining ortiqcha bo'lishiga olib keldi. Rivojlangan davlatlar tariflarni o'rnatar ekan, Xitoy firmalari tobora rivojlanayotgan bozorlarni nishonga olishmoqda. Bu qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasini faol ravishda kengaytirayotgan O'zbekistonga foyda keltirishi mumkin. Ortiqcha Xitoy uskunalari arzonlashishi bilan O'zbekiston yaqin kelajakda arzon energiya texnologiyalariga ega bo'lishi mumkin [9].

Ikki davlat infratuzilma sohasida ham faol hamkorlikni ilgari surmoqda. Xitoy tomonidan qurilgan Angren-Pop temir yo'l liniyasi, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston transport yo'lagi va Xitoy-Markaziy Osiyo tabiiy gaz quvurining O'zbekiston orqali o'tadigan to'rtta yo'nalishi savdo-sotiqni rivojlantirish, aloqalarni kuchaytirish va farovonlikni oshirish uchun mintaqaviy va mintaqalararo infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mintaq miqyosidagi konsensusdan dalolat beradi [10].

Mintaqa uchun raqobat: Rossiya omili

Rossiya va Xitoy manfaatlari Markaziy Osiyoda to'qnashishi haqidagi ko'plab da'volarga qaramay, Moskva va Pekin o'zlarining umumiy maqsadlari yo'lida hamkorlikda ishlashni davom ettirmoqda. Bu maqsadlar, eng avvalo, Amerika Qo'shma Shtatlari va G'arbn - shu jumladan demokratiyani - mintaqadan chetlatish, barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy manfaatlarni ko'zlashni o'z ichiga oladi. Moskva va Pekin o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud, ayniqsa iqtisodiy sohada, bugungi kunda Xitoy ustunlikka erishgan. Shuningdek, mintaqadan o'tadigan o'rta koridor savdo yo'lining rivojlanishi Rossiyaga sezilarli zarar yetkazishi mumkin. Biroq, Rossiya va Xitoy bu farqlarni boshqarmoqda va Amerika Qo'shma Shtatlarini zaiflashtirishga bo'lgan umumiy intilish ularning

keng qamrovli hamkorligiga xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday nizoni kamaytirish yoki oldini olish uchun kuchli sabab bo'lib xizmat qilmoqda [11].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzbekistan-China: age-old foundations of modern successful cooperation. www.newscentralasia.net/2024/01/20/uzbekistan-china-age-old-foundations-of-modern-successful-cooperation
2. Xi Jinping President of the People's Republic of China, Working Together for Brighter Future of China-Uzbekistan Relations. www.mfa.gov.cn/eng/zy/jj/2020zt/kjgzbdffyq/202209/t20220913_10765712.html
3. M.Aripova, Comprehensive Strategic Partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in a News. www.uza.uz/en/posts/comprehensive-strategic-partnership-between-the-republic-of-uzbekistan-and-the-peoples-republic-of-china-in-a-new-era_560296
4. Qian Zhou, Navigating China-Uzbekistan Investment and Trade Opportunities. www.china-briefing.com/news/navigating-china-uzbekistan-investment-and-trade-opportunities
5. Akanksha Meena, China's Growing Role in Central Asia. www.e-ir.info/2025/02/16/chinas-growing-role-in-central-asia
6. Akanksha Meena, China's Growing Role in Central Asia. www.e-ir.info/2025/02/16/chinas-growing-role-in-central-asia
7. S.Jalolova, As China Cuts Gas Demand, Uzbekistan Eyes Renewables Opportunity. www.timesca.com/as-china-cuts-gas-demand-uzbekistan-eyes-renewables-opportunity
8. A.Azam, Mirziyoyev Fortifies China-Uzbekistan Relations for Economic and Green Transformation. www.timesca.com/mirziyoyev-fortifies-china-uzbekistan-relations-for-economic-and-green-transformation
9. S.Jalolova, As China Cuts Gas Demand, Uzbekistan Eyes Renewables Opportunity. www.timesca.com/as-china-cuts-gas-demand-uzbekistan-eyes-renewables-opportunity
10. A.Azam, Mirziyoyev Fortifies China-Uzbekistan Relations for Economic and Green Transformation. www.timesca.com/mirziyoyev-fortifies-china-uzbekistan-relations-for-economic-and-green-transformation
11. Andrea Kendall-Taylor, Lisa Curtis, Kate Johnston, Nathaniel Schochet, Russia and China in Central Asia Cooperate, Compete, or Deconflict? www.cnas.org/publications/reports/russia-and-china-in-central-asia

ШОС – УНИКАЛЬНЫЙ МЕХАНИЗМ МНОГОСТОРОННЕГО СОТРУДНИЧЕСТВА

МОХЛАРОЙ СОБИРЖОНОВА

Магистр прикладной политологии в УМЭД

Научный руководитель: д.п.н. проф. Султанова Э.С.

Аннотация. В статье рассматривается деятельность ШОС как международной межправительственной организации нового формата. Проводится сравнительный анализ деятельности организации с иными ММПО, с такими как НАТО и БРИКС, с акцентом на различия в направлении, особенности деятельности и структуры. Приводится оценка деятельности организации в различных направлениях: безопасность, экономика и торговля, логистика, образование, энергетика, культурно-гуманитарное сотрудничество.

Ключевые слова: *Шанхайская организация сотрудничества, Центральная Азия, Евразия, экстремизм, терроризм, сепаратизм, экономическое сотрудничество, торговля, инвестиции, многостороннее сотрудничество.*

Одна из особенностей современных международных отношений обусловлена применением многостороннего подхода в дипломатии и сотрудничестве государств мира в контексте международных организаций. Сегодня взаимодействие государств в рамках международных организаций играет ключевую роль в поддержании глобального мира и стабильности. Международные организации, такие как Организация Объединенных Наций (ООН), Всемирная торговая организация (ВТО) или Шанхайская организация сотрудничества служат платформами для сотрудничества, диалога и разрешения конфликтов между государствами. Они способствуют развитию международного права, защите прав человека, экономическому и устойчивому развитию стран участниц.

Предпосылки созданию Шанхайской организации сотрудничества были заложены начиная с 1996 года, когда была основана Шанхайская пятерка, объединяющая такие страны как Россия, Китай, Казахстан, Таджикистан и Кыргызстан. Организация была создана в целях укрепления безопасности, мира, доверия и сотрудничества между пятью странами. Узбекистан, не имея общих границ с Китаем и Россией, участвовала в данной структуре в качестве наблюдателя. Только в 2001 году Узбекистан

присоединился к деятельности организации, и организация была преобразована в Шанхайскую организацию сотрудничества. Центральная Азия как тогда, так и сейчас находится в зоне интереса крупных государств региона Китая и России, представляя из себя значимый геополитический мост между Восточной, Северной и Южной Азией. В свою очередь роль КНР и РФ для стран Центральной Азии также стали значимы, так как они успели стать главными стратегическими партнерами стран региона.

Изначально организация имела целью решение проблем, связанных с региональной безопасностью. Данные цели отражаются в преамбуле и статьях Хартии ШОС. [1] Однако в течение десятилетий структура и деятельность ШОС эволюционировали, трансформировавшись в многофункциональный механизм и площадку для экономического сотрудничества и всестороннего развития стран участниц. Сегодня ШОС представляет из себя уникальный продукт, в корне отличающийся от ранее существовавших моделей международных организаций. Несмотря на то, что задачей организации была определена региональная защита и борьба против трех зол: терроризма, экстремизма и сепаратизма, она все же не является военным блоком как НАТО. ШОС в отличие от НАТО не имеет военного бюджета и военной мощи, проводит исключительно объединенные военные учения и координирует сохранение безопасности в регионе. К примеру, "Мирная миссия" (2007), направленная на повышение готовности стран к совместной борьбе с угрозами [2]. В 2004 году была основана региональная антитеррористическая структура Шанхайской Организации Сотрудничества, в целях координации совместных усилий по борьбе с терроризмом, экстремизмом и сепаратизмом, а также продвижения сотрудничества в рамках организации. Однако деятельность ШОС не ограничивается военной сферой.

Еще в 2001 году в Алматы был принят «меморандум между правительствами государств - участников Шанхайской организации сотрудничества об основных целях и направлениях регионального экономического сотрудничества и запуске процесса по созданию благоприятных условий в области торговли и инвестиций», тем самым запустив сотрудничество в экономической и торговой сферах [3]. За 25 лет функционирования данное направление получило активное развитие, были подписаны и запущены ряд успешный экономически проектов. К примеру, в 2005 году было подписано «соглашение о межбанковском сотрудничестве (объединении) в рамках Шанхайской организации сотрудничества» [4]. Сегодня банковское объединение ШОС отвечает за

финансовое и банковское обслуживание инвестиционных проектов в рамках организации. В 2013 году было принято решение «Совета глав правительств (премьер-министров) государств-членов Шанхайской организации сотрудничества о дальнейшей работе по созданию Банка развития ШОС и Фонда развития (Специального счета) ШОС», деятельность которых направлена на финансирование социальных и инфраструктурных проектов[5]. В 2018 году после саммита в Циндао была создана демонстрационная зона «Китай — ШОС», в целях содействия двухсторонним инвестициям, развитию промышленности, инноваций, логистики и торговли [6].

Согласно данным, опубликованным к 20 – летию организации, общий объем товарооборота стран – членов ШОС увеличился почти в 100 раз за 20 лет, составив 17,5% от общего объема мировой торговли с 5,4% в 2001 году. В частности, по состоянию на 2023 год объем торговли между Китаем и странами региона Центральной Азии составил почти 90 миллиардов долларов США, достигнув рекордного уровня. Успехи сотрудничества в рамках ШОС также прослеживаются в экономических показателях стран участниц. По данным, в 2021 год совокупный ВВП государств-членов ШОС составляло примерно 23,3 триллиона долларов США, этот показатель более чем в 13 раз превышает общий объем ВВП стран на момент ее создания[7].

Несмотря на развитие экономического и торгового направления ШОС не является исключительно экономическим объединением, как например БРИКС. Проводя параллели между ШОС и БРИКС, мы можем утверждать наличие значимых различий. ШОС по своей структуре является международной межправительственной организацией, в то время как БРИКС является экономическим объединением. ШОС имеет четкую структуру, секретариат и постоянные институты. У БРИКС нет постоянно действующего секретариата. Функции секретариата, координацию деятельности осуществляет ежегодно избираемая представляющая страна. Деятельность осуществляется посредством саммитов и встреч рабочих групп. С одной стороны, как БРИКС, так и ШОС объединяют такие крупные экономические страны как Китай, Россия и Индия. С другой стороны БРИКС включает в себя страны из различных частей мира, в то время как ШОС больше сфокусирована на территории Евразии. После расширения БРИКС+ в 2024 году, организация представляет 45% населения мира, более 28% мирового ВВП и около 21% мирового экспорта [8]. ШОС, в свою очередь представляя свыше 40% населения мира, а доля стран ШОС в мировом ВВП составляет 20% [9]. В целом, по своей эффективности в

экономическом и торговом сотрудничестве БРИКС опережает ШОС, так как ее деятельность сфокусирована именно на экономических проектах, в отличие от ШОС, которая осуществляет сотрудничество по нескольким направлениям. Также важно упомянуть что ШОС является открытой платформой, готовой принять в свои ряды любых желающих стран региона, в то время как БРИКС остается закрытым объединением и страны не могут самостоятельно подать заявления на вступление.

ШОС также ведет активное сотрудничество в сфере образования, культурном, гуманитарном, энергетическом направлениях. ШОС поддерживает образовательные программы и обмен студентов. Одним из примеров является предоставление стипендий для студентов из стран организации. Значимым достижением в сфере образования стал запуск сетевого образовательного Университета ШОС, который объединяет ряд университетов-партнеров стран ШОС в 2008 году [10]. Также регулярно проводятся культурные мероприятия, такие как "Дни культуры ШОС", которые укрепляют взаимопонимание и культурные связи. В 2018 году для укрепления и расширения культурных связей и культурного обмена между народами стран ШОС по инициативе Узбекистана были созданы «Центры народной дипломатии», которые активно занимаются реализацией культурных проектов. В области энергетики реализуются проекты, такие как строительство газопроводов между Центральной Азией и Китаем, что укрепляет энергетическую безопасность региона [11].

За период свыше двух десятков лет ШОС сумела значительно расширить свои границы. В 2017 году в ряды ШОС вступили Индия и Пакистан, в 2022 году Иран и 2024 году Беларусь. Сегодня общая территория стран ШОС составляет 37 миллионов квадратных километров, что составляет около 25% мировой территории суши, совокупный ВВП составляет примерно одну пятую часть мирового ВВП, общая численность населения стран ШОС составляет около 3,6 миллиарда человек, что эквивалентно примерно почти половине населения Земли. В ходе Самаркандского саммита 2022 года желание в наблюдении за детальною организации изъявили международные организации: Организация Объединённых Наций (ООН), Содружество Независимых Государств (СНГ), Лига Арабских государства (ЛАГ) и другие. В частности, в саммите 2024 года также применялся формат «ШОС+», в рамках которого были проведены двухсторонние и многосторонние встречи с главами государств наблюдателей, как, к примеру с президентом Турции Эрдоганом.

ШОС регулярно сталкивается с активной критикой мировой общественности, относительно эффективности своей деятельности. Аналитики утверждают, что причины создания и задачи ШОС не ясны, деятельность институциональных структур неэффективна в силу излишней бюрократии и неопределенности функционала. И в правду нередко институты ШОС акцентируют свое внимание на проведении мероприятий и даже инициативы, выдвигаемые на саммитах президентами, часто могут оставаться на бумаге. Однако, подобные проблемы вполне актуальны для многих межправительственных организаций. ШОС представляет из себя открытую площадку для диалога, инициатив и сотрудничества в любых сферах. Также встречаются дискуссии относительно соперничества Китая и России в рамках ШОС, что можно проследить в инициативах и выдвигаемых ими проектах, которые отражают их национальные интересы. Неудивительно что два значимых игрока международной политики стремиться усилить зону влияния на территории Центральной Азии и Евразии в целом. Однако эта тенденция остается актуальной и для других стран участниц ШОС, которые также ведут свою деятельность в зависимости от своих интересов.

ШОС остается открытой площадкой для диалога, готовой для сотрудничества по различным направлениям. Возможно, в зависимости от глобальных изменений и потребностей стран, в дальнейшем страны ШОС иницируют и другие направления сотрудничества. В перспективе ШОС имеет потенциал для дальнейшего расширения и усиления своей роли на международной арене. Ожидается, что организация будет продолжать развивать инфраструктурные проекты, способствовать экономическому росту в регионе и играть активную роль в обеспечении глобальной безопасности. С расширением числа членов и укреплением сотрудничества с другими международными организациями ШОС может стать ключевым звеном в развитии многополярного мирового порядка.

Список литературы:

1. Chinanews. 上合组织成员国贸易总值20年间增长近百倍» «Общий объем торговли стран-членов ШОС за 20 лет увеличился почти в 100 раз». 16 02 2022 г.
2. RĂDULESCU, Andrei. "Shanghai Cooperation Organization Summit 2024" "Middle east political and economic institute". 2024.
3. Sushil Kumar, Afsah Shahid, Manmohan Agarwal. "Is BRICS Expansion Significant for Global Trade and GDP?" "BRICS journal of economics". 12 20 2024г.

4. Литовкин, Виктор. Сайт газеты "Независимая". 14 08 2007 г.
5. Цзин, Ли. Демонстрационная зона ШОС: ускорение создания новой платформы для международного сотрудничества в рамках инициативы «Один пояс, один путь». 27 11 2023 г.
6. Шанхайская организация сотрудничества. «Хартия Шанхайской организации сотрудничества.» Lexuz.on-line. 7 июнь 2002 г. <https://www.lex.uz/ru/docs/2054961> (дата обращения: 24 03 2025 г.).
7. Шанхайская организация сотрудничества. «Меморандум между Правительствами государств - участников Шанхайской организации сотрудничества об основных целях и направлениях регионального экономического сотрудничества и запуске процесса по созданию благоприятных условий в области торговли и инвестици.» Документы ШОС. 14 09 2001 г. <https://rus.sectsco.org/20010914/1607840.html> (дата обращения: 25 03 2025 г.).
8. «Решение Совета глав правительств (премьер-министров) государств-членов Шанхайской организации сотрудничества о дальнейшей работе по созданию Банка развития ШОС и Фонда развития (Специального счета) ШОС.» Документы ШОС. 29 11 2013 г. <https://rus.sectsco.org/20131129/1605292.html> (дата обращения: 25 03 2025 г.).
9. «Соглашение о межбанковском сотрудничестве (объединении) в рамках Шанхайской организации сотрудничества.» Документы ШОС. 26 10 2005 г. <https://rus.sectsco.org/20051026/1608213.html> (дата обращения: 27 03 2025 г.).
10. ШОС. Университет шанхайской организации сотрудничества. https://www.uni-sco.ru/stat/13/stat_13.html (дата обращения: 22 03 2025 г.).
11. Центр народной дипломатии ШОС в Узбекистане. <https://old.scocenter.uz/> (дата обращения: 20 03 2025 г.).

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI: MINTAQADA BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH SARI

SHUXRAT ABDURAXMANOV

*JIDU huzuridagi Diplomatik
akademiya magistranti*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari, uning bugungi holati va istiqbollari tahlil etilgan. Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalarida hamkorlikning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, mavjud aloqalar va integratsiya jarayonlarining samaradorligi baholangan. Muallif tomonidan mintqa davlatlari o'rtasidagi hamkorlikka to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar tahlil qilinib, ularni hal qilishning amaliy choralari taklif etilgan. Shuningdek, O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi yetakchilik rolini yanada kuchaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, istiqboldagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo davlatlari, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, iqtisodiy aloqalar, madaniy-gumanitar hamkorlik.*

Markaziy Osiyo davlatlari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va iqtisodiy strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda global siyosiy-iqtisodiy vaziyatdagi beqarorlik va yangi xavf-xatarlar fonida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini mustahkamlash zarurati yanada ortmoqda. Xususan, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslaridan foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti kabi sohalaridagi muammolar mintaqaviy darajada birgalikdagi yechimlarni talab qilmoqda. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi so'nggi yillarda mintaqaviy savdo hajmining keskin oshishiga olib keldi: jumladan, 2022–2024-yillarda o'zaro savdo aylanmasi qariyb 35 foizga o'sdi. Bunday hamkorlik iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, barqarorlikni mustahkamlash va umumiy xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Mintaqaviy integratsiyaning yanada chuqurlashuvi Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga hamda mintaqaning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlashga imkon yaratadi [10].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berib kelmoqda. So'nggi yillarda bu munosabatlar yanada yuqori bosqichga ko'tarilib, ayniqsa, 2022–2024-yillarda siyosiy va diplomatik faollik sezilarli darajada oshdi. Shu davr mobaynida O'zbekiston Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyo davlatlariga jami 12 ta davlat tashrifi amalga oshirildi. Natijada mintaqa davlatlari rahbarlari o'rtasida oliy darajada 15 dan ziyod uchrashuv va muzokaralar tashkil etilib, qo'shma bayonot va strategik sheriklik bo'yicha hujjatlar imzolandi [1].

Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston tomonidan hukumatlararo hamkorlik mexanizmlari kuchaytirildi. 2022–2024-yillarda hukumatlararo va vazirliklararo darajada imzolangan kelishuvlar soni 50 dan oshdi, ular orasida iqtisodiy hamkorlik, bojxona, chegara xavfsizligi, transport-logistika va ekologik masalalar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida muntazam ravishda ikki va ko'p tomonlama maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston-Markaziy Osiyo munosabatlarining muhim tarkibiy qismiga aylandi. 2022-yilda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi 6,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 19% ga oshib, 7,5 mlrd AQSh dollariga yetdi. 2024-yilda esa savdo aylanmasining hajmi yana 13% o'sib, 8,5 mlrd AQSh dollari atrofida shakllandi. Bu o'sish tendensiyasi, ayniqsa, Qozog'iston (4,2 mlrd dollar), Qirg'iziston (1,4 mlrd dollar) va Tojikiston (1,1 mlrd dollar) bilan savdo aloqalarida yaqqol ko'rinmoqda [4].

Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik doirasida qo'shma sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalarini amalga oshirishga kirishdi. Xususan, 2022–2024-yillar mobaynida Qozog'iston bilan umumiy qiymati 1,5 mlrd dollar bo'lgan 20 dan ziyod yirik investitsion loyihalar amalga oshirilgan. Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik kengayib, umumiy qiymati 700 mln dollardan ortiq 15 ta qo'shma loyiha ishga tushirilgan bo'lsa, Tojikiston bilan hamkorlikda 500 mln dollarlik 12 ta loyiha amalga oshirilmoqda [2].

Transport va logistika sohasidagi hamkorlik ham jadal rivojlanmoqda. 2022–2024-yillarda mintaqa davlatlari bilan umumiy hisobda 1500 km dan ortiq yangi avtomobil va temir yo'l yo'nalishlari ishga tushirilib, O'zbekiston orqali Markaziy Osiyo davlatlari va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaydi. Bu o'z navbatida mintaqa ichidagi savdo aylanmasini oshirib, tranzit tashuvlar hajmini 30 foizdan ortiqqa ko'payishiga olib keldi. Bunday keng ko'lamli

hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy jihatdan yanada integratsiyalashuviga va barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo'shmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. 2022–2024-yillardagi iqtisodiy va statistik tahlillarga ko'ra, mintqa mamlakatlarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan umumiy talabi yiliga o'rtacha 5–7 foizga oshib bormoqda. Ushbu davrda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi Markaziy Osiyo bo'yicha jami 10–12 foizga ko'paygan bo'lsa-da, mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolari hali ham to'liq yechimini topmagan. Xususan, oziq-ovqat importiga bo'lgan qaramlik hali ham yuqori bo'lib, ayniqsa, don va yog' mahsulotlari bo'yicha import ulushi o'rtacha 35–40 foizni tashkil etmoqda [3].

O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. 2022–2024-yillar davomida O'zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilingan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi qariyb 2 barobarga oshib, 2022-yilda 450 mln AQSh dollari, 2023-yilda 580 mln AQSh dollari, 2024-yilda esa 700 mln AQSh dollarini tashkil qildi. O'zbekistonning asosiy eksport qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari ichida meva-sabzavotlar (65%), qandolat mahsulotlari (15%), go'sht va sut mahsulotlari (10%) hamda don va un mahsulotlari (10%) yetakchi o'rin tutmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonning oziq-ovqat importi hajmi ham sezilarli bo'lib qolmoqda. Xususan, 2024-yilda mamlakat oziq-ovqat importining umumiy hajmi 1,2 mlrd AQSh dollariga yetgan bo'lib, uning 40 foizdan ortig'i Markaziy Osiyo davlatlaridan amalga oshirilgan. Import qilinayotgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari qatoriga yog'-moy mahsulotlari, shakar va boshqa strategik mahsulotlar kiradi.

O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida mintaqaviy tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlamokda. 2023-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi kelishuv imzolangan bo'lib, mazkur kelishuv asosida qo'shma qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat loyihalari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) ko'magida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 150 mln dollarlik loyiha boshlangan [5].

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda Markaziy Osiyo davlatlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda. 2022–2024-yillarda mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2022-yilda umumiy eksport hajmi 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1,5 mlrd dollarga yetdi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi rekord darajada o'sib, 1,8 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Ushbu eksportning qariyb 40 foizi Markaziy Osiyo davlatlariga yo'naltirildi.

Eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibi ham diversifikatsiya qilinmoqda. So'nggi uch yilda eksport tarkibida meva-sabzavot mahsulotlari yetakchilik qilmoqda va umumiy hajmning 65 foizini tashkil etadi. Shuningdek, paxta tolasi, quruq mevalar, dukkakli ekinlar va chorvachilik mahsulotlarining eksporti ham sezilarli ravishda o'sib, mos ravishda 15 foiz, 8 foiz, 7 foiz va 5 foizni tashkil qilgan. Ayniqsa, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bozorlariga yetkazilayotgan meva-sabzavot eksportining hajmi 2024-yilda 450 mln dollarga yetgan [9].

Markaziy Osiyo davlatlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha hamkorlik kelishuvlari va qo'shma loyihalar ham izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yilda Qozog'iston bilan umumiy qiymati 200 mln dollar bo'lgan agroklastlar tashkil qilish va logistika markazlarini qurish bo'yicha 8 ta yirik loyihaga start berildi. Qirg'iziston bilan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha 100 mln dollarlik qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Tojikiston bilan ham sabzavotlarni qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha umumiy qiymati 80 mln dollarlik 5 ta qo'shma korxona tashkil qilindi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish sohasida hali yechilmagan muammolar mavjud. Xususan, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulotlarning eksport qiymatini oshirib, raqobatbardoshlikni pasaytirmoqda. Xalqaro sifat standartlariga javob beradigan mahsulotlarni sertifikatlash tizimining sust rivojlanishi eksport salohiyatini cheklamoqda. Bundan tashqari, chegaralardagi bojxona va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibidagi murakkabliklar eksport hajmining sezilarli darajada oshishini sekinlashtirmoqda [7].

Ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun mamlakat ichida ham, Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham hamkorlikni kengaytirish zarur. Ayniqsa, chegaraoldi logistika markazlarini rivojlantirish, mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash tizimini joriy qilish, bojxona va rasmiylashtirish tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan choralarni ko'rish talab etiladi. Bunday choralar amalga oshirilsa, kelgusida Markaziy Osiyo davlatlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini hozirgi darajadan yana 25–30 foizga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining samarali boshqarilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mintaqada yillik suv resurslarining umumiy hajmi o'rtacha 115–120 km³ atrofida shakllanadi, ammo suv

resurslarining taqchilligi va notekis taqsimlanishi sababli mintaqa davlatlari bu resurslardan foydalanishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, O'zbekiston yiliga taxminan 51–55 mlrd m³ suv iste'mol qilayotgan bo'lsa, Qozog'istonda bu ko'rsatkich 25–27 mlrd m³, Tojikistonda 12–14 mlrd m³, Turkmanistonda esa 27–30 mlrd m³ atrofida bo'lib turibdi. Suvga bo'lgan talabning yildan-yilga o'sib borishi esa mavjud zaxiralarga qo'shimcha bosim yaratmoqda [5].

O'zbekiston suv resurslarini boshqarish masalasida mintaqaviy kelishuvlarni faol qo'llab-quvvatlaydi va mintaqaviy integratsiyaga e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonning tashabbusi bilan 2022-yilda Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarini birgalikda boshqarish bo'yicha yangi strategiyani qabul qilishdi. Ushbu strategiya asosida transchegaraviy suv havzalari va irmoqlardan foydalanish, suv resurslarini tejash va boshqarish bo'yicha yangi mexanizmlar yaratildi. Shuningdek, O'zbekistonning faolligi bilan 2023-yilda suv resurslarini boshqarish bo'yicha umumiy qiymati 250 mln AQSh dollari bo'lgan mintaqaviy dastur ishga tushirildi.

Orol dengizi muammosi bo'yicha ham mintaqaviy hamkorlikda muhim natijalar qayd etilmoqda. 2022–2024-yillar davomida O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Orol dengizi mintaqasida ekologik vaziyatni yaxshilash uchun jami 100 mln dollardan ortiq mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobidan 2 mln gektardan ortiq hududda o'rmonzorlashtirish va yashil hududlarni tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Natijada tuzli chang ko'tarilishi 30 foizga kamaydi, bu esa mintaqadagi ekologik holatni sezilarli yaxshilashga yordam berdi.

Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslaridan samarali foydalanish va zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qo'shma loyihalarni ham amalga oshirmoqda. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida qiymati 120 mln dollarlik suv tejovchi irrigatsion texnologiyalarni joriy qilish loyihasi boshlandi. Bundan tashqari, Tojikiston bilan ham umumiy qiymati 80 mln dollarlik transchegaraviy suvdan foydalanish va sug'orish tizimini modernizatsiya qilish loyihasi ishga tushirilgan. Natijada suv resurslarining samarali ishlatilishi 20–25 foizga oshishi kutilmoqda [6].

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro tashkilotlar bilan oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi va suv resurslari sohasida keng ko'lamli hamkorlik olib bormoqda. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) Markaziy Osiyo davlatlari uchun oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha 2022–2024-yillarda 200 mln AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratdi. Jahon banki tomonidan esa

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va suv resurslari tizimini modernizatsiya qilish uchun 500 mln dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Yevropa Ittifoqi (YeI) va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda ekotizimni yaxshilash, suv resurslarini boshqarish va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha yangi dasturlar ishga tushirildi. Xalqaro tajribalarni tatbiq etish orqali erishilgan natijalar sezilarli darajada ijobiy bo'ldi. Xususan, FAO va Jahon bankining ko'magida 2023-yilda O'zbekistonda 25 ming gektar yerda zamonaviy sug'orish texnologiyalari joriy etildi, bu esa suvdan foydalanish samaradorligini 30 foizga oshirishga imkon berdi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida ISO, GlobalG.A.P. va boshqa xalqaro sertifikatlarni joriy qilish orqali O'zbekiston mahsulotlarining eksporti 20 foizga oshdi [3].

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, hali ham siyosiy-iqtisodiy to'siqlar mavjud. Xususan, ayrim davlatlar orasida transchegaraviy savdo to'siqlari, bojxona rasmiylashtiruvi va tartibga soluvchi hujjatlar bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Savdo-sotiq jarayonida to'siqlarning yuqoriligi sababli O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tranzit yuk tashish narxлари 15–20 foizga yuqori bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bojxona tartiblarini soddalashtirish va elektron deklaratsiya tizimini keng joriy qilish talab etiladi.

Chegara savdosi va logistika muammolarini hal qilish ham mintaqaviy hamkorlik uchun muhim yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari o'rtasida savdo hajmining oshishiga qaramay, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berishda muammolar keltirib chiqarmoqda. Xususan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi avtomobil va temir yo'llar orqali yuk tashish hajmi 2023-yilda 30 foizga oshgan, ammo bu jarayonda texnik va bojxona kechikishlari kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun chegara oldi logistika markazlarini rivojlantirish va davlatlararo transport shartnomalarini soddalashtirish lozim [8].

Qishloq xo'jaligi va suv resurslari sohasida qonunchilik bazasini takomillashtirish ham dolzarb masaladir. O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasida suv resurslaridan foydalanish bo'yicha mavjud kelishuvlar qayta ko'rib chiqilishi va yanada samarali mexanizmlar joriy etilishi kerak. Xususan, transchegaraviy suv havzalaridan foydalanish bo'yicha yagona mintaqaviy huquqiy tartibot ishlab chiqish suv resurslarini adolatli taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish imkonini beradi [6].

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, siyosiy, iqtisodiy va ekologik sohalarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. O'zaro savdo aylanmasi so'nggi 3 yil ichida 35 foizga oshgan, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti esa ikki barobarga ko'paygan. Xalqaro tashkilotlarning ko'magida suv resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ekologik muammolarni hal etish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish va hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bojxona tartiblarini soddalashtirish, transport-logistika tizimini yaxshilash, qishloq xo'jaligi va suv resurslari bo'yicha qonunchilik bazasini mustahkamlash talab etiladi. Shu yo'nalishdagi islohotlarni jadallashtirish natijasida O'zbekiston va mintaqa davlatlari o'zaro iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, xalqaro bozorda ham raqobatbardoshligini oshirishga erishishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo va investitsiya loyihalari haqida hisobot. – URL: <https://mift.uz>, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy ko'rsatkichlar (2022–2024-yillar). – URL: <https://stat.uz>, 2024.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) O'zbekiston. Yevropa, Markaziy Osiyo va boshqa hududlarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimini bosqichma-bosqich o'zgartirish. – URL: <https://uzbekistan.un.org>
4. Jahon Banki. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarida suv resurslarini boshqarish bo'yicha islohotlar. – URL: <https://worldbank.org>, 2023.
5. YI va UNDP. Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik hamkorligi: suv va qishloq xo'jaligi integratsiyasi. – URL: <https://www.europe.eu>, 2024.
6. Baxronova, D., Abdushahidov, N., Jo'rayeva, M. O'zbekistonda suv siyosati: muammolar, yechimlar va takliflar. – CyberLeninka, 2023.
7. G'afurov, S. Markaziy Osiyo: Mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. – Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, 2024.
8. To'rayev, B. M. Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya jarayonlari: O'zbekiston tajribasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2023.
9. Vaxabov, A. V., Tadjiyeva, D. A., Xajibakiyev, Sh. X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Namangan Davlat Universiteti, 2024.
10. Voxidova, M. X. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarining rivojlanish yo'nalishlari. – CyberLeninka, 2024.

ГЛОБАЛЬНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

ШОХИНУР ЭРГАШЕВА

*Студентка магистратуры Дипломатической Академии
при Университете мировой экономики и дипломатии*

Аннотация. В данной статье рассматриваются ключевые аспекты глобальной интеграции стран Центральной Азии в мировую экономическую, политическую и инфраструктурную системы. Представлен историко-геополитический анализ региона, определены основные направления внешнеэкономического сотрудничества, а также выявлены внутренние и внешние вызовы. Сделан акцент на перспективных стратегиях усиления интеграционного потенциала Центральной Азии на международной арене.

Ключевые слова: Центральная Азия, глобальная интеграция, геополитика, торговля, экономическое сотрудничество, транспортные коридоры

I. Введение

Центральная Азия занимает стратегически важное положение между Европой и Азией, объединяя пять независимых государств — Казахстан, Узбекистан, Кыргызстан, Таджикистан и Туркменистан. Регион характеризуется богатым природно-ресурсным потенциалом, геоэкономической значимостью и уникальной историко-культурной идентичностью. Несмотря на наличие значительных различий в уровнях экономического развития, политических режимах и внешнеполитических ориентирах, у стран региона имеются общие интересы в сфере безопасности, экономического роста и устойчивого развития.

После распада Советского Союза в 1991 году страны Центральной Азии стали независимыми государствами и приступили к формированию собственных моделей государственного управления и внешнеэкономических стратегий. В первые годы независимости акцент делался на укрепление суверенитета, восстановление хозяйства и обеспечение политической стабильности. Постепенно, с начала 2000-х годов, страны региона начали активнее вовлекаться в глобальные экономические процессы, включая международную торговлю, инвестиционное сотрудничество и участие в многосторонних структурах.

Особое значение приобретает международная логистика, энергетика и цифровая трансформация.

Целью данной статьи является комплексный анализ историко-политического контекста, ключевых направлений глобальной интеграции, а также проблем и перспектив участия стран Центральной Азии в глобальных процессах. В фокусе внимания находятся институциональные, экономические и инфраструктурные аспекты, а также анализ геополитических интересов внешних акторов.

II. Исторический и геополитический контекст

История Центральной Азии тесно связана с Великим шелковым путем, служившим на протяжении столетий мостом между Востоком и Западом. В период Российской империи и Советского Союза регион был интегрирован в централизованную плановую экономику, что наложило отпечаток на современную инфраструктуру, экономику и систему управления. После обретения независимости страны региона оказались перед вызовами формирования собственной национальной идентичности, обеспечения безопасности и построения рыночной экономики.

Центральная Азия сегодня находится в эпицентре интересов ведущих глобальных держав. Россия сохраняет значительное влияние через военно-политическое сотрудничество, миграционные потоки и участие стран региона в СНГ и ОДКБ. Китай активно продвигает стратегию 'Один пояс — один путь', инвестируя в транспортную и энергетическую инфраструктуру. Европейский союз продвигает модель устойчивого развития, а Турция усиливает культурно-экономическое присутствие через Организацию тюркских государств.

Международные структуры, в которых участвуют государства ЦА (ШОС, ЕАЭС, ОИС), способствуют институциональной и экономической интеграции, однако эффективность их механизмов до сих пор остаётся предметом обсуждения. При этом между самими странами региона сохраняются различия во внешнеполитических приоритетах, что осложняет формирование единого регионального блока.

III. Основные направления глобальной интеграции

Глобальная интеграция Центральной Азии проявляется в нескольких ключевых направлениях: торгово-экономическое сотрудничество, развитие транспортной и энергетической инфраструктуры, цифровизация и участие в международных институтах.

1. Торговля. Ведущими торговыми партнёрами стран региона являются Китай, Россия и страны Европейского союза. Казахстан

ориентирован на экспорт нефти, природного газа и урана; Узбекистан наращивает экспорт текстиля, хлопка, плодоовощной продукции и природного газа; Туркменистан активно продаёт углеводороды, преимущественно в Китай. Рост внешней торговли стимулируется участием в таких инициативах, как зона свободной торговли с ЕАЭС, и подписанием соглашений с ЕС.

2. Инфраструктура. Реализуются масштабные проекты транспортных коридоров: 'Транскаспийский международный транспортный маршрут', железнодорожные ветки Китай—Кыргызстан—Узбекистан и Узбекистан—Афганистан—Пакистан, автотрассы и мультимодальные логистические узлы. Эти проекты расширяют доступ региона к портам Персидского залива, Индийского океана и Европейскому рынку.

3. Энергетика. Регион обладает значительными запасами нефти, газа, гидроэнергии и редкоземельных элементов. Китай инвестирует в трубопроводные проекты, ЕС — в возобновляемую энергетику, включая солнечные и ветряные электростанции.


4. Цифровая интеграция. Несмотря на отставание от развитых стран, государства ЦА предпринимают шаги к цифровой трансформации. Создаются IT-парки, развиваются электронное правительство, цифровая торговля и трансграничные платёжные системы. Казахстан и Узбекистан инвестируют в программы цифровой грамотности и технологические стартапы.

Таким образом, глобальная интеграция региона реализуется как за счёт привлечения внешних инвестиций, так и через внутренние реформы и проекты модернизации.

Таблица 1. Основные торговые партнёры стран Центральной Азии (2023)

Страна	Китай	Россия	ЕС
Казахстан	35%	30%	20%
Узбекистан	22%	28%	18%
Кыргызстан	15%	40%	10%
Таджикистан	25%	35%	5%
Туркменистан	40%	25%	15%

Диаграмма 1. Экспорт стран ЦА в Китай (2023)



IV. Проблемы и вызовы

Несмотря на растущий интерес к глобальной интеграции, страны Центральной Азии сталкиваются с рядом серьёзных вызовов. Среди ключевых проблем — политическая разобщённость, экономическая неоднородность, дефицит инфраструктуры, экологические угрозы и ограниченный доступ к современным технологиям.

Политическая разобщённость проявляется в недостатке координации внешнеполитических стратегий. Страны региона по-разному оценивают роль России, Китая, ЕС и Турции в региональных делах. Это снижает эффективность реализации совместных проектов.

Экономическая неоднородность затрудняет выработку единой макроэкономической политики. Например, в то время как Казахстан и Узбекистан демонстрируют уверенные темпы роста, Таджикистан и Кыргызстан остаются зависимыми от денежных переводов мигрантов и помощи международных организаций.

Инфраструктурный дефицит ограничивает развитие торговли. Внутренняя логистика устарела, таможенные процедуры фрагментированы. Регион нуждается в модернизации железных дорог, расширении автотранспортных маршрутов и цифровизации таможни.

Таблица 1. Прогнозы роста ВВП стран Центральной Азии в 2025 году

Страна	Прогноз ВВП 2025 (%)
Казахстан	4.3
Узбекистан	5.5
Кыргызстан	4.0
Таджикистан	6.0
Туркменистан	5.1


V. Перспективы

Перспективы глобальной интеграции региона связаны с развитием транспортной связности, устойчивой энергетики, цифровизации и расширением участия в международных экономических инициативах. Евросоюз объявил об инвестиционном пакете в размере €12 млрд, направленном на транспорт, зелёную энергетику и спутниковую связь в регионе. Это открывает новые возможности для устойчивого роста и уменьшения зависимости от традиционных энергетических рынков.

Большие надежды возлагаются на развитие Транскаспийского международного транспортного коридора (Middle Corridor), который соединяет Китай с Европой в обход России. В 2024–2025 годах отмечается рост объема перевозок и привлечение новых инвестиций в портовую и железнодорожную инфраструктуру.

Диаграмма 1. Распределение пакета инвестиций ЕС по направлениям.

Инвестиционный пакет ЕС: структура расходов (€12 млрд)



VI. Заключение

Глобальная интеграция стран Центральной Азии находится на пересечении геополитических интересов, экономических реформ и инфраструктурного развития. Существует высокий потенциал для углубления экономического взаимодействия с мировыми державами и международными институтами. Однако этот потенциал может быть реализован лишь при условии согласованных усилий стран региона, устранения внутренних барьеров и повышения эффективности институтов.

Наиболее перспективными направлениями являются устойчивый транспорт, цифровизация, зелёная энергетика и научно-образовательное сотрудничество. При поддержке внешних партнёров и наличии политической воли страны Центральной Азии способны превратиться в устойчиво развивающийся регион с активным участием в глобальной экономике.

Список литературы:

1. **Всемирный банк (World Bank).** *Central Asia Regional Economic Integration*. 2020.
<https://www.worldbank.org/en/region/eca/publication/central-asia-regional-economic-integration>
2. **Евразийская экономическая комиссия (ЕЭК).** *Договор о Евразийском экономическом союзе*. 2014. <https://docs.eaeunion.org>
3. **Евразийский банк развития (ЕАБР).** *Интеграция в Евразии: мониторинг и анализ*. Ежегодные доклады.
<https://eabr.org/analytics/integration-research/>
4. **Европейский союз.** *EU Strategy for Central Asia*. 2019.
https://www.eeas.europa.eu/eeas/new-eu-strategy-central-asia_en
5. **Им. Валютный фонд (IMF).** *Economic Integration in Central Asia*. IMF Working Paper, 2021.
<https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2021/02/19/Economic-Integration-in-Central-Asia-501291>
6. **Казахстан.** *Стратегия "Казахстан-2050"*. Официальный сайт Президента Республики Казахстан. <https://www.akorda.kz>
7. **Кыргызстан.** *Национальная стратегия устойчивого развития Кыргызской Республики*. <https://www.gov.kg>

8. **ООН (UNESCAP).** *CAREC Program — Central Asia's Integration into the World Economy.* 2022. <https://www.unescap.org/resources/central-asias-integration-world-economy>
9. **Организация тюркских государств.** *Стратегия развития "Видение–2040".* <https://www.turkicstates.org>
10. **Правительство Республики Таджикистан.** *Стратегия национального развития до 2030 года.* <https://www.mehnat.tj>
11. **Правительство Республики Узбекистан.** *Стратегия развития на 2022–2026 гг.* <https://strategy.uz>
12. **Программа Центральноазиатского регионального экономического сотрудничества (CAREC).** *Доклады и данные.* <https://www.carecprogram.org>
13. **Центральноазиатский институт регионального экономического сотрудничества (CAREC Institute).** *Публикации и исследования.* <https://www.carecinstitute.org>
14. **Статкомитет СНГ.** *Статистика по экономической интеграции стран СНГ.* <https://www.cisstat.org>
15. **США (USAID).** *Проекты USAID в Центральной Азии.* <https://www.usaid.gov/central-asia-regional>
16. **Шанхайская организация сотрудничества (ШОС).** *Декларации и соглашения.* <http://eng.sectsco.org>
17. **Инициатива "Один пояс — один путь".** *Belt and Road Portal — документы и аналитика.* <https://eng.yidaiyilu.gov.cn>



O'ZBEKISTON - TURKMANISTON: MINTAQAVIY INTEGRATSIYA YO'LIDA STRATEGIK HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

MADINA MIRVOSILOVA

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.Qolqanov

Annotatsiya. Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport-logistika tarmoqlarini yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa O'zbekiston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlar o'rtasidagi hamkorlik nafaqat ikki tomonlama manfaatlarga, balki butun mintaqaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlarining asosiy yo'nalishlari, ularning mavjud muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi takliflar ilgari suriladi.



Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Turkmaniston, strategik hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, siyosiy aloqalar, iqtisodiy sheriklik, xavfsizlik, transport va energetika, logistika, kooperatsiya.*

Kirish. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ushbu jarayonda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi aloqalar alohida e'tiborga loyiq. Tarixiy, madaniy va geosiyosiy yaqinlik, shuningdek umumiy chegaraga ega bo'lish ikki davlatni ko'p qirrali strategik hamkorlik sari yetaklamoqda. Bugungi kunda geoiqtisodiy sharoitlar mintaqa mamlakatlaridan o'zaro integratsiyani chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanishni talab qilmoqda.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2022-yilda 926 million AQSh dollariga yetgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1 milliard dollardan oshdi. [4] Shuningdek, ikki davlat chegarasida erkin savdo zonasi tashkil etilishi, Transafg'on temiryo'l loyihasidagi hamkorlik va energetika sohasidagi qo'shma tashabbuslar ikki tomonlama munosabatlarning yanada faollashganidan darak

beradi. Bu esa ikki davlat o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki transport-logistik va siyosiy aloqalarning ham chuqurlashayotganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, hamkorlikning ayrim yo'nalishlarida tizimlilik yetishmaydi. Jumladan, sarmoyaviy muhitni takomillashtirish, bojxona tartiblarini soddalashtirish, energetik resurslar tranzitidagi o'zaro manfaatlar muvozanatini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism. Siyosiy muloqot O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlarining asosiy tayanchidir. Mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1993-yilda o'rnatilgan bo'lib, keyingi yillarda bu aloqalar izchil va do'stona ruhda rivojlanib bordi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qo'shni davlatlar bilan ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib borilishi Turkmaniston bilan munosabatlarga ham yangi sur'at berdi.

Bu borada 2017-yil Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ashxobodga rasmiy tashrifi davomida 14 ta muhim hujjat, jumladan, 6-mart kuni imzolangan "Strategik sheriklik to'g'risida"gi shartnoma alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning mustahkam huquqiy asosiga aylandi.

Shu bilan birga, 2022-yilning iyulida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning O'zbekistonga tashrifi ham aloqalarda yangi bosqichni boshlab berdi. Uchrashuvda ko'plab ikki tomonlama hujjatlar imzolandi, xususan, 2022-yil 21-oktyabrda "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risida"gi deklaratsiya imzolanib, iqtisodiyot, transport, savdo va energetika sohalarida qo'shma loyihalar muhokama qilindi.

Ushbu tashriflar faqat diplomatik aloqalarni mustahkamlabgina qolmay, balki barcha sohalarida real amaliy hamkorlikning kengayishiga turtki bo'ldi. O'zbekiston-Turkmaniston oliy darajadagi strategik muloqotlari mintaqada tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiy sohadagi hamkorlik alohida sur'at bilan rivojlanmoqda. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshdi. Bu esa 2017-yilga nisbatan besh barobar ko'p bo'lib, ikki davlat iqtisodiy aloqalari barqarorlik sari yo'naltirilganidan dalolat beradi.

Mamlakatlarimiz mintaqada yirik energetik loyihalarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etmoqda. Yiliga 25 milliard kub metrgacha gaz yetkazish quvvatiga ega Turkmaniston - O'zbekiston - Qozog'iston - Xitoy gaz quvuri loyihasi shular jumlasidandir. [5]

Transport sohasi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakatlarimizning o'zaro integratsiyalashgan avtomobil va temir yo'llari uchinchi davlatlar uchun ham tranzit vazifasini o'tamoqda. Amudaryo ustida

qurilgan Turkmanobod – Farab avtomobil va temir yo'l ko'priklari buning tasdig'idir. Mazkur ko'priklar Prezidentimizning 2017-yil mart oyida Turkmanistonga davlat tashrifi chog'ida tantanali ravishda ochilgan edi.

O'zbekiston Turkmanistonga, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik, qurilish materiallari va avtomobil ehtiyot qismlarini eksport qilayotgan bo'lsa, Turkmanistondan tabiiy gaz, neft mahsulotlari, polimerlar va paxta tolasi import qilinmoqda. Bu holat savdo munosabatlarining muvozanatli shakllanishi uchun eksport salohiyatini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

2024-yildan boshlab ikki mamlakat o'rtasida erkin savdo rejimi joriy qilindi. Bu yangilik nafaqat o'zaro savdo hajmini oshirishga, balki investitsiyaviy muhitni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Xususan, "Shovot-Toshhovuz" chegaraoldi savdo zonasining tashkil etilishi hududlararo iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiruvchi muhim bosqich bo'lishi kutilmoqda.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston–Turkmaniston munosabatlari mintaqaviy integratsiya jarayonlarining yorqin namunasiga aylanmoqda. Oliy darajadagi siyosiy muloqot, mustahkam huquqiy baza va do'stona qo'shnichilik tamoyiliga asoslangan bu aloqalar ijobiy sur'atda rivojlanmoqda. Ammo faqat statistik o'sish emas, balki sifat jihatidan ham chuqur tahlil qilinadigan jihatlar mavjud.

Avvalo, ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning nomutanosibligi jiddiy muammodir. Turkmanistonning eksporti O'zbekistonnikidan ancha ustun. 2024-yilgi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarda sezilarli farqlar mavjud. O'zbekistonning Turkmanistonga eksporti \$128,2 millionni tashkil etgan bo'lsa, Turkmanistondan import hajmi \$1,02 milliardga yetgan. [6] Bu esa O'zbekistonning eksporti importga nisbatan qariyb sakkiz barobar kamligini ko'rsatadi. Bu holat biryoqlamalikni keltirib chiqarmoqda. Eksport hajmini oshirish uchun O'zbekiston tomoni o'z mahsulotlarining sifatini, qadoqlanishini, logistikasini va marketingini tubdan yaxshilashi lozim. Shuningdek, hududlararo sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish va birgalikda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar yaratish bugunning asosiy talabidir.

Bojxona tartiblarining murakkabligi esa savdo oqimini sun'iy to'siqlarga duchor etmoqda. Masalan, O'zbekiston bojxona tizimida yuklarni rasmiylashtirish vaqti eksportda 20 daqiqagacha qisqargan bo'lsa-da, Turkmaniston bilan bu boradagi muvofiqlashtirish ishlari yetarli darajada emas. Bu borada yagona elektron platforma va tezkor o'zaro axborot almashuv tizimi joriy qilinmasa, mavjud o'sish barqaror saqlanmaydi.

Sanoat kooperatsiyasida sustlik ham jiddiy e'tiborni talab qiladi. Qo'shma korxonalar sonining kamligi, mavjudlarining esa faqat bir yo'nalishda cheklanganligi ikki tomonlama hamkorlikni keng qamrovli iqtisodiy tizimga aylanishiga to'sqinlik qilmoqda. Innovatsion ishlab chiqarishlar, ilm-fan asosidagi loyihalar hali deyarli yo'q. Yangi texnologiyalar asosida qo'shma startaplar, texnoparklar tashkil etish zarur.

Transport-logistika infratuzilmasida ham muvofiqlashtirish yetarli emas. Chegara punktlaridagi yuk oqimi, nazorat punktlarining quvvati va xizmat ko'rsatish sifati ko'plab tadbirkorlar uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Multimodal yo'nalishlar bo'yicha muvofiqlashtirilgan tarif siyosati ishlab chiqilmagan. Bu yo'nalishda davlatlararo qo'shma logistik markazlar va tarif soddalashtirish mexanizmlari joriy etilishi zarur.

Shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalar ham ikkilamchi darajada qolmoqda. Qardoshlik rishtalari va umumiy tarixga qaramasdan, qo'shma madaniy loyihalar, yoshlar almashinuvi, ilmiy-tadqiqot hamkorliklar yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Madaniyat – bu nafaqat ramziy aloqa, balki real diplomatik ta'sir vositasi hamdir.

Xulosa. O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari so'nggi yillarda izchil rivojlanib, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining yorqin namunasiga aylangan. Ikkala davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot, diplomatik tashriflar va imzolangan hujjatlar davlatlararo aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan o'zaro strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyot, transport va energetika sohalarida keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirishga olib keldi.

Shu bilan birga, iqtisodiy hamkorlikda nomutanosiblik, sanoat kooperatsiyasining sustligi, bojxona tartiblaridagi murakkabliklar va madaniy-gumanitar aloqalarning cheklanganligi kabi muammolar mavjud. O'zbekiston tomoni eksport hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalar asosida qo'shma startaplar va texnoparklar tashkil etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Shu o'rinda, O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlarining rivojlanishi faqat iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash bilan cheklanmasdan, madaniy-gumanitar hamkorlikni ham chuqurlashtirishni taqozo etadi. Mamlakatlar o'rtasida qo'shma madaniy loyihalar va ilmiy-tadqiqot hamkorliklarini rivojlantirish, yoshlar almashinuvini amalga oshirish orqali diplomatik aloqalar yanada mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy aloqalar o'sishni davom ettirishi uchun raqamli iqtisodiyotga o'tish, bojxona tartiblarini soddalashtirish va transport

tarmoqlarini yanada samarali muvofiqlashtirish zarur. Bu barcha chora-tadbirlar O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishiga xizmat qiladi va mintaqada barqarorlik hamda taraqqiyotga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, O'zbekiston-Turkmaniston aloqalarining kelgusi rivojlanishi uchun yuqorida ko'rsatilgan muammolarni hal qilish, amaliy va innovatsion yechimlarni joriy etish, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish zarurdir. Bu o'z navbatida ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlab, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonning tashqi siyosati: yangi davrning talablariga moslashish (2017) - <https://president.uz/>
2. Berdimuhammedov, S. Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlik: o'tgan davr va kelajak istiqbollari (2022) - <https://turkmenistan.gov.tm/>
3. Berdimuhammedov, G. *O'zbekiston-Turkmaniston o'rtasida transport tarmoqlari va hududiy integratsiya*: Transport va logistika sohasidagi hamkorlik (2018) - <https://turkmenport.com/>
4. <https://kun.uz/news/2024/02/20/turkmaniston-va-ozbekiston-savdo-aylanmasi-1-mlrd-dollardan-oshdi>.
5. <https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-turkmaniston-hamkorlikning-yangi-bosqichi.html>
6. <https://caspiannews.com/news-detail/turkmenistan-uzbekistan-strengthen-ties-with-new-cooperation-agreement-2025-1-31-0/?utm>

THE IMPACT OF WTO REGULATIONS ON THE NATIONAL BANKING SYSTEM

MAHLIYO BOBOMURODOVA

*Master's Student at the Diplomatic Academy
under the University of World Economy and Diplomacy*

Abstract. The World Trade Organization (WTO) plays a crucial role in shaping global trade policies, including financial and banking regulations. Uzbekistan's accession to the WTO presents significant implications for its national banking system. This article examines the theoretical background of WTO regulations, the strategies adopted by Uzbekistan to implement these policies, their impact on the banking sector, the challenges faced, and recommendations for sustainable integration into the global financial system. The study highlights both the benefits and risks associated with WTO membership for Uzbekistan's banking industry.

Introduction. Uzbekistan's transition from a closed, centrally planned economy to a market-oriented system has been a significant reform journey. In recent years, the country has made substantial progress in liberalizing its financial and banking sectors, a crucial step toward joining the WTO. However, WTO accession entails rigorous compliance with international financial regulations, which presents both opportunities and challenges for Uzbekistan's banking industry. This paper analyzes the theoretical underpinnings of WTO banking regulations, Uzbekistan's implementation strategies, the effects on its banking sector, and policy recommendations.

The banking sector serves as a cornerstone of economic growth, ensuring efficient capital allocation, financial intermediation, and economic stability. As part of WTO accession, Uzbekistan must align its financial regulations with global standards, including those outlined by the General Agreement on Trade in Services (GATS) [9] and Basel banking frameworks. [2] The adoption of these principles will shape the competitiveness, transparency, and stability of the national banking system. However, concerns over potential financial instability, increased foreign competition, and regulatory constraints remain critical issues that need to be addressed.

**Theoretical Background of WTO Regulations in Banking
WTO Principles and Financial Sector Commitments Under WTO**

The WTO oversees global trade regulations, including financial services, through the General Agreement on Trade in Services (GATS). GATS mandates liberalization, market access, and non-discriminatory policies in financial sectors. The key principles of WTO financial services regulations include:

- **Market Access:** Members must allow foreign banks and financial institutions to enter their markets without excessive restrictions.
- **National Treatment:** Foreign entities must be treated equally to domestic financial institutions.
- **Most-Favored Nation (MFN) Principle:** WTO members cannot discriminate between trading partners and must offer similar terms to all.
- **Transparency and Predictability:** Regulations governing financial services must be clear, publicly accessible, and consistent.

Countries joining the WTO commit to transparency, competition, and compliance with Basel banking standards¹. These commitments require financial stability, risk management improvements, and reduced governmental intervention in banking sectors. Compliance with these international financial standards ensures that domestic banks can integrate effectively into the global financial system while mitigating systemic risks associated with liberalization.

Benefits and Risks of WTO Banking Regulations

Adherence to WTO principles can foster foreign investment, enhance banking efficiency, and improve financial stability. However, it also exposes domestic banks to foreign competition and requires significant regulatory adjustments. The key benefits of WTO banking regulations include:

- **Improved Efficiency:** Market liberalization encourages competition, leading to lower costs and better financial services.
- **Foreign Investment Attraction:** Increased foreign participation in the banking sector can enhance capital inflows and technological advancements.
- **Enhanced Regulatory Standards:** Compliance with international banking standards improves financial sector resilience.[6]

However, risks include potential financial instability, capital flight, and reduced market share for domestic banks unable to compete with large multinational financial institutions.

Uzbekistan's WTO Accession and Implementation Strategy

Historical Context of Uzbekistan's WTO Negotiations

Uzbekistan has been negotiating its WTO accession since 1994. Economic reforms intensified post-2016, with increased emphasis on banking liberalization to align with WTO requirements.[4] Over the years, the government has

¹ Footnote 2 page 1

undertaken significant steps to modernize its banking system, attract foreign investment, and increase the role of private financial institutions.

Policy Reforms and Legal Adjustments

Uzbekistan has implemented several reforms, including:

- **Strengthening banking supervision** through the Central Bank of Uzbekistan (CBU) [3], ensuring compliance with international financial stability standards.
- **Removing restrictions on foreign bank entry**, allowing international banks to operate more freely in Uzbekistan.
- **Aligning banking regulations with Basel III standards**, which include enhanced risk management and capital adequacy requirements¹.
- **Ensuring transparency in financial reporting** and enforcing anti-money laundering (AML) measures in line with international best practices [5].

Foreign Investment and Banking Liberalization. To attract foreign direct investment (FDI), Uzbekistan has introduced incentives such as tax exemptions and relaxed foreign exchange controls [6]. These measures are crucial for meeting WTO obligations and fostering an open banking system. However, striking a balance between liberalization and protecting domestic financial institutions remains a key challenge.

Effects of WTO Regulations on Uzbekistan's Banking Sector

Increased Competition. WTO accession will likely lead to increased foreign bank presence, enhancing competition and encouraging efficiency among domestic banks. However, smaller banks may struggle to compete with international financial institutions. The potential risks include:

- Erosion of market share for local banks due to the superior financial strength of foreign institutions.
- Financial instability arising from a rapid increase in competition and potential banking consolidations.

Improved Financial Services and Innovation

WTO-driven reforms can lead to an expansion in financial products and digital banking services [1]. Modernization efforts, including fintech development, are expected to accelerate under an open financial market. Digital banking and financial technology (fintech) advancements will play a crucial role in shaping Uzbekistan's financial landscape post-WTO accession.

Conclusion. Uzbekistan's WTO accession will significantly impact its banking sector by fostering competition, enhancing financial services, and aligning the sector with global standards. However, this transition presents

¹ Footnote 2 page 1

challenges, including regulatory readiness, financial vulnerabilities, and domestic bank competitiveness. A balanced approach—combining gradual liberalization, regulatory strengthening, and capacity-building—will be essential for maximizing benefits while mitigating risks. As Uzbekistan integrates into the global financial system, effective policy measures will be crucial in ensuring a sustainable and competitive banking sector.

REFERENCES:

1. Asian Development Bank. (2023). *Financial Sector Development in Central Asia*. Available at: www.adb.org
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2022). *Basel III: International Regulatory Framework for Banks*. Available at: www.bis.org
3. Central Bank of Uzbekistan. (2023). *Banking Sector Reforms and WTO Compliance*. Available at: www.cbu.uz
4. International Monetary Fund. (2022). *Financial Sector Assessment of Uzbekistan*. Available at: www.imf.org
5. Karimov, F. (2021). *The Impact of WTO Membership on Uzbekistan's Financial Services*. *Economic Review Journal*, 12(4), pp. 45-62.
6. Organization for Economic Co-operation and Development. (2023). *Investment Reforms in Emerging Economies*. Available at: www.oecd.org
7. United Nations Conference on Trade and Development. (2022). *Financial Liberalization and Economic Growth in Developing Countries*. Available at: www.unctad.org
8. World Bank. (2023). *Uzbekistan's Economic Transition: Financial Sector Perspectives*. Available at: www.worldbank.org
9. World Trade Organization. (2023). *General Agreement on Trade in Services (GATS)*. Available at: www.wto.org

MARKAZIY OSIYO INTERGATSIYASI: OMILLARI, YO'NALISHLARI

ZUHRIDDINJON ERGASHOV

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi talabasi*

Anontatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari tahlil qilinadi. Mintaqaviy hamkorlikning ahamiyati, xavfsizlik masalalari, savdo-iqtisodiy aloqalar va madaniy yaqinlikning rivojlanishi asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy almashinuv jarayonlari mintaqaning umumiy taraqqiyotiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Integratsiya jarayonining ijobiy jihatlar hamda uning Markaziy Osiyo davlatlari uchun strategik ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, transc chegaraviy, Markaziy Osiyo integratsiya, xavfsizlik, siyosiy aloqalar.*

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga intilib kelmoqda. Mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va tarixiy bog'liqligi integratsiya jarayonining rivojlanishiga turtki bo'layotgan asosiy omillardan hisoblanadi. Hozirgi davrda globalizatsiya jarayonlari chuqurlashib borar ekan, Markaziy Osiyo mamlakatlari ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ehtiyoj sezmoqda.

Markaziy Osiyo mustaqil yangi davlatlarining integratsiya yo'lidagi birinchi qadami, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga kirish va sobiq Sovet makonida yuzaga kelgan umumiy muammolarni birgalikda hal qilishga urinish bo'lgan edi. Biroq, o'sha davrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi boshqaruv tashkiloti yetarlicha samarali emas edi, shuning uchun ham Hamdo'stlikning faoliyati samarali bo'lmagan. Yaratilgan vaziyatdan chiqish uchun Markaziy Osiyoning yirik davlatlari, ya'ni Qozog'iston va O'zbekiston shartnoma asosida yangi mintaqaviy uyushma yaratishning asoslarini qo'yishga qaror qildilar. Ushbu uyushma kelajakni ko'rib, belgilangan vazifalar va uning to'liq ishtirokchilarini kengaytirish nuqtai nazaridan istiqbolga ega edi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. 1993-yilning yanvarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari

rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar. [1]

Bu beshta qo'shni davlatlari rahbarlari 1993-yil Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahrida, 1994-yil Nukus shahrida, 1995-yil Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz shahrida, 1995-yil yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar. 1999-yil Turkmaniston Prezidentining saroyida Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda ekologik falokat mintaqasidagi vaziyatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Yagona iqtisodiy hudud yaratish to'g'risidagi kelishuvda mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari va yagona iqtisodiy hudud yaratishning imkoniyatlari va zarurligini ta'minlovchi siyosiy va iqtisodiy shartlar belgilangan. Ushbu shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlatlar o'rtasida ikki tomonlama do'stlik shartnomalari, hamkorlik va o'zaro yordam;
- Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi tarixiy umumiylik;
- Xalq va davlat rahbarlarining yaxshi qo'shnichilikni har tomonlama rivojlantirish va chuqurlashtirishga bo'lgan istagi;
- Iqtisodiy islohotlarni muvofiqlashtirilgan amalga oshirish va bozor munosabatlarini rivojlantirish imkoniyati;
- O'zaro foydali savdo va iqtisodiy aloqalarni shakllantirishning haqiqatga aylanishi;
- Integratsiya jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish uchun qulay huquqiy va tashkilot - iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish imkoniyati;
- Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy salohiyatni taqsimlashning afzalligi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga intilgan bo'lsalar-da, iqtisodiy, chegara va boshqa muhim masalalar dolzarb muammolar sifatida yuzaga chiqdi. Ayniqsa, chegara nizolari, savdo aloqalaridagi to'siqlar va tabiiy resurslardan foydalanish kabi masalalar Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotiga to'sqinlik qildi.

Biroq XXI asrga kelib, mintaqa davlatlari o'zaro yaqinlashuvni kuchaytirib, mavjud muammolarni hal qilish yo'lida muhim qadamlar tashladi. Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va siyosiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Natijada, davlatlar o'rtasidagi ishonch muhitining shakllanishi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mana shunday Markaziy Osiyodagi xavfsizlik iqtisodiy chegaraviy muommolarning hal etish ijobiy tomonga burilishi 2016-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib Shavkat Mirziyoyev Miromonovich saylangandan keyin yangi rahbar tashabbusi bilan amalga oshirildi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni asosida tasdiqlangan 2017-2021 - yillarda "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar deya tasniflangan 5.2 bandida: O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish tamoyili belgilab qo'yildi. [2]

O'zbekiston rahbari 2017-yil Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini ishonchli va konstruktiv ruhda muhokama etish va Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy muommolarini birgalikda hal qilish uchun samarali platform sifatida tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. [3] Bu taklif qardosh davlat rahbarlari tomonidan qo'llab quvvatlandi. Bu qanchalik to'ri yo'l ekanligini tez orada o'zini isbotladi. Bu hayotiy tashabbus qardosh xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga mos bo'lgani uchun keng qo'llab - quvvatlandi va tezda amalga oshirildi. Birinchi sammit 2018-yil mart oyida Qozog'iston poytaxti Nur-Sulton shahrida, ikkinchisi esa 2019-yil noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan edi. [4] Bu Maslahat uchrashuvlarida mintaqadagi muommolar va barqaror rivojlanish yo'llari o'rtaga tashlandi ijobiy tomonga hal etildi. 2021-yil 6-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlarining uchinchi Maslahat uchrashuvi Turkmanistonning Avaza milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida umumiy siyosiy iroda va birgalikdagi sa'y-harakat natijasida bugun mintaqamiz yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanib borayotganini ta'kidladi. [5] Mana shunday o'zaro manfaatli uchrashuvlarning tashkil etilishi Markazi Osiyo davlatlarining iqtisodiy barqaroligini yanada rivojlantirmoqda desak adashmagan bo'lamiz. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016-yildan 2019- yilgacha bo'lgan savdo aylanmasi 2 barobardan ziyod oshib, 2,5 milliard dollardan 5,2

milliard dollargacha o'sdi. O'sish ko'rsatkichi Qozog'iston bilan – 1,8, Qirg'iziston bilan – 5, Turkmaniston bilan – 2,7 va Tojikiston bilan – 2,4 barobarni tashkil etdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy savdo aylanmasidagi ulushi hajmi ham 10,2 dan 12,4 foizga oshdi.

Koronavirus pandemiyasi tufayli iqtisodiy faollikning umumiy susayishi sabab 2020-yil yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi qisman, ya'ni 2019-yildagiga nisbatan 5,4 foiz pasaydi, biroq O'zbekistonning umumiy tovar aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi 12,4 foizdan 13,6 foizga oshdi. [6]

2024-yil yanvar–fevral oylarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmi 982,9 million dollarga yetganini ma'lum qildi. Bu umumiy eksport–import hajmining 9,9 foiziga teng. 2023-yilning mos davrida respublikaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan jami savdosi 976,8 million dollarni tashkil etgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy tovar ayirboshlash hajmi Qozog'iston-581,5 million dollar, Turkmaniston - 184,6 million dollar, Tojikiston -118,5 million dollar, Qirg'iziston - 98,3 million dollar tashkil etilgan. [7]

Mintaqadagi eng og'riqli muammolardan biri – davlatlararo bahsli chegara masalasi hisoblanadi. So'nggi yillarda, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasida hududiy delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari sezilarli darajada faollashdi. Xususan, 2017-yilda O'zbekiston va Qozog'iston chegaralarini to'liq aniqlashga erishdi. 2022-yilda O'zbekiston va Qirg'iziston, shuningdek, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi bahsli hududlar bo'yicha kelishuvga erishildi va chegara masalalari huquqiy asosda hal etildi. Qozog'iston va Qirg'iziston, shuningdek, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida ham chegara masalalarini aniqlash bo'yicha muzokaralar davom etmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston viloyat markazida joylashgani uchun Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega bo'lib, uning uzunligi 7000 km dan ortiq, jumladan Qozog'iston bilan 2356,31 km, Qirg'iziston bilan 1476,12 km, Tojikiston bilan 1296,9 km, Turkmaniston 1831,49 km va Afg'oniston bilan 143 km. [8] O'zbekiston bilan xorijiy davlatlar o'rtasida boshqa muhim yo'nalishlarda ham hamkorlik faollashishi barobarida Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha muzokaralar jarayoni uzluksiz tus oldi.

Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi chegara masalalari uzoq yillar davomida mintaqaviy barqarorlik va hamkorlik uchun muhim omillardan biri bo'lib kelgan. Ushbu ikki davlat mustaqillikka erishgach, chegara delimitatsiyasi

va demarkatsiyasi masalalari yuzasidan muzokaralar olib bordi. Tarixiy va geosiyosiy jihatdan murakkab bo'lgan ushbu jarayon mintaqadagi xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq edi.

XXI asrga kelib, tomonlar o'zaro muloqotni faollashtirib, diplomatik yo'llar orqali barcha bahsli hududlar bo'yicha murosaga erishdi. Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va hamkorlikka yo'naltirilgan yondashuvi natijasida chegara masalalari tinch yo'l bilan hal qilindi. 2022-yil 22-dekabr kuni ikki davlat prezidentlari tomonidan O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi bitim imzolanishi bilan chegarani qonuniy rasmiylashtirish jarayoni yakunlangan edi. Chegarani belgilash 2001 va 2022 yillardagi davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomalar asosida amalga oshirildi. *"Demarkatsiya kelishuvi mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bizning chegaramiz hamisha do'stlik va yaxshi qo'shnichilik chegarasi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi"* – degan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. [6] O'zbekiston Qozog'iston bilan davlat chegarasini to'liq aniqlab, huquqiy jihatdan hal etdi. Bu jarayon chegara xavfsizligini mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va transchegaraviy aloqalarni yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara masalalarining to'liq hal etilishi Markaziy Osiyodagi geosiyosiy barqarorlik va mintaqaviy integratsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. 2017-yilda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida chegara delimitatsiyasiga oid dastlabki kelishuv imzolandi. Ushbu hujjat 1 170 km uzunlikdagi chegaraning 85 foizini aniq belgilashga imkon yaratdi. Qolgan bahsli hududlar bo'yicha muzokaralar davom etib, 2022-yilda tomonlar chegara masalasini to'liq hal qilishga erishdi. Ushbu kelishuv doirasida Qo'shtepa va Kampirobod suv ombori kabi strategik hududlarga oid kelishuvlar ham imzolandi, bu esa ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Chegaraning rasmiy ravishda to'liq hal etilishi ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transchegaraviy transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida do'stona munosabatlarni mustahkamlash bilan birga, Markaziy Osiyoning umumiy integratsiya jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara masalasining to'liq hal etilishi mintaqada diplomatik muzokaralar orqali murakkab hududiy nizolarni tinch yo'l bilan yechishning muvaffaqiyatli tajribasi sifatida baholanadi. Bu esa

Markaziy Osiyodagi boshqa transchegaraviy masalalar uchun ham samarali yechim modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Tojikistonning umumiy chegarasi 1332 km bo'lib, mustaqillikdan so'ng ushbu chegara bo'ylab delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari davom etgan. Uzoq yillar davomida ba'zi hududlar, jumladan, tog'li va qishloq xo'jaligiga oid yerlar bahsli bo'lib qolgan.

2018-yilda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida chegara masalasiga doir Kelishuv bitimi imzolandi. Ushbu kelishuv natijasida 85 foiz chegara chizig'i aniq belgilandi, qolgan hududlar esa keyingi yillarda diplomatik muzokaralar orqali to'liq hal qilindi.

2022-yilga kelib, ikki davlat rasmiy ravishda chegara masalalarini 100 foiz hal qilganini e'lon qildi. Bu jarayonda chegara postlarining ochilishi, viza rejimining bekor qilinishi va transchegaraviy hamkorlikning kengayishi muhim rol o'ynadi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi chegara rasmiy jihatdan belgilangan bo'lib, tomonlar o'zaro do'stona aloqalarni rivojlantirishda davom etmoqda.

Bundan tashqari, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, madaniy-gumanitar hamkorlik mintaqada davlatlari o'rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon milliy madaniyatlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlab, xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni jadallashtiradi. Mamlakatlar o'rtasidagi adabiy va badiiy tarjimalar, san'at festivallari, ko'rgazmalar va teatr ijrolari bu borada muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik ham madaniy-gumanitar integratsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Hududiy universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasida qo'shma dasturlar ishlab chiqilishi, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi hamda tadqiqot loyihalarining kengayishi nafaqat mintaqaning ilmiy salohiyatini oshiradi, balki umumiy madaniy qadriyatlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda madaniy-gumanitar hamkorlik, shuningdek, turizm va sport sohalarida ham sezilarli o'sish bilan namoyon bo'lib kelmoqda. Hududning boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va an'anaviy urf-odatlar asosida turizmni rivojlantirish mintaqaviy birdamlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, sport musobaqalari va yoshlar festivallari xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi bu mintaqaning umumiy tarixiy merosini saqlash va tadqiq etishdir. Arxeologik tadqiqotlar, qo'lyozmalarni o'rganish va tarixiy manbalarni tadqiq qilish yo'nalishida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar xalqlarning umumiy tarixini o'zaro anglashga xizmat qiladi.

2023-yil, 14-15-sentabr kunlari esa Tojikistonning Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazildi. Ushbu sammitlarda qator muhim va dolzarb taklif va tashabbuslar, mintaqada savdo-iqtisodiy, transport, "yashil iqtisodiyot", energetika, suv va ekologiya sohalaridagi hamkorlik masalalariga shartnomalar imzolandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlanishida Maslahat uchrashuvining ta'siri bo'layotgan bo'lsada, mintaqada davlatlari kutayotgan mustahkam birlashish natijalari to'la shakllangan emas. Ushbu sohada va mintaqaning rivojlantirish, borasidagi boshqa masalalar keyingi uchrashuvlar doirasida amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 31-mart kuni Tojikistonning Xo'jand shahriga amaliy tashrif bilan bordi. Ushbu tashrif doirasida u Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashdi. Uchrashuvning asosiy maqsadi uch mamlakat chegaralarining tutash nuqtalari bo'yicha kelishuvga erishish va ushbu masalani huquqiy jihatdan mustahkamlashdan iborat edi. Uchrashuv natijasida davlat rahbarlari tomonidan chegara masalalarini huquqiy tartibga solish bo'yicha tarixiy shartnoma imzolandi. Ushbu hujjat O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, mintaqada siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Chegara nizolarining hal qilinishi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida barqaror va do'stona munosabatlarni shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Oldinroq, chegaraviy hududlarda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini sekinlashtirgan edi. Imzolangan shartnoma mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Shartnomaning imzolanishi mintaqadagi transport-kommunikatsiya yo'laklarining yanada rivojlanishiga ham turtki bo'ladi. Xususan, savdo aloqalarini kengaytirish, chegara hududlarida qo'shma iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Prezident Mirziyoyev tashrif doirasida madaniy tadbirlarda ham ishtirok etdi. U uch davlat san'at ustalarining qo'shma konsert dasturini tomosha qilib, madaniy almashinuvning ahamiyatiga urg'u berdi. Bu esa Markaziy Osiyo

davlatlari o'rtasida nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy sohadagi hamkorlikning ham rivojlanayotganidan dalolat beradi. Madaniy-gumanitar hamkorlik mintaqada barqaror rivojlanish va tinchlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan tashabbuslar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tojikistonga tashrifi mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Chegara masalalarining tinch yo'l bilan hal qilinishi nafaqat uch davlat o'rtasidagi siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga, balki iqtisodiy va madaniy integratsiyani chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi. Ushbu kelishuv Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning rivojlanishi, albatta, ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda, ammo mintaqaviy integratsiyaning kutgan samaralari hali to'liq shakllanmagan. Bu jarayonning kechikishiga bir nechta omillar sabab bo'lishi mumkin, jumladan, siyosiy va iqtisodiy farqlar, mintaqaviy xavfsizlik masalalari va resurslarni taqsimlashdagi o'zaro kelishmovchiliklar. Shunga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mavjud bo'lgan ijobiy niyatlar va hamkorlikka bo'lgan ehtiyoj, bu jarayonni davom ettirishga undaydi.

Kelgusi yillarda, mintqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish uchun bir qator muhim tashabbuslar rejalashtirilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi sammitining 2025-yil 3-4-aprel kunlari Samarqandda bo'lib o'tishi, mintaqaviy integratsiya jarayonining yangi bosqichiga o'tishga turtki bo'lishi mumkin. Ushbu sammit, faqatgina iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni emas, balki ta'lim, ilm-fan, texnologiya va madaniyat kabi sohalarda ham hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi bilan savdo-sotiqning kengayishi va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Biroq, ushbu sammit va kelgusi uchrashuvlar, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish uchun turli xil siyosiy, iqtisodiy va madaniy to'siqlarni yengish zarurligini ko'rsatadi. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi har bir yangi tashabbus mavjud muammolarni hal qilish va yagona iqtisodiy maydonni yaratishga bo'lgan intilishlar sifatida ko'rilishi lozim. Shuning uchun, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida to'liq va barqaror hamkorlikning shakllanishi uchun

yangi siyosiy yondashuvlar, iqtisodiy strategiyalar va mintaqaviy ishonchni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlar alohida ahamiyatga ega. Siyosiy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilsa, iqtisodiy integratsiya savdo va investitsiyalarni oshirishga imkon yaratmoqda. Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik esa xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytirib, do'stona aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Integratsiyaning ushbu yo'nalishlarining birgalikda rivojlanishi, mintaqaning barqaror o'sishiga zamin yaratib, Markaziy Osiyoning global miqyosdagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2009. - 641-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoniga ilova 5.2 - 122-bet.
3. Xalq so'zi 2021-10-sentyabr - 195-son -2-bet
4. Xalq so'zi 2021-7-avgust - 166-son -1-bet
5. Xalq so'zi 2021-7-avgust - 166-son -1-bet
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/13/central-asia/>
7. <https://daryo.uz/2024/03/28/yanvarfevral-oylarida-ozbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-savdo-hajmi-oshdi>
8. <https://xs.uz/ru/post/casia>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/28/border/>

O'ZBEKISTONDA MA'NAN YETUK DAVLAT XIZMATCHILARINI TAYYORLASHNING TAKOMILLASHISH JARAYONLARI

SEVINCH MUSTAFAEVA

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada davlatchilik tarixida kadrlar tayyorlashning milliy ildizlari hamda mamlakatimizda davlat xizmati sohasida kadrlar tayyorlash borasidagi yangi tizimning rivojlanish jarayonlari tavsiflangan. Shu bilan birga mamlakatimizda davlat xizmati kadrlari tizimining shakllanishi va ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish bilan bog'liq siyosiy, huquqiy-mehyoriy manbalar mazmuni ochib berilib, davlat xizmati kadrlarini yuksak mashuliyat va vatanparvarlikka asoslangan faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *kadr, kadrlar siyosati, davlat xizmati, islohot, davlat xizmatchisi, davlat boshqaruvi, rahbar kadr, davlat fuqarolik xizmati.*

Kirish. Davlat xizmatida faoliyat ko'rsatuvchi boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash tizimi masalasi ma'lum bir davlat, jamiyatda hukmronlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy tizim, qolaversa, amaldagi davlat xizmati sohasiga oid tizim tomonidan belgilab beriladi. Bu o'rinda faoliyat maqsadi ma'lum talablar asosida bajarilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar shaklida ifodalanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asoslab bergan yondashuvga ko'ra davlat xizmatidagi rahbarning o'z ishiga shaxsiy javobgarligi, davlat va jamiyat oldida mas'ulligining oshirilishi davlat kadrlar siyosatining asosiy talablari darajasiga ko'tarildi[1. 26-32 betlar]. Bunda davlat xizmati kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va zamonaviylik nuqtai nazaridan tizimi faoliyatini rivojlanish darajasini loyihalashtirish asosida faoliyat maqsadlarini belgilab olish, tashkiliy ish jarayonlarini puxta rejalashtirish, masalaga mutlaqo yangicha nazar bilan qarash asosiy talablardan hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Davlat xizmatida faoliyat ko'rsatayotgan boshqaruv kadrlari faoliyati va mamlakat kadrlari potentsialini boshqarishda ularning rolini oshirish yuzasidan quyidagi masalalar muhim hisoblanadi: davlat xizmati va lavozimlar reestrini belgilash to'g'risida qonun qabul qilish; kadrlar siyosatida davlat xizmati va tarmoqlar bo'yicha boshqaruv kadrlari ta'minoti tizimini modernizatsiyalash; davlat xizmati sohasida kadrlarni kasbiy, ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlari nuqtai nazaridan baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish; kadrlar siyosatida ko'zda tutilgan ma'naviy-

axloqiy talab va tamoyillarni rasmiy hujjat tarzida qabul qilish; turli daraja va sohada kadrlar tayyorlash muassasalarini ko'paytirish, o'quv dasturlari xilma-xilligini ta'minlash; kadrlar siyosatining integrativ va innovatsion funktsiyalari samaradorligini oshirish; boshqaruv tizimi uchun talab etiladigan kadrlarni muntazam tayyorlashning uch bosqichli, ya'ni, kollej, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi bosqichni qamrab oluvchi tizimini shakllantirish;; rahbar kadrlarning ilmfan, maorif, amaliy faoliyat sohalaridagi o'zgarishlarni, yutuqlarni e'tiborga olib yuksak taraqqiyot tendentsiyalariga integratsiyalanishiga yordam berish; kadrlar siyosatini amalga oshirishda davlat, jamiyat va shaxs maqsadlarining yuqori darajada o'zaro mos tushishiga erishish va boshqalar.

Davlat xizmati kadrlarini tanlashda ular o'zlari boshqarayotgan sohaları va vakolatlarini yaxshi bilishlariga yuksak darajada e'tibor qaratish rahbar kadrlar tanlashning bosh tamoyillaridan biri sanaladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi"[2. 53-bet.]. Davlat xizmatidagi kadrlarni tayyorlash xolatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, amaldagi oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari o'quv qo'llanmalari, davlat xizmatidagi axloqiylik muammolariga tegishli mavzular bilan yetarli darajada boyitilmagan. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida turli kasb-korlar o'rtasidagi aloqadorlikni tushunib yetishga yordamlashuvchi modellashtirish printsiplariga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning strategik maqsadlarini amalga oshirishda rahbar faoliyati va uning o'rni juda muhim ahamiyatga ega. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Odamlar orasida yashash, ularning dardiga quloq solish, alohida ehtiyojlari va qonuniy talablarini amalga oshirish uchun tezkor choralar ko'rish – har bir rahbarning asosiy vazifasi, deb hisoblayman"[3. 481-bet]. Shunday ekan bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda rahbar faoliyatining o'ziga xos xususiyati, tamoyil va talablari ish samaradorligi odamlar turmush-tarzidagi real va pozitiv o'zgarishlar negizida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalar, albatta, turli sohalarida yetishib chiqayotgan mutaxassislarni o'z sohasining yetuk kadrlari bo'lib shakllanishlariga bog'liq. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida turli sohalar bo'yicha

zarur mutaxassislar tayyorlash maqsadida yangi oliy ta'lim muassasalari va viloyatlarda ularning filiallari ochildi, ta'lim olishning maxsus sirtqi bosqichi faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish asosida oliy ta'limdan keyingi ikki bosqichli tizim asosida ilmiy darajalar berish tartibi amaliyotga joriy qilindi.

Mazkur jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilarini rivojlangan davlatlardagi turdosh akademiyalarda malakasi oshirilib, zamonaviy davlat xizmati kadrlarini tayyorlashda samarali boshqaruv kompetentsiyalarini shakllantirish va yuksaltirish asosidagi mexanizmi ishlab chiqildi va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Davlat xizmati kadrlari faoliyatini yanada takomillashishida bugungi kun talablaridan kelib chiqib, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimi amaliyotga joriy qilinib, ularni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha muhim tashkiliy-huquqiy hujjatlar asosidagi faoliyat yo'lga qo'yildi[4.].

Davlat xizmatlarini ko'rsatish yangicha asosda tashkil etilib, tashkilot va tuzilmalar bevosita joylarga, mahallalarga chiqib, aholining real muammolarini chuqur o'rganish, tasniflash asosidagi davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev topshirig'iga muvofiq, "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish hamda davlat xizmati kadrlarini muvaffaqiyatga erishishida "har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi shart"[5. 3-bet]ligi bugungi kunda davlat xizmati sohasidagi kadrlarning asosiy vazifasiga aylangan. Ayniqsa, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishidagi "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirishga kirishilgani, yurtimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun Oliy Majlis internet tarmog'ida "Mening fikrim" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etilgani va joylarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini tashkil etilishi o'ziga xos institut sifatida eng muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Natijada davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqoti tashkil etilib, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimi yo'lga qo'yildi va "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga ko'ra, davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimi shakllantirildi.

Olingan natijalar tahlili, taklifi va xulosa qismi. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida keng muhokama qilish, qonunlar loyihasini

ishlab chiqishda fikr va takliflarni quyidan, ya'ni, fuqarolardan olish tartibini samarali amalga oshirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar, ya'ni qonunlarni hayotga qanday tatbiq etilayotganini o'rganish maqsadida Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi[6. 27-bet]. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi. 2018-2020 yillarda joriy etilishiga qarab Davlat xizmatlari markazlarida "yagona darcha" tamoyili bo'yicha ko'rsatiladigan 58 ta davlat xizmatining ro'yxati tasdiqlandi[4.]. Davlat boshqaruvida 2017 yildan boshlab kadrlar masalasiga yondashuvda yangi davr boshlandi. Davlat hokimiyati organlarida kadrlar masalasi zamonaviy darajada tashkil qilinmoqda. Bu o'z navbatida mahalliy boshqaruvni zamon talablari darajasida olib borish imkonini bermoqda. Bugungi kunda bu raqamlar bir necha barobarga ko'paygan.

Davlat xizmatchisiga xos me'yorlar: odoblilik, xushfe'llik; davlat organiga u yoki bu xizmat uchun kelgan har bir fuqaroga nisbatan hurmat; o'zining ba'zi fuqaroviy huquqlarini ongli va ko'ngilli ravishda cheklash (masalan, davlat siyosatini ko'pchilik oldida tanqid qilish, hokimiyat organlari va davlat arboblarni muhokama qilish; u yoki bu masalani hal qilishda shaxsan o'z nomidan va'da berish va hokazolar); xizmat sirini saqlash va boshqalar.

Har bir xizmatchining o'z xizmat burchlariga sadoqati va bilim darajasi tashkilot rahbariyati tizimiga muvofiq ravishda shakllanadi. Ammo talabchanlikni ko'r-ko'rona oshirish, imkonsiz natijalarni talab qilish xizmatchining o'z burchiga salbiy munosabatlarini yuzaga keltiradi. Aksincha, talablar sust va unga nisbatan loqayd munosabatda bo'linsa, rahbarning bu kayfiyati xizmatchiga ham ta'sir ko'rsatib, intizom pasayadi, tashkilotga sadoqat, muhabbati so'nadi va kashfiyotchilik xislati butunlay yo'qoladi. Xizmatchining bilim darajasi turg'un holga kelib qoladi. Turg'unlik esa, tashkilot taraqqiyotining ashaddiy kushandasidir. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun rahbariyat o'sha tashkilot bilan aloqador jahonning eng ilg'or yutuqlarini xizmatchi tomonidan o'zlashtirilishini, uni tashkilotning kerakli tarmoqlari bo'ylab tarqalishini ta'minlashi talab etiladi. Buning uchun davlat xizmatchilarini tanlash va tayyorlash texnologiyasiga ega bo'lmog'i lozim. Bu texnologiya taxminan quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanishi kerak: tashabbuskorlik; rejalashtirish; qaror qabul qilish; tashkillashtirish; muvofiqlashtirish; ijro etish; boshqarish; nazorat qilish; baholash; taftish qilish. Ushbu tamoyillarga javob bera oladigan davlat xizmatchilari faoliyati va mehnat natijalari tez ko'zga tashlanadi va rivojlanish kuchaygan sari raqobatbardoshligi oshaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. 26-32 betlar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. 53-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston. 2017. 481-bet.
4. Qarang: www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni. Ma'rifat gazetasi. 24.01.2018 y., № 7.(9072) 3-bet
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T.: O'zbekiston, 2018, 27-bet.



MUNDARIJA

Muqaddima	3
Kirish so'zi	5
Tabrik so'zi	7
I QISM	
KARIMOV F. Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashning milliy va xalqaro huquqiy asoslari	9
СИРОЖОВ О. Минтақавий ҳамкорлик ҳамда яшил энергетика: истиқбол ва хавотирлар	17
ЮСУПОВ У. Современные геополитические процессы, оказывающие влияние на регион Центральной Азии	22
QOLQANOV N. O'zbekiston Respublikasining mintaqada tinchlik, do'stlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatishga qaratilgan islohotlari	25
НАЗИРОВ М. Марказий осиё - Хитой мулоқот форматининг институтлашуви нимадан дарак беради?.....	29
AKRAMOV J. Markaziy Osiyoda XIX asrda ingliz-rus raqobati.....	35
АКМАЛОВ Ш. Афганский вектор внешней политики стран Центральной Азии: реалии и ожидания	38
ХЎЖАНОВ Б. Янги Марказий Осиё: ўзаро ишонч ва аҳил қўшничилик	44
ТУРСУНОВ Б. Тожикистон Республикаси ва Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлиги масаласи	50
ТОЙИРМУРОДОВ Б. Тожикистон ва Ўзбекистон – икки дўст ва қардош халқларнинг тарихий алоқалари (1991-2016 йиллар)	58
НАБИЗОДА М. Тожикистон ва Ўзбекистон Республикалари ҳамкорлигининг янги даври	62
МУМИНЗОДА Н., ТУРСУНОВА З. Тожикистон ва Ўзбекистон халқлари дўстлиги ва ҳамкорлиги	67
КУДАЙБЕРДИЕВА Ж. Влияние финансовой грамотности на уровень финансовой безопасности: ключевые аспекты и практические рекомендации	74
ИСМАНОВА Н., ШАТАЙ-КЫЗЫ Н. Окуучуларды адептик жактан тарбиялоодогу гаджеттин таасири	81
МАМБЕТАЛИЕВА Г. Воспитание народными традициями – как самостоятельный принцип	87
ОМУРЗАКОВ С., ОМОШЕВ Т., СУЛАЙМАНОВА Д. Анализ функциональной эффективности и оценка макроэкономических показателей Кыргызской республики в условиях рыночных преобразований	94

OCHILOVA A. Markaziy Osiyo mamlakatlarining Germaniya bilan munosabatlaridagi asosiy manfaatlari	108
КИРГИЗБАЕВА Ф. Перспективы развития международного сотрудничества Узбекистана в сфере цифровизации (на примере Сингапура)	117
MURZAYEVA SH. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishi	125
ЮЛДАШЕВ А. Марказий Осиё давлатларининг замонавий халқаро муносабатлар тизимидаги аҳамиятининг айрим жihatлари	130
ATAMURATOVA M. Globallashuv sharoitida ma'naviy - axloqiy tarbiyada tasavvuf qadriyatlarining o'rni	136
AXUNOV M. O'zbekiston respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari	139
TO'XTAYEV B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarida parlament diplomatiyasining o'rni	145
ТОЛЕПОВ Б. Замонавий таълимда талабаларнинг медиаконтентдан фойдаланиш компетенциясини ривожлантириш долзарб муаммо	153
YOQUBOV H. Markaziy Osiyoda mafkuraviy islohotlarni rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning o'rni	157
ЗИНАТУЛЛАЕВ З. Ўзбек давлатчилиги тарихига оид баъзи асарларнинг тарихшунослик таҳлили	161
ALMARDANOV Q. Markaziy Osiyo davlatlarida maktabga qabul qilish tartibi va ularning o'ziga xosliklari	167
МАМАЗОВА З. Олий таълимда тарбияси оғир талабаларни конструктив ёндашув асосида тарбиялаш мазмуни	173
НОРМАЕВА М. Гендерное измерение внешней политики Узбекистана в контексте интеграции Центральной Азии	176
MIRZAYEV G. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligini rivojlantirish masalalari	183
G'AYBULLAYEV O. Markaziy Osiyo: jahon integratsiyasi yo'lidagi to'siq va imkoniyatlar	193
VAXOBOV D. Farg'ona vodiysi shaharlarida xizmat ko'rsatish va muhandislik tizimi (1917-1941 yy)	197
ABDULHAYEV M., XAKIMOV N. Markaziy Osiyo regional integratsiyanining geosiyosiy muvozanatga ta'siri: tashqi kuchlar ta'sirini kamaytirishdagi strategik rolinining tahlili	204
JUMANIYAZOVA M. Markaziy Osiyo integratsiyasida gender tenglik bila bog'liq masalalarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati	212
ИСРОЙЛОВ М. Минтақавий хавфсизлик – Ўзбекистон ташқи сиёсатидаги энг устувор вазифа	216
NURMATOV S. Ukrainadagi urushdan Markaziy Osiyo davlatlari foydalana oldimi?	223

КУДРАТОВ Б. Прогнозы изменения геополитической ситуации в Центральной Азии	229
ГЛАДКИХ С. Культурно-гуманитарное сотрудничество Узбекистана в Центральной Азии	237
ХАТАМОВ Т. Markaziy Osiyo xalqlari integratsiyasida tasavvuf maktablari merosining o'rne	243
АЗИМОВ Х. Геополитические аспекты развития транспортных коридоров в Центральной Азии	250
ХУЖАЕВ М. Марказий Осиё мамлакатларининг маданиятлараро интеграциясида Заки Валидийнинг илмий мероси	254
БЕРДИЕВ Б. Узбекистан – один из главных туристических центров Центральной Азии	258
МУХАММАДСОЛИЙЕВ С. Postsovet makonidagi siyosiy transformatsiyaning asosiy tendensiyalari	264
АВАЗОВА Ш. O'zbekiston Respublikasida davlat suvereniteti va xalq hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari	270
КХУРРАМОВ М. The Role of Uzbekistan-Kazakhstan Tandem in Shaping Central Asian Integration Initiatives	274
АЛИМАРДОНОВ О. Марказий Осиёда халқ дипломатиясини ривожлантириш истиқболлари (Қирғизистон мисолида)	283
ХАМРАКУЛОВА К. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik qarashlari taraqqiyotida Abdulla Avloniy ilmiy merosining ahamiyati	290
II QISM	
ДАЛИМІРЗАҲОВ Ж. Turkiya va Rossiyaning geosiyosiy manfaatlari kesimida hududlar tasnifi	294
НУРМУХАМАТОВ Ж. Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston-Xitoy munosabatlari	308
СОБИРЖОНОВА М. ШОС – уникальный механизм многостороннего сотрудничества	313
АБДУРАХМАНОВ Ш. Markaziy Osiyo integratsiyasi: mintaqada barqaror taraqqiyotni ta'minlash sari	319
ЭРГАШЕВА Ш. Глобальная интеграция стран Центральной Азии: проблемы и перспективы	326
МИРВОСИЛОВА М. O'zbekiston - Turkmaniston: mintaqaviy integratsiya yo'lida strategik hamkorlikning yangi bosqichi	333
БОБОМУРОДОВА М. The Impact of WTO Regulations on the National Banking System	338
ЕРГАШОВ З. Markaziy Osiyo intergatsiyasi: omillari, yo'nalishlari	342
МУСТАФАЕВА С. O'zbekistonda ma'nan yetuk davlat xizmatchilarini tayyorlashning takomillashish jarayonlari	351

**YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING
SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR JIHATLARI**

**xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari to'plami**
(Toshkent, 2025-yil 27-may)

**Mas'ul muharrir:
M.NAZIROV**

***To'plamda joy olgan maqola va tezislarda keltirilgan
ma'lumotlarga mualliflar mas'uldirlar.***

Bosishga ruxsat etildi: __.06.2025 y.
Bichimi 60x84 1/16. Shartli 22,5 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma № __
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi bosmaxonasi.
Toshkent sh., A.Qodiriy ko'ch., 11.